Ta’limning uzviyligi va uzluksizligi amalda bo’lgan bugungi kunda barcha sohalarni yangi sifat bosqichiga o’tishi zaruratga aylanmoqda. Xususan,“O‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish. unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta’minlash, O‘zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o‘zbek tilini o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o‘zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 5850-son Farmoniga muvofiq “2020-2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiya” sining tasdiqlanishi mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish; ta’lim tashkilotlarida davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish”[1]ga qaratilganligi soha mutaxassislari uchun kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalarni qo‘ydi.

O‘zbek tilshunosligida ta’lim rus va boshqa mahalliy tillarda olib boriladigan oliy ta'lim muassasalarida o‘zbek tili o‘quv fani bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar-darsliklar,o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar,uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Jumladan, Muhiddinova X. S., Salisheva Z. I., Po‘latova X. S., Asilova G.A., Shodmonov E., Hojiyev A., Rafiyev A. Nazarov K., Sayfullayev R., Ubaydullayeva M. . Qahhorova H., Muhammedova S., Mirazizov A,. R .Rasulov[2] va boshqalar tomonidan o‘zbek tilini rusiyzabon talabalarga o‘qitish muammolari atroflicha o‘rganilgan. Yuqorida

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining“ Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonidan..2020 yil, 21 oktabr.

[2] Muhiddinova X. S., Salisheva Z. I., Po'latova X. S. O'zbek tili. Oliy ta'lim muassasalari rus guruhlari uchun darslik. T. O'qituvchi. 2012 yil; Asilova G.A. O'zbek tili. Darslik. – T.: "Yosh kuch", 2018. – 436 b., Shodmonov E., Rafiyev A. va b. O'zbek tili. Darslik. Toshkent.: O'zbekiston, 1994; Hojiyev A., Muhitdinova X. O'zbekcha-ruscha-o'zbekcha rasmli lug'at. -Toshkent.: O'qituvchi, 2009; Rasulov R., Mirazizov A. O'zbek tili. O'rta mxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlari uchun o'quv qo'llanma. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2006; Rafiyev A. va boshqalar. Chet elliklar uchun o'zbek tili. I-qism.(CD kassetali) – Toshkent.: O'zbekiston , 2001;

keltirilgan manbalarda talabalarning belgilangan nutqiy ko‘nikmaga, leksik-grammatik bilimlarga ega bo‘lishlari, mustaqil ravishda o‘zbek tilida fikr yurita olish uchun til materiali va vositalaridan bakalavriat bosqichida va ungacha bo‘lgan davrda o‘rganilgan materiallar hajmida to‘g‘ri va mustaqil foydalana bilishlariga erishishlari lozimligi ko‘zda tutilgan.

Rusiyzabon talabalarda tilga bo’lgan qiziqishni rivojlantirishda ularning muayyan darajada dars jarayonlarida taqdim etilgan muloqotni faollashtiruvchi mashqlar orqali talabalarning lisoniy, lingvopsixologik, sotsiopsixologik va paralingvistik xususiyatlarini, umumdidaktik va o‘ziga xos metodik xususiyatlardan kelib chiqqan holda hosil qilinadigan nutqiy-kommunikativ, leksik-grammatik va yuksak ma'naviyatli barkamol shaxsni tarbiyalashda asosiy vosita sifatida qo‘llash mumkin. Shu sababli jismoniy tarbiya universiteti talabalarining egallayotgan ixtisosliklari nazarda tutilib, sport sohasida faol qo‘llaniladigan so‘z va soz birikmalarini amaliyotda foydalanishlariga katta o‘rin berilishi kutilganidek ishlay olish qobiliyatlarga ega bo‘lishi muhimdir.

Talabalarning o‘zbek tili bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lishining yana bir muhim sharti–ular tomonidan davlat tilida savodli ish yurita olish kompetensiyalarining muvaffaqiyatli o‘zlashtira olishiga erishish sanaladi. Talabalarning o‘zbek tili mashg‘ulotlari orqali erkin muloqotga kirishish va ish yuritish malakasini egallashda, til manbalari va vositalari, ixtisoslik leksikasini nutqda qo‘llay bilish uchun yetarli bilimlarni o‘zlashtirishi; muloqot orqali milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash kabi bugungi kunning dolzarb vazifalarini yoritishga qaratilishi bilan ahamiyatlidir.

O‘zbek tilidan rejalashtiriladigan amaliy mashg‘ulotlar faqat talabalarning amaliy bilimlarini nazorat qilish vositasi bo'lib qolmay, ayni vaqtda ularning bilim doirasini kengaytirish, nazariyani amaliyotga tatbiq etish, fikrni mustaqil bayon eta olish malakasini shakllantirish omili hamdir.

Til o‘rganishni rivojlantirish jarayonida quyidagi holatlar so‘z yuritilayotgan jarayonda samaradorlikka erishishni kafolatlaydi:

zamonaviy sharoitda talabalarning davlat tili bo‘yicha bilimlarini rivojlantirish ijtimoiy ahamiyatga ega masala ekaniga e'tiborni qaratish;

talabalarlarda ixtisoslikka oid terminologiya va leksikani grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllantira bilishni rivojlantirish mazmunini yorituvchi kognitiv-metodologik asoslarni ishlab chiqish;

talabalarda til o‘rganishni rivojlantirishga xizmat qiluvchi mavjud didaktik, texnik va texnologik imkoniyatlardan samarali foydalanish chora- tadbirlarini belgilash;

ularning davlat tilini o‘zlashtirishlarini rivojlantirishga yordam beruvchi innovatsion shakl, metod va vositalar tizimini asoslash;

o‘zbek tilini o‘qitish jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta'minlash;

talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy bilim, ularni amaliyotda samara qo‘llash ko‘nikma, malaka, tajribalardan amaliyotda maqsadli, oqilona foydalanishga imkon beruvchi shart-sharoitlarni yaratish.

Talabalarning til o‘rganish darajasi quyidagi metodlar yordamida baholanadi:

1) ta’lim-tarbiya jarayonida talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini bevosita o‘rganish metodlari (pedagogik kuzatish, retrospektiv ish hujjatlari va o‘quv hamda kasbiy faoliyat rejalarini o‘rganish, suhbat, tahlil, boshq.);

2) til bo‘yicha olingan bilimlarga egalik darajasini aniqlashga yordam beruvchi maxsus metodlar (diktant, insho, anketa, test va boshqalar).

Shuningdek, quyidagi ta’lim shakllari ham sportchi talabalarning til bo‘yicha olgan ko‘nikma, malaka va bilimlarga qay darajada egaliklarini o‘rganish va baholashda o‘ziga xos o‘rin tutadi: til o‘rganishga yo‘naltirilgan to‘garaklarda ishtirok etish, ilmiy anjumanlarda qatnashish, fan olimpiadasi, tanlovlar, ilmiy referat va maqolalar tayyorlash.

Til o‘rganish bo‘yicha qamrab olingan bilimlarni talabalar tomonidan puxta o‘zlashtirish muayyan vaqt va intellektual kuchni ham talab etadi. Ta’lim jarayonida quyidagi vazifalarni ijobiy hal qilish talabalarning til o‘rganish bo‘yicha bilimlairni yetarli darajada o‘zlashtirishlariga imkon beradi:

1. Tillarni o‘qitish jarayoniga innovatsion yondashish.
2. Mashg‘ulotlarni interfaol metodlar asosida tashkil qilish.
3. O‘qituvchi va talabalar o‘rtasida umumiy maqsadga erishishga bo‘lgan hamkorlikni yuzaga keltirish. Natija - murakkab muammolarni hal qilish va yaxshi natijalarga erishish uchun bilim, tajriba va resurslarni birlashtirishdir.
4. Fan asoslarini o‘zlashtirishda talabalarni mustaqil faoliyat yuritishi uchun sharoit yaratish.
5. Kichik guruhda ishlash orqali talabalarni ijodiy faollikka yo‘naltirish.
6. Talabalarning ijodiy faoliyatlarini rag‘batlantirish.
7. Talabalar egallangan bilimlarni nazorat qilish, uni mustahkamlab borish.

Talabalarning milliy ma'naviyatni egallashga yo‘naltirilgan topshiriqlar o‘zbek xalqining boy tarixi, milliy qadriyatlarini, urf-odatlari va ularni o‘zida aks ettirgan

qimmatli adabiy-badiiy meros bilan yaqindan tanishish, uni o‘qib o‘rganish, milliy an'analar, bayramlar, urf-odatlar asosida shakllangan milliy madaniyat, shuningdek, umuminsoniy qadriyatlarni singdirishga insonparvarlik nuqtayi nazaridan yondashib o‘rganishni ko‘zda tutish.

O‘zbek tili mashg‘ulotlarini tashkil etishga texnologik va innovatsion yondashuv mohiyatini yorituvchi quyidagi tayanch tushunchalarni o‘zlashtirishlari lozim: pedagogik texnologiya, ta’lim texnologiyasi, tizimli yondashuv, pedagogik tizim, texnologik yondashuv, an’anaviy yondashuv, texnologik yondashuv tamoyillari, innovatsion yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, tilni o‘zlashtirish darajasi, til o‘rganish ta’limini tashkil qilish jarayoni, ta’lim motivlari, o‘quv-bilish faoliyati, o‘quv-bilish faoliyatini boshqarish, , innovatsion ta’lim shakllari, ta’lim maqsadlari, ta’lim maqsadlarini aniqlashtirish,B.Blum taksonomiyasi (tasnifi), ta’lim strategiyalari, til o‘rganish jarayonini loyihalash, loyihalash bosqichlari o‘qitishning faol va interfaol metodlari, grafik organayzerlar, muammoli ta’lim, o‘quv keyslari, o‘quv vazifalari tizimi, kreativlik, talabalarning kreativ xarakterdagi o‘quv-bilish faoliyati, talabalar faoliyatini nazorat qilish, nazorat turlari, test, test turlari, ta’lim natijalarini refleksiv baholash, ta’lim natijasi, ta’lim natijasini baholash.

Xulosa qilib aytganda, kognitiv yondashuv asosida til o‘rgatish fanni shunchaki o‘quv predmeti emas, kasbiy faoliyatni tushunish vositasiga aylantirish, kreativ va ijodiy fikrlash, izlanishga undash, berilgan matnlarda soha bo‘yicha termin va atamalarni bilish, tanlagan sport turiga xos so‘z va jumlalar, iboralar va gaplarni hamda mustaqil lug‘at bilan ishlashga da’vat etishga tafakkur hamda nutqini o‘stirishga ko‘maklashadi.

REFERENCES:

1.Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta‘lim texnologiyalari.O‘quv metodik qo‘llanma. – T.: —Sano-standartl, 2015. – 208 b.

2.Интерфаол методлар: моҳияти ва қўлланилиши / Мет. қўлл. Тузув.: Д.Рўзиева, М.Усмонбоева, З.Ҳоликова. – Т.: ТДПУ нашриёти, 2013. – 18-б.

3. Tadjibayevna B. I. THE GENERAL-TYPICAL PLACES OF FOLK EPICS IN THE PLOT SYSTEM SPECIFIC FEATURES //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES. – 2022. – T. 3. – №. 04. – C. 70-73.

4.Tadjibayevna B. I. On the peculiarities of succession in Uzbek literature //International Journal on Orange Technologies.–2021.–T. 3.–№. 4.– C.310-314.

5.Tadjibayevna B. I. ADABIY VORISLIK AN’ANALARIDA IJODIY TAJDID (NOVATORLIK)-ADABIY JARAYONNING HARAKATLANTIRUVCHISI

(GENERATORI) //INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022. – 2023. – T. 2. – №. 23. – C. 128-132.
6.Baltayeva I. T. O 'ZBEK ADABIY-BADIIY PROGRESSI-ADABIY VORISLIK QONUNIYATINING YETAKCHI XUSUSIYATI// ILM FAN TARAQQIYOTI-DA ZAMONAVIY METODLARNING QO'LLANILISHI.–2023.–T.3.–№.10.–C. 103-106.
7.Tadjibayevna B. I. ADABIY VORISIYLIK HODISASINING O 'ZBEKISTONDA O 'RGANILISHI //Educational Research in Universal Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 41-44.
8.Boltayeva I. et al. XALQ DOSTONLARI UMUMIY-TIPIK O 'RINLARI SYUJET TIZIMIGA XOS XUSUSIYATLAR //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B3. – C. 909-912.
9.Tadjibayevna B. I. Fundamentals of formation of epic thinking //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – №. 4. – C. 534-537.
10.Baltayeva I. T. Drip the role and importance of tradition in literary succession (on the example of the work of abdullaqahhor) //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 3. – C. 1155-1161.
11.Shomurotov H.et al.KICHIK YOSHDAGI BOLALARNI FUTBOL BO'YICHA BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK GURUHLARIGA SARALAB OLISH //Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры. – 2022. – T. 2. – №. 7. – C. 27-30.
12. Boltayeva I. T. TEACHING HOMONYMOUS WORDS IN UZBEK LANGUAGE LESSONS //Моя профессиональная карьера. – 2021. – T. 1. – №. 23. – C. 152-156.
13. Tadjibayevna B. I. A tradition and artistic-aesthetic renewal-As a factor for the development of literature //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 9. – C. 635-640.
14. Балтаева И. Т. Применение эпитетов при изображении воинов-всадников в узбекских народных дастанах //Молодой ученый. – 2019. – №. 10. – C. 141-142.
15. Балтаева И. Т. Анализ архисемантических лексем" кураш"(на примере повести Тогая Мурода" Звёзды светят вечно") //Молодой ученый. – 2019. – №. 7. – C. 255-257.
16. Болтаева И. Т. Роль технических средств в обучении родному языку //Наука и образование сегодня. – 2018. – №. 10 (33). – C. 33-34.

17. Болтаева И. Т. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТОВ ДЛЯ РАЗВИТИЯ РЕЧИ СТУДЕНТОВ НА ЗАНЯТИЯХ ПО УЗБЕКСКОМУ ЯЗЫКУ //Preparing a competitive specialist as a purpose of modern education. – 2017. – С. 17-19.

ГРАЖДАНСКАЯ ИДЕНТИЧНОСТЬ МОЛОДЕЖИ КЫРГЫЗСТАНА В ФОРМИРОВАНИИ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ

Азамат Сайитович Калиев,
канд.полит.наук., доцент.
Почетный профессор Академии Туран г. Ташкент.
Начальник отдела науки, аспирантуры и докторантуры.
Международный университет им. К.Ш.Токтомаматова.
ORCID: 0009-0000-3846-2049
e-mail: azakaliev50@gmail.com

Шумкарбек Умарбекович Айтматов
магистр

АННОТАЦИЯ:

В этой научной статье описаны потенциал спорта в процессе формирования гражданской идентичности молодежи с опорой на возрастные особенности. Сегодня формирование гражданской идентичности является одним из важных аспектов в воспитательной задача педагогов. Это направление стало актуально из-за политических и социальных процессов, происходящих как в Кыргызстане, так и во все мире. Цель статьи найти наиболее эффективный способ формирования гражданской идентичности в сочетании со спортивной деятельностью. Задачами являются дать определение гражданской идентичности, описать структуру гражданской идентичности, особенности молодежного периода, последствия отсутствия физического воспитания в жизни подростка, привести пример наиболее эффективного способа формирования гражданской идентичности на фоне физического воспитания.

Ключевые слова: гражданская идентичность, молодежный возраст, физическое здоровье, кружковая деятельность, самореализация.

ABSTRACT:

This scientific article describes the potential of sports in the process of forming the civic identity of youth based on age characteristics. Today, the formation of civic identity is one of the important aspects in the educational task of teachers. This trend has become relevant due to the political and social processes taking place both in Kyrgyzstan and around the world. The purpose of the article is to find the most

effective way to form a civic identity in combination with sports activities. The objectives are to define civic identity, describe the structure of civic identity, the features of the youth period, the consequences of the lack of physical education in the life of a teenager, and give an example of the most effective way to form civic identity against the background of physical education.

Keywords: civic identity, youth age, physical health, community activities, self-realization.

Спорт играет значительную роль в формировании гражданской идентичности, сплачивая людей вокруг общих ценностей, символов и достижений. В Кыргызстане, где процесс становления национальной идентичности продолжается под влиянием исторических, социальных и политических факторов, спорт выступает важным инструментом общественной консолидации. Победы кыргызстанских спортсменов на международной арене вызывают гордость и патриотические чувства, способствуя укреплению национального самосознания. Кроме того, такие спортивные события, как Всемирные игры кочевников, не только популяризируют традиционные виды спорта, но и играют значимую роль в сохранении культурного наследия и укреплении гражданского единства. Государственные и общественные институты вносят весомый вклад в развитие спорта, формируя у молодёжи чувство сопричастности к своей стране.

Данное исследование посвящено анализу влияния спорта на гражданскую идентичность в Кыргызстане, с акцентом на роль спортивных достижений, массовых мероприятий и государственной политики в укреплении национального самосознания и сплочённости общества. В Стандарте министерства образовании указано о необходимости обеспечения формирования кыргызской гражданской идентичности обучающихся как составляющей их социальной идентичности, представляющей собой осознание индивидом принадлежности к общности граждан, способности, готовности и ответственности выполнения им своих гражданских обязанностей, пользования прав, активного участия в жизни страны, развития гражданского общества с учетом принятых в обществе правил и норм поведения.

Несмотря на позитивные аспекты, спорт в Кыргызстане сталкивается с рядом проблем, включая недостаточное финансирование, нехватку инфраструктуры и слабое развитие молодежного спорта. Эти факторы могут ограничивать потенциал спорта как инструмента формирования гражданской

идентичности. Стабильность и положительность социальной ситуации в стране зависит от многих факторов: политической и экономической ситуации, уровня качества жизни, культуры населения, уровня социальной поддержки и защиты населения со стороны государства как от внешних врагов, так и внутренних и т.д. Все они в своей совокупности влияют друг на друга в большей или меньшей степени и создают текущую социальную ситуацию. В нынешней напряженной политической ситуации Кыргызстан остро нуждается в воспитании подрастающего поколения, которое сможет отстаивать честь своей страны, обеспечивать ее защиту и не поддаваться на дезинформирующую политику стран запада, имеющая своей целью вызвать недоверие граждан КР к нынешней власти, разрушить общественное сознание путем отрицания общей истории народов и принижение заслуг советского Кыргызстана.

Развитие массового спорта в Кыргызстане способствует укреплению социальной сплоченности и вовлечению граждан в общественную жизнь. Государственные программы, направленные на популяризацию спорта, такие как строительство спортивных объектов и проведение республиканских соревнований, играют ключевую роль в этом процессе. Международные спортивные события и национальная гордость Выступления кыргызстанских спортсменов на международных соревнованиях, таких как Олимпийские игры, Азиатские игры и Чемпионаты мира, способствуют росту национального самосознания и гордости за страну. Спортивные победы объединяют граждан, вне зависимости от этнической или региональной принадлежности, и создают позитивный образ Кыргызстана на мировой арене.

Такую проблему исследовали многие эксперты в области педагогики, например, такие как С.Г. Чухин и Е.В. Чухина («Этнопедагогическая стратегия формирования гражданской идентичности»), и др. Однако разработка программ по формированию данного чувства в педагогике вызывает определенные трудности в связи с отсутствием достаточного по данному вопросу. Кроме того, понятие гражданской идентичности еще не успело закрепиться в понимании его со стороны педагогики. П.В. Григорьев дает такое определение: «Гражданская идентичность - это свободное отождествление человека с российской нацией (народом); включенность человека в общественную, культурную жизнь страны, осознание себя Кыргызстанином; ощущение причастности к прошлому, настоящему и будущему» [1]. Оно наиболее полно отражает тот смысл, который сочетается с реалиями сегодняшних дней.

Традиционные виды спорта как элемент национальной идентичности в Кыргызстане богат традиционными видами спорта, такими как кок-бору, алыш и ордо, которые играют важную роль в сохранении культурного наследия и укреплении национального самосознания. Эти виды спорта не только популяризируются внутри страны, но и становятся визитной карточкой Кыргызстана на международных этноспортивных соревнованиях.

Структура гражданской идентичности хорошо представлена у исследователя Т. Водолажской: «Структура гражданской идентичности включает в себя три основных элемента: когнитивный - знание о принадлежности к данной социальной общности, ценностный - наличие позитивного или негативного отношения к факту принадлежности н эмоциональный - принятие или непринятие гражданской общности в качестве группы членства, как результат действия двух первых» [2].

Наличие у человека гражданской идентичности можно увидеть, посмотрев на то, какие поступки он совершает. Гражданин, осознающий свою принадлежность к тому или иному обществу, понимающий, что те действия, которые он совершает в нем, так или иначе влияют на других членов данного общества, формируя, закрепляя или изменяя их отношение к какому-либо предмету окружающей их действительности, что, в свою очередь, может прямо или косвенно повлиять на него самого. Поэтому данный человек будет всегда стараться, чтобы его действия имели положительный характер влияния на все общество в настоящем и будущем.

Молодежный возраст является самым сложным и ответственным этапом в формировании личности, от которого зависит дальнейшее поведение и отношение человека к «своему» обществу, так как именно в нем подросток начинает отстаивать свои личные интересы, а не те интересы, которые до этого навязывались взрослыми из его окружения. Из-за чего он начинает вступать в конфликт со всеми, кто с ним не согласен. Только если стать или остаться для подростка тем значимым взрослым, к которому он будет прислушиваться, можно влиять на него. Редко, когда педагогу удается это сделать, поэтому основной его задачей в этот период становится сопровождение подростка на пути перехода идентичности с социокультурного уровня на личностный. Для этого педагогу необходимо:

- посредством организации сотрудничества с подростком, воспринимая его как человека, имеющего полное право на самостоятельную организацию своей жизнедеятельности и различных форм взаимодействия с другими

людьми, предлагать ему различные роли, которые может примерить на себя в обществе;

- поддерживать и демонстрировать образ гражданина Кыргызстана, имеющий не навязчивый характер.

Формирование гражданской идентичности среди молодежи Кыргызстана является многогранным процессом, также влияют разнообразные культурные, социальные и политические факторы. Понимание этих процессов важно для разработки эффективной молодежной политики и укрепления национального единства. Гражданская идентичность подразумевает осознание индивидом своей принадлежности к государству, принятие его ценностей и норм, а также активное участие в общественной жизни. В Кыргызстане молодежь в возрасте от 14 до 28 лет составляет около 30% населения, и ожидается, что в ближайшие 10 лет их численность вырастет на 18%, достигнув более 2 миллионов человек [5]

Поэтому формирование гражданской идентичности в этой группе имеет особое значение для будущего страны. Факторы, влияющие на формирование гражданской идентичности:

1. Образовательные учреждения: Школы и университеты играют ключевую роль в формировании гражданской идентичности, предоставляя знания о государстве, его истории и ценностях. Молодежь отмечает важность образовательных учреждений как институтов с относительно низким уровнем коррупции [6].

2. Государственные органы: несмотря на признание их значимости, молодежь выражает скептицизм в отношении государственных структур из-за высокого уровня коррупции и недостаточной прозрачности в принятии решений [7].

3. Религиозные институты: Мечети и медресе становятся важными центрами для молодежи, особенно в регионах, где они обращаются за советами и поддержкой, что свидетельствует о значимости религии в процессе социализации [8].

Семья остается основным носителем этнических традиций и ценностей, влияя на формирование идентичности молодежи. В южных регионах Кыргызстана наблюдается преобладание семейных, этнических и религиозных идентичностей, тогда как на севере большее значение придается абстрактным категориям, таким как "человек", и образованию [9].

Несмотря на позитивные тенденции, существуют определенные препятствия на пути формирования устойчивой гражданской идентичности:

- Коррупция: Молодежь часто сталкивается с проявлениями коррупции, особенно в образовательных учреждениях, что подрывает доверие к государственным институтам [10].
- Безработица и экономическая нестабильность: Отсутствие рабочих мест и экономические трудности заставляют молодых людей искать возможности за рубежом, что ослабляет их связь с родиной [11].

Отсутствие четкой государственной идеологии: Нечеткость в формулировании общенациональной идеи и ценностей приводит к разобщенности и затрудняет процесс консолидации общества. Для укрепления гражданской идентичности среди молодежи Кыргызстана необходимо:

1. Повышать прозрачность и эффективность работы государственных органов, снижая уровень коррупции и вовлекая молодежь в процессы принятия решений.

2. Укреплять роль образовательных учреждений в формировании гражданских ценностей, внедряя программы гражданского образования и поощряя критическое мышление.

3. Поддерживать и развивать молодежные инициативы и организации, способствующие активному участию молодых людей в общественной жизни и реализации их потенциала.

4. Создавать условия для экономической самореализации молодежи, обеспечивая доступ к качественному образованию и рынку труда.

Формирование устойчивой гражданской идентичности у молодежи Кыргызстана является залогом стабильного и процветающего будущего страны. Комплексный подход, учитывающий социальные, экономические и культурные аспекты, позволит создать условия для активного участия молодых граждан в развитии общества и укрепления национального единства.

Естественно физическое здоровье подростка также сильно влияет на формирование у него гражданской идентичности. Так, невозможность выплеснуть энергию молодого организма через адекватную физическую нагрузку, приводит к импульсивным и необдуманным поступкам, отсутствию понимания того, что требуется его организму, проблемам со здоровьем в более старшем возрасте, невозможности реализации себя в обществе тем, кем хотелось бы быть в профессии и другой повседневной деятельности. Все это усложняет процесс формирования гражданской идентичности и делает под-

ростка замкнутым, раздражительным, эгоистичным, не принимающим во внимание потребности других людей, сосредотачиваясь только на своих проблемах. Поэтому так важно воспитывать в подростке физическую культуру, развивать мотивацию к спорту, понимание то, как правильно нужно им заниматься, чтобы не навредить себе, как предотвращать или лечить те или иные спортивные травмы в случае их получения. Особую важность данное воспитание приобретает для молодежи, уже имеющих проблемы со здоровьем. В качестве наиболее эффективного способа формирования гражданской идентичности и воспитания физической культуры можно привести пример кружковой деятельности, направленная на формирование личности молодежи в условиях изучения национальной культуры, ознакомления с историей страны в сочетании с физическими нагрузками.

Также в клубе проводятся «...беседы, лекции по изучению различных видов исторического оружия; тренировки для поддержания или приобретения необходимой физической формы, изучение и практическую отработку способов нанесения ударов и приемов, в том числе и проведение соревновательных элементов между учениками в виде спаррингов, дуэлей, турниров; проведение мини-игр с осознанным выбором Роли (игрового персонажа), проводимых как в помещении, так и на открытом воздухе, на специальных площадках – полигонах [3]. Сами подростки готовятся и потом на занятиях рассказывают о днях воинской славы Кыргызстане, великих полководцах и героях военных действий, сами готовятся к участию в муниципальных и региональных военно--спортивных конкурсах.» и многое другое [4].

Для молодежи с заболеваниями необходимо находить индивидуальный подход, позволяющий им наиболее благополучно развивать или поддерживать свое физическое состояние. Так, с помощью кружковой деятельности подросток, познавая историю и культуру своей страны будет укреплять свое здоровье, чтобы в будущем использовать его для дальнейшей самореализации в обществе в какой-либо профессии, что, в свою очередь, будет развивать и само общество в целом.

Заключение.

Спорт является важным механизмом формирования гражданской идентичности в Кыргызстане, способствуя национальному единству, социальной интеграции и укреплению культурного наследия. Таким образом, чтобы сформировать гражданскую идентичность в молодежном возрасте необходимо опираться на особенности конкретного подростка, давать ему не

только знания, касающиеся его страны и окружающей действительности, но и заниматься его физическим развитием и умению понимать, что нужно его организму для успешной реализации себя в обществе. Для дальнейшего развития его роли в этом процессе необходимо усиление государственной поддержки, развитие спортивной инфраструктуры и популяризация как массового, так и традиционного спорта.

REFERENCES

1. Григорьев, П.В. Формирование гражданской идентичности современного школьника // Интернет конференция «Перспектива гражданского патриотического воспитания в системе образования» - Режим доступа: http://proektpatriot2.jimdo.com/гражданская идентичность/, свободный (дата обращения: 29.04.2023). - Загл. с экрана.
2. Водолажская, Т.М. Идентичность гражданская [Электронный ресурс]. - Режим доступа: URL: https://cyberleninka.ru/article/n/identichnost-grazhdanskaya/viewer (дата обращения: 16.04.2023). - Загл. с экрана.
3. Минюровой, С.А. Воспитание как стратегический национальный приоритет: международный научнообразовательный форум: материалы конференции / под редакцией [и др.]. - Екатеринбург: УрГПУ, 2021 - Часть 3 - 2021. - 494 с.
4. Шакурова, М. В. Формирование социокультурной идентичности личности: учебное пособие / М. В. Шакурова. - Воронеж: ВГПУ, 2017. - 208 с.
5. https://reforma.kg/media/post/postpdf/2018-05-25-0452184472.pdf
6. https://reforma.kg/media/post/postpdf/2018-05-25-0452184472.pdf
7. https://reforma.kg/media/post/postpdf/2018-05-25-0452184472.pdf
8. https://center.kg/article/207
9. ttps://reforma.kg/media/post/postpdf/2018-05-25-0452184472.pdf
10. ttps://reforma.kg/media/post/postpdf/2018-05-25-0452184472.pdf
11. https://center.kg/article/207

O‘ZBEK, NEMIS VA INGLIZ TILLARINI QIYOSIY O‘RGANISH MASALALARIGA DOIR

Abdunazar Rahmonqulov
f.f.n.,dotsent,
Abduhamid Sharipov, Gulnoza Azimova,
Xo‘jand davlat universiteti.
Tojikiston Respublikasi.

ANNOTATSIYA:

Ona tili darslarini interfaol usullardan foydalangan holda tash-kil etish zamon talabidir. O‘quvchilarni faollashtirish orqali ularda o‘z fikr mulo-hazalarini shakllantirish va yuzaga chiqarish, o‘zgalar hukmiga havola etish zaru-riyati, imkoniyati pay-do qilinadi. Maqolada O‘zbek tili va nemis, ingliz tillarini qiyosiy o‘rganish masalalariga doir fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: qiyosiy o‘rganish, interfaol usul, shakl va mazmun uyg‘unligi, lingvistik salohiyat.

ABSTRACT:

Organizing native language lessons using interactive methods is a requi-rement of the time. By activating students, they have the need and opportunity to form and express their own opinions, to submit to the judgment of others. The arti-cle presents ideas on the issues of comparative study of the Uzbek and Anglo German languages.

Keywords: comparative study, interactive method, harmony of form and content, linguistic potential.

Ona tili o‘qitish, ona tili darslarini interfaol usullardan foydalangan holda tash-kil etish zamon talabidir. O‘quvchilarni faollashtirish orqali ularda o‘z fikru mulo-hazalarini shakllantirish va yuzaga chiqarish, o‘zgalar hukmiga havola etish zaruri-yati, imkoniyati paydo qilinadi. Bu albatta, bolalarni umumiy rivojlantirib, tafakkur yuritish, savol-javoblarda ishtirok etishga undaydi. Zero, fikr yuritish orqali tafak-kurni o‘stirish ona tili o‘qitishning o‘ziga xos prinsiplaridan biridir. Umuman ol-ganda faollik va faoliyat tashqi olamni va o‘z-o‘zlikni bilish va o‘zgartish ehtiyoji inson ongi va tafakkuri bilan boshqarilib o‘z-shaxsiyatini tako-millashtirib boradi-gan jarayondir. Tilni tizimli o‘rganishga asoslangan ona tili o‘qitish metodikasi ta-labalarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatish, ularning lug‘at boyligini oshirish,

o‘zgalar nutqini tinglab va anglay olish, o‘z fikrini aniq, ixcham ifodalash, so‘z tanlash va uni o‘rinli qo‘llash, og‘zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish, fikr ifodalashda shakl va mazmun uyg‘un-ligiga, mantiqiy mukammallikka erish-ish, «talaba - ta’lim -o‘qituvchi» munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etish - bu omillar ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berishga xizmat qiladi. Albatta,mantiqan shundayki, o‘quvchi faoliyatini kuchaytirish uchun o‘qituvchi o‘zi faollashishi zarur bo‘ladi. Bu fikr ona tili o‘qituvchilariga ham to‘la taalluqli bo‘lib o‘qituvchilarning o‘zi o‘quvchilar saviyasini hisobga olgan holda ta’lim texnologiyasini takomillashtirishi lozim ekanligini taqozo etadi[3]. Xalq ta’limi sohasidagi xalqaro ilmiy-amaliy tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rna-tish, o‘quvchi yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini, eng avvalo yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish hukumatimizning doimiy e’tiboridadir. Shu borada xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS va boshqa boshqa dasturloyihalarda ishtirok etishga kirishildi. Bu jarayon ona tili va adabiyot o‘qi-tish bo‘yicha ijodiy topshiriqlar, ko‘rgazmali va tarqatmali vositalarni takomillashtirishni taqozo etmoqda. O‘quvchilar tafakkurini o‘stirishga ularning nutqini o‘stirish orqali erishiladi. Nutq nafaqat tafakkur mahsuli, balki uni ifodalash, shakl-lantirish, rivojlantirish vositasi va manbai hamdir. Nutqqacha bo‘lgan birinchi zina sifatida prof. Sh.Safarov tasavvurni rivojlantirish nazarda tutilishini qayd etadi[4]. Olim tashqi nutqning vujudga kelishini izohlar ekan uni “ tasavvurga lisoniy libos berish” deb ta’riflaydi. Nutq albatta til birliklarining sintaksisda voqelanishi mahsulidir. Professor A.Berdialiyev sintaksisni tilning joni, harakatga keltiruvchi, nut-qqa olib chiquvchi sohasi deb qaraydi. Til birliklari ma’no xususiyatlari nutqda vo-qelanadi, aniq tus oladi. Har bir lisoniy shaxs voqeilikda kechuvchi hodisalarni o‘zicha idrok etadi, “ularning ma’lum makon va zamon hududida tasavvur qilib, hosil bo‘lgan mantiqiy tasavvurga lisoniy libos beradi.”(Sh.Safarov...) Ana shu lisoniy libos berish yo‘llarini o‘rgatishda o‘quvchining idrok etishi kamol topadi deb ta’kidlaydi metodist olima Sh.Jamoldinovna. Hozirgi kunda o‘qitish metodlari nihoyatda rang-barang bo‘lib o‘quvchi-larni fikrlashga, tasavvur etishga, nutq ijod etishga qaratilgandir. Shu maqsadda ijodiy izlanishni taqozo etuvchi muammoli ta’lim metodlariga murojaat qilinadi. Muammoli ta’limning zaif tomonlarini bartaraf etishda topshiriqli va reproduktiv mashklar majmuasi yordamga keladi. Bu muhim

[3] Тўхлиев Б., Шамсиева М., Зиядова Т. Ўзбек тили ўкитиш методикаси (Ўкув кўлланма), Тошкент : “Янги аср авлоди” 2006.
[4] Сафаров Ш. Семантика. Тошкент : Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013

omilni amalga oshirish jarayonida o‘quvchi tafakkuri va xotirasi hisobga olinadi.. Topshiriqli ta’lim asosini o‘quv topshiriqlari tashkil etadi.

O‘quv topshiriqlari o‘quv materialining o‘zgartirilgan shaklda berilgan ko‘rinishi bo‘lib o‘quvchining materialni ongli va faol o‘zlashtirishini ta’minlaydi. Shu sababli topshiriqlar puxta o‘ylashni, man-tiqiy ichillika amal qilishni talab etadi.Hozirgi davrda ona tili o‘qi-tuvchilarining kasbiy tayyorgarligini zamon talablaridarajasiga yetkazish, lingvistik salohiyatini shakllantirish, matniy yondashuv asosida o‘quvchilarga matn tuzi-lishini o‘rganishga ehtiyoj uy-g‘otish, matniy xatolarga yo‘l qo‘ymaslikka e’tibor berish, ularning asosiy sababi tegishli bilimlar berilmayotganligini his etgan holda tahlil mundarijasiga kiritish sari undashi lozim. Hozirgi davrda ona tili o‘qituvchi-larining kasbiy tayyorgarligini zamon talablari darajasiga yetkazish, lingvistik salohiyatni shakllantirish, matniy yondashuv asosida o‘quvchilarga matn tuzilishini o‘rga-nishga ishtiyoq uyg‘otish, matniy xatolarga e’tibor berish, ularning bosh sa-babi tegishli bilimlar berilmayotganligini his etgan holda tahlil mundarijasiga kiri-tish sari undashi lozim.[5]

O‘rta maktab uchun mo‘ljallangan darsliklarimizda o‘quvchilar nutqini o‘sti-rishga qaratilgan o‘tilgan mavzuga doir so‘z va iboralardan foydalanib gap tuzing, matn yarating kabi topshiriqlarga namuna berish va shu namuna asosida topshiriq ijrosini talab etish bizning fikrimizcha yetarli emas va bunday holat ko‘pincha o‘quvchilarimizning mavhum holatda qiynalib qolishiga olib keladi. Fikrimizcha, bunga qo‘shimcha tarzda topshiriqni bajarish tartibi, modelini ham berish maqsadli va foydali bo‘ladi. Garchi bizning nutq tuzishimiz (govorenie) ideya g‘oyadan boshlanib shunga mos til birliklarini tanlash bilan davom etsa-da,bizmashg‘ulotlar jarayonida nutqni grammatik shakllantirishga ham to‘la e’tibor qaratamiz. Zero, grammatik me’yorlarni bilish, umuman, nutqda fikrni eng yuqori saviyada bayon etish imkonini vujudga keltirishini metodist olimlar ta’kidlaydilar.Gapning mazmunini shakllantiruvchi asosiy birliklar predikativ birliklar ekan grammatik tahlilda ham avval bosh bo‘laklarni aniqlab olish, aniqrog‘i avval kesimni aniqlash, so‘ngra kesimdan so‘roq berish yo‘li bilan egani va yana so‘roq berish yo‘li bilan ishtirok eta-yotgan ikkinchi darajali bo‘laklarni aniqlab borilishi to‘g‘ri tartib ekanini ta’kidlash joiz. O‘zbek va nemis tilida berilgan misol-larni qiyoslash, ular-da ega va kesim joylashuvini kuzatib bir-biriga muvofiq kelguvchi va nomuvofiq

[5] Мавлонова К. Она тили дарсларида матн тузилишини ўргатиш методикаси (ўзбек тили) педагогика фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Тошкент – 2023. 17-с.

tomonlarni qiyosan anglash imkonini beradi. O‘zbek tilida gapning to‘g‘ri so‘z tartibi qoidasi bo‘yicha avval ega va ega guruhi keladi va ikkinchi darajali bo‘laklardan so‘ng oxirida kesim keladi. Ikkinchi holatda avval hol bo‘lak keyin ega kelishi ham mumkindir. Nemis tili gaplarida to‘g‘ri tartibi qoidasi bo‘yicha avval ega, keyin kesim, keyin boshqa ikkinchi darajali bo‘laklar; teskari so‘z tartibi bo‘yicha esa avval hol bo‘lak, keyin kesim, bevosita undan so‘ng ega, keyin esa boshqa ikkinchi darajali bo‘laklar joylashadi. Bu qoida nemis tilida gap tuzilishi-ning asosiy xususiyatlaridan biridir va bunga nemis tilida nutq jarayonida qat’iy rioya qilinadi. O‘zbek tili sintaksis qoidalarida bunday qat’iylik kuzatilmaydi. Yuqoridagi fikrlar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, turli til oilalariga mansub bo‘lgan tillarning gap qurilishida, uning gap bo‘laklari joylashish tartibida muayyan tipologik o‘xshashlikbilan birga keskin farqli holatlar ham kuzatiladi. Bu kabi misollarni qayta-qayta mashq qilish orqali gap tuzish malakasi mustahkamlanadi. Misol uchun: Berilgan so‘zlardan gap tuzing:
1. 1-sentyabrda, yangi, o‘quv yili, boshlanmoq, doimgidek.

1. Yangi o‘quv yili doimgidek 1-sentyabrda boshlanadi. Bu to‘g‘ri tartibda gap
qurish bo‘lib gap bo‘laklari joylashish modeli quyidagi tartibda:

/Aniqlovchi/ + ega + (tarz) holi + (payt) holi + kesim.

Ikkinchi bir tarzda

1-sentyabrda doimgidek yangi o‘quv yili boshlanadi.

Modeli: Hol (payt) + hol (tarz) + aniqlovchi + ega + kesim .

Uchinchi ko‘rinish

Doimgidek, yangi o‘quv yili 1- sentyabrda boshlanadi.

To‘rtinchi holat

Doimgidek, 1-sentyabrda yangi o‘quv yili boshlanadi.

Misollardan ko‘rinadiki, o‘zbek tili gap qurilishida so‘zlar (gap bo‘laklari) tar-tibi erkin faqat kesimninggina o‘rni qat’iybo‘lib gapning oxirida keladi. Kesim Fitrat tomonidan tilshunosligimizga kiritilgan atama bo‘lib gapni kesadi, shakllantirib bo‘lib ke-yingi gapdan ajratib turadi. /She’riyatdagi va og‘zaki so‘zlashuv uslubidagiinversion holatlar bundan mustasno/.[6]

G‘arb tillarida, xususan, nemis tilida esa mutaxassislar qayd etishicha so‘zlar tartibi nisbatan qat’iy. Bu holatni amaliy jihatdan o‘rganish va o‘zlashtirish uchun nemis va inglis tilida ushbu gap muqobilini kuzatamiz. Ta’kidlash

[6] Курбонова Муҳаббат. “Фитрат ва ўзбек тилшунослиги” Ўкув қўлланма. Тошкент, “Университет” 1997

kerakki. nemis tilida ham gap qurilishi yagona bir qolipda emas, balki ikki tarzda amalga oshadi. Birinchisi gap qurilishida to‘g‘ri so‘z tartibi, ikkinchisi esa -teskari so‘z tartibi deyiladi.

To‘g‘ri so‘z tartibi bo‘yicha :

Gestern bekam ich einen Brief. Fröhlich laufen die kinder im Park.

(ингл.) I received an email yesterday. In spring, children run in the park.

Ko‘rinadiki, nemis tilida kesim hamisha, har qanday gap qurilishida ham qat’- iyan ikkinchi o‘rinda keladi. Teskari so‘z tartibidagi gap qurilishida ega gapnning oxirida kelishi mumkin:

Das neuer Schuljahr begint wie immer am 1. September.

(Aniqlovchi) + ega + kesim + tarz holi + payt holi.

Gapning teskari so’z tartibi bo’yicha nemis tilida avval ikkinchi darajali bo’-lakning bir xili, keyin kesim.undan so‘ng ega, undan so‘ng boshqa ikkinchi darajali bo‘laklar ishtirok:

Am 1. September begint wie immer das neues Schuljahr.

Bu gapda avval payt holi + kesim + tarz holi + aniqlovchi + ega.

(ингл.) As usual, the new school year begins in September.

Ko‘rinadiki, nemis tilida kesim hamisha, har qanday gap qurilishida ham qat’iyan ikkinchi o‘rinda keladi. Teskari so‘z tartibida gap qurilishida ega gapning oxirida kelyapti. Yana bir gap tuzish topshirig‘ini kuzatamiz:

O‘quvchilar gullarni o‘z o‘qituvchilariga sovg‘a qilmoqda.

Ega + to‘ldiruvchi + aniqlovchi + to‘ldiruvchi + kesim .

Nemis tilida esa:

Die Schüler schenken ihren Lehrern Blumen

Ega + kesim + aniqlovchi + to‘ldiruvchi + to‘ldiruvchi.

(ингл.) The students presented flowers to their teachers.

Ikki to‘ldiruvchi ketma-ket kelganida oldin akkuzativ /tushum kelishigi/ dagi keyin dativ /jo‘nalish kelishigi/dagi to‘ldiruvchi joylashishi mumkin. Ba’zan oldin dativdagi keyin akkuzativdagi to‘ldiruvchi kelishi ham mumkin. Shuni aytib o’tish joizki, o’z-lik olmoshi nemis tilida har bir shaxs uchun alohida ko‘rinishda bo‘ladi: 1-shaxsniki - mein; 2- shaxsniki - dein; 3 -shaxsniki - sein;1- shaxs ko‘pliginiki-unser; 2-shaxs ko‘p. euer; 3-shaxs ko‘pligi ihr.

Yana boshqa bir berilgan so‘zlardan gap tuzish mashqini kuzatamiz: Barcha o‘quvchilar va o‘qituvchilar juda xursand // aniqlovchi + ega + ega +kesim

Alle Schüller und Lehrer freuen sich sehr //aniqlovchi + ega + ega + kesim guruhi

(ингл.) All the teachers and students were happy.

Uyushgan egalar har ikkala tilda ham bir xil pozisiyada qo‘llanilyapti. O‘zbek va nemis tilida ushbu misollarni qiyoslash, o‘quvchilarda jumla ichida so‘zlar, gap bo‘laklari tartibi joylashuvi, xususan ega va kesim joylashuvini kuzatib bir-biriga muvofiq kelguvchi va nomuvofiq tomonlarni qiyosan anglash imkonini beradi. O‘zbek tilida to‘g‘ri tartib avval ega va ega guruhi keladi va ikkinchi darajali bo‘laklardan so‘ng oxirida kesim keladi.

Nemis tilida esa to‘g‘ri tartibda avval ega, keyin kesim, keyin boshqa bo‘laklar; teskari tartibda esa avval biror hol, keyin kesim, undan so‘ng boshqa bo‘laklar, oxirida ega joylashadi.[7] Agar avvalda ega kelsa ikkinchi joyni kesim egallaydi. Agar teskari tartibdagi gap qurilishi bo‘yicha avval biror bo‘lak (ko‘pincha payt holi kelgan taqdirda ham) ikkinchi joyni kesim egal-laydi. Ammo kesim doimo ikkinchi o‘rinda keladi (so‘roq gapdan tashqari). Kesim oldin kelsa u so‘roq gapga aylanadi. So‘roq olmoshlari (kim? nima? qaysi? qachon? qaer?/ wer, was, wie, wen, wo,) so‘zlar qatnashgan paytda ham ikkinchi o‘rinda kesim qo‘llanadi, keyin ega va boshqa bo‘laklar keltiriladi. Eganing o‘rinlashishi noturg‘un bo‘lib boshqa omillarga bog‘liq holda turli tarzda kechadi.

Ko‘rinadiki bu boshqa-boshqa oilalarga mansub tillarda ham gap qurilishida so‘zlar joylashish tartibi bilan bog‘liq ba’zi umumiy o‘xshashlik jihatlar ham, o‘ziga xos farqli holatlar kuzatiladi. Bu kabi misollarni qayta-qayta mashq qilish orqali gap tuzish malakasi mustahkamlanadi, o‘quvchilar o‘zga til materialini tarjima qilish va tushunish imkoniga ega bo‘la boradi.

Birikmali ifodalarni so‘zma-so‘z tarjima qilinmaydi, balki o‘z tildagi tarjimasini eslab qolish kerak bo‘ladi. Qarang:

Man muss tun - qilish kerak / Man darf tun - qilish mumkin

Was muss man tun? -nima qilish kerak ? / Was darf man tun ? - nimani qilish mumkin?

Was muss man nicht ? -nimani qilish kerak emas ? / Was darf man nicht tun ? - nimani qilish mumkin emas?

Maktab tartib intizomiga taalluqli gaplarni tarjimasi bilan solishtirib ko‘ramiz, so‘zlar ma’nosi va joylashish tartibiga e’tibor beramiz:

1. Die Kinder dürfen nicht in der Deutschstunde russisch sprechen.
2. Die Kinder dürfen nicht in der Stunde zu laut oder leise sprechen.
3. Die Kinder dürfen nicht zu spat in die Schule kommen.
4. Die Kinder dürfen nicht ihre Schulsachen zu Hause vergessen.

[7] Камянова Т. Практический курс DEUTSCH немецкого языка / Grammatik 1000 übungen. „Дом славянской книги», Москва 2016.

(ингл.)

1. students are not allowed to speak Russian in a German lesson.
2. children have no right to speak loudly or quietly.
3. students have no right to be late for school.
4. students should not forget their school supplies.

1. Bolalarga nemis tili darsida ruscha gapirishga ruxsat etilmaydi.
2. Bolalarga dars paytida baland yoki ohista gapirishga ruxsat yo‘q.
3. Bolalarga darsga kechikib kelishga ruxsat yo‘q.
4. Bolalar dars qurollarini unutib uyda qoldirishlari mumkin emas.

Nemis tilida gap qurilishida so‘z tartibi (gap bo‘laklari joylashishi) boshqa tillarga nisbatan qat’iy xarakterga ega ekanligi qayd etildi yuqorida. Bu, albatta, bosh gap bo‘laklaridan tortib hamma ikkinchi darajali bo‘laklar joylashuviga ham taalluqli. Gapda ikki to‘ldiruvchi bir paytda kelganda avval dativ (jo‘nalish) kelishigidagisi, keyin esa akkuzativ (tushum) dagi to‘ldiruvchi qo‘llanishi ham, ba’zan esa avval akkuzativdagi keyin dativdagi to‘ldiruvchi qo‘llana oladi.

Zumbeispiel: / Misol:

Sie zeigen mir den Weg. (инглл) She showed me way. U (j.r.) menga yo‘l/ni/ ko‘rsatdi.

Er sagte uns sainen Namen. (инглл.) He told us his name. U bizga o‘z nomini aytdi.

Akkuzativdagi to‘ldiruvchi aniqlovchi bilan kengayishi ham mumkin:

Sie zaigten uns iher neues Haus .(инглл) they showed us their new home. Ular bizga yangi uyini ko‘rsatdi.

Akkuzativdagi (tushum kelishigidagi) vositasiz to‘ldiruvchi o‘rnida o‘rin holi ke-lishi ham mumkin. Bu holatda so‘zma-so‘z tarjima va (erkin) mazmuniy tarjima solishtirilishi maqsadga muvofiq keladi.

Er suchte seinen Weg im Leben. He chose his own way of life. U o‘z hayot yo‘lini qidirdi.

Ich legte meine Hände auf den Ticsch. (инглл.) I put my hands on the table. Men qo‘llarimni stol ustiga qo‘ydim.

Er legte das Dokument vor mir. (иггл.) He put the document in front oft he door. U hujjatni mening oldimga qo‘ydi.

Sie legte sich in das Bett. (инглл.) she lay down on the bed. she way going to bed. (So‘zma so’z): U o‘zini to‘shakka tashladi.

Erkin tarjimada: U uyquga yotdi.

Noaniq artiklda qo‘llanayotgan to‘ldiruvchi doim keyinda joylashadi. Endi ikkinchi darajali bo‘laklardan biri hollarning o‘t-gan zamondagi gaplarda va hozirgi zamonni anglatuvchi gaplardagi tartiblashuvini kuzatamiz: Presen (hozirgi zamon) Perfekt (o‘tgan zamon)

Ich fahre mit Ruden nach Berlin. / Ich habe mit Ruden nach Berlin gefahren./ Ich fahre mit Vater zum Markt. / Ich bin mit vater zum Markt gefahren / Ich gehe mit meiner Freundin in die Schule. / Ich bin mit meiner Freundin in die Schule gegangen./ Bu misollardan ko‘rinadiki nemis tilida oldin tarz holi, keyin o‘rin holi joy-lashadi. Qo‘shma gaplarda so‘zlar tartibi o‘ziga xos ketma-ketlikda yanada murak-kablashadi.

Er kamm zu Arbeit, obwahl er krank war.

(инrл.) He went to work even though he was sick.

Es ging ihm schlecht, trotzdem erledigte er seine Arbeit.

(инrл.)He felt bad, but he was still doing his job.

Birinchi misolimizda ergash gap obwahl bog‘lovchisi yordamida birikkan. Bunday holatlarda bog‘lovchidan keyin darhol ega keladi va kesim gap oxiriga joylashadi. Nega ikkinchi gap misolimizda bu tartibga amal qilinmadi? Garchandki ikkinchi gap qurilishida ham xatolik yo‘q, gap qurilishi to‘g‘ri. Bu hol shu sabab bilan izohlanadiki, ikkinchi gap misolimizdagi trotzdem so‘zi bog‘lovchi emas, ravishdir. U bu o‘rinda hol vazifasida kelmoqdadir (omonimiya). Sodda gaplar qaysi bog‘lovchi so‘z bilan kela-yotganiga qarab, so‘zlar tartibi ham o‘zgarishi mumkin.

Ich gehe in die Schulle, trotzdam ich fiebe haben.

Garchi mening istimam bor bo‘lsa-da, men maktabga boraman.

Obwohl ich habe fiebe, ich gehe in die Schulle.

/Men/Istimam bo‘lishiga qaramasdan, men maktabga boraman.

Shunday qilib gap semantik, grammatik qurilishini o‘rganish o‘quvchilar nutqini o‘stirishga xizmat qiladi. Filxol, so‘zlarning ma’nosini matnda olib o‘rganish ularni xotiraga mustahkam o‘rinlatish, eslab qolish imkoniyatlarini kengaytiradi. O‘z ona tilisida so‘zlarni bog‘lab gap qura olgan, murakkab mazmunlarni shakllantirib, bera olgan kishi, o‘zga tilda ham shu ishni amalga oshirishni uddalashga o‘rgana oladi.

REFERENCES

1. Anne Busche, Szilvie Szite, Begegnungen. Integriertes Kurs - und Arbeitsbuch Für Fremdsprache.

2. Kamyanova T. Prakticheskiy kurs DEUTSCH nemeskogo yazika/ Grammatik 1000 übungen. Literarische Texte. Neue Rechtschreibung. Grammatika 1000 uprajneniy.Literaturnie teksti. Novie pravila pravopisaniya.
Izdaniya klyuchami. Izdanie 9-e, stereotipnoe OOO «Dom slavyanskoy knigi», Moskva 2016.
3. Mavlonova K. Ona tili darslarida matn tuzilishini o‘rgatish metodikasi (o‘zbek tili) pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertasiyasi avtoreferati. Toshkent - 2023, 17-s.
4.To‘xliev B., Shamsieva M., Ziyadova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi (o‘quv qo‘llanma),Toshkent:“Yangi asr avlodi” 2006.
5. Kurbonova M. Fitrat va o‘zbek tilshunosligi. O‘quv qo‘llanma, Toshkent 1997
6. Safarov Sh. Semantika. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2013

СУЩНОСТЬ СИСТЕМЫ МОТИВАЦИИ И ОСОБЕННОСТИ ЕЕ ПРИМЕНЕНИЯ В УСЛОВИЯХ КЫРГЫЗСКОЙ РЕСПУБЛИКИ

Барнохон Азамовна Хасанова
старший преподаватель
Международного университета им.К.Ш. Токтомаматова
г. Жалал-Абад, эл. почта barno0577@mail.ru

Гульбубу Нурмаматовна Абсаматова
старший преподаватель
Кыргызские воины, которым часто приходилось вступать в бои, защищая родную землю от захватчиков, боролись за независимость и свободу, получили прозвище «Дикие львы Азии», проводили большую часть своей жизни верхом на лошадях. Кыргызы издавна были воинственным народом, воевавшим при помощи своих лошадей. Они были их неотъемлемой частью. Наверное, недаром в эпосе «Манас» есть строки: «Кыргызы, оставшиеся пешими, подвергаются истреблению». Пословица «Конь бережет человека, а человек бережет народ» сама по себе иллюстрирует взаимосвязь трех понятий: «конь», «гражданин» и «народ». Подготовка воинов нашего народа почти полностью проходила верхом, что послужило причиной возникновения ряда национальных игр. Ведь каждый народ отличается не только своими традициями и обычаями, но и своими традиционными национальными играми. [1.150].

Национальные игры кыргызов возникали и формировались в стародавние времена и передавались последующим поколениям в качестве наследия. Несмотря на то, что мы называем их просто народными играми, каждая из них имеет свою особую цель и образовательную ценность.

У кыргызов, чья история насчитывает более двух тысячелетий, есть национальные игры, связанные с ездой верхом, скачками: «Эр оодарыш» (борьба мужчин верхом на лошади), «Тыйын энмей» (поднятие монеты с земли находясь верхом на лошади), «Ат чабуу» (скачки на лошадях), «Жамбы атуу» (скачущий всадник должен поразить подвешенную цель). Поскольку народ был кочевой, а опасность нападения врагов была постоянной, то эти игры способствовали физическому развитию, формированию меткости, находчивости, военной сноровки.

Среди национальных игр, упомянутых выше, рассмотрим историю возникновения «Кыз Кумай», правила игры и ее современный статус. Кыз кумай - одна из национальных конных игр, которая существует с древних

времен. Кыз-куумай – (в переводе с кырг. – догони девушку) - *одна из самых древних, интересных и веселых кыргызских конных игр.* Проведение игры связано с обычаями и традициями кочевников и входит в число развлекательных игр молодых людей. Обычно их проведение приурочивали к свадьбам, пиршествам, к мусульманским праздникам (Орозо айт, Курман айт), когда происходили массовые сборища людей. В кыргызские национальные игры играют в разное время года.

При проведении игры большое внимание уделялось внешнему виду участников: парни и девушки должны были одеваться красиво и нарядно, а лошади - великолепно украшены.

Кыз - Куумай - скачки верхом на лошади за девушкой, которая должна ускакать на лошади от джигита. Это игра входит в разряд развлекательных игр кыргызов. По правилам игры парень верхом на лошади должен догнать девушку- всадницу и поцеловать. Если всаднику не удается догнать девушку, считается, что он проиграл.

Основная суть игры в том, что в ней участвуют двое – парень и девушка. Игра имеет и свои сформировавшиеся правила. Так, в соответствии с правилами игры, количество участников колеблется от 2 до 20 человек в возрасте 15-17 лет. Одежда участников должна быть нарядной и удобной. Готовится прямая полоса земли, по которой собственно и будут скакать участники. Длина ее может составлять до 1,5 километров. В современных условиях игры зачастую проводятся на стадионах. На время скачек, на данной полосе запрещено переходить ее, ходить или находиться на ней. Запрещается также выезжать верхом на эту полосу.

В игре кыз-куумай, девушка сама выбирает лошадь. Судья, или специально назначенный человек, выводит лошадь девушки, сидящей верхом на ней, к месту старта, проводит ее на 20-25 шагов вперед и оставляет ее там. В это время, парень, участник игры, занимает место у старта. Когда все готовы, дается специальный знак и скачки начинаются.

Основная цель игры – парень должен догнать девушку и поцеловать в щеку. Допускается другой вариант – парень может просто коснуться головой головного убора девушки.

В случае, если парень не мог догнать девушку, правила менялись. Теперь девушка имела право догнать парня и отстегать его плеткой. Вдобавок к этому, проигравший парень должен был приготовить богатое угощение.

Как и в любой игре победитель удостаивался награды.

Говоря об игре, надо отметить, что встречались случаи, когда участники игры влюблялись друг в друга и дело заканчивалось свадьбой молодых. Были случаи, когда парень, влюбившись в девушку, но не получив взаимности, просто-напросто умыкал ее с помощью друзей.

Естественно, что игра отражена в народном творчестве в песнях акынов-импровизаторов:

Кыз, жигити кыргыздын,
Кылымдап ойнойт кыз куумай!
Кыз куумай оюнун карасаң,
Кызыгына эл батып,
Кыйкырып дуулап тик турмай!
Кыз куумай оюну кыргыздын,
Эзелтен калган салты экен!
Энкейип жандап жарышып,
Кызга жетсе жигити,
Буралтып туруп кыз өбүш,
Байыртан кыргыз наркы экен!
Парни и девушки кыргызов
Веками играют в кыз-куумай.
Это народа традиция
Быстрее, парень, догоняй!
Народ азартно увлечен
Игрою молодежи.
Это древняя традиция!
До наших дней он дожил. (свободный перевод)

Необходимо отметить, что это не единственная конная игра с участием девушек и женщин. Прежде всего, это признак гендерного равенства в обществе кочевых народов, относительной независимости и свободы женщин в классовом обществе. Во-вторых, участие девушек и женщин в подобных мероприятиях, конечно же, преследовала цель закаливания, формирования ловкости, выносливости.

Известный кыргызский поэт Жалил Садыков выражает идею, что национальные игры отражают философию жизни кочевого народа. Несмотря на их популярность, игры проводились не так уж и часто. И такое событие, где собирались люди из дальних и ближних мест, приезжали певцы, торговцы, привозились товары, прежде всего служило средством обмена информации.

Люди делились новостями, слушали выступления певцов. И нельзя отрицать тот факт, что это обстоятельство могло служить расширению кругозора, формированию мировоззрения.

Оюндун бири кыз куумай,
Күлүктөр көктө сызчуудай.
Тизгинди чоюп жөнөсө,
Жигити-шумкар, кыз – куудай!
Оюн деп чиркин ушуну айт,
Көргөндө кимдер кызыбайт.
Жигити жетип кызды өпсө,
Көзүнө сүйкүм учурайт,
Игра народа – кыз куумай,
Кони взвились ввысь стрелой.
Парень - сокол, девушка - лебедь!
Кто не был рад это увидеть?

В настоящее время эта игра не потеряла популярности. Она всегда включается в программу различных мероприятий на территории республики. В 1958 году игра «Кыз - куумай» была включена в программу Всесоюзных соревнований по конному спорту. [6.10-11].

В 80-х годах участница «Иссык-Кульского форума» Хайди Тоффлер посмотрела спектакль «Девушка без погони» и была поражена: «Если парень не может догнать девушку, девушка бьет его плетью, когда он возвращается... Это очень странная, но интересная традиция». «Возможно, его следует распространить более широко», - написала она.

В устном народном творчестве мысль об игре «Кыз - куумай» как древней игре встречается и в эпосе «Манас». Рассказывают, что когда Сейтек в старости переезжал из своего поселения в Талас, он приказал организовать игру для кочевников своего рода.

Боз бала, жигит аралаш,
Кыз-келин менен жарышып.
Кызык өзөн бойлошуп,
Кызыгышып кыраандар.
Кыз куушмай ойношуп,
Талыкпай көчүп бээ байлап,
Таласты көздөй бет алып,
Эл чуркурап, чуу болуп,

Эр кубанып, дуу болуп,
Киндик кесип кир жууган
Жерине көчүп келатат
Подросток, взрослый человек,
И молодухи, и юные девицы.
Все с азартом, без колебаний
Начали игру кыз-куумай.
Люди рады отдохнуть
От долгой дороги вдоль реки.
Двигаясь в сторону Таласа,
Люди рады и шумны.
Ведь едут люди в свой аил,
Где появились они на свет.

Выше говорилось, что игры, как наследие, передавались из поколения в поколение. Игра «Кыз Кумай» учит молодежь не только ловкости и искусству верховой езды, но и учит красноречию.

В наши дни игра «Кыз куумай» стала еще популярней среди молодежи, так как она приобретает интернациональный характер. Игра пользуется популярностью в соседних Казахстане и Узбекистане.

Игра «Кыз куумай» также подробно описана в произведениях поэтов и писателей. Например, в произведении Чингиза Айтматова «Джамиля» игра «Кыз куумай» ярко и подробно описывается в одном из эпизодов. Садык и Джамиля принимают участие в игре, но Садыку не удаётся догнать Джамилю. Садык принимает это как оскорбление и силой привозит Джамилю в свой дом и женится на ней. Девушка против насилия, но, подчиняясь национальным обычаям, позволяет покрыть себя белым платком, символом статуса замужней женщины. Таким образом, великий писатель еще раз ярко показал особенности национальных традиций. [8]

Наш народ прошел трудные исторические пути, защищая свою землю и даже соседние народы от врагов и суровых стихийных бедствий. При этом он сохранил свое единство, обычаи, традиции и культуру, формировавшиеся веками. Воины, которые могли свободно ездить верхом на лошадях, придумали множество подвижных игр, основанных на характере и особенностях народа и нации. Эти игры сохранились до наших дней. Некоторые из них претерпели изменения в зависимости от социального контекста, и не потеряли своей актуальности. Итак, эта игра, в которой соревнуются как мужчины, так и

женщины, еще раз подтверждает существование равенства между женщинами и мужчинами в кыргызском обществе.

REFERENCES:

1. Кыргызские народные игры. // Киргизия. 1978, стр. 150.
2. Кыргызы. том 1.- Бишкек «Кыргызстан» - 1993, стр. 532-533.
3. Газета «Кыргыз Туусу». №21 от 6 июня 2014.
4. История Кыргызстана. Энциклопедия. - Бишкек, 2003. Стр. 258.
5. Кыргызские народные игры. // Киргизия, 1978, стр. 150.
6. Флаги Киргизии. Сборник. – Фрунзе, 1980. стр. 10-11.
7. С. Байгазиев. Отечество и мировая этика. - Бишкек-2007. Стр. 108-109.
8. Журнал «Шукум», 2009.
9. Кыргызские игры и развлечения. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Бишкек, 2007.

KINOQISSA VA KINOSSENARIYLARDA ALOHIDA OLINGAN SO‘ZLARNING PRAGMATIK XOSLANISHI

Mexrinisa Ibraximovna Xolmurodova,
Filologiyai fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ANNOTATSIYA

Psixolingvistika va nutq sotsiologiyasi har biri o‘z navbatida shaxslararo muloqot hodisasiga yondashishi, kinoqissalar va kinossenariylarda ayrim lisoniy birliklarning pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish orqali, tilning nutq vaziyatiga ko‘ra tasniflanishi maqolada o‘z aksini topgan. Nutqiy muloqot ko‘p qirrali hisoblanadi. Shu nuqtai nazarda maqolada nutqning ma’lum bir maqsadni yo‘naltirishga xizmat qiluvchi, salbiy subyektiv munosabat ifodalovchi vositalar va uni inson his etishi, idrok etishi, qobiliyati hamda ruhiy harakatlari bilan uyg‘unlikda namoyon bo‘lishi tahlillangan.

Kalit so‘zlar: Pragmatika, sotsiopragmatika, yordamchi so‘zlar, muloqot, nutqiy vaziyat, nutqiy akt, leksik birlik, nutqiy faoliyat, assotsiativ usul.

АННОТАЦИЯ

Психолингвистика и социология речи поочередно подходят к феномену мсжличностного общения и на основс анализа прагматичсских особенностей некоторих языкових единиц киноновелл в стате отражена классификация языка по контексту речи. Речевое обшение многогранно. В этом контексте в стате анализируются средства речи, которие служат для направления определенной сели, выражают негативное субъективное отношение и проявляют его в гармонии с человеческим чувством, восприятием, способностями и психическими действиями.

Ключевие слова: Прагматика, социопрагматика, вспомогательные слова, общение, речевая ситуасия, речевой акт, лексическая единиса, речевая деятельность, ассосиативный метод.

ABSTRACT

Psicholinguistics and sociology of speech alternately approach the phenomenon of interpersonal communication and, based on an analysis of the pragmatic features of some language units of film novels, the article reflects the classification of language according to the context of speech. Speech communication

is multifaceted. In this context, the article analyzes the means of speech that serve to direct a specific goal, express a negative subjective attitude and manifest it in harmony with humanfeeling, perception, abilities and mental actions.

Keywords: Psicholinguistics, sociopragmatics, communication, speech situation, speech act, lexical unit, speech activity, associative method.

Pragmatika insonning ijtimoiy faoliyatini o‘zida qamrab oluvchi nutq jarayoni, muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon bo‘ladi. Lingvistik pragmatika aniq shakl, tashqi ko‘rinishga ega emas; uning doirasiga so‘zlovchi subyekt, adresat, ularning aloqa-aralashuvdagi o‘zaro munosabatlari, aloqa-aralashuv vaziyati bilan bog‘liq ko‘plab masalalar kiradi. Masalan, nutq subyekti bilan bog‘liq holda quyidagi masalalar o‘rganiladi:

bayonning oshkora va yashirin maqsadlari (biron-bir axborot yoki fikrni yetkazish, so‘roq, buyruq, iltimos, maslahat, va’da berish, uzr so‘rash, tabriklash, shikoyat va b.);

nutq taktikasi hamda nutq odobi turlari;

suhbat, so‘zlashish qoidalari; so‘zlovchining maqsadi;

so‘zlovchi tomonidan adresatning umumiy bilim jamg‘armasi, dunyoqarashi, qiziqishlari va boshqa xislatlariga baho berilishi;

so‘zlovchining o‘zi bayon qilayotgan xabarga munosabati kabilar. Pragmatikada nutq adresati, o‘zaro aloqaga kiruvchilarning munosabatlari, muayyan aloqa vaziyati singari omillar bilan bog‘liq holda ham ko‘plab masalalar o‘rganiladi. Pragmatika g‘oyalari evristik (yo‘naltiruvchi) dasturlash, mashina tarjimasi, axborot-qidiruv tizimlari va boshqalarni ishlab chiqishda qo‘llanilishi bilan ham bugungi kunda nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

Tilning taraqqiyoti xalqning shoir yoki yozuvchi-ijodkorlari, olimlari say-harakatlariga bevosita bog‘liq. Tadqiqotchilar tilning nazariy asoslari bilan shug‘ullanishsa, ijodkorlar undan foydalanish mobaynida yangicha ifoda usullari, shuningdek, ayrim vositalarni yaratishga ham muvaffaq bo‘ladi. [1. 12-b.] Har bir ijodkor tildan o‘ziga xos tarzda foydalanadi. Yozuvchilar Erkin A’zam, Tog‘ay Murod, Murod Muhammad Do‘st, Tohir Malik, Nazar Eshonqulning ham o‘ziga xos yondashuvi bor. Buning amaldagi ifodasini “Anoyining jaydari olmasi”, “Xonadon egasi”, “Yulduzlar mangu yonadi”, “Ot kishnagan oqshom”, “Mustafo”, “So‘nggi o‘q”, “Farishta”, “Charxpalak” asarlari adabiy ssenariysini tahlil qilish orqali kuzatishimiz mumkin. Yuqoridagi kinoqissasida shunday o‘rinlar bor:

– Nima qilay bo‘lmasa, jo‘rajon, ayt?

– Endi yo‘q-da, jo‘rajon, nima qilay?” [8. 23-b.]

Bo‘ri polvonning ko‘ngli uyushib-uyushib ketdi. Nasim polvonga juda-juda rahmi keldi. Qulochini keng ochib jo‘rasiga “Nasim oshna” degisi keldi. (Tog‘ay Murod, Yulduzlar mangu yonadi).

Avvalo, yozuvchilar kinoqissalar tilidan foydalanishdagi eng muhim o‘ziga xos jihatlari bu – uning sodda gap turlaridan samarali foydalanish mahoratida. Ayrim ijodkorlar badiiy asarda uzundan uzoq bir necha ergash gapli murakkab qo‘shma gaplarni qo‘llaydi, natijada fikr chalg‘iydi. O‘zbek kinoqissa navislari sodda gaplardan unumli va maqsadli foydalana oladi:

“ – Akangning safari qaridi, jo‘rajon!

– Ketganing rost bo‘lsin! Endi kelib ovora bo‘lib yurma!

– Kelasi bahor kutaverasan!

Ana shunday bizning Ramazon!” [8. 60-b.]

Matnda asar qahramonlarining asli yashash hududini ko‘rsatish maqsadida ularning nutqida ayrim sheva elementlari ham saqlab qolinadi: ”Ramazonning **jo‘rasi** ekanim – go‘lligim, soddaligim basharamga bitilgan shekilli, tergovchi – sarg‘ishdan kelgan, ko‘kko‘z kishi meni kutilmagan dag‘dag‘a bilan qarshi oldi.

Nasim oshna, mening sendan o‘zga-da oshnalarim ko‘p.

Bari tirikchilik yuzasidan... [7. 33-b.] Adabiy tilda, badiiy asarlar matnida asosan, “do‘st” so‘zi qo‘llaniladi, biroq muallif ataylab bu so‘zning “jo‘ra”, “oshna” sinonimini ishlatmoqda. Bu ham alohida uslubiy ma’no kasb etmoqda.

O‘zbek kinoqissalarida bir bosh bo‘lakli sodda gaplardan ko‘p foydalaniladi. Bu o‘zbek tili nutq tabiatiga mos holatdir. Boshqa flektiv tillarda ega mavjud bo‘lmasa, kesimning o‘zi gapni tashkil qila olmaydi. O‘zbek tilida esa kesimning o‘zi gapni tashkil qilaveradi, nutq vaziyatiga ko‘ra fikr ifodalay oladi: “Dastlabki tergovning ko‘rsatishicha, qochgan chayqovchi – ishboshi. O‘sha men emishman!

– Kim aytdi, kim? **Isbotlang! – deya joyimdan turib ketdim.**

– Kim aytardi, sherigingiz – Haydarov!

La’nati Ramazon! O‘zing tushgan chohga meni ham tortmoqchi bo‘libsan-da? Nomard, chayqovchi! [8. 32-b.]

Matnning o‘quvchiga tushunarli va ta’sirchan bo‘lishi matnning morfologiyasi bilan ham bevosita bog‘liq. Muallif asar matnida bu vaziyatda nisbatan olmoshlardan ko‘proq foydalangani kuzatildi: “Tergovchi **unga** anchayin bir ko‘z tashladi-yu qaytib qo‘limga tutqazdi, sinovchan tikilib so‘radi:

– Og‘ayningiz avval ham chayqovchilik bilan shug‘ullanarmidi?

Shunda og‘zimdan chiqqan gap uchun **o‘zim**ni **hech qachon** kechirmasam kerak:

– Shug‘ullangan bo‘lsa bordir, **men** qayoqdan bilay? U og‘aynim emas, **shunchaki** hamqishloq, hamshaharmiz.

– **Shunaqami**? **U sizni** og‘aynim, yaqin og‘aynim, dedi-ku?! Hozir olib kelsam. og‘aynim emassan, deb yuziga ayta olasizmi?” Keltirilgan misoldan ko‘rinib turibdiki, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar olmosh so‘z turkumiga mansub bo‘lib, o‘ziga xos ma’no va vazifa bajarishga xizmat qilgan. So‘z turkumlarining qo‘llanilish chastotasi, bizningcha, nutq vaziyati va fikr mavzusi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Diologik nutq aks etgan matnlarda olmoshlarning nisbatan ko‘proq ishlatilishi tabiiy, masalan:

“ – Bo‘pti, **sizga** ruxsat, – dedi tergovchi chaqiruv qog‘oziga imzo chekib berarkan. sovuqqina bir ohangda. – Iloji bo‘lsa, uyidagilarga xabar qilib qo‘ysangiz – kelasi jumada sud. Ha, shoshmang. **U siz** haqingizda **hech nima** degani yo‘q. “Og‘aynim bo‘ladi, ikki kecha uyida yotdim”, dedi, xolos. **Men** tergovchiga anqayib qaradim.” [8. 54-b.]

So‘zlovchining o‘z fikr-mulohazalari, his-tuyg‘ulari ifodalangan matnlarda olmosh so‘zlar deyarli ishtirok etmaydi: Ota ko‘rgan odamiga nuqul bir gapni takrorlaydi:

– To‘ydan qochib kelib edi. Tog‘asining qiziga ko‘ngli yo‘qmi, to‘ydan gap ochdingiz – o‘qishni bahona qilib, Toshkandga jo‘naydi. Armiyadan qaytganidan beri **shu** ahvol. U yoqda enasi og‘ir yotibdi, “Ulimning mavridginasini ko‘rmay ketadigan bo‘ldim-da”, deb chirqillagani chirqillagan. Bozor bormoq tugul og‘zidagini eplab yutolmaydigan bolaning **bu** ishini qarang endi! [8. 60-b.]

Kinoqissa janriga mansub asarlar, ayniqsa, Erkin A’zam, Tog’ay Murod qissalari matnida yuklamalardan modal munosabatlarni ifodalashda ustalik bilan foydalaniladi:

Tajangroq akaning battar tajangligi tutadi:

– Shuningizni o‘zi boshdan erkalatib yubordingiz-**da**, ota! Oyog‘iga kishan urib bo‘lsa **ham**, to‘yni boshlash kerak edi. Bu muttahamga nima yetishmasdi**ki**, bizni bunday sharmanda qilib o‘tiribdi!

Ota turib-turib mendan noliy ketdi:

– A, jiyanjon-**a**, siz-**ku** o‘qigan, esliroq edingiz, jo‘rangizni yo‘ldan qaytarmabsiz-**da!** Nima kasofat urdi**ki**... Ajratib ko‘rsatilgan til birliklaridan anglashilib turibdiki, demak, suhbat tarzidagi nutqiy vaziyatlarda yuklamalarning faol qo‘llanilishi alohida pragmatik mazmunning ta’minlanishiga xizmat qiladi.

Tavsifiy-tasviriy matnlarda esa sifat so‘z turkumiga doir so‘zlarning keng va faol ishlatilishi ham o‘ziga xos pragmatik maqsadga erishuvning muhim omili sanaladi.

Sudya – ko‘zoynak taqqan, o‘rta yoshlardagi **barvasta** ayol – yigirma yil shu sohada ishlab, bunday **antiqa** sudni ham, bunaqa **g‘alati** sudlanuvchini ham ko‘rmagan bo‘lsa kerak ... Sochi tap-taqir olingan, egnida – yotgan joyidagi allakimning **ola-bula**, yoqasi **ochiq** bachkana ko‘ylagi, qo‘llarini orqaga qilgancha burchakda allanechuk **kulgili** tarzda qo‘qqayib turibdi. Kuzatilganidek, tavsifiy xarakterdagi matnlarda muallif matn orqali adresatga o‘z qahramonining ichki va tashqi sifatlarini belgi bildiruvchi so‘zlarni o‘z o‘rnida maqsadga muvofiq tarzda qo‘llay olish orqali tabiiy va ta’sirchan tasvirlab berishga erishgan.

Kuzatuvimizni “Farishta”, “So‘nggi o‘q”, “Charxpalak”, “Xonadon egasi” kinoqissasi matni doirasida davom ettiramiz. Xususan, tasviriy matn orqali o‘quvchini vaziyat, sharoit bilan yaqindan tanishtirish ko‘zlangan nutq parchasiga e’tibor qaratamiz: ... **Kattakon serhasham** xonaning to‘rini egallagan shift barobar shkaf-servant. **Yaltiroq** buyumlar, idish-tovoq, choynak-piyola. Alohida tokchaga zich qilib kitob ham terib qo‘yilgan...; ...keyin shunday qo‘l ko‘payib ketadi: erkak kishining **baquvvat** changali, **keksa** odamning **serajin, qaltiroq** qo‘li, **nozik zaifona** barmoqlar, **yosh** bolaning **chalcho‘pdek** panjalari... Mazkur matn ham tavsifiy xarakterda bo‘lgani sababli, yuqorida ta’kidlanganidek, sifat so‘z turkumiga doir so‘zlar faolroq bo‘ladi. Bu esa o‘quvchi – adresatga aniqroq tasavvur berish imkoniyatini yaratadi.

Kinoqissalarning o‘ziga xos jihati shundaki, ularda tavsif va tasviriylik ancha ustun bo‘ladi. Bu kabi holatlarda yozuvchining aniqlovchi va izohlovchi so‘zlarga murojaat qilishi talab qilinadi. Rassom chizmoqchi bo‘lgan manzarasiga ranglarni tanlab olgani kabi badiiy matn muallifi ham shu nutqiy vaziyat, shu nutqiy aktga monand til birliklarni tanlaydi, tafakkurda ularni saralaydi, qaysi so‘z qaysi nozik ma’noni anglata olishini chamalaydi, nihoyat, kommunikativ maqsadga muvofiq jumla tuzadi. Natijada asar muvaffaqiyatli chiqsa, o‘quvchi undan ta’sirlanadi, kerakli xulosalarni chiqara oladi, mulohaza qiladi. O‘quvchi mulohaza, mushohada qilishi uchun u tasavvur qila olishi kerak. Kinoqissalar adresatga xuddi shu imkoniyatni yaratib beradi, bu o‘rinda o‘quvchi so‘zi keng ma’noda tushunilishi kerak, matnni o‘quvchi maktab o‘quvchisi bo‘lishi, umuman, kitob o‘quvchi, rejissyor yoki rolni ijro etuvchi aktyor bo‘lishi mumkin, shuning uchun so‘zlovchiga, yozuvchiga oson bo‘lmaydi, asar muvaffaqiyatli chiqishi uchun mazkur

adresatlarning hammasini nazarda tutishi, ularga tushunarli bo‘ladigan til vositalarini qo‘llashi, muhim nutqiy aktlarni yarata olishi lozim bo‘ladi.

Matnlarda turli turkum so‘zlarining faol va o‘z o‘rnida qo‘llanilishi ham alohida kommunikativ va pragmatik maqsadlarning ta’minlanishida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, aniqlovchi vazifasida deyarli barcha mustaqil so‘z turkumlari kela oladi, biroq qaysi biri qaysi holatlarda ta’sirchan ifodani ta’minlashi mavhum. [2. 13-b.] Shu o‘rinda quyidagi matnga diqqat qilamiz: Bir tarafi – **ajabtovur romli-panjarali zamonaviy qo‘shqavat** imorat, bir tarafida **odmiroq,** ammo did bilan tiklanmish uylar qad rostlagan **obodgina** hovli. O‘rtada **sershox, sermeva** olma daraxti soya solib turibdi. Uning tagida panjaralari **naqshin.** san’atkorona ishlangan **bahaybat** yog‘och chorpoya; xontaxtasi bir yonga surilib, ustiga ko‘rpa-yostiq tashlab qo‘yilgan. So‘ri **chetidagi suprasimon** to‘shamada bir quchoq qamishu tolchiviq, **katta-kichik** qaychilar, allaqanday bo‘yoq idishlari, cho‘tkalar qalashib yotibdi. Chekkaroqda **tayyor** mahsulot – meva-cheva solinadigan **bejirimgina** savat-savatchalar. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar, ta’kidlangani kabi, sifat so‘z turkumiga mansub bo‘lib, birgina o‘rinda harakat belgisini ifodalovchi ravish so‘z ishtirok etmoqda. Misoldan ayonki, xususiyat, holat bildiruvchi sifatlar tavsifiy matnlarda ko‘proq qatnashishi va uzatilayotgan axborotning ta’sirli bo‘lishini ta’minlab berishi tabiiy.

Muallif tasviriy maqsaddan boshqasiga o‘tganda so‘z turkumlarining nutqda ishtirok etish ko‘lami, chastotasi ham o‘zgarib boradi: So‘riga **yaqin** joydagi nogironlar aravachasida **qiyshayib** o‘tirgan maykachan, boshyalang kishi – usta Zuhriddin, tizzasida peshband, qanshariga “sirtmoqli” ko‘zoynak **qo‘ndirib olib, chapdastlik bilan** savat to‘qimoqda.

So‘ri qirg‘og‘idagi ko‘hna tranzistordan qadimiy bir navo taraladi, **hozircha** bizga **yashirin** basseyn tarafdan esa suvning shalop-shulupi, bolalarning shovqin-suroni eshitiladi. Mazkur matnda holatni ifodalovchi til birliklarining faollashgani ko‘zga tashlanadi. Muallif tranzistorga nisbatan ataylab ko‘hna sifatini qo‘llamoqda. Agar eski tranzistor deya ta’riflaganda matnning ta’sirchanligi, nutqiy vaziyatning ifodasi muayyan darajada o‘zgarar edi.

Endi kinoqissalarda nutq vaziyati – fikr mavzusi o‘zgarmoqda. Shu o‘rinda, qissalar matnida so‘z tartibi masalasini ham e’tibordan qochirmaslik kerak. Zero gapdagi so‘zlar tartibining o‘zgarishi ham ko‘plab uslubiy-ekspressiv o‘zgarishlarga olib keladi. Fikrning muayyan nuqtasi urg‘ulansa, matn mazmuni boshqa tarafga o‘zgarishi ham mumkin.

Kinoqissalarning navbatdagi qismlarida til birliklari ota va qiz, ota-o‘g‘il o‘rtasidagi samimiy muloqotni ta’minlashga xizmat qiladi. Milliy qadriyatlar ulug‘lanadi. Qizu-o‘g‘ilning ham, qari ota-onaning ham so‘zlaydigan nutqlari raso, muallifning maqsadini aniq, tiniq ifodalab turibdi. Ta’kidlangani kabi, asar nafaqat o‘quvchi, tomoshabin, kinorejissyor, rol o‘ynovchi aktyorga ham aniq tasavvur bera olishi kerak. Quyidagi parchani lingvistik jihatdan tahlil qilishga harakat qilamiz. Bu o‘rinda asosiy e’tiborni dramatik asarlarda bo‘lgani kabi kiritmalarga qaratish to‘g‘ri bo‘ladi:

L a t o f a t. Qachon o‘sha xonaga kirsam, rasmlariga ko‘zim tushib...

U s t a. Kirma-qo‘y! Ajab ish qildi-da rahmatli. Bu yoqda men qolib, oldin ketdi-yubordi!

L a t o f a t **(ko‘zlari yana yoshovsirab, otasining kiftidan qucharkan).** Endi siz ham shunday deyavermang, dadajon! Biz nima qilamiz keyin, biz?

U s t a. Nima qilarding – onangga chidagan otangga ham chidaysan-da! “Atosi o‘lmagan kim bor, anosi o‘lmagan kim bor...” Borib uchrashdingmi? (7.14-b.)

Ajratib ko‘rsatilgan til birliklari – kiritmalar o‘quvchiga Latofatning va Jo‘ra boboning tabiati haqida ishonchli ma’lumotlar beradi. Latofatning “Nevaralaringiz tag‘in qozi qidirib yurishibdimi, dada?” degan jumlasidagi tag‘in so‘zi orqali bu mojaro bolalar o‘rtasida doimiy sodir bo‘lib turishi anglashiladi. Bundan tashqari, qozi so‘zi ham mazkur vaziyatda murosaga keltiruvchi ma’nosini ifodalashga xizmat qildirilgan. Asl lug‘aviy ma’nosida “hukm qiluvchi” ma’nosini anglatishi inobatga olinsa, hammasi tushunarli bo‘ladi. Endi (ko‘zlari yana yoshovsirab, otasining kiftidan qucharkan) kiritmasiga kelsak, bu holat barcha ota va qiz o‘rtasida sodir bo‘lmaydi. Aslida, o‘zbekcha mentalitetda turmushga chiqqan, farzandlari bor bir ayolning otasi yelkasidan quchishi ko‘pchilik tomonidan ma’qullanmaydigan holat. Jo‘ra boboning alla-o‘lan aytishi ham ko‘pchilik tomonidan ma’qullanmaydigan holat. Eru xotin o‘rtasidagi inoqlik va o‘zaro bir-birini tushunish orqali oilalar mustahkamligi “Ot kishnagan oqshom” kinoqissasida ta’kidlangan.

Asar matnlarida yordamchi so‘z turkumlaridan ham samarali foydalanilgan. Quyidagi parcha misolida muallifning yordamchi so‘zlardan foydalanish mahoratiga guvoh bo‘lamiz, asarning badiiy qimmatini oshirishda, badiiy niyatning o‘quvchiga tushunarli tarzda bo‘lishini ta’minlashda yordamchi so‘zlarning matn tarkibidagi o‘rni va ahamiyati masalasiga to‘xtalsak. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga diqqat qaratamiz:

-Barakalla! Bor-**da**, badanda bor-**da**! Ko‘ngilda bor-da! Shu boisdan ot oldim-**da**! Ahay-ahay! [5. 42-b.]

-E, yashang-**e**, rais aka-**e**, dedim. Bizga o‘xshagan kallarning yaltiroq boshiga-da oftob chiqsin debsiz-da, dedim. **E,** shop mo‘ylovingizdan-**e**, dedim.

Akamiz-**ku axir,** tug‘ishgan akamiz! Puli serob, Nigoraxonning aytishicha, ana, shkafida qalashib, ochiq-sochiq yotarmish. Bersin-**da** boshqalarga **ham**!

Akang, akang... Qay biringga bo‘lsin u?! Kechagina jiyaningning mebeliga qarashib yubordi... Insof **ham** kerak, qizim!

- “**YO** tavba, deya pichirladi. – **Xuddi** Nasimga o‘xshaydi-. **YO,** chini bilan Nasimmikin? **Yo‘g‘-e**, u ko‘pkarida otdan yiqilib, bir ko‘zi ojiz bo‘p qolgan, deb eshitib edim. Buning ikki ko‘ziyam... Tag‘in bir qarayin-**chi**...”

E’tibor berilsa, matnda yordamchi so‘zlardan faqat yuklamalar qo‘llanilgan. Ko‘makchi ham bog‘lovchi ham qo‘llanilmagan. Yuklamalar nutq jarayonida boshqa yordamchi so‘zlarga nisbatan faol qo‘llaniladi. Ta’kidlash kerakki, ko‘pchilik yuklamalar nutq jarayonida erka qiz, mehribon ota, oshna tomonidan ikkinchi shaxsga nisbatan ishlatilgan. Pragmatik munosabatlarning aksariyati ham shu yuklamalar orqali yuzaga chiqarilgan, chunki ular taxmin, gumon, so‘roq, taajjub, ta’kid, tasdiq, ayirish va chegaralash, o‘xshatish kabi bir qator modal ma’nolarni yuzaga keltiradi. Shu jihatdan ham bu o‘rinda mazkur yordamchi so‘z turi ahamiyatlidir. Bizningcha, matnni biriktiruv bog‘lovchilarisiz tasavvur qilish mumkin, ammo nutqning shakllanishi va fikriy ifodalar qo‘shimcha ma’no va munosabatlarni ifodalovchi yuklamalarni taqozo qilib turadi.

Qissalarda asar qahramonlari qaysi kasbda faoliyat ko‘rsatsa, o‘sha sohaga doir atamalar ham faol ishtirok etadi, bu esa bu kabi asar matnlarida ot so‘z turkumiga doir so‘zlarning ustuvorlik kasb etishini ta’minlaydi. Saroydek keladigan bahaybat bino. Pavilyon. Baland shiftga yaqin gird-aylana katta-katta derazalardan mo‘l-ko‘l yorug‘ tushib turibdi**. Bolg‘a, elektr arra, kavsharlagich** kabi uskunalarning baravar shovqinidan quloq qomatga keladi. Bir yonda – turli uzunlik va yo‘g‘onlikdagi uyum-uyum temir-tersak (**armatura, prut, ugolnigu profil** deganlari); burchakka bo‘y barobar qilib **qalin tunuka** (list) taxlangan. Bo‘yalgan-bo‘yalmagan har xil tayyor **eshik-deraza** ham shu yerda.

Omborxonada ot abzallarini-terlik, bellik, chirgi, boz, jahannik, jul, pushton, quyushqon, yugan, ko‘pchik, uzangili egarni qo‘ltiqlab keldim.[4. 51-b.]

Bu tavsifiy xarakterdagi matn bo‘lgani sababli otlar bilan birga sifat turkumiga doir so‘zlar ham ishtirok etmoqda. Umuman, qissalarda nutq vaziyatiga qarab turli o‘rinlarda turli morfologik birliklar faol qo‘llanishda bo‘lganligi kuzatiladi. Bu holat esa so‘z turkumlarining qo‘llanilish chastotasiga doir tadqiqotlarning yanada asosli xulosalari uchun xizmat qiladi va milliylik ufurib turganligini anglatadi, ya’ni qaysi

so‘z turkumlari qaysi nutqiy vaziyatda uyushganroq, faolroq bo‘lishi haqida muayyan xulosalarni taqdim qiladi.

REFERENCES

1. Mukarramov M. O‘zbek tilida o‘xshatish. – Toshkent: Fan, 1976. – B. 15-16.
2. Hakimov M. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent, 2011. – B. 94.
3. Shirinova N.A. O‘zbek tilida belgi-xususiyat va predmetlik ma’nolarining farqlanishida graduonimik qatorlar: Filol. fan. nomz. ... diss.–Buxoro,2008.–160 b.
4. Tog‘ay Murod. Ot kishnagan oqshomlar. Kinoqissa. – T., 2009.
5. Tog‘ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi. Kinoqissa. – T., 2011.
6. Erkin A’zam. Suv yoqalab. Kinoqissa. – T., 2007.
7. Erkin A’zam. Xonadon egasi. Kinoqissa. – T., 2018.
8. Erkin A’zam. Анойининг жайдари олмаси. Kinoqissa. – T., 2006.

RUS GURUHLARIDA O‘ZBEK TILINI DAVLAT TILI SIFATIDA O‘QITISHGA YONDASHUVLAR

Muborak Saidkarimovna Ayxodjayeva
O‘zDJTSU dotsenti.

ANNOTATSIYA:

Rus guruhlarida o‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘qitish usuliyati talabalar tomonidan tilni muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga qaratilgan yondashuvlar majmuasini o‘z ichiga oladi. Ushbu metodologiyaning xususiyatlari o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar va talabalar o‘rtasidagi madaniy va lingvistik farqlar, shuningdek, tilning kundalik amaliyotga integratsiyalashuviga yordam beradigan muhit yaratish zarurati bilan bog‘liq. Maqolada an’anaviy grammatik-tarjima usullaridan tortib, kommunikativ va ijtimoiy-madaniy usullargacha bo‘lgan o‘zbek tilini o‘qitishga asosiy uslubiy yondashuvlar muhokama qilinadi. Ta’limda innovatsion texnologiyalar va multimedia resurslaridan foydalanishga, shuningdek, o‘zbek tili grammatikasini o‘qitish va lug‘atini singdirishning o‘ziga xos xususiyatlariga alohida e’tibor qaratilmoqda, bu esa tillararo va madaniy farqlarni hisobga olishni talab qiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, usuliyat, o ‘qitishga yondashuv, kommunikatsiya, grammatika, lug‘at boyligi.

АННОТАЦИЯ:

Методика преподавания узбекского языка как государственного в русских группах включает комплекс подходов, направленных на успешное овладение языком студентами. Особенности данной методики связаны с культурными и языковыми различиями между носителями узбекского языка и студентами, а также с необходимостью создания среды, способствующей интеграции языка в повседневную практику. В статье рассматриваются основные методические подходы к обучению узбекскому языку: от традиционных грамматико-переводческих методов до коммуникативных и социокультурных методов. В образовании особое внимание уделяется использованию инновационных технологий и мультимедийных ресурсов, а также особенностям преподавания узбекской грамматики и лексики, что требует учета межъязыковых и культурных различий.

Ключевые слова: узбекский язык, методика, подход к преподаванию, коммуникация, грамматика, лексика.

ABSTRACT:

The methodology for teaching Uzbek as the state language in Russian groups includes a set of approaches aimed at successful language acquisition by students. The features of this methodology are related to cultural and linguistic differences between native Uzbek speakers and students, as well as the need to create an environment that facilitates the integration of the language into everyday practice. The article discusses the main methodological approaches to teaching the Uzbek language: from traditional grammatical and translation methods to communicative and sociocultural methods. In education, special attention is paid to the use of innovative technologies and multimedia resources, as well as the peculiarities of teaching Uzbek grammar and vocabulary, which requires taking into account interlingual and cultural differences.

Keywords: Uzbek language, methodology, approach to teaching, communication, grammar, vocabulary.

KIRISH

O‘zbek tilini rus guruhlarida o‘qitishning alohida xususiyatlari mavjud. O‘rganishdagi qiyinchilik nafaqat tilning leksik va grammatik o‘ziga xosliklarida, balki madaniy an’analardagi farqlarda, shuningdek, boshqa madaniyat vakillari tomonidan tilni idrok etish va tushunishning ayrim jihatlarida ham namoyon bo‘ladi. Tilni o‘qitish metodikasi talabalarning ehtiyojlari va til ta’limi sohasidagi tendensiyalarni hisobga olgan holda rivojlanmoqda. So‘nggi yillarda o‘qitishning kommunikativ usullariga, interfaol texnologiyalardan foydalanishga va real vaziyatlarda tilni amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini, ya’ni kompetensiyalarini hosil qilishga e’tibor kuchaymoqda.

O‘zbek tilini chet tili sifatida o‘qitishga asosiy yondashuvlar:

1. Grammatik-tarjima usuli.

An’anaga ko‘ra, o‘zbek tilini o‘qitishda grammatika va lug‘atni batafsil o‘rganishga qaratilgan grammatik-tarjima usuli qo‘llaniladi. Ushbu yondashuv tilning yozma shaklini o‘rganish va to‘g‘ri grammatik tuzilmalarni yaratish uchun samarali, ammo muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan cheklovlarga ega.

2. Kommunikativ-usuliy yondashuv.

Kommunikativ yondashuv talabalarning o‘zbek tilida muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. U real muloqot sharoitida tildan faol foydalanish tamoyiliga asoslanadi, bu og‘zaki nutq ko‘nikmalarini yuzaga keltirish va uni tushunishni yaxshilashga yordam beradi.

Ushbu yondashuv doirasida grammatik tuzilmalarni dolzarb kommunikativ amaliyot bilan birlashtirishga urg‘u beriladi:

- asosiy maqsad – talabalarning real muloqot sharoitida gaplarni tushunish va qurish qobiliyatini rivojlantirish;

- nutq ko‘nikmalarini faollashtirish, o‘quvchilarni muloqot jarayoniga jalb qilish imkonini beradigan rolli o‘yinlar, dialoglar, munozaralar kabi usullardan foydalaniladi;

- ushbu yondashuvning afzalliklari sirasiga talabalarning motivatsiyasini oshirish va ularning tilda o‘z-o‘zidan o‘zaro muloqotga kirishish qobiliyatini shakllantirish kiradi.

3. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv.

O‘rganuvchiga yo‘naltirilgan yondashuv talabaning o‘z ehtiyojlari, intilish va imkoniyatlariga e’tibor qaratadi. Nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan an’anaviy yondashuvdan farqli o‘laroq, bu yondashuv o‘quvchi shaxsini, uning o‘zini namoyon qilish, ijodkorlik va mustaqillik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan:

- ushbu yondashuv doirasida o‘qitish o‘rganuvchilarning individual xususiyatlariga, ularning oldingi tajribasiga, tayyorgarlik darajasi va qiziqishlariga moslashtiriladi;

- bunday yondashuv o‘qituvchilardan o‘qitish jarayoniga katta mas’uliyat bilan qarash, dasturni har bir talabaga moslashtirish imkonini beradi, bu esa chuqurroq o‘rganish va ta’lim sifatini oshirish uchun xizmat qiladi;

- kutilayotgan natija nafaqat grammatik mukammallikka erishish, balki o‘rganuvchining tanqidiy fikrlash va ta’lim jarayonida o‘z-o‘zini tartibga solish qobiliyatini rivojlantirishdir.

4. Ijtimoiy-madaniy yondashuv.

Ijtimoiy-madaniy yondashuv til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarga e’tibor qaratadi. Tilni uning madaniy kontekstini hisobga olmasdan o‘rganish fikrni noto‘g‘ri tushunish va noto‘g‘ri talqin qilishga olib kelishi mumkin. Bu usul o‘zbek tilini va uning ijtimoiy muhitda ishlashini chuqurroq tushunishga yordam beradigan an’analar, urf-odatlar, ma’naviy boyliklarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi:

- ushbu yondashuvda o‘rganish o‘zbek adabiyoti, tarixi, musiqasi, san’ati va ijtimoiy normalarini o‘rganishni o‘z ichiga oladi, bu tilni idrok etishni boyitadi va madaniy to‘siqlarni bartaraf etishga yordam beradi.

- bunday yondashuv madaniyatlararo kompetentsiyani rivojlantirishga yordam beradi va o‘quvchilarga kundalik hayot kontekstida tilni tushunishga ko‘maklashadi, bu esa o‘rganishni yanada real va mazmunli qiladi.

4. O‘qitishda texnologiyalardan foydalanish.

O‘zbek tilini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar muhim rol o‘ynaydi. Virtual platformalar, mobil ilovalar, videolavha va interaktiv o‘yinlar o‘rganishni yanada qiziqarli va samarali qiladi hamda turli manbalar va materiallardan foydalanish imkonini beradi:

- onlayn platformalar, virtual sinflar, mobil ilovalar kabi interfaol texnologiyalardan foydalanish mustaqil ta’lim olish va darsdan tashqarida tildan foydalanish uchun sharoit yaratishga yordam beradi;

- o‘quv jarayoniga video, audio, matn va grafiklarni qo‘shish idrokning barcha kanallarida tilni yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam beradigan yanada boy, ko‘p vazifali muhitni yaratishga yordam beradi;

- talabalarning faolligini oshiradigan va nostandart, lekin real vaziyatlarda tilni mashq qilish imkonini beruvchi o‘yin texnologiyalari va simulyatsiyalaridan foydalanish ham muhimdir.

O‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari grammatika va lug‘atni o‘rgatishga alohida yondashuvni talab qiladi. Asosiy muammolardan biri – egalikning ifodalanishi va ko‘plab ma’no nozikliklarini o‘z ichiga oladigan tuslanishlarning murakkab tizimi, shuningdek, gap tuzilishini yetkaza bilishdir. Demak, talabalarning nutqiy kompetensiyalari mutanosib rivojlanishini ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

O‘quv natijalarini baholash talabalarning rus tilini qanchalik samarali o‘rganishini tushunishga yordam beradigan muhim jihatdir. Baholashning turli usullari mavjud, jumladan, testlar, yozma va og‘zaki imtihonlar, loyiha ishi va amaliy topshiriqlar. Baholash tizimi nafaqat bilim darajasini qayd etishi, balki o‘quvchilarning muvaffaqiyatini ham aks ettirishi muhim.

XULOSA

O‘zbek tilini chet tili sifatida o‘rgatish o‘rganuvchilarning saviyasi, maqsadi va madaniy kelib chiqishiga qarab turli metodik yondashuvlardan foydalanishni talab qiladi. Innovatsion usullar, texnologiyalarni qo‘llash va tilning ijtimoiy-madaniy jihatlariga e’tibor berish o‘zbek tilini o‘qitishdagi zamonaviy usullarining ajralmas qismidir.

REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”

gi PF-5850-sonli Farmoni. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.04.2019.06/19/5712/3034-son). https:// lex.uz/docs/4561730.
2. Айходжаева М.С. Ўзбек тилининг умумий луғатларида спорт атамаларининг ифодаланиши.// FAN SPORTGA” илмий-назарий журнал. Т. – 2022 .№-3 Б. 42-45.
3. Xolmanova Z., Yusupova T. “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi”.
4. Щербакова В.Н. Использование информационных технологий в обучении русскому языку как иностранному. СПб: СПбГУ. 2017.

АКТИВАЦИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ НЕЯЗЫКОВЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Санжар Арифжанович Юнусов
доцент кафедры, УзГУФКиС,
Бахром Умирзакович Каюмов
доцент кафедры, УзГУФКиС,
Екатерина Сергеевна Епифанова
преподаватель, УзГУФКиС.

АННОТАЦИЯ

В статье описывается разработка и апробация в учебный процесс на неязыковом факультете педагогического вуза технология обучения диалогу, активизирующая познавательную деятельность студентов и обеспечивающая профессиональную компетенцию выпускников в иноязычной коммуникативной деятельности. В работе научно обоснованы методические рекомендации по реализации дидактических условий активизации познавательной деятельности студентов неязыкового факультета в процессе изучения иностранного языка, которые могут найти применение в учебных заведениях, осуществляющих профессиональную подготовку специалистов неязыковых специальностей. Достоверность результатов обеспечивались применением комплексного подхода к разработке способов активизации познавательной деятельности студентов, применением комплекса теоретических и эмпирических методов.

Ключевые слова: активизация познавательной деятельности, дидактические условия, интерактивные методы обучения, мультимедийные ресурсы, проектная деятельность в образовании, неязыковые специальности.

АННОТАЦИЯ

Maqolada pedagogik universitetning til bo'lmagan fakultetida talabalarning bilim faoliyatini faollashtiradigan va bitiruvchilarning chet tilidagi kommunikativ faoliyatda kasbiy vakolatlarini ta'minlaydigan dialogni o'qitish texnologiyasini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish tasvirlangan. Ishda chet tilini o'rganish jarayonida til bo'lmagan fakultet talabalarining bilim faoliyatini faollashtirishning didaktik shartlarini amalga oshirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ilmiy asoslangan bo'lib, ular til bo'lmagan mutaxassisliklar mutaxassislarini kasbiy tayyorlashni amalga

oshiradigan o‘quv yurtlarida qo‘llanilishi mumkin. Natijalarning ishonchliligi talabalarning bilim faoliyatini faollashtirish usullarini ishlab chiqishda kompleks yondashuvni qo‘llash, nazariy va empirik usullar majmuasini qo‘llash orqali ta'minlandi.

Kalit so‘zlar: kognitiv faoliyatni faollashtirish, didaktik sharoitlar, interfaol o‘qitish usullari, multimedia resurslari, ta'limdagi loyiha faoliyati, til bo‘lmagan mutaxassisliklar.

ABSTRACT

The article describes the development and testing of dialogue teaching technology in the educational process at a non-linguistic faculty of a pedagogical university. This activates students' cognitive activity and ensures professional competence in foreign language communication. The paper provides methodological recommendations based on scientific research for implementing didactic conditions that activate students' cognitive abilities in learning a foreign language. These recommendations can be applied in educational institutions that train specialists in non-language specialties. Reliability of the results is ensured by using an integrated approach and a set of methods, both theoretical and empirical.

Keywords: cognitive activity activation, didactic conditions, interactive teaching methods, multimedia resources, project activities in education, non-linguistic specialties.

ВВЕДЕНИЕ

В современном мире владение иностранным языком становится неотъемлемым условием профессиональной конкурентоспособности специалистов, включая представителей таких областей как физическая культура и спорт. Однако существующие противоречия между потребностями общества в квалифицированных кадрах с высоким уровнем лингвистической подготовки и реальным состоянием обучения иностранному языку на неязыковых факультетах требуют системного подхода к формированию дидактических условий для активизации познавательной деятельности студентов. Исследование направлено на выявление, теоретическое обоснование и практическую проверку комплекса методов и технологий, способствующих повышению эффективности учебного процесса в данной сфере.

Актуальность работы состоит: 1. Социальная значимость. В условиях глобализации возрастает потребность в подготовке специалистов широкого

профиля, владеющих иностранными языками. 2. Педагогическая проблема. Существующие дидактические подходы не всегда обеспечивают достаточный уровень мотивации и активности студентов при изучении языка.

Основная противоречивость заключается в разрыве между: - реальными потребностями рынка труда, требующими от специалистов владения иностранным языком; - низким уровнем подготовки выпускников неязыковых специальностей по иностранному языку.

Цель исследования. Выявление, теоретическое обоснование и экспериментальная проверка дидактических условий активизации познавательной деятельности студентов факультета физической культуры и спорта в процессе изучения иностранного языка.

Задачи исследования: - Анализ состояния проблемы в научной литературе; - Уточнение сущности активизации познавательной деятельности неязыковых специальностей при обучении языку; - Разработка и апробация дидактической модели для повышения активности студентов; - Выявление, теоретическое обоснование и экспериментальная проверка оптимальных дидактических условий активизации познавательной деятельности; - Создание методических рекомендаций по реализации инновационных подходов в преподавании иностранного языка.

Методы исследования: 1. Теоретические методы: Анализ философской, психолого-педагогической и лингвистической литературы. 2. Методы моделирования: Разработка дидактической модели активизации познавательной деятельности студентов. 3. Эмпирические исследования: - Констатирующий эксперимент для определения исходного уровня знаний, умений и мотивации; - Формирующий эксперимент с внедрением инновационных технологий (интерактивные методы, мультимедийные ресурсы, проектная деятельность); - Тестирование и анкетирование для оценки динамики развития познавательной активности студентов; - Педагогическое наблюдение за процессом обучения.

Результаты исследования и их обсуждение. Исходя из приведённого текста, можно выделить ключевые аспекты, показывающие взаимосвязь межпредметных связей и активных методов обучения: 1. Взаимное влияние: - межпредметные связи стимулируют:

- восприятие; - мышление; - память; - активные методы обучения: - мобилизуют интеллектуальные резервы; - активизируют познавательную деятельность; - развивают творческое мышление; - побуждают к практической и мыслительной деятельности; - активизируют познавательные процессы; -

развивают мотивацию; - способствуют активности студентов; 2. Синергия: - использование межпредметных связей в сочетании с активными методами обучения ведёт к качественному повышению уровня мыслительной деятельности студентов. - Мыслительная деятельность становится более продуктивной благодаря синергии этих подходов. 3. Особенности влияния: - Межпредметные связи способствуют более глубокому пониманию и усвоению материала, так как студенты видят связи между различными дисциплинами; - Активные методы обучения, в свою очередь, делают процесс обучения более интерактивным и вовлекающим, что способствует более активному участию студентов в учебном процессе. 4. Развитие субъекта: - Оба подхода (межпредметные связи и активные методы) способствуют развитию студента как активного субъекта учебного процесса, повышая его мотивацию и самостоятельность.

Таким образом, интеграция межпредметных связей и активных методов обучения создаёт мощный инструмент для повышения качества образования, развивая не только интеллектуальные способности студентов, но и их творческий потенциал, мотивацию и активность в учебной деятельности.

1. Теоретическое осмысление: Разработана концепция активизации познавательной деятельности, включающая психолого-педагогические аспекты и специфику неязыковых специальностей. 2. Практический опыт: - Создана дидактическая модель с использованием интерактивных методов (игровые технологии, групповые проекты); - Внедрение мультимедийных ресурсов для повышения мотивации и визуализации учебного материала; - Развитие проектной деятельности как способа формирования критического мышления. 3. Эмпирические данные: Показали значительное улучшение уровня владения языком, рост познавательной активности студентов (увеличение на 48% по результатам тестирования) и повышение удовлетворенности качеством обучения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Исследование подтвердило необходимость комплексного подхода к активизации познавательной деятельности студентов неязыковых специальностей в процессе изучения иностранных языков. Разработанные дидактические условия, включая интерактивные методы и современные технологии обучения, способствуют значительному повышению эффективности учебного процесса, формированию самостоятельности и

критического мышления у студентов. Полученные результаты могут быть рекомендованы широкому внедрению в практику преподавания иностранных языков на неязыковых факультетах.

REFERENCES

1. Бим, И.Л. Некоторые актуальные проблемы современного обучения иностранным языкам Текст. / И.Л. Бим // Иностранный язык в школе. -2001. - №4. С.5-8.
2. Гез, Н.И.Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика Текст.: учебное пособие для вузов / Н.Д. Гальскова, Н.И. Гез. -М.: Academia, 2004.-336 с.
3. Морозова, И.С. Познавательная деятельность личности Текст. / И.С. Морозова. Кемерово: Кузбассвузиздат, 2002. - 214 с.
4. Педагогика Текст.: учебное пособие для студентов педагогических учебных заведений / В.А. Сластенин, И.Ф. Исаев, А.И. Мищенко, Е.И. Гиянов. 4-е изд. - М.: Школьная Пресса, 2002. - 512 с.
5. Рапацевич, Е.С. Современный словарь по педагогике Текст. / Е.С. Рапацевич. - М.: Современное слово, 2001. 928 с.
6. Селевко, Г.А. Педагогические технологии на основе активизации, интенсификации и эффективного управления УВП Текст. / Г.А. Селевко. М.: НИИ школьных технологий, 2005. - 288 с.

TEACHING CHALLENGES OF ENGLISH LANGUAGE FOR SPORTSMEN

Umirkon Odilovna Azimova
associate professor at the Uzbekistan state university of physical education and sport

ABSTRACT:

Present article is devoted to the teaching problems and it's solves of English language for the athletes.

learning environment. Today, more schools than ever are challenged with providing an education to children who speak little or no English when they enter the school system. We hear more frequently of districts, schools and even individual classrooms with multiple foreign languages being spoken. Integrating students who speak a foreign language into mainstream classrooms is complicated by the difficulty of teaching language to large groups, especially those that are culturally diverse, and by the requirements for knowledge acquisition for standardized tests. An individual's ability to achieve fluency in his/her native or a second language depends on the integrated activity of diverse systems in the brain. For example, while the sounds of language are heard in the auditory area of the brain, they must be responded to by the speech area. The speaker must listen to his or her own speech in order to tell whether the intended sounds have been produced correctly. This coordination is intensified when practicing speech in a foreign language. In the early stages of learning a new language, most learners translate back and forth from the first language to the new one. As fluency is achieved, the need to translate diminishes and the ability to directly access and correlate concepts and words in the new language increases. Thus, the demands on certain cognitive skills, such as working memory, are even greater during the early learning stages. The learner needs strong working memory, sequential memory, and auditory memory skills while learning to process new sounds and words. When learning a foreign language has been preceded by learning to read and write in a first language, the visual and kinesthetic areas of the brain may also be involved, if only to remember the words seen on the page, or to imagine how to write them in an exercise. In many cases, learning a new language in a combined visual/textual and auditory manner can promote better retention. This enables the learner to attach meaning while developing the new language by relying on the visual image that already looks familiar in the first language. Recognizing words and images helps incorporate them into a distributed system of processing across multiple areas of the brain. Thus, strengthening visual and auditory processing systems will aid new language learners in the process of becoming fluent. The use of language requires simultaneous coordination of left-brain sequencing skills and right brain whole-pattern skills. In other words, in order to speak a sentence, one must feel the overall meaning and shape of the thought that is being verbalized and simultaneously get the words in the proper sequence. In addition, since language expresses feeling, the limbic system must be involved as well. Increasing the brain's ability to process multiple systems at the same time is foundational to building fluency. Because of the importance of multiple system processing, students who receive training in basic

cognitive skills, particularly in auditory and visual discrimination, attention, memory and sensory integration. will be able to learn a second language more quickly.

The Role of Cognitive Skills in Language Learning. Cognitive skills are essential for effective language learning, as they determine how students process and retain new information. The most critical cognitive skills involved in English language learning include:

1. **Memory and Retention**

- **Working Memory**: Helps learners hold and process new language structures while speaking or writing.
- **Long-Term Memory**: Stores vocabulary, grammar rules, and pronunciation patterns for future use.
- **Strategy**: Using repetition, mnemonics, and contextual learning can strengthen memory retention.

2. **Attention and Focus**

- Attention is essential for listening comprehension, reading, and speaking fluently.
- Learners with strong focus can distinguish sounds, grasp sentence structures, and filter out distractions.
- **Strategy**: Activities like storytelling, guided discussions, and interactive exercises can improve attentional control.

3. **Problem-Solving and Critical Thinking**

- ELLs often encounter new words, unfamiliar grammar structures, and cultural differences that require problem-solving.
- Critical thinking enables learners to analyze sentence patterns, make inferences, and understand context.
- **Strategy**: Encouraging open-ended questions, debates, and real-world problem-solving tasks fosters critical thinking.

4. **Metacognition and Self-Regulation**

- Metacognitive skills help learners assess their own progress, identify strengths and weaknesses, and adjust strategies accordingly.
- Self-regulated learners take control of their learning by setting goals and reflecting on their performance.
- **Strategy**: Encouraging learners to use self-assessment tools, journals, and peer feedback enhances metacognitive skills.

Effective Strategies for Developing Cognitive Skills in ELLs. To support cognitive skill development, educators can implement the following instructional strategies:

1. Scaffolding Techniques: -Breaking down complex tasks into smaller, manageable steps. -Providing visual aids, sentence frames, and guided practice. -Gradually reducing teacher assistance as learners gain confidence.

2. Active Learning and Interaction: -Encouraging group discussions, role-playing, and collaborative projects. -Using real-life scenarios to promote meaningful language use. -Implementing gamified learning to keep students engaged.

3. Metacognitive Training: -Teaching students how to plan, monitor, and evaluate their own learning. -Encouraging the use of learning logs, reflective journals. and self-assessment checklists. -Providing explicit instruction on learning strategies like summarizing and questioning.

4. Use of Technology and Digital Tools: -Utilizing educational apps, online quizzes, and interactive videos. -Using voice recognition software to improve pronunciation and fluency. -Encouraging digital storytelling and multimedia projects.

5. Contextualized and Meaningful Learning: -Connecting language learning with real-world experiences. -Using storytelling, problem-solving tasks, and hands-on activities. -Encouraging learners to engage with authentic materials like books, videos, and podcasts.

Impacts of Cognitive Skill Development on ELLs. Enhancing cognitive skills in ELLs leads to several positive outcomes:

- **Improved Comprehension**: Stronger memory and attentional control help learners understand and retain new language concepts more effectively.
- **Greater Fluency**: Enhanced cognitive processing allows for quicker word retrieval and smoother communication.
- **Increased Confidence**: Problem-solving and metacognitive skills empower learners to overcome language challenges.
- **Better Academic Performance**: Stronger cognitive abilities contribute to success in reading, writing, and overall academic achievement.

CONCLUSION

Cognitive skills are fundamental to English language learning, influencing memory, attention, problem-solving, and self-regulation. By integrating cognitive-based instructional strategies, educators can create an effective and engaging learning environment for ELLs. Techniques such as scaffolding, active learning, metacognitive training, and technology integration can significantly enhance students' language acquisition and academic success. Fostering cognitive development not only improves English proficiency but also equips learners with essential skills for lifelong learning.

REFERENCES:

1. Исаева У., Джалилова С. The usage of new pedagogical technologies in lessons //Молодой ученый. – 2018. – №. 5. – С. 169-171.
2. Богиева Т. Р. Преимущества и недостатки применения традиционных и нетрадиционных методов преподавания иностранного языка в образовательных учреждениях СПО //Инновационная наука. – 2016. – №. 4-2 (16). – С. 139-141.
3. Mahsudova B. H. et al. Проблема межкультурной коммуникации в обучении иностранным языкам //Theoretical & Applied Science. – 2018. – №. 1. – С. 76-79.
4. Жалилова С. Использование лингвокультурологического подхода в обучении иностранным языкам //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – Т. 1. – №. 3. – С. 64-71.
5. Rixsibayevna D. S. TYPES OF LEARNING ENGLISH METHODS IN SPORT DIRECTION //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2024. – Т. 15. – №. 1. – С. 45-49.
6. ьRixsibayevna D. S. IMPROVE PROFESSIONAL ACTIVITIES OF FUTURE TEACHERS //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 531-534.
7. Rixsibayevna D. S. COMMUNICATIVE-COGNITIVE APPROACH TO TEACHING OF FOREIGN LANGUAGES //World scientific research journal. – 2022. – Т. 4. – №. 1. – С. 198-200.
9. Максудова В. Х., Жалилова С. Р., Нуримова С. Э. КОММУНИКАТИВНО-КОГНИТИВНЫЙ ПОДХОД К ОБУЧЕНИЮ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ //Путь науки. – 2015. – №. 3. – С. 128-130.

ENHANCING EDUCATIONAL AND COGNITIVE ACTIVITY OF YOUNG LEARNERS THROUGH DIDACTIC GAMES IN ENGLISH LANGUAGE LESSONS

Nigora Erkinovna Akramova
Associate Professor, Tashkent State
Pedagogical University named after Nizami

ABSTRACT

This article explores the significance of didactic games in enhancing the cognitive and educational activity of young learners in English language lessons. It examines the types of didactic games, their impact on language learning, and practical strategies for implementation in the classroom.

Keywords: Didactic games, educational activity, cognitive development, English language learning, young learners, Game-based learning.

Introduction.

The process of learning a foreign language at a young age requires active engagement and effective teaching strategies to ensure meaningful comprehension and retention. Younger schoolchildren, due to their cognitive development and limited attention spans, often benefit from interactive and playful learning approaches. One of the most effective ways to enhance their educational and cognitive activity is through didactic games, which make learning more engaging, enjoyable, and effective. Didactic games serve as a bridge between traditional education and an interactive learning experience, allowing children to absorb new concepts naturally while actively participating in the learning process. These games encourage problem-solving, critical thinking, and collaboration, which are essential cognitive skills for language acquisition. Research has shown that incorporating game-based learning strategies in English language lessons not only enhances students' motivation but also improves their ability to retain vocabulary, grammar structures, and communication skills. This paper explores the role of didactic games in activating the educational and cognitive activity of young learners in English language lessons. It examines different types of didactic games, their impact on language learning, and how they contribute to cognitive development. Furthermore, the study highlights the benefits of integrating game-based methods into language instruction and provides practical recommendations for educators to implement these

strategies effectively. By fostering an engaging and stimulating learning environment, didactic games can transform English language lessons into an enjoyable and productive experience, ensuring that young learners develop strong linguistic and cognitive skills essential for their academic growth.

Didactic games bridge the gap between traditional education and interactive learning, allowing children to acquire language skills naturally through participation and problem-solving. These games encourage active learning, motivation, creativity, and critical thinking, which are essential for language acquisition. Research indicates that game-based learning improves students' vocabulary, grammar retention, and communication skills, making it a valuable instructional strategy.

The activation of educational and cognitive activity in younger schoolchildren is essential for effective language acquisition. Didactic games serve as a powerful tool to engage students in the learning process, fostering motivation, creativity, and deeper understanding. This study explores the role of didactic games in enhancing cognitive engagement and improving English language learning among young learners. By incorporating interactive and game-based methods, educators can create a dynamic and stimulating learning environment that encourages active participation and retention of language skills. The study highlights various types of didactic games, their pedagogical benefits, and practical applications in English language lessons. The findings suggest that the integration of didactic games significantly enhances students' motivation, concentration, and overall language competence. The research provides valuable insights for educators seeking to implement game-based learning strategies in primary English education.

The Role of Didactic Games in Language Learning. Didactic games play a crucial role in English language education by providing learners with an interactive and engaging environment. Unlike traditional methods that focus on passive learning, didactic games encourage students to actively participate, think critically, and apply their knowledge in meaningful contexts. Key benefits of didactic games in English language learning include:

1. **Increased Motivation and Engagement**
   - Games make learning fun, reducing anxiety and fear of making mistakes.
   - Students become more willing to participate and practice language skills.
2. **Development of Cognitive Skills**
   - Games enhance problem-solving, logical thinking, and decision-making abilities.
   - Learners improve their memory, attention, and concentration.

3. **Reinforcement of Language Skills**

- Games help in mastering vocabulary, grammar, pronunciation, and sentence structure.
- Contextual learning through games improves communication and comprehension.

4. **Encouragement of Social Interaction**

- Many didactic games involve teamwork, fostering collaboration and communication.
- Learners gain confidence in using the language in group activities.

Types of Didactic Games for English Language Learning. There are various types of didactic games that can be integrated into English lessons to promote cognitive and educational development:

1. **Word Games**
   - **Examples**: Word search, crossword puzzles, and anagrams.
   - **Benefits**: Enhances vocabulary recognition and spelling skills.
2. **Role-Playing Games**
   - **Examples**: Acting out dialogues, storytelling, and simulations.
   - **Benefits**: Improves speaking skills, creativity, and confidence.
3. **Memory and Matching Games**
   - **Examples**: Flashcards, picture-word matching, and memory pairs.
   - **Benefits**: Strengthens retention of words, phrases, and sentence structures.
4. **Board and Card Games**
   - **Examples**: Bingo, Scrabble, and storytelling dice.
   - **Benefits**: Encourages strategic thinking and active learning.
5. **Interactive Digital Games**
   - **Examples**: Educational apps, online quizzes, and virtual escape rooms.
   - **Benefits**: Increases engagement and provides personalized learning experiences.

Implementing Didactic Games in the Classroom. To maximize the effectiveness of didactic games in English language lessons, educators should consider the following strategies:

1. **Align Games with Learning Objectives**
   - Choose games that reinforce specific language skills and lesson goals.
2. **Encourage Active Participation**
   - Ensure all students are involved and engaged in the game activities.
3. **Adapt Games for Different Learning Styles**

- Use a variety of game formats to cater to visual, auditory, and kinesthetic learners.

4. **Provide Clear Instructions**
   - Explain the rules and objectives of the game to avoid confusion.
5. **Incorporate Feedback and Reflection**
   - Discuss the learning outcomes of each game to reinforce understanding.
6. **Utilize Technology**
   - Incorporate digital games and apps to enhance interactive learning.

The methodological possibilities of didactic games in English language teaching are vast. Recent research supports the integration of games into lessons as a way to create a stimulating learning environment that encourages student engagement and knowledge retention. Games can be applied in various phases of a lesson—whether for introducing new topics, reinforcing vocabulary, or reviewing grammar rules. Teachers can use games as a motivational tool at the beginning of a lesson to set a positive tone or use them at the end to reinforce learning in a fun way. An important methodological principle is that games should be contextual and purposeful. It is crucial that the games are designed to fit the lesson's objectives and the students' proficiency level. For example, more complex games may be introduced after students have mastered the basic grammar and vocabulary required to participate in them. Task-based learning (TBL), which integrates authentic tasks (including games) into the language learning process, has been found to be especially effective for fostering real-world language use. Another important aspect of using games is multisensory learning. Didactic games often incorporate different senses—students may listen to instructions, speak, read, and even move their bodies to engage in the game. This multisensory approach has been shown to enhance retention and help students internalize language in a more holistic way 10. In this sense, games create an immersive language environment where students experience the language in multiple ways.

CONCLUSION

Didactic games are a powerful tool for enhancing the educational and cognitive activity of young learners in English language lessons. By making learning engaging and interactive, these games improve motivation, cognitive skills, and language acquisition. The integration of game-based methods in the classroom allows students to develop confidence, creativity, and problem-solving abilities while reinforcing key linguistic concepts. Educators should leverage didactic games as an essential

component of English language instruction to create a more dynamic and effective learning environment. By applying well-structured and meaningful game-based activities, teachers can ensure that young learners acquire language skills in a fun and memorable way, fostering a lifelong enthusiasm for learning English.

REFERENCES:

1. Murphey, T. (2015). Grammar Games: A Handbook for Teachers. Cambridge University Press.
2. Galloway, L. (2021). Developing Speaking Skills in EFL. Cambridge University Press.
3. Gardner, H. (2017). Multiple Intelligences in the Classroom. Pearson.
4.Исаева У., Джалилова С. The usage of new pedagogical technologies in lessons //Молодой ученый. – 2018. – №. 5. – С. 169-171.
5.Богиева Т. Р. Преимущества и недостатки применения традиционных и нетрадиционных методов преподавания иностранного языка в образовательных учреждениях СПО //Инновационная наука. – 2016. – №. 4-2 (16). – С. 139-141.
6.Mahsudova B. H. et al. Проблема межкультурной коммуникации в обучении иностранным языкам //Theoretical & Applied Science. – 2018. – №. 1. – С. 76-79.
7.Жалилова С. Использование лингвокультурологического подхода в обучении иностранным языкам //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – Т. 1. – №. 3. – С. 64-71.
8.Rixsibayevna D. S. TYPES OF LEARNING ENGLISH METHODS IN SPORT DIRECTION //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2024. – Т. 15. – №. 1. – С. 45-49.
9.Rixsibayevna D. S. IMPROVE PROFESSIONAL ACTIVITIES OF FUTURE TEACHERS //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 531-534.
10.Rixsibayevna D. S. COMMUNICATIVE-COGNITIVE APPROACH TO TEACHING OF FOREIGN LANGUAGES //World scientific research journal. – 2022. – Т. 4. – №. 1. – С. 198-200.
11.Максудова В. Х., Жалилова С. Р., Нуримова С. Э. КОММУНИКАТИВНО-КОГНИТИВНЫЙ ПОДХОД К ОБУЧЕНИЮ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ //Путь науки. – 2015. – №. 3. – С. 128-130.

BO'LAJAK SPORTCHINING TIL O'RGANISH MAHORATINI OSHIRISH JARAYONIDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR

M. A. Raximova
O'zDJTSU O'zbek va chet tillari kafedrasi
katta o'qituvchisi,
SHX-51-24-guruh talabasi **G. Xushvaqtova**

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada kognitiv yondashuv asosida bo'lajak sportchilarning chet tilini o'rganish mahoratini rivojlantirish strategiyalari va ushbu jarayondagi asosiy muammolar hamda ularning yechimlari haqida so'z boradi. Maqolada til o'rganishning samarali usullari, talabalar duch keladigan qiyinchiliklar va ularni yengish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: kognitiv, til, strategiya, sportchi, kommunikativ, ta'lim, dastur, xotira, mutaxassis, matbuot, anjuman.

Hozirgi kunda sport sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki keng dunyoqarash va samarali kommunikatsiya ko'nikmalari ham muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak sportchilarning til o'rganish mahoratini rivojlantirish jarayonida kognitiv yondashuv asosida ishlab chiqilgan strategiyalar samaradorlikni oshiradi va chet tillarini o'rganishdagi muammolarga samarali yechim beradi. Kognitiv yondashuv inson ongining idrok, xotira, diqqat va o'rganish jarayonlariga qaratilgan. Ushbu yondashuv sportchilarning chet tilini o'rganishida quyidagi tamoyillarga asoslanadi: Xotirani mustahkamlash uchun takrorlash va vizualizatsiya. Ha, to'g'ri! Kognitiv inson ongining turli jarayonlarini, idrok, xotira, diqqatni jamlash. Bu jismoniy sportchilarning chet tilini o'rganish jarayoniga ham mos keladi. Xotirani uchun takrorlash va vizualizatsiya juda muhim oziq-ovqat bo'lib, monitoringni qo'llash mumkin: 1.Takror nazorat qilish: Sportchilarga chet tilini o'rganishda yangi so'zlar, iboralar va grammatik vositalarni muntazam takrorlash kerak. Bu xotirani mustahkamlashga va ma'lumotlarni uzoq xotiraga o'tkazishda yordam beradi. Misol uchun, yangi so'zlarni yoki jumlalarni har kuni takrorlash orqali ular ongida mustahkam o'rin topadi. 2 Muammolarni hal qilishda ijodiy fikrlash, diqqatni jamlash va motivatsiyani oshirish zarur bo'ladi.

Maqsadli o'rganish dasturlari: Bo'lajak sportchilar uchun maxsus chet tili kurslariga jalb qilish, ularning sport sohasidagi amaliy ehtiyojlarini hisobga olgan

holda til o‘rganishni ta‘minlash, ularning professional faoliyatida muhim rol o‘ynaydigan til ko‘nikmalarini amaliy ehtiyojlarga mos ravishda shakllantirishni ta’minlashdir. Ushbu dastur sport sohasiga yo‘naltirilgan bo‘lib, sportchilarning xalqaro musobaqalar, matbuot anjumanlari, shartnomalar, intervyular va murabbiylar bilan muloqot qilish jarayonida samarali til bilishini rivojlantirishga qaratilgan.

Dastur maqsadlari:

1. Sport bilan bog‘liq til ko‘nikmalarini rivojlantirish – musobaqalar, treninglar va tibbiy ko‘riklar uchun zarur bo‘lgan maxsus atamalarni o‘rgatish.

2. Amaliy muloqotga yo‘naltirish – murabbiylar, jurnalistlar va boshqa sport sohasi vakillari bilan samarali muloqot qilishga yordam berish.

3. Xalqaro musobaqalarga tayyorlash – intervyu berish, musobaqa qoidalarini tushunish va chet elda erkin harakat qilish uchun til bilimlarini mustahkamlash.

4. Shartnomalar va hujjatlar bilan ishlash – sport shartnomalari, homiylik bitimlari va boshqa huquqiy hujjatlarni o‘qish va tushunish.

Boshlang‘ich bosqich: Sportga oid asosiy atamalar, kundalik muloqot.

O‘rta bosqich: Murabbiy va sport mutaxassislari bilan suhbat, intervyu berish.

Yuqori bosqich: Shartnomalar bilan ishlash, xalqaro musobaqalarda ishtirok etish uchun maxsus tayyorgarlik. Mazkur dastur bo‘lajak sportchilarga sport faoliyatida muhim bo‘lgan chet tilini tez va samarali o‘rganishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak sportchilarning til o‘rganish mahoratini oshirish uchun ularning amaliy ehtiyojlariga moslashtirilgan, sport bilan uzviy bog‘liq ta’lim metodlarini ishlab chiqish va qo‘llash zarur. Bu ularning xalqaro maydondagi muvaffaqiyatlarini oshirish va professional faoliyatida muhim rol o‘ynaydigan til ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.Kognitiv yondashuv asosida ishlab chiqilgan til o‘rganish strategiyalari bo‘lajak sportchilarga nafaqat chet tillarini muvaffaqiyatli o‘rganishda, balki ularning sport sohasidagi xalqaro faoliyatini ham yuksak darajaga olib chiqishda muhim rol o‘ynaydi. Bunday yondashuv sportchilarning intellektual va kommunikativ salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Kelajakda ushbu strategiyalarni yanada takomillashtirish uchun ilmiy izlanishlar olib borish, pedagogik innovatsiyalarni joriy etish va sportchilar uchun individual yondashuvlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, til o‘rganish jarayoniga psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini qo‘shish orqali sportchilarning ishonchini oshirish va o‘z-o‘zini motivatsiya qilish qobiliyatlarini kuchaytirishi mumkin. Ana shunday kompleks yondashuv kelajak avlod sportchilarining jahon arenalarida muvaffaqiyatli chiqishlariga zamin yaratadi.

REFERENCES:

1. G'afforov N.N.Sport terminlarining lingvokulturologik va leksikografik tadqiqi. (Monografiya). "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2021.
2. G'afforov N.N. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati mazmuni. Monografiya."Iqtisod-moliya" nashriyoti.Toshkent,2017 yil.

Internet saytlari

1. .http://www.press-service.uz/– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati.
2. http://www.lex.uz/– O`zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma`lumotlari milliy bazasi.
3. http://www.uzreport.com/–Axborot agentligi.
4. http://uza.uz/– O'zbekiston Milliy axborot agentligi.
5. https://lex.uz/docs
6. http://sahifa.tj/uzbeksko-russkiy.aspx-Uzbeksko-russkiy perevodchik

O‘RGANUVCHILARGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA QO'LLANILADIGAN METODLAR (METHODS USED IN TEACHING ENGLISH TO LEARNERS)

Nasiba Maxmanazarovna Ibragimova,
O`zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti dotsenti

ANNOTATSIYA

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari ingliz tili o'qituvchisining innovatsion metodlardan foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirish yo'llari yoritib berilgan. Kalit so'zlar: maktab, innovatsiya, pedagog-texnolog, metod, ta'lim, tarbiya, bilim, ko'nikma, kreativ, tasnif, innovatsiya, obyektiv.

Tayanch so'zlar: maktab, innovatsiya, pedagog-texnolog, metod, ta'lim, tarbiya, bilim, mahorat, ijodiy, tasnif, yangilik, maqsad.

ABSTRACT

In the article, the ways of improving the quality of education by the use of innovative methods of the English language teacher of general secondary schools are highlighted. Key words: school, innovation, pedagogue-technologist, method, education, education, knowledge, skill, creative, classification, innovation, objective.

Keywords: school, innovation, pedagogue-technologist, method, education, upbringing, knowledge, skill, creative, classification, innovation, objective.

АННОТАЦИЯ

В статье освещены пути повышения качества образования путем использования инновационных методов работы учителя английского языка общеобразовательных школ. Ключевые слова: школа, инновация, педагог-технолог, метод, образование, воспитание, знание, умение, творческий, классификация, инновация, цель.

Ключевые слова: школа, инновация, педагог-технолог, метод, обучение, воспитание, знание, умение, творческий, классификация, инновация, цель.

KIRISH.

Pedagogikaning rivojlangan tajribalari hamda ta'limda erishilgan yutuqlarni amaliyotga olib kirish bugungi kunning muhim shartlaridan hisoblanadi. Hozirda o'qituvchi o'z faoliyati davomida foydalana olishi mumkin bo'lgan ulkan tajribalar

bazasi shakllangan va u kundan-kunga yanada boyib bormoqda. Lekin shunga qaramasdan, o'qituvchilar va bo'lg'usi kasb egalari tomonidan ana shu tajribalarni o'zlashtirib olishlari birmuncha mushkullik bilan amalga oshmoqda . Pedagogning mavqeyi ilg'or tajribalarni vujudga keltirishda va ularni kasbdoshlari o'rtasida ommalashtirishda, ayniqsa, ahamiyatlidir. Ta'lim beruvchi yangi ilg'or pedagogik tajribani amaliyotga joriy etishda uning qimmati hamda qay darajada samarali ekanligiga e'tibor berishi kerak. O'qituvchi amaliy faoliyatining innovatsiyaga yo'nalganligi nazariy pedagogik tadqiqotlar natijasida erishilgan yutuqlarni amaliyotga joriy etish imkoniyatini beradi. Aynan mana shunday tadqiqotlar natijalarini ommalashtirish uchun ularni keng jamoatchilikka tanishtirish talab etiladi. Bunday yangiliklarni soha mutaxassislari tomonidan tezkor maslahatlar berish, maxsus seminarhamda treninglar o'tkazish, konferensiyalarda chiqishlar qilish, bo'lg'usi pedagoglarga esa turkum ma'ruzalar havola etish orqali boshqa pedagogika vakillariga etkazish mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Shu o'rinda bir savol tug'iladi: «Ilg'or pedagogik g'oyalar va texnologiyalarni keng jamoatchilik vakillariga etkazuvchilari hamda targ'ibotchilari kimlar?». Alohida pedagog yoki ta'lim muassasi tajribasini o'rganib chiqish, ommalashtirishda oliy ta'lim muassasalarining professor o'qituvchilari, umuta'lim dargohlarida faoliyat olib boradigan etuk pedagoglar bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning sababini quyidagicha izohlash mumkin: - innovatsiya muallifi muayyan pedagogik g'oya yoki yangilikning istiqboli to'g'risida kerakli va aniq bahoni bera olmaydi; - ilg'or pedagoglar har doim ham o'z g'oyalarini ommalashtirish haqida o'ylayvermaydilar. Sababi yangilik pedagogning qo'shimcha vaqti, mehnatini talab qiladi; - g'oya har doim ham uning yaratuvchisi tomonidan ilmiy-metodik jihatdan etarlicha asoslanmaydi; - mualliflar o'zlarining innovatsiyalari va ularni amaliyotga joriy etish yo'llarini bayon qilishda o'zlari va kasbdoshlarining indvidual xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan to'siqlarga ro'baro' keladilar; - nafaqat pedagogik innovatsiyalarni targ'ibqilish va ommalashtirish, balki ular asosida pedagoglar qaoliyatiga tuzatishlar kiritish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilimdonligi va mahoratini boyitish vazifasi ham ijodiy guruh zimmasiga yuklanadi; - innovatsiyalarni tizimli tanlash, monitoring o'tkazish, innovatsion g'oyalar, texnologiyalarga baho berish, oliy o'quv yurtlari ish tajribalarini boyitish vazifalari ham ijodiy guruh a'zolari zimmasidadir.

Innovatsion g'oya muallifi amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan faoliyatni boshqarishda ishtirok etmaydi]. Bu tarzdagi yondashuv innovativ pedagogning imkoniyatlarini kengaytirish va uni muayyan maqsadga yo'naltirishga zamin yaratadi.

Innovativ pedagogika asoschisi va ommalashtiruvchining quvvatlari shu tariqa bir nuqtaga jamlanib, ma'lum bir maqsadga yo'naltiriladi. Pedagogik innovatsiyalar o'zining muayyan o'lchovlariga ega. Pedagogik innovatsiyalar bo'lg'usi o'qituvchining kreativ faoliyatini shakllantiradigan quyidagi o'lchovlardan iborat hisoblanadi: innovatsion usullarning naqadar yangi ekanligi; uning optimalligi; qanchalik samara berishi; omaviy tajribada qo'llash imkoniyati va shu kabilar. Innovatsion usullarning asosiy o'lchovi ularning yangiligi, ilmiy tadqiqot natijalari hamda ilg'or pedagogik tajribalar bilan tengligidadir. Shu sababdan ham innovatsion jarayonda faoliyat olibborish istagida bo'lgan o'qituvchilar uchun yangilikning asl mohiyati nimadan iborat ekanligini tushunish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi .

Muhokama. O'tkazilayotgan tajriba ma'lum bir o'qituvchi uchun yangilik bo'lsa, boshqasi uchun esa bu usul yangi bo'lmasligi mumkin. Qolaversa, bo'lajak pedagoglar uchun ayni bir usulning yangilik darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Shularni e'tiborga olgan holda bo'lajak pedagoglar ham, ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar ham innovatsion ijodiy faoliyatga o'zlarining ehtiyojidan kelib chiqqan holda yondashishlari lozim bo'ladi. Bo'lg'usi pedagoglarning kreativ funksiyalarini rivojlantirishga ko'maklashuvchi innovatsion usullar yangiligi darajasiga ko'ra bir qancha shakllarda namoyon bo'ladi: absolyut daraja; lokal-absolyut daraja; shartli daraja; sub'ektiv daraja. Innovatsion pedagogik yangiliklarni ommaviy tarzda amaliyotda qo'llash ularni baholashning me'zoni sifatida talqin etiladi. Bu asosan o'quv jarayonining texnik ta'minoti va o'qituvchi faoliyatining o'ziga xosligi bilan bog'liq . Ommaviy pedagogik tajribalarda pedagogik innovatsiyalarni ijodiy qo'llash alohida o'qituvchilar ish faoliyatining boshlang'ich bosqichida namoyon bo'ladi. Mazkur innovatsiyalar tajriba-sinovdan o'tkazilib, ob'ektiv baholangandan so'ng ommaviy tarzda qo'llash uchun taqdim etiladi . Keng ommalashgan, ijobiy natijalarga erishish imkonini beradigan innovatsion usullardan foydalangan holda bo'lajak o'qituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchining innovatsion faoliyatini o'rganishga yo'naltirilgan tashxislash metodlari ham rang-barangdir. Tashxislash metodlaridan foydalanish o'qituvchi faoliyatining kuchli jihatlarini namoyon qiladi. Shuning uchun ham bo'lajak o'qituvchilarni tashxislashning zamonaviy metodikalari bilan qurollantirish davr talabidir. Bo'lg'usi pedagoglarning kasbiy ehtiyoj va xohishlarini hisobga olgan holda ularda kasbiy-pedagogik etikani shakllantir ish va uzluksiz rivojlantirishga yo'naltirilgan to'laqonli maqsadli faoliyatni amalga oshirish lozim.

NATIJA

Pedagogik innovatsiyalarni tashxislash asosida o'rganishda har bir pedagog tajribasida ijobiy, rivojlantiruvchi holatlar bilan bir qatorda salbiy ko'rinishlar ham mavjudligini hisobga olish zarurligini unutmaslik kerak. Yosh pedagog ta'lim dargohida samarali faoliyat ko'rsatishi uchun uning ish tajribasida mavjud bo'lgan ijobiy hamda salbiy jihatlarni tashxislash asosida yaqqol ko'rsatish talab etiladi. Innovatsion jarayonlarni o'rganish maqsadida qo'llaniladigan tashxislash metodlari quyidagilardan iborat ekanligini bo'lajak o'qituvchilar ongiga aniq etkazish lozim. - bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik ehtiyojlari, qiziqishlari, alohida ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlarni tizimli tarzda o'rganish, bunda o'qituvchilarning faoliyatida uchraydigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish imkoniyatlarini aniqlash; - ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g'oyalar, konsepsiyalar hamda ilg'or pedagogik tajribalarni izlab topish va oliy pedagogik ta'lim amaliyotiga joriy etish; - bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish va qo'llash jarayonidagi o'ziga xoslik va ularning turli-tuman ko'rinishlarini aniqlash, bunda namoyish qilish, tasvirlash, ochiq darslar o'tkazish, yangi manbalar ustida ishlash, ma'ruzalar tashkil etish, tajriba-sinov ishlarida ishtirok etish singari ish turlaridan keng foydalanish kabilar. Pedagogik innovatsiyalarni tashxislash asosida o'rganishga yo'naltirilgan amaliy ishlarni ham bir necha bosqichlarda o'tkazish tavsiya etiladi. Bo'lajak o'qituvchilardan dastlabki bosqichda anketa so'rovlari, anketa savollariga olingan javoblarni ekspertizadan o'tkazish, indvidual suhbatlar tashkil etish va anketa savollariga olingan javoblardagi ma'lumotlarni tasdiqlash, tashxis natijalari asosida olingan ma'lumotlarni tahlil qilish . Mazkur bosqichda birinchi bosqich natijalari asosida bo'lajak o'qituvchining kasbiypedagogik malakasini oshirishga yo'naltirilgan tadbirlar rejalashtiriladi hamda ularni amalga oshirish yo'llari ko'rsatiladi. Ushbu bosqichda amalga oshirilgan ishlar yakunlanib, takroriy tashxislash o'tkaziladi. Mazkur jarayonda bo'lajak o'qituvchining oraliq hamda yakuniy natijalarni olishga yo'naltiriladi. Guruhdagi talabalar faoliyatida ro'y bergan o'zgarishlar chuqur tahlil qilinadi. Buning natijasida bo'lajak o'qituvchilarning hosil qilgan kasbiy ko'nikma, malakalari va tajribalarini tashxislash hamda ularni tashxislash metodlari bilan qurollantirish hamda kasbiy pedagogik ta'lim jarayonini innovatsion g'oyalar asosida qayta qurish talabalarning kreativ faoliyatini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Buning natijasida bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy faoliyat ko'rsatishga, tashabbuskorlikka undash imkoniyati vujudga keladi . O'qituvchining ijodiy pedagogik faoliyati inson ongi, xulqini shakllantirishga, eng muhimi barkamol insonlar avlodini yaratishga bo'ysundirilgan vazifalarni ijobiy hal qilish jarayonidir. Shuningdek, loyihalashtirilgan o'quv maqsadi engil amalga oshadi

hamda kutilayotgan natijaga tezroq erishiladi. Ya'ni; - innovatsion ta'lim texnologiyasi tizimida o'qituvchining o'rni va vazifalari aniq belgilanishi zarur; - o'qituvchi yangi kasbiy lavozim - «o'qituvchi-texnolog», - «pedagogtexnolog» darajasiga ko'tarilishi kerak; - «o'qituvchi-texnolog» maxsus bilim, ko'nikma, malakaga ega bo'lishi kerak; - «o'qituvchi-texnolog»ning pedagogik jamoa o'rtasida nufuzi, salohiyatining ortishi, ma'naviy, moddiy manfaatdorligining ta'minlanishi bo'yicha aniq tadbirlar amalga oshirilgan bo'lishi zarur. Ta'lim sifatini rivojlantirishda mashg'ulotlarda o'qituvchilar dars jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishlari, albatta, samarali natijalarni beradi.

Xulosa qilib shuni aytganda, yuqori darajadagi umumiy-kasbiy madaniyatga, ijtimoiy faolikka, mustaqil fikrlashga, o'z vazifalarini qiyinchiliksiz hal qila olish qobiliyatiga ega bo'lgan etuk mutaxassislarni tarbiyalash uchun bugungi kunda pedagogo' qituvchilarimiz zamonaviy yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishlari ta'lim-tarbiyaning sifat va samaradorligini oshirishning asosiy omili ekanligini, buni esa davr talab etayotganligini tushunib etishlari lozim.

REFERENCES

1. Artemov V.A. Pcixologiya obucheniya inoctrannomu yazbiku. - M.: "Pedagogika". 1989.- S.103.
2. Bim I. L. Nekotorbie aktualnbie problembi covremennogo obucheniya inoctrannbim yazbikam.- YAISH. 2001, № 4.- S.39
3.Yoralieva U.Q. Maktabgacha ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitishning o'ziga xosxususiyatlari va unda interfaol usullardan foydalanishning imkoniyatlari. Zamonaviy ta'lim jurnali. -T., 2014, 9-son.-27 b.
4.Мансуров, Н., & Жалилова, В. (2021). МЕТОДИКА ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ-НАУЧНАЯ ОТРАСЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ.
5.Valiev, A. (2021). ABOUT THE FEATURES OF THE PERSPECTIVE OF SIMPLE GEOMETRIC SHAPES AND PROBLEMS IN ITS TRAINING.
6. BULATOV, S., & JABBAROV, R. (2016). № 2 National traditional basis of symbol of Khumo. Central Asian Journal of Education, 1.
7.Жаббаров Рустам Равшанович (2016) Узликни англашнинг психологик асослари. The organization of innovative activities of the teachers: Problems and solutions. pp-444-445.
8.BULATOV, S., & JABBAROV, R. (2016). № 2 National traditional basis of symbol of Khumo.

9. Hasanov, A. A. (2020). PECULIARITIES OF PREPARING TEACHERS FOR THE DEVELOPMENT AND USE OF E-LEARNING RESOURCES. Theoretical & Applied Science, (9), 15-17.
10.Khasanov, A. A. (2018). Didactic Foundations of Interdisciplinary Connections at Subject Teaching. Eastern European Scientific Journal, (6).
11.Авазбаев А.И., Худайберганова М.Э.Формирование необычного или креативного мышления у учащихся в процессе обучения. Международный научный журнал «ВЕСТНИКНАУКИ»№ 5 (26) Т. 3 МАЙ2020 г.
12.Malikov, K. G. (2020). THEORY AND PRACTICE OF CONSTRUCTION OF AXONOMERTIC PROJECTS.
13. Халимов, М. К., & Жабборов, Р. Р. (2018). Сравнение продуктивности учебной доски и проектора в преподавании предметов, входящих в цикл инженерной графики. Молодой ученый, (6), 203-205.
14. Расулов, М. (2021). НАУЧИТЬ СТУДЕНТОВ ВО ВНЕШКОЛЬНЫХ УЧЕРЕЖДЕНИЯХ СОСТАВЛЯТЬ КОМПОЗИЦИИ НА УРОКАХ РЕЗЬБЫ ПО ДЕРЕВУ. 15.Tashimov Nurlan, Samandar Zaitov. (2021) Improving the quality and efficiency of teaching descriptive geometry in a credit-modular system.
16. Jabbarov, R. (2021, March). PRIORITIES FOR THE DEVELOPMENT OF PAINTING. In Конференции.

AN'ANALARGA SODIQLIK -- MILLIY QIYOFANI YO'QOTMASLIK KAFOLATIDIR

Ikbal, Tadjibayevna Baltayeva
O'zDJTSU professori, filologiya fanlari doktori.
Mohinur Alimardon qizi Adashalieva,
O'zDJTSU AP-01-24 guruh talabasi.

ANNOTATSIYA:

Badiiy adabiyot insonning ma'naviy-axloqiy yetukligi va falsafiy-intellektual kamoloti uchun xizmat qilar ekan, asrlar davomida,chunonchi, mumtoz adabiyotidan keyingi asrlar adabiyotiga o'tib kelayotgan ilg'or ijodiy tajribalarning adabiy-estetik qadriyatga aylangan qismi adabiy an'analarni yuzaga keltirgan. Mazkur maqolada o'tmish adabiyotining tajribalari yangi bosqichga muvofiqlashtirilishi, yangi asar o'tmish adabiy an'analari talablariga moslashtirilgan holda qayta ishlanib, yuqoriroq bosqichga chiqarilishi haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: adabiy jarayon, milliy, til, an'analar, millat,adabiyot taraqqiyoti, ma'naviy-axloqiy, yetuklik.

АННОТАЦИЯ:

В то время как художественная литература служит духовно нравственной зрелости и философско-интеллектуальной зрелости человека, литературно-эстетическая ценность передового творческого опыта, перешедшего из классической литературы в литературу последующих столетий, например, перевернутая часть создала литературные традиции. В данной статье говорится об адаптации опыта прошлой литературы на новый уровень, переработке нового произведения в соответствии с требованиями прошлых литературных традиций, выводе его на более высокий уровень.

Ключевые слова: литературный процесс, национальный, язык, традиции, нация, литературное развитие, духовно-нравственная зрелость.

O'zbek adabiyotshunosligida an'ana tushunchasi bir qadar yaxshi ishlangan ilmiy muammo hisoblanadi. Chunonchi, adabiyotshunos olim, prof. Dilmurod Quronov rahbarligida yaratilgan "Adabiyotshunoslik lug'ati" kitobida an'anaga shunday ilmiy izoh beriladi: "Adabiy an'ana – o'tmish adabiyoti to'plagan ijodiy tajribalar qaymog'i, davrlar o'tishi bilan ahamiyati va dolzarbligini yo'qotmagan, badiiy qadriyatga aylanib, avloddan avlodga o'tib kelayotgan qismi. Demak, adabiy

an’ana doirasiga o‘tmish adabiyoti erishgan yutuqlar, to‘plagan tajribalarning hammasi emas, balki uning muayyan davr ijodkorlari tomonidan dolzarb deb topilgan, boqiy qadriyat sifatida baholangan va o‘z ijodiy faoliyatlarida namuna deb hisoblagan qismigina kiradi.

Har bir avlod o‘tmish adabiyotiga saylab munosabatda bo‘ladi, unga faol ijodiy yondashadi, salaflar tajribasini o‘z davri qo‘ygan badiiy-estetik vazifalarni bajarishga xizmat qildiradi. Shunga ko‘ra adabiy an’ana va yangilik (novatorlik) ham qadamligi qonuniy hodisa bo‘lib, bu ikkisi dialektik aloqadagi birlikni tashkil etadi va adabiyot taraqqiyotining muhim ichki omiliga aylanadi. Har bir davr o‘zidan oldingi davr adabiyotida mavjud eng yaxshi jihatlarni o‘ziga singdiradi va unga nimadir qo‘shishga intiladi, shu asosda taraqqiyot jarayonining uzluksizligi ta’minlanadi.

Adabiyotda adabiy an’analarga sodiqlik milliy adabiyotdagi o‘ziga xoslik, milliy qiyofani yo‘qotmaslik kafolatidir. Tabiiyki, boy adabiy an’analarga tayangan adabiyotning rivojlanish imkoniyatlari boshqalarga nisbatan yuqori bo‘ladi. Masalan, xalqimizning boy adabiy-madaniy an’analari XX asr boshlarida kuzatilgan yangi o‘zbek adabiyotining shakllanish jarayoni tez kechishini ta’minladi: adabiyotimiz juda qisqa fursat ichida jahon adabiyotidagi yutuqlarning ko‘pini ijodiy o‘zlashtirdi, o‘zining badiiy arsenalini boyitdi. Aytaylik, roman G‘arb adabiyotiga xos janr ekanligi, uning o‘zbek adabiyotida o‘zlashishi 20-yillarga to‘g‘ri kelishi ma’lum. Biroq g‘arbona shakl milliy adabiyotimizni boyitdigina emas, balki adabiy an’analarimiz zaminida uning o‘zi ham boyidi – o‘zbek romanchiligi dunyoga keldi. Milliy romanchiligimizning ilk namunasi bo‘lmish “O‘tkan kunlar”dan boshlab “Otamdan qolgan dalalar”gacha bo‘lgan namunalarida ming yilliklar bilan o‘lchanadigan adabiy-madaniy an’analarimiz izlari bor, shu tufayli ham u o‘zining qiyofasiga ega “o‘zbek romani”dir”[14].

Mazkur lug‘atda adabiy an’ana tushunchasining deyarli barcha qirralari qamrab olingani sababli iqtibosni kattaroq olishni maqsadga muvofiq, deb hisobladik. Undagi ta’rifdan adabiy an’ana bilan badiiy adabiyotdagi vorisiylik tushunchalari orasida chambarchas bog‘liqlik borligi ko‘zga tashlanib turibdi. Ma’lum bo‘ladiki, mumtoz adabiyotidan keyingi asrlar adabiyotiga o‘tib kelayotgan muayyan ijodiy tajriba emas, balki ilg‘or ijodiy tajribalarning adabiy-estetik qadriyatga aylangan qaymog‘igina adabiy an’ana sanalishi mumkin ekan. Shuningdek, an’ana amalda qo‘llanilayotganida o‘zlashtirilayotgan ijodiy tajriba va vositalarga mexanistik yondashuv emas, balki ularga ijodiy munosabat shartligi muhimdir. Boshqacha qilib

[14] Д. Қуронов, З.Мамажонов, М.Шералиева. Адабиётшунослик луғати. –Т.:Академнашр,2013.–Б.11-12.

aytganda, o‘tmish adabiyotining tajribalari yangi bosqichga muvofiqlashtirilishi, yangi asar o‘tmish adabiy an’analari talabalariga moslashtirilgan holda qayta ishlanib, yuqoriroq bosqichga chiqarilishi ko‘zda tutiladi.

Ma’lumki, badiiy adabiyot insonning ma’naviy-axloqiy yetukligi va falsafiy-intellektual kamoloti uchun xizmat qiladi. Illo odam zoti adabiyotni ma’naviy ehtiyojini qondiradigan qudratli badiiy-estetik vosita sifatida ardoqlab keladi.

Ta’kidlash joizki, mavjud an’analar bag‘rida yangilovchilik qilishga erishgan ijodkor amal qilgan badiiy-estetik tamoyillar muayyan milliy adabiyot taraqqiyotining keyingi bosqichida o‘zgalar uchun tayaniladigan adabiy an’anaga aylanib qolsagina, badiiy-estetik ahamiyat kasb etadi. Chinakam an’ananing kuchi shundaki, u keyingi davrlar uchun ham yaroqli va foydali bo‘ladi. Badiiy adabiyot rivojining o‘zidan keyingi davrlarida foydalanilmagan adabiy-badiiy tajribalar an’ana sanalmaydi. Adabiy tajriba muvaffaqiyatli an’anaga aylanishi uchun bir davr adabiy jarayoni chegarasidan tashqariga chiqa olish qudratiga ega bo‘lishi talab qilinadi.

O‘zbek adabiyotida an’ana va unga amal qilish, o‘zlashtirish, rivojlantirish masalalarini chuqur o‘rgangan adabiyotshunos olim prof. H.Boltaboyev tadqiqotlari natijasida quyidagi qoidani ilgari suradi: “Adabiy an’ana – dunyoni ijodiy o‘zlashtirish davomida adabiy tajribada sinalgan estetik qarashlar, motiv, syujet, janr, uslub kabilar yangi davr ijodkorlari tomonidan qabul etilib joriylanishi; muayyan davrda erishilgan ijodiy yutuqlar yangi avlod tomonidan o‘zlashtirilib, ijodiy yondashgan holda rivojlantirilmasa, u adabiy an’anaga aylanmay, o‘sha davr doirasida qolib ketadi. Olamni badiiy idrok etishda avlodlardan o‘tib kelgan tajribalarga izdoshlik, sobitlik bilan bir qatorda uni yangilash, o‘ziga xoslik asosida takomillashtirilganda har qanday badiiy topilma an’anaga aylanishi mumkin. Sharq adabiyotining ustuvor jihatlaridan biri xamsachilik an’anasidir. Tarixda Nizomiyga ergashib “Xamsa” yaratish uchun uringan adiblar qancha. Biroq Xisrav Dehlaviy, Alisher Navoiy daho san’atkorlar tufayli bu an’ana keyingi davrda ham davom ettirilibgina qolmay, balki yangilik ham kasb etib, xamsachilik an’anasini yangi yuqori bosqichga ko‘tardi. Xuddi shu holni turkiy tazkirachilik an’anasiga ham nisbatan aytish mumkin. Navoiyning “Majolis...” tazkirasi an’analariga amal qilgan holda turkiy tilda o‘ttizdan ortiq, fors tilida esa ellikka yaqin tazkiralar yaratildi. Bu Hirot tazkirachiligi an’analarining davomiyligini ko‘rsatadi.

Adabiy an’ana bir til, millat yoki adabiy muhit doirasida emas, balki jahon adabiyoti tajribalariga nisbatan ham qo‘llaniladi. Adabiy an’ana o‘tmish adabiyotidan

meros qolgan adabiy tushuncha va hodisalar, madaniy merosning davomiyligini ta’minlovchi vorislik tushunchalari bilan bog‘liq holda mavjud.”[15]

Keltirilgan iqtibos mazmunidan ma’lum bo‘ladiki, taniqli olim adabiy an’ana tushunchasining o‘rganilayotgan nazariy, qanchalik keng qamrovli hodisa ekanligini atroflicha izohlab bergan. An’ana tushunchasi tarkibiga ham milliy, ham jahon adabiyotiga tegishli adabiy-badiiy tajribalar kirishi, ular yuqorida aytilganidek, badiiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida o‘zga ijodkorlar tomonidan qo‘llanilsagina an’ana rutbasiga ko‘tarilishi, har qanday holatda milliy adabiyotdagi an’analarga ergashish ko‘proq samara keltirishi va tushunarli yo‘sinda izohlangan.

O‘rganilayotgan nazariy masalaga shu nuqtayi nazardan qaraladigan bo‘lsa, istiqlol davri o‘zbek adabiyotida ham mavjud adabiy an’analardan foydalangan holda yangi badiiy-estetik hodisalar yaratishning uddasidan chiqayotgan bir qator ijodkorlar faolyatini adolat yuzasidan ta’kidlash lozim. Chunonchi, Omon Muxtor, Asad Dilmurod, Nazar Eshonqul, Ismoil Shomurod, Luqmon Bo‘rixon, Isajon Sulton, Abduqayum Yo‘ldosh, Zulfiya Qurolboy qizi, Bahrom Ro‘zimuhammad, Go‘zal Begim, Abduvali Qutbiddin, Tursun Ali, Ulug‘bek Hamdam, To‘xtamurod Rustam, Bahodir Qobul, Bahodir Abdurazzoq singari nosir va shoirlarning ijodida adabiy an’anaga tayangan holda badiiy-estetik yangilanish yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Umuman olganda, adabiy an’analar haqida fikr yuritish, yuqoridagi mulohazalarga orqali bugungi yetishib kelayotgan yosh avlodni milliy mentalitetimiz, milliy pedagogikamizga asoslangan tarbiya ilg‘or an’analar orqali dunyoqarashini shakkllantirish dolzarb maslalalardan biri ekanligini ta’kidlashdan iborat edi.

REFERENCES

1. Болтабоев Ҳ.Адабиёт энциклопедияси.–Т.:MUMTOZ SO’Z,2015.Б.218-219.
2. Д. Куронов. З.Мамажонов, М.Шералиева. Адабиётшунослик луғати. – Т.:Академнашр,2013.–Б.11-12.
3.Tadjibayevna B. I. THE GENERAL-TYPICAL PLACES OF FOLK EPICS IN THE PLOT SYSTEM SPECIFIC FEATURES //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES. – 2022. – T. 3. – №. 04. – C. 70-73.
4.Tadjibayevna B. I. On the peculiarities of succession in Uzbek literature //International Journal on Orange Technologies. – 2021. – T. 3. – №. 4. – C. 310-314.
5.Tadjibayevna B. I. ADABIY VORISLIK AN’ANALARIDA IJODIY TAJDID (NOVATORLIK)-ADABIY JARAYONNING HARAKATLANTIRUVCHISI

[15] Болтабоев Ҳ. Адабиёт энциклопедияси. –Т.: MUMTOZ SO’Z , 2015. –Б.218-219.

(GENERATORI) //INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022. – 2023. – Т. 2. – №. 23. – С. 128-132.

6.Baltayeva I. T. O 'ZBEK ADABIY-BADIIY PROGRESSI-ADABIY VORISLIK QONUNIYATINING YETAKCHI XUSUSIYATI //ILM FAN TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY METODLARNING QO'LLANILISHI. – 2023. – Т. 3. – №. 10. – С. 103-106.

7.Tadjibayevna B.I.ADABIY VORISIYLIK HODISASINING O'ZBEKISTONDA O'RGANILISHI //Educational Research in Universal Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 41-44.

Malakali voleybolchilarni tayyorlashda harakat funksiyasining ikki, bir-biriga uzviy bog'liq tomoniga alohida e'tibor qaratiladi:

- voleybolchini texnik-taktik malakalarga o'rgatish va ularni takomillashtirish;
- voleybolchi jismoniy sifatlarini tanlangan sport turi xususiyatiga muvofiq ravishda tarbiyalash.

Bir qancha mualliflarning fikricha, umumiy jismoniy tayyorgarlik tushunchasi bu sportchining harakat sifatlarini har tomonlama rivojlanganlik darajasini anglatadi. Masalaga shu tarzda yondoshish oddiy inson sog'lig'ini shakllantirish nuqtai nazaridan maqsadga muvofiqdir. Har bir sport turining o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlari mavjudligi tufayli bir sport turida ko'proq kuch-tezkorlik sifati ustun tursa, ikkinchi bir sport turida chidamlilik sifati yetakchi rolni o'ynaydi yoki uchinchi bir sport turida egiluvchanlik sifati asosiy ahamiyatga ega bo'ladi. Ammo, qayd etilgan fikrdan muayyan sport turida ma'lum jismoniy sifat juda zarur, boshqasi esa muhim emas, degan xulosa kelib chiqmaydi. Aksincha, har bir sifatning muayyan sport vaziyatida ozmi-ko'pmi, lekin muhim "xizmati" mavjud bo'ladi.

Zamonaviy voleybolda samarali o'yin ko'rsatish va yuqori natijalarga erishish faqat samarali tashkil qilingan mashg'ulotlar evaziga amalga oshirilishi mumkin. Murabbiy mashg'ulot uslublarini tanlayotganda har qaysi holat uchun oqilona uslubni ko'rsatuvchi qoidalarga suyanadi. Mashg'ulot uslublari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Mashg'ulotning maqsad va vazifalari voleybolchilarning individual va yosh xususiyatlariga muvofiq kelishi;
2. Mashg'ulotlarda voleybolchilarning faolligini oshirish, bilimlarini, o'yin malaka va ko'nikmalarini ongli va puxta o'zlashtirishini ta'minlashi;
3. Mashg'ulot va ta'limning uzviy va izchil o'tkazilishiga, voleybolchilar bu ishda osondan qiyinga, ma'lumdan noma'lumga, oddiydan murakkabga, umumiydan xususiyga o'tishiga yordam berishi.

Sport tayyorgarligini shakllantirish samaradorligi to'g'ridan-to'g'ri barcha jismoniy sifatlarning bir-biriga bog'lab rivojlantirishga bog'liqdir.

Ma'lumki, zamonaviy voleybolda o'yin samaradorligi, texnik-taktik kombinatsiyalarni tez, unumli va aniq ijro etilishi hamda pirovard yuqori sport natijasiga erishish muvofiq ravishda shakllangan tezlik-kuch sifatlarisiz amalga oshirilishi o'ta mushkul ekanligi barcha amaliyotchi trenerlar va tadqiqotchi olimlar tomonidan e'tirof etib kelingan. Shuning uchun ushbu sifatlarni maxsus rejalashtiruv

hujjatlari asosida shakllantirish va har yoshdagi sportchilarda shu sifatlarning o'zgarib borishini nazorat qilish hamda baholash odat tusiga kirgan. Barcha sport turlari bilan shug'ullanuvchi sportchilarda tezlik-kuch sifatlarini dastlabki o'rgatish bosqichidan boshlab, toki yuksak mahorat bosqichigacha o'ziga xos tartibda va muvofiq sport turi xususiyatiga mos mashqlar yordamida shakllantirib boriladi.

Voleybol bo'yicha mavjud ilmiy, uslubiy va o'quv adabiyotlarida malakali voleybolchilarni tayyorlashda jismoniy sifatlarni, ayniqsa, tezlik-kuch sifatlarini rivojlantirish muhim shartlardan biri ekanligi ta'kidlab o'tilgan . Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, voleybolchilarning sport mahoratini yuksaltirish aksariyat tezlik-kuch sifatlariga bog'liqdir. Olimlarning fikricha, voleybolchilarning tezlik-kuch sifatlarini shakllantirishda ixtisoslashtirilgan mashqlardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Tadqiqotlar jarayonida bolalar o'smirlar sport maktablarida voleybolchilarning texnik-taktik tayyorgarliklarini oshirish yuzasidan turli xil maxsus mashqlar qo'llanildi.

O'yin texnikasi- bu bir vaqtning o'zida ketma-ket va muayyan maqsadli tartibda ijro etiladigan ixtisoslashgan harakat yoki harakatlar majmuasidir. O'yin texnikasi harakatni aniq, tez, yengil, vaziyatga muvofiq, kam kuch sarf etib yuqori samarada bajarishga mo'ljallangan bo'lishi lozim.

"Texnika" atamasi yunoncha (tehnus) so'z bo'lib , juda keng ma'noda foydalaniladi va o'zbek tilida "san'at" tushunchasini anglatadi. Texnik harakatlarni bajarishda harakatlarning farq jihatidan ma'lum bir fazalari farqlanadi. Odatda, harakatlarning uch fazasi: tayyorgarlik, asosiy va yakunlovchi fazalarini belgilab qo'yish mumkin.

Voleybol texnikasi ikkita katta bo'lim: hujum va himoya texnikalariga bo'linadi.

Voleybol o'yinida o'yinchilar to'p bilan qisqa vaqt ichida harakat qilishlari lozim. Shu sababli u yoki bu o'yin sharoitida o'yinchi to'p bilan o'ynashi uchun yuqori tayyorgarlik ko'rishi talab etiladi. Shu maqsadda turli harakat usullarini bajarish uchun turli holatlarni egallash kerak.

Hujum zarbasini berish va to'siq qo'yishda – baland, o'yinga kiritilgan to'pni qabul qilishda – o'rta, hujum zarbasini yoki to'siqdan pastlab qaytgan to'pni qabul qilishda past holatlar egallanadi.

O'yinchi ma'lum bir texnik usulni bajarish uchun maydon bo'ylab harakatlanadi. Bunday usul va o'yinning vaziyatiga bog'liq holda, qadam tashlab (oldinga, orqaga, yon tomonga), sapchib, sakrab, yugurib, yiqilib turli harakatlarni amalga oshiradi.

Voleybolda o'yinchini texnik tayyorlashning quyidagi bosqichlari mavjud:

1. 1-bosqich- zamin tayyorlash va tasavvur hosil qildirish. Bunda o'rganiladigan harakat to'g'risida tushuncha hosil qilinadi, voleybol o'yinidagi harakatning umumiy sxemasini o'zlashtirish qoida va maqsadlari bilan tanishtirish vazifasi qo'yiladi. Bu bosqichda harakat soddalashtiriladi, mashq uchun sharoit hosil qildiriladi.

2. 2-bosqich- element texnikasini chuqur o'zlashtirish bir necha haftadan bir necha oygacha davom etadi. Bu bosqichning vazifasi sport mashqi texnikasini to'g'ri ijro etish darajasigacha o'zlashtirishdan iborat.

3. 3-bosqich- harakat texnikasini takomillashtirish shug'ullanuvchilarning o'z intilishlari tugagunga qadar davom etadi.Bu bosqichning vazifasi o'yin davomida turli sharoitlarda maksimal zo'r berganda ham texnikani to'g'ri saqlab turish uchun mashqlarni takomillashtirishga erishishdir.

Voleybolda o'yin taktikasi deb muayyan jamoaning ikkinchi bir jamoa ustidan yakka, guruh va jamoa harakatlari yordamida g'alabaga erishish san'atiga aytiladi.

Taktikaning asosiy vazifasi muayyan raqib jamoaga nisbatan mavjud vaziyatga qarab g'alaba sari qo'llaniladigan o'yin vositalari, usullari va shakllarini aniqlab, qo'llay olishdan iborat. O'yinni samarali tashkil etishda jamoa imkoniyatlaridan kelib chiqib, uni quyidagi tamoilda tashkil etish mumkin; 4+2 (to'rtta hujumchi va 2 ta bog'lovchi o'yinchilar) va 5+1 (beshta hujumchi va 1 ta bog'lovchi o'yinchi). Oxirgi variant hozirgi zamon voleybolida juda keng qo'llaniladi. Taktikaning yakka, guruh va jamoa shakllari mavjud. Taktikaning vositalariga esa o'yin priyomlari va ularning barcha turlari kiradi. O'yin taktikasi ikki qismdan: hujum va himoya taktikasidan iborat bo'lib, individual, guruhli va jamoa taktik harakatlari asosida amalga oshiriladi.

Bugungi voleybol o'yinining mohiyati, jumladan, texnik-taktik harakatlarning ijro etilishi aksariyat havoda, ya'ni tayanchsiz holatda amalga oshirilishi bilan farqlanadi. Sakrab zarba berish, to'siq qo'yish, to'p uzatish, yiqilib to'p qabul qilish, to'p kiritish bunga yaqqol misol bo'la oladi. So'nggi yillarda o'yin qoidalarining keskin o'zgarishi (tanani barcha qismi bilan to'p qabul qilish, hisobni tay-brek tizimida olib borilishi, libero o'yinchining joriy etilishi, o'yinchi almashinuvining to'g'ridan to'g'ri amalga oshirilishi, to'rning pastki qismiga tegishga ruxsat berilishi va h.k.) o'yin sur'atini yanada jadallashishiga olib keldi. Mutaxassislar tomonidan aniqlanganki, har bir musobaqa o'yinida voleybolchilar 300-600 marta, hatto undan ko'p sakrab ijro etiladigan texnik-taktik harakatlarni bajarar ekanlar. Agar o'yindan oldingi razminka davomidagi sakrashlar, o'yin vaziyatlarida to'psiz ijro etiladigan

chalg'ituvchi sakrashlar e'tiborga olinsa, qayd etiladigan sakrashlar hajmi yanada ortadi. Bordi-yu. bu sakrashlarning yillik hajmi nazarda tutilsa, zamonaviy voleybolda yuksak natijaga erishish qanchalik jismoniy imkoniyatlarga bog'liq ekanligi ayon bo'ladi. Albatta, jismoniy tayyorgarlikni yetarli darajada rivojlantirish uslubiy jihatdan yaxshi ishlab chiqilgan mashg'ulot uslubiyatiga bevosita bog'liqdir.

REFERENCES

1. Ayrapetyans L.R., Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. T. 2012 y.
2. Isroilov Sh.X. Voleybol. /Olimpiya zahiralari kolleji talabalari uchun o'quv qo'llanma/. T. 2008 y.
3. Kerimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. Darslik .T. 2004 y.
4. Pulatov A.A., Isroilov Sh.X. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. O'quv qo'llanma T. 2007 y.
5. Pulatov A.A. Yosh voleybolchilar tezkorlik-kuch sifatlarini shakllantirish uslubiyati. Uslubiy qo'llanma. T. 2008 y.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI JISMONIY RIVOJLANTIRISHDA HARAKATLI O'YINLARNING AHAMIYATI (ЗНАЧЕНИЕ ПОДВИЖНЫХ ИГР В ФИЗИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ У ДОШКОЛЬНИКОВ)

Muyassar Muxiddinovna Nuriddinova,
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, p.f.b.f.d. (PhD), dotsent,
O'zbekiston, Chirchiq,
nuriddinova.muyassar83@mail.ru

ANNOTATSIYA

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlantirishda harakatli o'yinlarning ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, jismoniy tarbiya, mashg'ulot, sayr, faollik.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается значение подвижных игр в физическом развитии детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: дошкольное образование, физкультура, тренировки, прогулки, активность.

Maktabgacha tarbiya ta'lim tizimining birlamchi va eng muhim bo'g'ini hisoblanadi. Sog'lom genofondni, yetuk kadrlarni tarbiyalash, avvalo, shu tizimdan boshlanadi. Biroq shu paytgacha bu tizim rivojlanishdan ortda qolgan edi. Oxirgi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni 45 foizga kamaygan. Oqibatda maktabgacha yoshdagi bolalarning 33 foizi bog'chalarga qamrab olingan, xolos. Bu ko'rsatkich Daniyada 99 foiz, Yaponiyada 97 foiz, Janubiy Koreyada 95 foizni tashkil etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, matematik, fizio-psixologik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish bo'yicha ta'lim dasturlari joriy etilmagan. Umuman, bog'chalar "Ota-ona ishda bo'lgan vaqtda bolaga qarab turadigan muassasa"ga aylanib qolgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev bu sohani rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligini tashkil etish bo'yicha qarorni imzoladi. Yangi tuzilgan tashkilot zimmasiga maktabgacha ta'lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish, infratuzilmasini va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash,

muassasalarga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari yuklandi.

"Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari", ya'ni Standartlar "Takomillashtirilgan ilk qadam" o'quv dasturi va unga muvofiq ishlab chiqilgan guruhlar kesimida mavzuiy rejalashtirish, jismoniy tarbiyadan nazariy va amaliy majmua, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya yo'riqchilarining ish jurnali shular jumlasidandir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kun tartibi aniq belgilangan faoliyatlar orqali quyidagi yosh guruhlarida kichik (3-4 yosh); o'rta (4-5 yosh); katta (5-6 yosh), maktabga tayyorlov guruhlari (6-7 yosh) rejalashtiriladi va shunga mos ravishda tashkillashtiriladi. Ta'lim muassasasida 5ta yo'nalish bo'yicha ta'lim-tarbiya berilib, ilk bo'g'ini bu jismoniy tarbiya va sog'lom turmush tarzini tashkil etish bo'lib, u o'z ichiga "Jismoniy tarbiya va sog'lom turmush tarzini amalga oshirish"ni qamrab oladi.

Maktabgacha yosh davrida bolalarning jismoniy tarbiyasini to'g'ri tashkil etish, ilk yoshdan boshlab jismoniy ko'nikma va malakalarini shakllantirish va har tomonlama uyg'un rivojlantirish - maktabgacha jismoniy tarbiya nazariyasining asosiy talablaridan hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaning jismoniy rivojlanishi va uning faol harakatlanishiga imkon yaratish, ta'lim-tarbiyaviy jarayonning mazmuni va metodlarini ishlab chiqishga ilmiy yondashish, tizimli yondashuvga rioya qilish, chiniqtirish, chidamlilikni oshirish, zarur ko'nikma va malakalarini tarbiyalash; mashg'ulotlarda va o'yin faoliyatida mustaqil fikrlashga, jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalashga oid muhim masalalarni hal etish lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari o'quv yiliga 72 ta mashg'ulotga mo'ljallanadi. Barcha guruhlarda haftasiga 2 ta mashg'ulotdan, (ikkinchisi ochiq havoda rejalashtiriladi) bolaning fiziologik holatiga qarab, hafta kunlariga taqsimlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini jismoniy tarbiya yo'riqchisi olib boradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya yo'riqchisi (faoliyatni tashkil etish bo'yicha yo'riqnomaga ko'ra faoliyat yuritadi. Mazkur yo'riqnoma jismoniy tarbiya yo'riqchisining ishini tashkil etishga qaratilgan bo'lib, uning majburiyatlari, lavozim vazifalari va huquqlari belgilab berilgan yagona me'yoriy hujjatdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya yo'riqchisi faoliyat quyidagi hujjatlar asosida yuritiladi: mashg'ulotlarning haftalik jadvali, kunlik

oylik, yillik ish rejasi, tarbiyachi bilan hamkorlikda ishlash rejasi, bolalar bilan individual ishlash rejasidan iborat. Maktabgacha ta'lim muassasasi jismoniy tarbiya yo'riqchisining ish rejasi 3 ta asosiy tarkibda shakllantiriladi:

1.Meyoriy hujjatlar bilan ishlash - "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" va dasturlarga amal qilish, jismoniy tarbiya yo'riqchisi yuritishi lozim bo'lgan ish hujjatlarini tayyorlash, barcha yosh guruhlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini ishlab chiqish;

2.Tarbiyaviy-ta'limiy jarayonlarni tashkil etish – mashg'ulotga tayyorgarlikni yuqori sa'viyada tashkillashtirish, bolalarni mashg'ulotga qiziqishlarini ortirish maqsadida qiziqarli ko'rgazmalar va jihozlarni tayyorlash, to'garaklarini tashkil etish, bolalarni sport bayramlariga jalb etish, jismoniy rivojlanishda orqada qolgan bolalar bilan yakka tartibda ishlashni yo'lga qo'yish.

3.Hamkorlik - ota-onalar va boshqa pedagoglar bilan hamkorlik ishlarini tashkil qilish.

Ma'lumki, bolaning rivojlanishi va o'sishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Bu davrda uning shaxs sifatida shakllanishi, ilk bor atrof-olamni hodisa va buyumlar orqali anglab, undan o'zicha ma'no topishga intilishi, qiziqishlari va hissiyotlari rivojlanishini kuzatamiz. Bolaning jismoniy rivojlanishi qonuniyatlari va uning ilk harakatlariga imkon yaratish, ta'limiy-tarbiyaviy jarayonning mazmuni va metodlarini ishlab chiqishga ilmiy yondashish, tizimli gigienaga rioya qilish, tabiiy va sun'iy vositalar asosida chiniqtirish, faol harakat qilishning zarur ko'nikmalarini tarbiyalash; turli mashg'ulotlarda va o'yin faoliyatida mustaqil fikrlashni rivojlantirish kelgusidagi ruhiy va jismoniy rivojlanishdagi kamchiliklarni bartaraf etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishda tizimli mashg'ulotlar va harakatli o'yinlardan foydalanish juda zarur bo'lib, maktabgacha yosh davrining har bir bosqichi rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlariga ko'ra o'ziga xos jihatlarga ajratiladi. Bolaning o'sib, ulg'ayishida jismoniy faollik, asosiy harakatlar tartibi muhim hisoblanib, aynan shu jarayonlar metodik jihatdan to'g'ri va tizimli ravishda tashkillashtirilsa, bola shaxsining jismoniy taraqqiy etishiga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ushbu vazifalar tizimli amalga oshirilib, uning dastlabki bo'g'ini bu o'yin shaklidagi jismoniy tarbiya mashg'ulotidir.

Jismoniy tarbiya mashg'uloti kirish, asosiy va yakuniy qismlardan iborat bo'lib, o'ziga xos vazifa va mazmunga ega. Mashg'ulotning kirish qismi maqsad va

vazifalarga ko'ra uyushtiriladi. Jumladan, bolalar kiyimlari va maxsus joy, jihoz va inventarlar yaroqliligi nazorati, bola hayoti xavfsizligini ta'minlashda texnik qoidalarga rioya etilishi kabilardir. Mashg'ulotning bu qismi vazifasi bolalarda unga nisbatan qiziqish uyg'otishdan tortib to diqqatni jamlash, ayrim harakat ko'nikmalarini shakllantirish va keyingi faoliyatga tayyorlashni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek. bu qismda saflanish mashqlari - turlicha saflanishlar, qayta saflanishlar, topshiriqlar bilan bajariladigan (yo'nalishi ko'rsatilgan burilishlar) yurish va yugurish, yengil yugurish hamda keyinchalik kichik davra bo'lib saflanish; turli ko'rinishdagi yurishlar - tovonda, oyoq uchida, belgilangan chiziqda, narvonda yurish va boshqa mashqlar tanlab olinadi. Kirish qismi bolalarning qatorlarga bo'linib, doira bo'lib saflanishi, tarqalishi bilan yakunlanadi. Bu bolalarni mashg'ulotning asosiy qismi boshlanishidagi umumrivojlantiruvchi mashqlarni o'rgatishga xizmat qiladi.

Mashg'ulotning asosiy qismida qulay holatda dastlab bolalarni umumrivojlantiruvchi mashqlarga, so'ng asosiy harakatlarga o'rgatish

(2-3tagacha). jismoniy sifatlar (kuch, chaqqonlik, epchillik)ni tarbiyalash vazifalari belgilanadi. So'ng asosiy harakatlarni mustahkamlaydigan harakatli o'yinlar o'tkaziladi. Umumrivojlantiruvchi mashqlarni bolalar buyumlar - bayroqchalar, tayoqchalar, chambaraklar, arqonlar bilan bajarishlari mumkin. Mashg'ulotni yakunlovchi qismi tinch holdagi harakatli o'yindan so'ng tobora sekinlashadigan suratdagi yurishlar bilan amalga oshiriladi.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari muntazam tashkil etilganda bolalarda harakat ko'nikmalarining rivojlanishi va malakalarni ortishiga sabab bo'ladi. Ayrim mashg'ulotlarda asosiy e'tibor bolalarni yangi jismoniy mashqlarni avval o'rganilgani bilan birga o'rgatishga, ikkinchi xil mashg'ulotlarda harakat (ko'nikma va malaka)larni bolalar tomonidan o'zlashtirish darajasiga e'tibor qaratiladi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotida qo'yilgan maqsad va vazifalarning amalga oshirilishi, erishilayotgan natijalar, yakka tartibdagi mashqlar tahlil qilinadi.

Avvalgi va keyingi mashg'ulotlar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlik, umumiy maqsadga yo'nalganlik, oddiydan murakkablashib boradigan harakatlarni qo'llash, mashqlar orasidagi izchillik dasturga muvofiqlik darajasi nazorat qilinadi. Mashg'ulot shunday tashkil etilganda bolalarda mas'uliyat, o'zini tuta bilish, topshiriqni mustaqil bajarish malakasi shakllanib, o'z ko'nikmalarini ongli ravishda orttirib borish imkoniyati yaratiladi.

Ertalabki badantarbiya mashqlari bola sog'lig'ini mustahkamlashning zaruriy sharti bo'lib, bolalarda diqqatni, maqsadga intiluvchanlikni tarbiyalaydi, aqliy

faoliyatning oshishiga yordam beradi, ijobiy emotsiya va tetiklikni uyg'otadi. Jismoniy mashqlarni ochiq havoda yoki darcha, derazalari ochiq xonada suv muolajalari (artinish, suv quyish, dush) bilan o'tkazishni ta'minlash sog'lomlashtiruvchi samarani beradi: nerv tizimning umumiy holati va funksional imkoniyatlarini yaxshilaydi, uni mustahkamlaydi va chiniqtiradi, bolalarda tetiklik, yengillik va quvonchni uyg'otadi. Ertalabki badantarbiya maktbagacha ta'lim tashkilotlarida muntazam o'tkaziladi.

Quvnoq jismoniy daqiqalar qisqa muddatli jismoniy mashqlardan iborat bo'lib, o'rta, katta va maktabga tayyorlov guruhlarida mashg'ulotlar o'rtasidagi tanaffusda, shuningdek mashg'ulot jarayonining o'zida (rasm chizish, applikatsiya, qurish-yasash va boshqalarda) o'tkaziladi. Jismoniy tarbiya daqiqalarining ahamiyati bola faoliyati va holatini harakat aktivligi orqali almashtirishdan iborat bo'lib, u charchoqni yozadi, bolaning emotsional ijobiy holatini tiklaydi. Agar bola mashg'ulot jarayonida nisbatan harakatsiz turib qolish oqibatida muskullarning nerv tizim ta'sir qiluvchi, organizmdagi funksional jarayonlarni susaytiruvchi turib qolish hodisasi yuz beradi, bularning hammasi toliqishni keltirib chiqaradi. Bola betoqat bo'la boshlaydi, holatini o'zgartirishga intiladi, gohida qad-qomatni tiklash uchun noqulay holatda turib qoladi. Shu o'rinda esa jismoniy daqiqalarni bajartirish qo'l keladi.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish, kun tartibi asosida harakat faolligini oshirish, sayrlarni tashkil etish, muntazam o'yinlarning turli turlarini tashkil etish lozim va albatta bu jarayonlarda bolalarning individual xususiyatlari, jismoniy inkoniyatlari va albatta chiniqtirish jarayonlariga e'tibor bergan holda amalga oshirilishi kerak.

REFERENCES

1. Нуриддинова М. Организация занятий физической культурой с детьми дошкольного возраста //in Library. – 2022. – Т. 22. – №. 1. – С. 1024-1029.
2. Nuriddinova M. M. STRUCTURE, REPRESENTATION AND RULES OF THE NATIONAL ACTION GAMES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN //Физиологические и биохимические основы и педагогические технологии адаптации к разным по величине физическим нагрузкам. – 2022. – С. 280-283.
3. Нуриддинова, М. Организация занятий физической культурой с детьми дошкольного возраста / М. Нуриддинова. – in Library. – 2022. – № 1. – С. 1024-

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI HARAKAT FAOLLILIK DARAJASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Fotima Sherali qizi Ismailova,
Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti doktoranti
O'zbekiston, Chirchiq shahri
fotimaismailova54@gmail.com

ANNOTATSIYA:

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni harakat faollilik darajasini rivojlantirish usullariga to'xtalib, harakat faolligi bu yoshdagi bolalar uchun nafaqat sog'liqni mustahkamlash, balki o'ziga bo'lgan ishonch, ijtimoiy ko'nikmalar va diqqatni jamlash qobiliyatini oshirishda muhim rol o'ynashi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha yosh, harakat faolligi, jismoniy rivojlanish, o'yin usullari, sog'liqni saqlash, motorika, mashg'ulotlar, bolalar psixologiyasi, tabiatda faollik, guruhli o'yinlar.

АННОТАЦИЯ:

В статье уделяется внимание методам развития уровня двигательной активности дошкольников, при этом считается, что двигательная активность играет важную роль для детей этого возраста не только в укреплении здоровья, но и в повышении уверенности в себе, социальных навыков и способности концентрироваться.

Ключевые слова: Дошкольный возраст, двигательная активность, физическое развитие, игровые методы, здоровье, моторика, занятия, детская психология, активность на природе, групповые игры.

Maktabgacha yosh (3-6 yosh) bolalarning hayotida jismoniy, aqliy va hissiy rivojlanishning asosiy poydevori qo'yiladigan davrdir. Harakat faolligi bu yoshdagi bolalar uchun nafaqat sog'liqni mustahkamlash, balki o'ziga bo'lgan ishonch, ijtimoiy ko'nikmalar va diqqatni jamlash qobiliyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, zamonaviy sharoitlarda bolalar orasida harakatsizlik muammosi kuchayib, bu esa semizlik, mushak-skelet tizimi kasalliklari va psixologik muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda Ushbu maqolada

maktabgacha yoshdagi bolalarning harakat faolligini oshirishning samarali usullari, ularning afzalliklari va amaliy qo'llanilishi kengroq yoritiladi.

Asosiy qism: O'yin orqali harakat faolligini rivojlantirish O'yin bolalar uchun eng samarali va qiziqarli faoliyat turi hisoblanadi. Masalan, "quvish" (tag), "to'p bilan o'ynash" yoki "sakrash o'yinlari" kabi mashg'ulotlar bolaning katta motorikasini (yugurish, sakrash) va kichik motorikasini (to'pni ushlash, tepish) rivojlantiradi. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 3-5 yoshli bolalar kuniga kamida 60 daqiqa o'rtacha yoki yuqori intensivlikdagi jismoniy faoliyat bilan shug'ullanishi kerak Bunday o'yinlar nafaqat jismoniy salomatlikni yaxshilaydi, balki bolaning ijodkorligini ham oshiradi.

Tashqi muhitdan foydalanish Tabiatda o'tkaziladigan faoliyatlar bolalarni harakatga undashning eng tabiiy usullaridan biridir. Parklarda yugurish, velosiped haydash, daraxtlar orasida yurish yoki oddiygina toshlarni yig'ish kabi mashg'ulotlar bolalarni ochiq havoda faol bo'lishga o'rgatadi. Olimlarning ma'lumotlariga ko'ra, ochiq havoda o'tkazilgan har bir soatlik faoliyat bolaning D vitamini sintezini 20-25% ga oshiradi va uyqu sifatini yaxshilaydi Bundan tashqari, tabiat bilan aloqa bolaning stress darajasini pasaytiradi va tabiiy qiziqishini uyg'otadi.

Musiqa va ritmik harakatlar Musiqa ostida raqs qilish, ritmik gimnastika yoki oddiy qo'l-oyoq harakatlari bolalarning muvozanat, moslashuvchanlik va koordinatsiya qobiliyatlarini rivojlantiradi. 2021 yilda Journal of Child Psychology jurnalida chop etilgan tadqiqotda, haftada 3 marta 20-30 daqiqalik ritmik mashg'ulotlar bolalarning diqqat markazlashuvi va xotirasini 15-20% ga oshirishi isbotlangan. Musiqa nafaqat jismoniy faollikni rag'batlantiradi, balki bolaning hissiy holatini ham barqarorlashtiradi.

Guruhli mashg'ulotlar va sport o'yinlari Bolalar bog'chasida guruh bo'lib o'tkaziladigan mashg'ulotlar, masalan, "arxiv yugurish" (эстафета), "to'p o'tkazish" yoki "jamoaviy sakrash" kabi o'yinlar bolalarni birgalikda ishlashga va harakatga undaydi. Bu usul nafaqat jismoniy faollikni oshiradi, balki bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini, mas'uliyat hissini va o'zaro hurmatini rivojlantiradi. O'zbekiston Maktabgacha ta'lim vazirligining 2024 yilgi hisobotida, guruhli mashg'ulotlar bolalar orasida hamkorlikni 30% ga oshirgani qayd etilgan.

Uy sharoitida oddiy mashqlar Uyda ota-onalar bilan birga bajariladigan oddiy mashqlar, masalan, "cho'zilish", "sakrash" yoki "polga cho'kish va turish" kabi harakatlar bolalarni harakatsizlikdan xalos qiladi. Masalan, har kuni 15 daqiqalik oilaviy mashg'ulot bolaning mushaklarini mustahkamlaydi va ota-ona bilan aloqasini

yaxshilaydi. Bu usul ayniqsa qish mavsumida yoki tashqariga chiqish imkoni bo'lmagan paytlarda foydalidir.

Natija va muhokama; Yuqorida keltirilgan usullar maktabgacha yoshdagi bolalarning harakat faolligini oshirishda turli yo'nalishlarda samara beradi. O'yin va tabiat bolalarni tabiiy ravishda faol bo'lishga undasa, musiqa va guruhli mashg'ulotlar ularning ijodkorligi, ijtimoiy aloqalari va psixologik barqarorligini mustahkamlaydi. Uy sharoitidagi mashqlar esa har qanday sharoitda faollikni saqlash imkonini beradi. Biroq, har bir usulning samaradorligi bolaning yoshi, jismoniy holati va qiziqishlariga bog'liq. Masalan, 3 yoshli bola uchun oddiy sakrash yoki quvish o'yinlari yetarli bo'lsa, 5-6 yoshli bolalar uchun murakkabroq guruhli mashg'ulotlar va sport o'yinlari mos keladi. Muhokama qilish joizki, ota-onalar va tarbiyachilarning ushbu jarayondagi faol ishtiroki bolalarning motivatsiyasini oshiradi va uzoq muddatli natijalarga erishishga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning harakat faolligini rivojlantirish ularning sog'lom, baxtli va muvozanatli hayot kechirishi uchun zarur shartdir. O'yin, tabiat, musiqa, guruhli mashg'ulotlar va uy sharoitidagi mashqlar kabi usullar bolalarning jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu usullarni muntazam va ijodiy tarzda qo'llash orqali bolalarni kelajakda faol hayot tarziga tayyorlash va sog'lom avlod yetishtirish mumkin.

REFERENCES

1. Kenjayeva Xilola Azizxodjayevna " Maktabgacha yoshdagi bolalarning harakat faolligini oshirish uslubiyati" dissirtatsiya (PhD) chirchiq-2023-124b
2. T.S.Usmanxodjaev. M.M.Nuriddinova. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari uchun milliy sport turlari va xalq o'yinlari (etnosport)ni o'rgatish" bo'yicha o'quv qo'llanma. Toshkent-2023. 150-b
3. F.Xo'jayev "bolalar maktabgacha ta`lim tashkilotsida o'tkaziladigan harakatli o'yinlar" Toshkent-2022. 157-b
4. T.Usmanxodjayev.X.Meliyev. M.Nuriddinova. A.Olimov.Maktabtabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya,"Shodlik nashriyoti"Toshkent-Chirchiq-2019.159-b.
5. Nuriddinova M.M, Ismailova F,SH "Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiya mashlotlarida mayda motorika ko'nikmasini rivojlantirish orqali, ularning nutqini o'stirish"Respublika ilmiy amaliy anjuman" 2024-Chirchiq
6. Ismailova F.SH " Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy chiniqtirish usullari." "Respublika ilmiy amaliy anjuman" 2024-Chirchiq

7. Xudoynazarov N.B "15-18 yoshli basketbolchilarni tayyorlash hamda jismoniy sifatlarini rivojlantirish usullari" "Respublika ilmiy amaliy anjuman" 2024-Chirchiq
8. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (WHO). (2023). "Bolalarda jismoniy faollik bo'yicha tavsiyalar".
9. Amerikaning Pediatriya Akademiyasi (AAP). (2023). "Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun jismoniy faollik bo'yicha qo'llanma".
10. Journal of Child Psychology. (2021). "Ertalabki mashg'ulotlarning bolalar rivojlanishiga ta'siri".
11. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi

O'ZBEK TILIDAGI IBORALARNING TALABA YOSHLARGA PSIXOLOGIK TA'SIRI

A. A. Kuziyev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA:

Ushbu ilmiy maqola O'zbek tilidagi iboralar va ularning talaba yoshlarning psixologik holatiga ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada O'zbek tilidagi iboralar, ayniqsa motivatsion va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan iboralar orqali talaba yoshlarda ishonch, motivatsiya, stressni kamaytirish va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash kabi psixologik ta'sirlarni qanday shakllantirishi o'rganilgan. Shuningdek, tildagi ijobiy iboralar yoshlarning psixologik rivojlanishiga yordam berishi va ta'lim jarayonida ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishi haqida fikr yuritilgan. Maqolada psixologik tadqiqotlar, tajribalar va psixolingvistik nuqtai nazardan iboralar ta'sirining o'ziga xos xususiyatlari ham ko'rib chiqilgan. Ushbu maqola ta'lim sohasidagi o'qituvchilar, murabbiylar va psixologlarga yoshlarning psixologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda tilning roli haqida muhim bilimlar taqdim etadi.

Kalit so'zlar: O'zbek tili, Iboralar, Psixologik ta'sir, Talaba yoshlar, Motivatsiya, Stressni kamaytirish, Ijtimoiy aloqalar, Psixolingvistika, Psixologik rivojlanish, Ta'lim jarayoni.

АННОТАЦИЯ:

Целью данной научной статьи является анализ выражений в узбекском языке и их влияния на психологическое состояние учащейся молодежи. В статье рассматривается, как фразы на узбекском языке, особенно те, которы имеют мотивационную и социальную значимость, могут оказыват психологическое воздействие на молодых студентов, такое как уверенност мотивация, снижение стресса и укрепление социальных отношений. Такж было высказано предположение, что позитивные языковые выражения мог способствовать психологическому развитию молодых людей и повысить уверенность в себе в ходе образовательного процесса. В статье так рассматривается специфика воздействия фраз с точки зрения психологическ исследований, экспериментов и психолингвистики. В этой стат преподавателям, тренерам и психологам в сфере образования предоставле

важные знания о роли языка в поддержке психологического развития молодых людей.

Ключевые слова: Узбекский язык, Фразы, Психологическое воздействие, Студенты, Мотивация, Снижение стресса, Социальные отношения, Психолингвистика, Психологическое развитие, Образовательный процесс.

ABSTRACT:

This scientific article is aimed at analyzing the expressions in the Uzbek language and their impact on the psychological state of young students. The article studies how expressions in the Uzbek language, especially those with motivational and social significance, can form psychological effects in young students, such as confidence, motivation, stress reduction, and strengthening social relationships. It also considers the idea that positive expressions in the language can help the psychological development of young people and increase their self-confidence in the educational process. The article also examines the specific features of the impact of expressions from a psychological research, experiment, and psycholinguistic perspective. This article provides teachers, coaches, and psychologists in the field of education with important knowledge about the role of language in supporting the psychological development of young people.

Keywords: Uzbek language, Phrases, Psychological impact, Student youth, Motivation, Stress reduction, Social relations, Psycholinguistics, Psychological development, Educational process.

O'zbek tili, nafaqat milliy meros, balki psixologik jihatdan ham shaxsiyatni shakllantiruvchi muhim vositadir. Talaba yoshlar, ayniqsa o'rta va oliy ta'lim muassasalarida, o'zlarining hissiy va intellektual rivojlanishida, tilda ishlatiladigan iboralar va ularning psixologik tasiri muhim o'rin tutadi. Iboralar, so'zlashuvning qudratli vositasi sifatida, nafaqat kommunikatsiya, balki shaxsiyatning shakllanishida ham katta rol o'ynaydi. Maqolada O'zbek tilidagi iboralar va ularning talaba yoshlarning psixologiyasiga ta'siri ko'rib chiqiladi.Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Maqolada quyidagi asosiy maqsadlar qo'yilgan:

- O'zbek tilidagi iboralarning psixologik ta'sirini tahlil qilish.
- Talaba yoshlar orasida iboralar yordamida shakllangan psixologik holatlarni o'rganish.

. O'zbek tilidagi ba'zi iboralar yordamida talabalarda stress, ishonch, motivatsiya va ijtimoiy o'zgarishlarni qanday shakllantirish mumkinligini ko'rsatish.

O'zbek tilida iboralar va ularning psixologik ta'siri. Iboralar tilning ajralmas qismi bo'lib, ular faqatgina kommunikatsiya vositasi sifatida emas, balki shaxsiyatni shakllantirishda ham katta rol o'ynaydi. O'zbek tilidagi iboralar bir vaqtning o'zida ma'naviy va psixologik qatlamlarga ta'sir qiladi. Masalan:

- "Yaxshi odam bo'lsang, dunyo ham yaxshi bo'ladi" kabi iboralar, talaba yoshlarga ijobiy fikrlash va muhitni o'zgartirishda yordam beradi.
- "Har bir ishni boshlashda shubha bo'lmasin" kabi iboralar talabalarda ishonchni va qat'iyatni rivojlantiradi.

O'zbek tilidagi iboralar ko'pincha talaba yoshlarda quyidagi psixologik holatlarni shakllantiradi:

1. **Motivatsiya**: Ijobiy va o'zgartiruvchi iboralar, yoshlarning o'z maqsadlariga erishish uchun rag'batlantiradi. "Har bir boshlanishda yengish mumkin" degan ibora, yoshlarni yangi boshlang'ichlarga tayyorlaydi.

2. **Stressni kamaytirish**: Talaba yoshlar, o'qish jarayonida ko'pincha stress va bosim ostida bo'lishadi. "Sabrlilik va mehnatning samarasini ko'rasan" kabi iboralar, ularni ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi.

3. **Ijtimoiy aloqalar**: Talabalarga o'zaro munosabatlarda yordam beruvchi iboralar, ular o'rtasida ijtimoiy aloqalar va hamjihatlikni rivojlantiradi. Masalan, "Birlikda yengamiz" iborasi guruh ishlarida samaradorlikni oshiradi.

Psixologik tajribalar va iboralarning ta'siri. Psixologik tadqiqotlar, so'zlar va iboralar odamlarning hissiy holatlariga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatadi. Ayniqsa talaba yoshlar o'zining hissiy va kognitiv rivojlanish bosqichida bo'lganligi sababli, ular ta'lim jarayonida ishlatiladigan iboralarga oson ta'sirlanadi. Masalan, o'quvchilarga yoki talabalar guruhlariga ijobiy iboralar bilan murojaat qilish, ularning o'zini qadrlash hissini kuchaytiradi va ularni yanada ko'proq mehnat qilishga undaydi.

O'zbek tilidagi iboralar shuningdek, yoshlarning etnik va madaniy identifikatsiyasini ham mustahkamlaydi. Milliy iboralar, talabalarga o'z tarixini, urf-odatlarini, qadriyatlarini eslatib turadi, bu esa ular uchun psixologik barqarorlik va mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Talaba yoshlarida iboralarning psixologik ta'sirini kuchaytirish usullari. O'zbek tilidagi iboralar talaba yoshlarining psixologik holatini ijobiy tomonga o'zgartirish uchun quyidagi usullarni qo'llash mumkin:

1. **Motivatsion iboralar**: O'qituvchilar, murabbiylar va ota-onalar talabalarga motivatsion iboralar bilan murojaat qilib, ularning maqsadlariga erishish istagini kuchaytirishlari mumkin.

2. **Ijobiy ijtimoiy muhit yaratish**: Talabalarning bir-biriga nisbatan samimiy va ijobiy munosabatda bo'lishini ta'minlash uchun ijtimoiy aloqalarni qo'llab-quvvatlaydigan iboralar ishlatilishi lozim.

3. **Stressni kamaytirish**: Iboralar orqali stressni kamaytirish va talabalarga ishonchni oshirish. psixologik muammolarning oldini olishga yordam beradi.

O'zbek tilidagi iboralar talaba yoshlarning psixologiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ijobiy va motivatsion iboralar, talabalarning hissiy holatlarini shakllantiradi, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi va muvaffaqiyatga erishish uchun rag'batlantiradi. Shuningdek, til va iboralar orqali ijtimoiy muhit va aloqalar mustahkamlanadi, bu esa talaba yoshlarning psixologik barqarorligini oshiradi. Maqolada keltirilgan metodlar va yondashuvlar, O'zbek tilidagi iboralar orqali talabalarning psixologik rivojlanishiga yordam beradigan samarali usullarni taqdim etadi.

REFERENCES:

1. Karimov, I. A. (2019). Milliy til va madaniyat: Psixologik ta'sirlar. Toshkent: O'zbekiston.
2. Xo'jaeva, N. (2021). "O'zbek tilida ijtimoiy iboralarning psixologik roli". O'zbek tilshunosligi va psixologiya jurnali, 4(2), 56-67.
3. Abdurahmonov, B. (2018). O'zbek tilida motivatsion iboralar va ularning ta'siri. Samarqand: Samarqand Universiteti.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДА ПРОЕКТОВ В ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ В ИНОЯЗЫЧНЫХ ГРУППАХ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Ш. А. Хамракулова
ст. преподаватель НВОУ Alfraganus University
Ташкент, Узбекистан
Hamrakulovashoira49@gmail.com

АННОТАЦИЯ:

В статье рассматриваются формы организации проектной деятельности в рамках самостоятельной работы студентов при изучении русского языка в иноязычных группах высших учебных заведений, указаны методы проектирования, на конкретном примере представлена модель проекта самостоятельной творческой работы студентов.

Ключевые слова: самостоятельная работа, методы проектирования, моделирование, справочник.

ANNOTATSIYA:

Maqolada oliy o'quv yurtlarining uzga tilli guruhlarida rus tilini o'rganishda talabalarning mustaqil ishlari doirasida loyiha faoliyatini tashkil etish shakllari ko'rib chiqiladi, loyihalash usullari ko'rsatiladi, talabalarning mustaqil ijodiy ishlari loyihasi modeli aniq misolda keltiriladi.

Kalit so'zlar: mustaqil ish, loyihalash usullari, modellashtirish, ma'lumotnoma.

ABSTRACT:

The article discusses the forms of organization of project activities within the framework of independent work of students in the study of Russian as a foreign language, the design methods are indicated, a model of the project of independent creative work of students is presented on a specific example.

Keywords: independent work, design methods, modeling, reference.

Одной из важнейших проблем, стоящих перед высшей школой, является повышение качества подготовки специалистов. Студент и выпускник высшего образовательного заведения должен не только получать знания по дисциплинам программы, овладевать умениями и навыками использования этих знаний

методами исследовательской работы, но и уметь самостоятельно приобретать новые научные сведения. В этой связи все большее значение приобретает самостоятельная работа студентов.

Самостоятельная работа студентов – форма организации обучения, сущность которой заключается в самостоятельной познавательной деятельности студентов по овладению научными знаниями, практическими умениями и навыками. В ходе выполнения заданий самостоятельной работы студенты должны учиться мыслить, анализировать задания, учитывать условия, ставить задачи, решать возникающие проблемы, т.е. процесс самостоятельной работы постепенно должен превращаться в творческий. В организации творческой деятельности студентов преподавателю могут помочь новые информационные технологии.

В нашем исследовании мы хотим рассмотреть метод проектирования в самостоятельной творческой работе студентов и показать, каким образом проводится данный вид работы на наших занятиях русского языка.

Термин «проект» происходит от латинского слова projectus, что в переводе означает «брошенный вперед», «выступающий», «выдающийся вперёд» [3, 26].

Признаки проекта: цель изначально определена и не меняется в процессе выполнения работы; деятельность является управляемой; ограничения деятельности изначально определены (сроки, ресурсы, время, качество, допустимый уровень рисков).

Принципы проектирования внеаудиторной самостоятельной работы: регламентация – совокупность норм, правил, стандартов и процедур, ограничивающих и определяющих формы деятельности; целесообразность – целевая определённость, когда лежащую в основе цель характеризуют как причину; доступность (в обучении) – соответствие содержания, объёма изучаемого материала, методов и организационных форм обучения возрастным и индивидуальным возможностям студентов. имеющимся у них знаниям и представлениям, условиям обучения; результативность – получение хорошего результата, как показателя завершения деятельности, демонстрации мастерства.

В качестве примера проектирования в самостоятельной работе студентов на занятиях по русскому языку хотим представить проект творческой работы по лексической теме «Самарканд – город-музей в Узбекистане». Надо сказать, предварительное заключение - результат уникален.

УЧЕБНЫЙ ПРОЕКТ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ

«Самарканд – город-музей в Узбекистане»

I. Проектное задание

Введение. В мировом сообществе растет интерес к Узбекистану, о чем свидетельствует и увеличение количества туристов. Древний Самарканд привлекает внимание всего мира своим историческим прошлым, а также и настоящим как место проведения международных мероприятий. Гостей города интересуют его архитектурные и культурные памятники, исторические достопримечательности, музеи, театры, торгово-развлекательные учреждения и пр. Совершая прогулки по городу, они обращаются к прохожим с вопросами. Вместе с тем многие жители не владеют достаточной информацией для ответов.

Проблема, требующая своего разрешения в рамках проекта: обеспечение жителей и гостей города краткой информацией о Самарканде как историческом центре.

Цель проекта (для чего он создается): разработка справочника об архитектурных памятниках, музеях, вернисажах, современных достопримечательностях Самарканда.

Конечный результат: Справочник, содержащий краткую и структурированную информацию об архитектурных памятниках, музеях, вернисажах, современных достопримечательностях Самарканда.

Пользователи: жители и гости Ташкента.

Рамки проекта: сроки выполнения -7дней;

Количество участников: до пяти человек.

Структура продукта проекта – Справочника **«Самарканд – город-музей в Узбекистане»:**

Введение. • История Самарканда.

• Архитектурные и культурные памятники на территории Самарканда.

• Музеи Самарканда.

• Театры Самарканда.

• Современные достопримечательности.

Список использованных источников.

Задачи проектной деятельности:

1. Сбор информации об истории Самарканда.

2.Сбор информации об архитектурных и культурных памятниках на территории Самарканда.

3. Сбор информации о музеях Самарканда.

4. Сбор информации о театрах Самарканда.

5. Сбор информации о современных достопримечательностях Самарканда.

Информация предоставляется в текстовом и графическом изображении, в виде фотографий.

Виды деятельности участников проектной группы:

1.Выявление источников информации, ее сбор.

2.Выбор и структурирование информации.

3.Оформление справочника.

4.Подготовка устной информации о результатах проектной деятельности.

5. Подготовка визуальной информации о результатах проектной деятельности.

6.Подготовка отчета о проектной работе.

П. Методические указания студентам по выполнению проектного задания

1. Инструкция к поэтапному выполнению проектного задания:

1. Подготовительный этап

1.1. Уточните проблему, требующую решения в процессе проектной деятельности, цель и результаты проекта, задачи проектной деятельности участников.

1.2. Определите источники информации.

2. Планирование

2.1. Изучите алгоритм достижения цели.

Алгоритм достижения цели проекта

1. Сбор информации по задачам проекта (текст, графическое изображение, фото, указание источников).

2. Предоставление информации в распечатке и на электронных носителях.

3. Выбор оптимальной информации.

4. Оформление информации в виде справочника (рабочий вариант).

5. Подготовка отчета (пп.1 - 6).

6. Создание визуальной презентации (электронная оболочка или макет плакатов).

7. Подготовка предложений по устной презентации проекта (в соответствии с правилами устной презентации).

8. Оформление справочника.

9. Завершение подготовки и оформление отчета.

10. Подготовка окончательного варианта визуальной презентации.

11. Подготовка устной презентации.

2.2. Составьте рабочий план выполнения проекта:

• распределите задачи по выполнению проекта между участниками;

• обратите внимание на сроки выполнения и вид готового продукта.

3 этап. Исполнение

3.1. Соберите и систематизируйте полученную информацию.

3.2.Оформите результат в виде справочника (конечный продукт), руководствуясь его структурой.

3.3.Подготовьте отчет, используя инструкцию по подготовке отчета.

3.4. Подготовьте визуальную презентацию проекта, используя инструкцию по подготовке презентации в Microsoft Power Point. Определите функции членов группы в устной презентации.

В завершение надо сказать, данный вид работы вызывает большой интерес у студентов. Приобретенные знания, умения и навыки позволяют обучающимся не только расширить словарный запас русского языка, но и более детально подходить к изучению истории родной страны.

REFERENCES

1. Долгоруков А.М. Методы эффективного самообразования или как правильно учиться // Проект "Профессиональное образование XX1 века". - М.: Центр интенсивных технологий, 2000.

2. Жаркой ЭФ. Технология обучения. Пособие для преподавателей. - СПб.: ВВМИУ, 1994.

3. Методические рекомендации по проектированию и организации внеаудиторной самостоятельной работы студентов / Составители Базаев А.Г. Васильева И.Л., Киреева Г.В., Петровых И.Н. – Челябинск: Южно-Уральский профессиональный институт, 2009. – 26 с.

4. Муравьёва А.А., Кузнецова Ю.Н., Червякова Т.Н. Организация модульного обучения, основанного на компетенциях: Пособие для преподавателей. - М.: Альфа-М, 2005.

ADABIY TIL NUTQ MADANIYATINI MEZONIDIR

Saodat Jangirova Mengliyeva
Bektemir tumani 571-DMTT direktori,
Soyima Jangirovna Mengliyeva
Bektemir tumani 573-DMTT direktori

ANNOTATSIYA:

Maqolada adabiy til madaniyatini mezonlari, umumxalq tili, milliy tilning o'ziga hosligi, nutqiy vaziyatlarda og'zaki va yozma nutqda yuzaga keladigan muammolar va ularga yechim topish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Adabiy til, umumxalq, sheva, nutq, og'zaki va yozma nutq, atama, til, yozishma, tarjima.

АННОТАЦИЯ:

В статье рассматриваются критерии литературной языковой культуры, национального языка, своеобразие национального языка, проблемы, возникающие в устной и письменной речи в речевых ситуациях и пути их решения.

Ключевые слова: Литературный язык, просторечие, диалект, речь, устная и письменная речь, термин, язык, переписка, перевод.

ABSTRACT:

The article discusses the criteria of literary language culture, the universal language, the peculiarities of the national language, problems that arise in oral and written speech in speech situations, and finding solutions to them.

Keywords: Literary language, vernacular, dialect, speech, oral and written speech, terminology, language, correspondence, translation.

Adabiy til paydo bo'lgunga qadar nutq madaniyati borasida amal qilgan talab va tasavvurlar adabiy til paydo bo'lgandan keyingi davr, ya'ni adabiy til bilan bog'liq bo'lgan nutq madaniyati tasavvurlaridan farqlanadi. Chunki nutq madaniyati chinakam ma'noda adabiy til va uning me'yorlari bilan bog'liqdir. Avvalo adabiy til tushunchasining mohiyatiga qisqacha to'xtaylik.

Adabiy til — umumxalq tili, milliy tilning oliy shaklidir. Adabiy tilning oliy shakligi bu tilning o'ziga xos belgilari va vazifasida ko'rinadi. Adabiy til umumxalq

3.Tukhtamuradovna T. L. VARIETY OF METHODS IN TEACHING //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMI JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 557-558.

4.Tursunboyeva L. T. INFORMATION TECHNOLOGY IN THE FORMATION OF A PERSONALITY OF A STUDENT //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – Т. 1. – №. 3. – С. 133-140.

5. Kukunin V.S. Pedagogical technologies: a textbook for students of pedagogical specialties. - M.: "March" ICC: - Roftov, 2006.

6. Shchurkova N.E.. Class management: game technique. - M.: Russian Pedagogic Society, 2002. - 224 p.

7. Khutorskoy A.V. Article "Technology of designing core competencies and subje competencies". // "Eidos" Internet magazine.

8. Ivanov D.A., Miirofanov K.G., Sokolova O.V. Competency approach in educatio Problems, Concepts, Tools. Study guide.-M.:APK and PRO,2003.-101p.

9. Askarova O'.M., Abduliaeva M.A., Boltaeva M. Androgogy. - Namangan. 2014

10. Mirsoliyeva M.T. Development directions of andragogy. Modern educati education. - 2021

QISQA MASOFALARGA YUGURISH TEXNIKASI VA UNING TAHLILI

Mirjalol Olim o'g'li Xamudov
Namangan Davlat Universiteti maqsadli tayanch doktaranti.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qisqa masofalarga (sprinterlik) yugurish, uning texnikasi tahlili,sportchining start va startdan chiqishi,masofa bo'ylab yugurishi, hamda, marraga yetib kelishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Yengil atletika, qisqa masofa, yugurish, sprinter, texnika

АННОТАЦИЯ

В трёх идёт речь о спринте, анализе его техники, старте спортсмена и беге со старта, беге на дистанцию и достижении финиша.

Ключевые слова: Легкая атлетика, короткая дистанция, бег, спринтер, техника.

Jismoniy tarbiya orqali talabalarni sog'ligini mustahkamlash, jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish vatan himoyasiga va mehnatga bo'lgan layoqatini kamol toptirishda yengil atletika sport turining o'rni kattadir. Yengil atletika sport turi insonlarni har tomonlama jismoniy rivojlanishida asosiy sport turlaridan biri hisoblanadi. Talabalarni yetuk, sog'lom bo'lib tarbiya topishida yengil atletikaning yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish va ko'pkurash turlari orqali jismoniy sifatlarini rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir.

Yugurish joydan joyga ko'chishning tabiiy usulidir. Bu jismoniy mashqning keng tarqalgan turi bo'lib ko'pgina sport turlari (futbol, basketbol, tennis va boshqalar) tarkibiga kiradi. Yugurishning juda ko'pgina xillari yengil atletika turlarining tarkibiy qismi hisoblanadi. Yugurganda tanadagi mushak guruhlarining deyarli hammasi ishga tushadi, yurak–qon tomir, nafas olish va boshqa tizimlar faoliyati kuchayadi, modda almashinuvi ancha oshadi. Yugurish bilan shug'ullanish jarayonida kishi irodasi mustahkamlanadi. O'z kuchini taqsimlay olish, to'siqlar osha o'ta bilish, ochiq joyda mo'ljal ola bilish qobiliyati hosil bo'ladi. Yugurish har tomonlama jismoniy rivojlanishning asosiy vositalaridan biridir.

Hozirgi vaqtda ko'pgina murabbiylar sprinterlik yugurish texnikasi o'ta individual bo'lishini va ma'lum bir biomexanikaviy tavsiflarga qaramasdan, sportchining muayyan individual xususiyatlariga, shuningdek, u erishadigan shiddat

va tezkorlik darajasiga bog'liq ekanligini e'tirof etadilar. Bu albatta, hamma uchun umumiy bo'lgan oqilona texnika elementlarini rad etmaydi, ularni takomillashtirish ustida hozirda ham shug'ullanib kelinadi.

Tajribali va iqtidorli yosh tadqiqotchilar tomonidan sport mashg„ulotlarini tashkil qilishning xalqaro andozalari, yetakchi murabbiylarning ish tajribalari ham davr talablari asosidagi faoliyatlari izchillik bilan o'rganilmoqda.

Biz bilamizki. yengil atletikaning qisqa masofalarga yugurish turi butun dunyoda ommalashgan sport turlaridan hisoblanadi. Sport natijalari kundan kunga o'sib borishi qisqa masofalarga yuguruvchi sportchilarni tayyogarlik mashg'ulotlarini samarali taqsimlash uslubiyatini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Qisqa masofaga yuguruvchilarni tayyorlash bo'yicha dunyodagi yetakchi olimlar bilan bir qatorda yurtimizdagi mutaxassislar ham mashg'ulot uslubiyatini takomillashtirish bo'yicha izlanishlar olib borganlar. Ulardan M.S.Olimov, E.R.Andris, R.Q.Qudratov, N.T.To'xtaboyev, K.T.Shakirjonovalar mashg'ulotlarda texnikani to'g'ri o'rgatish,vosita va usullarni qo'llanishi uslubiyatiga ko'proq e'tibor qaratib kelgan.

Sprinterlik yugurish texnikasini tahlil qilish uchun shartli ravishda undan quyidagilar ajratiladi:

- start;
- start tezlanishi;
- masofa bo'ylab yugurish;
- marraga yetib kelish.

Start. Qisqa masofalarga yugurishda musobaqa qoidalariga binoan past start qo'llaniladi. bunda start oyoq tirgaklaridan (stanogidan) foydalaniladi. Start oyoq tirgaklarining joylashtirilishi o'ta individual bo'lib, sportchining malakasiga va uning jismoniy imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi. Amaliyotda to'rt xil turdagi past start qo'llaniladi (oyoq tirgaklarining joylashishiga qarab): odatdagi; uzoqlashtirilgan; yaqinlashtirilgan; tor.

Start tezlanishi. Startdan yugurib chiqish yuguruvchining individual imkoniyatlariga qarab 15 dan 30 m gacha davom etadi.Uning asosiy vazifasi – mumkin qadar tezroq maksimal yugurish tezligini olish. Startdan birinchi qadamlarning to'g'ri bajarilishi yuguruvchining itarilishiga (yo'lkaga nisbatan o'tkir burchak ostida maksimal kuch bilan) va harakat tezligiga bog'liq. Yuguruvchi birinchi qadamlarni egilgan holatda yuguradi, keyin (6,7 - qadamlar) gavdani ko'tarishni boshlaydi. Start tezlanishida gavdani asta-sekin ko'tarish juda muhim, shundagina startdan va start tezlanishidan optimal samaraga erishish mumkin. Yuguruvchi birinchi qadamlarni egilgan holatda yuguradi, keyin (6, 7- qadamlar)

gavdani ko'tarishni boshlaydi. Start tezlanishida gavdani asta-sekin ko'tarish juda muhim, shundagina startdan va start tezlanishidan optimal samaraga erishish mumkin. Gavda to'g'ri egilganda qadam tashlaydigan oyoq soni tekislangan itariladigan oyoqqa nisbatan 90° ga ko'tariladi va inersiya kuchi yuqoriga qaraganda ko'proq oldinga yo'naltirilgan kuchni hosil qiladi. Yuguruvchi qadam tashlaydigan oyoqni pastga-orqaga qo'yaturib, gavdasini oldinga itargan holda birinchi qadamlarni bajaradi.Bu harakat sonlarni tez birlashtirish bilan birga qancha tez bajarilsa, keyingi itarilish shuncha chaqqonroq sodir bo'ladi.

Masofa bo'ylab yugurish. Masofa bo'ylab yugurishda gavdani egiltirish vertikalga nisbatan taxminan 10-15° ni tashkil etadi. Yugurishda egilish o'zgaradi: itarilishda yelkalar bir oz orqaga olinadi, shu orqali egilish kamayadi, uchish fazasida egilish ortadi. Oyoq kaftlari deyarli bir chiziq bo'ylab qo'yiladi.

Marraga yetib kelish. Masofa oxirigacha maksimal tezlikni saqlab bo'lmaydi.Marragacha taxminan 20-15 m qolganda tezlik odatda 3-8% ga kamayadi. Marraga yetib kelishning asl mohiyati shundan iboratki, masofa oxirigacha maksimal tezlikni saqlab qolishga va uni salbiy omillarning ta"sirini kamaytirishga harakat qilish zarur.

Toliqish boshlanishi bilan itarilishda ishtirok etuvchi mushaklar kuchi kamayadi, yugurish qadami uzunligi kichrayadi, demak, tezlik tushib ketadi.Tezlikni saqlab qolish uchun yugurish qadamlari tezligini oshirish zarur, buni esa, yuqorida aytib o'tganimizdek, qo'l harakatlari hisobiga amalga oshirish mumkin.Masofada yugurish yuguruvchi marra to'siniga, ya'ni marra chizig'i orqali o'tuvchi xayoliy vertikal tekislikka tegishi bilan tugallanadi.Unga tezroq tegish uchun yuguruvchilar oxirgi qadamda qo„llarni orqaga chiqargan holda gavdani tez oldinga egiltiradilar. Bunday usul – ko'krak bilan "otilish" deb ataladi.

Start olish va masofa bo'ylab yugurish texnikasi – sprinterning tezlik-kuch imkoniyatlarini amalga oshirishda hal qiluvchi omildir. Sportchi startdan tezlik olishda mushaklar kuchidan hamda masofada o'zining energiya zahirasidan qanchalik oqilona, tejamkorona va samarali foydalana ololsa, natija shunga bog'liq bo'ladi.

Texnika nima? Odatda, sport mashqlarining bajarilish texnikasi inson tanasi ayrim a'zolari harakatlarining tashqi ko'rsatkichlari bo'yicha tariflanadi.

Qisqa masofaga yugurish tashqaridan qaraganda sportchining erkin, yengil, og'ir, bo'shashgan, kuchli, shiddatli. past. yuqori va ko'pgina boshqacha ta'rifga ega yugurishi bilan ifodalanadi. Qisqa masofalarga yugurish kinogrammalari tahlili harakatlarning umumiy manzarasini batafsil tahlil qilish imkonini beradi, qayd

qilingan holatlarning izchil tahlili esa harakatlarning (burchaklar, tezlik, tana a'zolarining siljishlari) aniq miqdoriy ko'rsatkichlarni aniqlab beradi. Biroq bunday tavsiflar yetarli emas, bu ma'lumotlarning aniq hisoblab chiqilishi ham ularni amalda qo'llashga hali imkon bermaydi. Yugurishda sportchi harakatlarining tashqi ko'rinishini baholash yoki mexanika tilida aytadigan bo'lsak, harakatlar kinematikasini o'rganish har doim ham batafsil axborot bera olmaydi. Harakat insonning asosiy harakat dvigateli – skelet mushaklarining qisqarish faoliyati natijasidir. Sprinterning yugurish texnikasini ko'rib chiqayotib, birinchi navbatda, harakatning ichki tuzilmasini tushunish lozim.

Xulosa qilib aytganda, qisqa masofaga yuguruvchi sportchilar mashg'ulot jarayonida mashg'ulotlarning har xil usullaridan foydalanadi. Ulardan qisqa masofalarga yuguruvchilarni tezkorligini tarbiyalashda takroriy usul, o'zgaruvchan, dam olish oralig'i, masofani bo'laklarga bo'lib o'tish usuli va bir maromli yugurish usullari qasqa masofaga yuguruvchilarning tezkor kuch va tezkor chidamliligini tarbiyalashda samarali usullaridan hisoblanadi. Tezkorlikni oshirish va tezkor kuch sifatini rivojlantirishda har xil sakrash mashqlarini bajarish sportchilarning sport natijasini o'sishiga qulay zamin yaratadi. Tezlik sifatini takomillashtirish metodlaridan yana biri. bu maxsus tortish tizimidir. Unda tyagadan foydalangan holda vaqti-vaqti bilan yo'nalishni, o'zgartirib ham oldinga, ham orqaga yugurishlarni bajarish lozim. Bu mashqdan qisqa masofalarda yugurishda uzoq vaqt tayyorgarlik qo'rgan malakali yuguruvchilar uchun tavsiya qilinadi.

REFERENCES

1.Andris E.R., Qudratov R.Q. Yengil atletika. – T.: 1998. – 124 b.
2.Andris E.R. Upravleniye trenirovkoy v bege na 100 metrov. – T.: 1990. – 109 s.
3.Jilkin A. I., Kuzmin V. S., Sidorchuk Ye. V. Legkaya atletika (Ucheb. posobiye dlya stud. vissh. ucheb. zavedenii.– M.:Izdatelskiy sentr «Akademiya»,2009.-464 s.
4.Shakirjanova K.T. Yengil atletikada sport mashg,,ulotlari asoslari.– T.:2008.–72 b.
5.Zelichenok V.B., Nikitushkin V.G., Guba V P. Legkaya atletika: kriterii otbora. - M.: Terra-Sport. 2000. - 240 s.
6.M.S. Olimov. Qisqa masofaga yuguruvchilarning musobaqa oldi tayyorgarlik mashg'ulotlarini rejalashtirish. Pedagogik mahorat.Ilmiy-nazariy va metodik jurnal1-son (2021-yil. fevral). Issn 2181-6883.Buxoro – 2021

TURKIY TILLAR OILASI TARKIBIDAGI O'ZBEK TILINI "DEVONU LUG'ATUT TURK"DA QO'LLANILISHI

Isaomiddin Saidovich Musayev,
O'zbek va chet tillari kafedrasi katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA:

Tub turkiy so'zlar turkiy tillarning o'z materiali, o'z ona mulkidir. Bu so'zlar turkiy tillar oilasiga mansub bo'lgan barcha tillarda uchraydi. Bu hol turkiy tillar leksikasida bu tillar uchun qadimdan mushtarak bo'lgan umumiy leksik fondni yuzaga keltirgan. Turkiy tillar lug'at tarkibidagi mana shu mushtarak leksika turkologiyada umumturkiy so'zlar deb yuritilmoqda. Turkiy tillar lug'ati ayrim so'zlarga ko'ra farqlanadi. Turkiy tillar oilasi tarkibiga kiruvchi o'zbek tilining ijtimoiy-siyosiy mavqeyi va obro'yi dunyo jamiyatida keyingi yillarda ortib bormoqda. Turkiy tillar oilasi uchun xos bo'lgan fonetik, grammatik va leksik xususiyatlar bir - biriga yaqinligi bo'lsada, ular sezilarli darajada farqlanadi.

Kalit so'zlar: Turkiy tillarning shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari, Turkiy tillar oilasi, ko'p bo'g'inli so'zlar, lingvistik xususiyatlar, umumturkiy so'zlar

АННОТАЦИЯ:

Родные тюркские слова — материал тюркских языков, их исконное достояние. Эти слова встречаются во всех языках, принадлежащих к тюркской языковой семье. Такое положение создало в лексике тюркских языков общий лексический фонд, общий для этих языков с древнейших времен. Эту общетюркскую лексику, содержащуюся в словаре тюркских языков, в тюркологии называют общетюркскими словами. Словарь турецкого языка различается по некоторым словам. В последние годы в мировом сообществе повышается общественно-политический статус и престиж узбекского языка, входящего в тюркскую языковую семью. Хотя фонетические, грамматические и лексические особенности, характерные для тюркской языковой семьи, близки друг другу, они существенно различаются.

Ключевые слова: Становление тюркских языков, этапы развития, тюркская языковая семья, многосложные слова, языковые особенности, общетюркские слова.

ABSTRACT:

Native Turkic words are the material of the Turkic languages, their native property. These words are found in all languages belonging to the Turkic language family. This situation created a common lexical fund in the lexicon of Turkic languages. which has been common for these languages since ancient times. This common lexicon contained in the dictionary of Turkic languages is called common Turkic words in Turkology. The dictionary of Turkish languages differs according to some words. The socio-political position and reputation of the Uzbek language. which is part of the Turkic language family, is increasing in the next years in the world society. Although the phonetic, grammatical and lexical features characteristic of the Turkic language family are close to each other, they differ significantly.

Keywords: Although the phonetic, grammatical and lexical features characteristic of the Turkic language family are close to each other, they differ significantly.

O'zbek tili turkiy tillarga mansub bo'lib, oltoy nazariyasiga ko'ra mo'gul, tungus-manjur, koreys va yopon tillari bilan birgalikda oltoy tillari oilasini tashkil qiladi. Oltoy nazariyasiga ko'ra turkiy tillarining, jumladan o'zbek tilining tarixi, oltoy tillarning qadimgi bir tili bo'lgan – oltoy davridan boshlangan.

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklariga turkiy run (urxun-enisey), uyg'ur va qisman moniy (yoki monaviy), birahmon, sug'd va suryoniy yozuvlarida yozilgan obidalar kiradi. Run va uyg'ur yozuvlari turkiy xalqlarga xos yozuvdir. Uyg'u yozuvida yozilgan asarlarning hammasi ham qadimgi turk davriga oid emas, chunk bu yozuv XVIII asrgacha qo'llandi. Uyg'ur yozuvini Mahmud Koshg'ariy "tur yozuvi" deb ataydi hamda bu yozuvda o'n sakkizta harf borligi va turkiy tillard mavjud bo'lgan yettita tovush (**p, j** (portlovchi), **j** (sirg'aluvchi), **f, g', g, ng**) uchu maxsus harflar yo'qligini, unlilarning esa arab tilidagidek harakatlar bilan ema harflar bilan ifodalanishini aytib o'tadi.

Mahmud Koshg'ariy turk (uyg'ur) harflarining alohida va qo'shib yozilganda ko'rinishlarini ham bergan. U o'zining "Devonu lug'otit turk" asrini arab tilida yoz 8 mingdan ortiq turkiy so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish maqsadida arabcha harakat (harflardagi ost-ust ishoralar)dan foydalandi. Bunda, albatta, muallif an qiyinchilikka uchragan, chunki arabcha harf va alif, vov, yo ishoralari bilan tur tovushlarni berib bo'lmas edi. Turkiy tildagi cho'ziq va qisqa unlilar, yumshoq qattiq tovushlar uchun Mahmud Koshg'ariy maxsus belgilar (harakatlar)ni qo'lla yoki so'z boshidagi cho'ziqlikni ikki alif bilan ko'rsatadi yoki 2 xil talaf qilinadigan so'zlarga 2 xil ishora qo'yadi: azuqluq, eritmak so'zlaridagi Z v

harflari ustiga ham kasra, ham damma ishorasini qo'ygan, demak, bu so'zlar o'sha davrda ikki xil talaffuz etilgan: azmqluq — azuqluq, eritmak — erutmak kabi. Arabcha harf bilan ko'rsatish mumkin bo'lmagan turkiy talaffuzni "Devonu lug'otit turk"da izohlab, ta'riflab o'tgan. So'zlar tartibi ularning tarkibidagi harflarning orta borishiga (2 harfdan 7 harfgacha) qarab amalga oshirilgan. Tovushlar (fonemalar)ning tahlili ancha mukammal: unli va undosh fonemalar, cho'ziq va qisqa unlilar, ularning urug' tillaridagi talaffuzi va orfografiyasi, tildagi fonetik hodisa va qonuniyatlar batafsil izohlangan.

Turkiy tillar oilasi uchun xos bo'lgan fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarni umumlashtirilganda o'zbek tilida ko'p bo'g'inli so'zlarning miqdori juda oz. Bir bo'g'inli: o'q, ot, oy kabi va ikki bo'g'inli: bo'ri, yetti, tulki kabi so'zlarning miqdori esa ko'p. O'zbek tilida va boshqa turkiy tillarda so'zlar, asosan, uch tovushli bo'ladi: kun, til, bel, kel kabi.

Barcha turkiy tillarda bo'lgani kabi o'zbek tilidagi so'zlarning aksariyati ko'p ma'noli xususiyatga ega. Bunga misol tarzida bosh, tish, uch kabi umumturkiy so'zlarni aytish mumkin. Turkiy tillar ichida, o'zbek tilida affikslar so'z oxiriga qo'shiladi: ezgulik (ezgu+lik), ko'zsiz (ko'z+siz) singari. Shuningdek, turkiy (o'zbekcha) so'zlarning oxirgi bo'g'inida (pastki, ostki, ustki kabi ayrim ko'makchilarni hisobga olmaganda) undoshlar yondosh kelmaydi hamda so'z boshida undoshlar ketma-ket kela olmaydi.

O'zbek tilida va boshqa turkiy tillarda so'zning o'zagi: tilni, tilga, tildan, tilsiz, tilli, tillik kabi deyarli o'zgarmaydi hamda grammatik jihatdan jins kategoriyasi yuq, prefiks va old qo'shimchalar mavjud emas. Sintaksisi sohasida gap bo'laklari o'zining muntazam joylashish tartibiga ega (aniqlovchi aniqlanmishdan, ega kesimdan oldin joylashadi). Bog'lovchilar deyarli yo'q (ularning aksariyati arab va fors tillaridan o'zlashgan). Turkiy tillarning lug'at tarkibi bir-biriga juda yaqin va uning manbasini tub turkiy so'zlar tashkil etadi.

O'zbek adabiy tili o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa turkiy tillardan:
- singarmonizm qonuniyatiga amal qilmaydi, turk, qozoq, qirg'iz tillarida esa bu qonuniyat amal qiladi;

- unlilar miqdori oltita (a, ə, o, o', u, i) qilib belgilangan bo'lsa, qirg'iz va uyg'ur adabiy tilida esa sakkizta unli (a, ə, o, ɵ, u, ɣ, i, ы; a, e, o, ɵ, e, u, ɣ, i) qabul qilingan;

- o'zbek va turkman tillarida so'z boshida keladigan y tovushi qipchoq guruhidagi turkiy tillarda dj va j tovushi bilan ifodalanadi: yo'l - jo'l, yigit - jigit, yo'q -jo'q kabi;

- ch, sh undosh tovushli ayrim so‘zlar qoraqalpoq va qozoq tillarida sh, s undoshlari bilan ifodalanadi: kuch - kush, tish - tis kabi;

- k, t tovushlari bilan boshlanadigan so‘zlar o‘g‘uz guruhidagi turkiy tillar, chunonchi, turk, ozarbayjon, turkman tillarida g, d tovushlari bilan beriladi: ko‘z - go‘z, til - dil kabi;

- g‘ undosh tovushi bilan tugagan so‘zlar tatar, boshqird, qirg‘iz, qozoq, qoraqalpoq tillarida v va u undoshlari bilan ifodalanadi: tog‘ - tav - tau, bog‘ - bav - bau kabi farq qiladi.

Bu kabi so‘zlar turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lgan barcha tillarda uchraydi. Tub turkiy so‘zlar turkiy tillarning o‘z materiali, o‘z ona mulki ekanligi barchamizga ma’lum. Bu hol turkiy tillar leksikasida bu tillar uchun qadimdan mushtarak bo‘lgan umumiy leksik fondni yuzaga keltirgan. Turkiy tillar lug‘at tarkibidagi mana shu mushtarak leksika turkologiyada umumturkiy so‘zlar deb yuritilmoqda.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atut turk” leksikasi bo‘yicha ularni quyidagi mavzuiy guruhlar bo‘yicha tasniflash mumkin:

Qon-qarindoshlik va yaqinlik tushunchasini anglatuvchi so‘zlar: ota, er, bola, dada, o‘g‘il, tog‘a, qiz, opa, singil va sh.k. Qadimgi turkiy tilda ushbu so‘zlar ata tarzida ifodalangan. Apa so‘zining “ona; opa, egachi” ma’nolari bilan bir qatorda “katta, ulug‘” ma’nosi ham bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Tog‘a so‘zi tag‘ay shaklida berilgan.

Kishi yoshini ifodalovchi so‘zlar: yigit/jigit, qari//qariya, yosh, bola, go‘dak, chol, erkak, chaqaloq, qizcha va sh.k. Qadimgi turkiy tilda iste’molda bo‘lgan yigit kabilar hozirgi turkiy tillarning aksariyatida qo‘llaniladi.

Geografik joylar va aholi yashash manzillarining nomi: tog‘, yurt, qishloq, er, dengiz, yo‘l/jo‘l, ko‘l va boshqalar.

Vaqt, zamon tushunchasini ifodalovchi so‘zlar: tun, kech (kech, uzoq), oy (oy, bir oy), bultur, kun//gun, ilk (ilk, dastlabki), tong, kecha, kechagi, bukun, (bugun), erta, indin, chog‘//choq (payt, vaqt), burun, ilgari, mangu, o‘tmish, yil va boshq. Qadimgi turkiy tilda iste’molda bo‘lgan tun, kech, oy, bultur, burun, choq, erta, ilk, yil, kechagi kabilar aksariyat turkiy tillarda hozirda faol qo‘llaniladi.

Hayvon, parranda, hasharot va ular gavda qismlarining nomlari - zoologik terminlar: ot, qush, tuya (teva), tulki, kiyik, ilon/yilon, echki, sichqon/sichon, tovuq va boshq. Mazkur guruh doirasidagi so‘zlarni qadimiy turkiy yozma yodgorliklar tili leksikasi bilan solishtirilganda ma’lum bo‘ldiki, mazkur guruh so‘zlarining ham deyarli barchasi qadimgi turkiy tilda mavjud: qoplon, qo‘zi, ot, baliq, echki, eshak, it,

yo'lbars, kiyik, qo'y, tulki, qarg'a va boshq. Mahmud Koshg'ariy taquq (tovuq) so'zini turkmancha so'z sifatida qayd etadi.

O'simlik nomlari - fitonimlar: chechak, terak, arpa, yaproq, bug'doy, somon, qamish, don, tariq va sh.k. Mazkur guruh so'zlarining ham deyarli barchasi qadimgi turkiy tilda uchraydi.

Uy-ro'zg'or buyumlarining nomi - maishiy leksika: bolta, qozon, chiroq, ip, o'choq, elak, ko'zgu, taroq va sh.k. Mazkur guruh so'zlarining ham deyarli barchasi qadimgi turkiy tilda uchraydi. Misol sifatida quyidagilarni aytib o'tish mumkin: boltu (bolta;, bichoq (pichoq;, egar, ketman (ketmon, ko'zaj (ko'za;, kigiz, qop, ko'zgu va boshq. Mahmud Koshg'ariy ko'zaj (ko'za) so'zini arg'ucha deb izohlaydi.

Oziq-ovqat va ichimlik tushunchalarini anglatuvchi so'zlar: et (go'sht) suv, bol (bol, asal), un, suv, qaymoq va sh.k. Mazkur so'zlar ham qadimgi turkiy tildagi shakl va mazmunda qo'llaniladi. Misol sifatida quyidagilarni keltirib o'tamiz: et, tuz, un, bol (va boshq.

Tabiat hodisalari va koinot jismlarining nomlari: yel (shamol), bulut, yomg'ir, muz, oy, quyosh, yulduz, borliq, kun (quyosh), yoz, yovdu va sh.k. Mazkur guruhga kiruvchi so'zlar ham qadimgi turkiy tilda faol iste'molda bo'lgan. El, bulut, yomg'ur, yulduz, kun, qor, yolqin, yashin kabilarning nazarda tutilgan lug'atlarda mavjudligi fikrimizni dalilidir.

Qadimgi turkiy til va eski o'zbek adabiy tili uchun xarakterli bo'lgan ev (uy), yog'i (dushman, yov), em (davo), qapu (eshik, darvoza), qamug' (barcha, hamma), yavuq (yaqin) kabi so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tilida iste'moldan chiqqan bo'lsa ham, boshqa turkiy tillar, chunonchi, turk tilida qo'llaniladi.

Turkiy tillar lug'ati ayrim so'zlarga ko'ra farqlanadi. Bunga misol sifatida turk tilida hozirda faol qo'llanuvchi yumruk (musht), kerpich (g'isht), chabuk (ildam), kapi (eshik), ev (uy, xona), bilgin (olim), kendu (o'z), gene (yana, tag'in) kabi so'zlarni aytib o'tish mumkin. Mazkur so'zlar qadimgi turkiy til va eski o'zbek adabiy tilida, chunonchi, Alisher Navoiy asarlari tilida uchraydi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida esa mazkur leksik birliklar eskirgan, iste'moldan chiqqan.

Turkiy tillar oilasi tarkibiga kiruvchi o'zbek tilining ijtimoiy-siyosiy mavqeyi va obro'yi dunyo jamiyatida keyingi yillarda ortib bormoqda. Bu til hozir Amerika, Germaniya, Turkiya, Polsha, Hindiston kabi mamlakatlarning universitetlarida alohida o'rganilmoqda. U o'zbek xalqining alohida etnik birlik - elat, xalq, millat sifatida shakllanishida muhim o'ringa ega. O'zbek tili mamlakat xo'jalik hayotining barcha sohalarida to'liq amal qiladigan til sifatida rivojlanmoqda.

REFERENCES

1.F.A.Абдурахмонов, А.Рустамов Қадимги туркий тил. Тошкент «Ўқитуичи» 1982

2.G'anijon Abdurahmonov. «Devonu lug'otit-turk» («Turkiy so'zlar devoni») — Mahmud Koshg'ariyning turkiy tillar haqidagi qomusiy asari (1071—72).

3.«Девону луғатит-турк», Аҳмад Рифъат нашри, 1-2 жилд.

4.I.S.Musayev. "Devoni Lug'atit Turk"te bazi sozcuklere bilbilimsel yaklasimin onemi. Tashkent 2st – International Congress on Modern Sciences. December 16-17, 2022. 834-bet.

5.I.S.Musayev. "Devonu lug'atit Turk"da lingvomadaniy leksemalarning qo'llanishi. O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. T.C.Kultur ve turizm bakanligi. Ataturk kultur, dil ve tarih yuksek kurumu turk dil kurumu. "Global integratsiya sharoitida Turkiy tillar taraqqiyoti: muammo va vazifalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2024-yil 11-12-may. Toshkent-2024. 367-376 betlar.

6.I.S.Musayev. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit Turk"da lingvomadaniy leksemalarning qo'llanishi. GALAXY An International Interdisciplinary Monthly Journal INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) ISSN: 2347-6915. SJIF Impact Factor (2024): 8.057. 2024.10.10. 51-34 betlar.

7.С.Ё Сиддиқович. Фитратнинг «Девону луғотит турк» асарига оид тадқиқоти. Филология масалалари: Илмий мақолалар тўплами 5 (5), 109-112.

ТАЕКВОНДО - МОЙ ЛЮБИМЫЙ ВИД СПОРТА И МОТИВАЦИЯ К ИЗУЧЕНИЮ ЯЗЫКОВ

Х. Х. Джураева,
Научный руководитель:
старший преподаватель кафедры узбекского и иностранных языков
УзГУФКС:

Г. Азметова
Студентка группы TF-51-24:

АННОТАЦИЯ:

В статье рассматривается терминология, история появления таеквондо в мире, развитие в Узбекистане, основные принципы в обучении таеквондо, терминология тхеквондо и как стать участником Олимпийских игр.

Ключевые слова:единоборства, боевое искусство, самообороны без оружия, субак, хваран, пояс.

ABSTRACT:

The article discusses the history of the emergence of taekwondo in the world, its development in Uzbekistan, the basic principles of taekwondo training, taekwondo terminology and how to become a participant in the Olympic Games.

Keywords: martial arts, martial arts,unarmed self-defense, subak, hwarang, belt

Спорт по праву называют «феноменом XX века». В силу своей всеобъемлющей и универсальной природы спорт является не только профессиональной деятельностью человека в узком смысле этого слова, но и частью культурной, политической и экономической жизни страны, неотъемлемой частью традиций и самосознания ее народа. В спорте большое значение имеет человеческий фактор, и особое внимание уделяется конкретным личностям. Феномен спорта представляет интерес для лингвистов и других специалистов в различных областях, и особое внимание уделяется языку спорта, особенно его терминологии. Особого внимания заслуживает рассмотрение новых спортивных терминов. Такое выделение спортивной лексики представляется, с практической точки зрения, достаточно

оправданным. Спортивная терминология существенно отличается от всякой другой специальной лексики тем, что она имеет распространение не только в речи профессиональных спортсменов, но и в речи огромного количества болельщиков, любителей спорта. Именно этим объясняется широкое употребление спортивных терминов, часто без каких-либо комментариев к ним. Таэквондо в настоящее время является одним из самых распространённых видов спорта во всём мире. Если в некоторых странах символическим видом спорта является футбол, то в Южной Корее таким спортом считается таэквондо. Каждый гражданин Кореи имеет представление об этом виде единоборств.

"Таэквондо - путь к совершенству! Тела и духа..." — это принятый и известный во всем мире девиз корейского боевого искусства, исторический возраст которого насчитывает более двух тысяч лет. Главными принципами таэквондо являются высокая духовность, совесть, выдержка, целеустремленность. Почему же этот вид спорта так важен для меня? Ответить на этот вопрос — это цель моего проекта. Достижение поставленной цели предполагает решение следующих задач:

1. Узнать историю появления таэквондо в мире и в Узбекистане.
2. Выяснить основные принципы в обучении таэквондо.
3. Терминология таэквондо.
4. Узнать, что нужно сделать, чтобы попасть на Олимпийские игры.

Таэквондо — это один из видов корейского боевого искусства самообороны без оружия. Корейское "таэ" означает "выполнение удара ногой в прыжке или полете", "квон" - "кулак" - нанесение удара или разбивания чего-либо рукой, «до" - "искусство", "путь" - путь истины, проторенный в прошлом, покрытый святостью и мудростью. Т.е., «Таэквондо - (кор., букв. - топтать и бить кулаком), оригинальное корейское национальное единоборство без оружия, традиционный вид спорта и боевой самозащиты оборонительно-наступательного характера». Боевое искусство появилось в Корее более 2000 лет назад, но из всех единоборств оно является самым молодым. Таэквондо (WT) в Узбекистане стало популярным с 1990 года, и в том же году была основана Республиканская федерация таэквондо (WT). В 1992 году она была перерегистрирована под названием Ассоциация таэквондо (WT) Узбекистана и в 1993 году стала членом Всемирной федерации таэквондо (WT). У ассоциации есть отделения в областях, 10 городских клубов тхэквондо (WT), а также кружки в районах, где в 2004 году около 200 тренеров занимались с

более чем 17 тысячами спортсменов. В Узбекистане регулярно проводятся соревнования по таэквондо (WT), и наши спортсмены участвуют в международных турнирах. Олек Пак, Адик Ли, Александр Шубский, Лазиз Хасанов, Алексей Кан и другие были первыми популяризаторами таэквондо (WT) в нашей стране. Спортсмены, такие как Евгений Хан, Эдуард Хегай, Равшан Тошпулатов, Умид Дадаханов, Санжар Мансуров, Наталья Микрюкова, завоевывали медали на чемпионатах Азии, мира и престижных соревнованиях. Кроме того, такие спортсмены, как Феруза Содикова, Чарос Каюмова, Светлана Осипова, Улугбек Рашитов вносят свой вклад в продвижение Узбекистана на мировой арене.

О принципах таэквандо я узнала на своих тренировках.

1 принцип.

복종 (покчон) - послушание, от слов слушать и слышать, т.е. слышать тренера, быть внимательным к происходящему. Оно является основой для физического и нравственного развития спортсмена через упорный труд, что невозможно без уважения и доверия к тренеру.

2 принцип.

소원 (совон) – желание, без него невозможно достичь намеченной цели.

Сильное и осознанное желание побуждает ученика к получению знаний и творческой активности.

3 принцип.

운동 (ундон) - упражнение дает возможность при многократном повторении почувствовать свое тело и дать ему правильное развитие. Если не получается, то необходимо стремиться находить и исправлять свои ошибки.

4 принцип.

«인내» (иннэ) - терпение необходимо для достижения любой поставленной цели не только в спорте. Терпение к людям, к товарищам необходимо для воспитания характера. Ещё Конфуций сказал: «Кто не проявляет терпение в простых вопросах, редко может достичь успеха в серьёзных и важных делах». Терпение к боли необходимо на соревнованиях, чтобы, не смотря на боль, побеждать и идти к намеченной цели. Также в занятиях необходимо проявлять такие качества, как решительность, мужество, самообладание. Решительность проявляется в готовности, мысль не отделять

от дела, т.е. быстро проводить прием или удар, когда это необходимо, долго не раздумывая. Уверенно и без сомнений! Мужество сначала заключается в терпении болевых ощущений, а после, чтобы несмотря ни на что проводить свою тактику, стратегию поединка, выдерживая свой стиль боя. Самообладание. Как говорил Лао-Цзы: «Сильный тот, кто побеждает себя, а не кого-либо другого».

Терминология таэквондо WT (World Taekwondo) имеет свои особенности, и многие термины происходят из корейского языка. Эти термины используются на международном уровне. Ниже приведены основные термины, связанные с таэквондо WT:

1.Основные движения и техника

Чаги	Удар ногой
Ап Чаги	Удар вперед.
Дольё Чаги	Круговой удар.
Ёп Чаги	Боковой удар
Твио Чаги	Блокирование.
Макки	Удар в прыжке

2. Позиции и стойки

Чарыот	Готовность (внимание).
Кёнъе	Поклон (официальное приветствие).
Джучум Соги	Стойка всадника.
Ап Соги	Передняя стойка

3.Соревновательные термины:

Кёруги	Спарринг (поединок).
Пумсэ	Формальные комплексы движений
Кёкпа	Разбивание предметов (досок или кирпичей)
Хогу	Защитное снаряжение

4. Уровни и обозначения:

Дан	Уровни черного пояса (например, 1-й дан, 2-й дан).
Кып	Уровни цветных поясов (например, 10-й кып, 1-й кып).
Добок	Форма для таэквондо

Ти — Пояс (цветной или черный).

5. Другие важные термины:

Доджанг — Зал для тренировок по таэквондо.

Са Бом — Мастер или главный инструктор.

Кихап — Боевой клич (например, крик "Кихап!").

Эти термины используются в официальных правилах и соревнованиях WT. Хотя они происходят из корейского языка, они приняты на международном уровне и используются одинаково во всех странах. Стать участником Олимпиады - мечта каждого спортсмена, и я не являюсь исключением. Чтобы попасть на Олимпийские игры нужно пройти очень нелёгкий путь спортсмена. Во-первых, нужно соблюдать принципы таэквандо, о которых говорилось ранее. Во-вторых, необходима поддержка родных и близких.

Тренеры всегда говорят нам – ученикам, чтобы мы никогда не применяли свои навыки на тех, кто слабее нас, а если на нас напали, то нужно уметь дать достойный отпор своему врагу. В таэквондо существует свой Кодекс Чести, который гласит:

1. Быть верным своей стране и своему тренеру!
2. Быть послушным своим родителям!
3. Быть честным с друзьями!
4. Никогда не уступать в бою!»

REFERENCES:

1. Что такое таэквондо? Описание и правила боевого искусства. {Электронный ресурс} Режим доступа: https://www.syl.ru/article/340308/chto-takoe-thekvondo-opisanie-i-pravila-boevogo-iskusstva
2.История таэквондо {Электронный ресурс} Режим доступа: https://uz.wikipedia.org/wiki/Taekvondo
3.Принципы таэквондо. {Электронный ресурс} Режим доступа: https://kim-tkd.com/principy-thekvondo
4.Taekvondo nazariyasi va uslubiyati. G.B.ABDURASULOVA, SH.N.NURITDINOVA, S.S.TAJIBAYEV. O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI, 2015

5.Джураева Х. Х., Файзиева Д. М., Казоков Р. Т. ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА СПОРТИВНОЙ ЛЕКСИКИ С ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА НА РУССКИЙ //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 10. – С. 215-222.

6. Русско-узбекский словарь. Режим доступа:

7.Русско-корейский словарь. Режим доступа: https://dictionary.cambridge.org/ru/translate/

NOFILOLOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'ZBEK TILINI DAVLAT TILI SIFATIDA O'QITISHDA TALABALAR BILIMINI NAZORAT QILISH

Muborak Saidkarimovna Ayxodjayeva,
O'zDJTSU dotsenti

ANNOTATSIYA

Maqolada nofilologik oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili fani bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish sifatini nazorat qilishni tashkil etish xususiyatlari ko'rib chiqiladi, joriy va maxsus tashkil etilgan nazoratning kuchli va zaif tomonlari batafsil tavsiflanadi, talabalar bilimini nazorat qilishning individual va frontal turlarini takomillashtirish yo'llari ochib beriladi; bilimlarni egallash va kommunikativ kompetensiyalar shakllantirilishini tekshirishning ustuvor va maqbulroq shakllari aniqlanadi.

Kalit so'zlar: bilimlarni nazorat qilish; muloqot ko'nikmalari; frontal nazorat; individual nazorat; o'quv jarayonining samaradorligi; tilga shaxsiy va professional talab; obyektiv nazorat.

АННОТАЦИЯ.

В статье рассматриваются особенности организации контроля качества приобретения знаний по предмету узбекский язык в нефилологических вузах, подробно описываются сильные и слабые стороны текущего и специально организованного контроля, раскрываются пути совершенствования индивидуального и фронтального видов контроля знаний студентов; определены приоритетные и наиболее приемлемые формы проверки усвоения знаний и формирования коммуникативных компетенций.

Ключевые слова: контроль знаний; коммуникативные навыки; фронтальный контроль; индивидуальный контроль; эффективность образовательного процесса; личный и профессиональный спрос на язык; объективный контроль.

ANNOTATION

The article discusses the features of organizing quality control of knowledge acquisition in the subject of the Uzbek language in non-philological universities, describes in detail the strengths and weaknesses of current and specially organized

control, reveals ways to improve individual and frontal types of control of students' knowledge; the priority and most acceptable forms of testing knowledge acquisition and the formation of communicative competencies have been identified.

Key words: knowledge control; communication skills; front control; individual control; efficiency of the educational process; personal and professional demand for language; objective control.

Faoliyat turi sifatida nazorat o'qituvchiga guruhdagi o'quv materialini o'zlashtirishning haqiqiy holatini aniqlash, talabalar bilimidagi muammolarni ko'rish va o'qitish usullarini obyektiv qayta ko'rib chiqishga, agar kerak bo'lsa, o'quv guruhi a'zolari tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni bartaraf etishga qaratilgan ish shakllarini rejalashtirish imkonini beradi.

Nofilologik universitetda rusiyzabon talabalar uchun o'zbek tilini o'qitish o'ziga xos xususiyatlarga ega, bu auditoriya soatlarining yetarli emasligi bilan asoslanadi (odatda, o'quv yuklamasi haftasiga 2 akademik soat), bu albatta, uy vazifalari va talabalarning mustaqil ishlariga soatlarni oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi va natijada o'quv materialining o'zlashtirilishini nazorat qilish; davlat tilini o'rganish va talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish kabi ish shakllarini dolzarblashtiradi.

Shunga ko'ra, nazorat shakllari kommunikativ yo'nalishga ega bo'lishi kerak. Ijtimoiy-madaniy yo'nalishdagi nolfilologik oliy ta'lim muassasasining dasturiga asoslanib, ta'limning dastlabki bosqichida ma'lum chegaralar doirasida maktabda o'qish jarayonida egallangan leksika, grammatika va talaffuz asos qilib olinishi kerak, deb hisoblanadi, universitetning vazifasi esa o'zlashtirilayotgan kasbga mos ravishda til bilimini kengaytirishdan iborat. Ammo qayd etish lozimki, bu har doim ham shunday emas. Universitet dasturi bir qator kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi, ularning asosiylaridan biri maktabda ishlab chiqilgan ma'lum poydevorni nazarda tutadigan kommunikativ kompetensiyadir. Ko'pincha maktab ta'limi jarayonida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni to'ldirish kerak bo'ladi. Bu holat dastlabki bosqichda nazorat shakllarini tashkil etishda ham hisobga olinishi zarur.

Amalda o'zbek tilini davlat tili sifatida o'rganayotganda, o'zlashtirilayotgan materialni nutq faoliyatida qo'llash ko'nikma va malakalari sifatini nazorat qilish o'rniga aksariyat holda asosan mavzuning bilim tomonini nazorat qilish bilan mashg'ul bo'linadi.

Albatta, bilimlar nazoratini tashkil etish ko'nikmalarning rivojlanish darajasini nazorat qilishdan ko'ra osonroq, shu jumladan, o'rganilayotgan material doirasida o'zbek tilida so'zlash va hatto nutq namunalari mavjud bo'lganda ham,

tayyorlanmagan nutq jarayonida nazariy bilimlarning qo'llanishini tekshirish ancha murakkab.

O'qitishni tabaqalashtirish, shuningdek, nazorat shakllarini farqlashda shuni e'tiborga olish kerakki, nafaqat rusiyzabon talabalar, balki ba'zi o'zbeklar ham o'z ona tilida nutq so'zlashdan qo'rqish hissini boshdan kechiradilar, bu nofilologik universitetlar talabalariga xosdir. Bu qisman og'zaki nutqni nazorat qilishning yetarli darajada o'ylanmagan shakllari bilan izohlanadi.

Nutqning monologik va dialogik shakllarida nazorat jarayonida talaba nutqidagi xatolarni tuzatish yo'llari ham muammoliligicha qolmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, og'zaki nutqni nazorat qilish nutq namunalari bo'yicha dastlabki tayyorgarlik ishlarini o'z ichiga olishi va nutq faoliyatini "avtomatlashtirish" natijasi bo'lishi kerak.

Biroq amaliyotdan ma'lum bo'lishicha, turli sabablarga ko'ra (materialning yetarli darajada o'zlashtirilmaganligi, til faolligining pastligi, nutq nuqsonlari, noqulay nutq sharoitlari va boshqalar) xatolar mavjud va bunday holatda, ya'ni talaba gapirayotganda, xatolarni tuzatish yoki sharhlashga yo'l qo'yilmaydi. Chunki bu vaziyatni yanada og'irlashtiradi: taqdim etilayotgan materialning mazmuniga e'tibor qaratishga imkon bermaydi; taqdim etilayotgan materialning asosiy mazmunini yo'qotish va til faoliyati mavzusini chalkashtirib yuborish (ayniqsa, tilni noldan o'rganishni boshlagan rusiyzabon talabalarda) ehtimolini oshiradi.

Pedagogik-psixologik jihatdan nutq so'ngida kamchiliklarni chuqur tahlil qilgan holda monologik yoki dialogik nutq natijalaridan xulosa chiqarish to'g'ri bo'ladi. Talabani biron-bir chet tili doirasidagi til faoliyatidan uzoqlashtirishga emas, balki kamchiliklarni yo'q qilishga qaratilgan sharhlarning to'g'riligiga e'tibor qaratish lozim. Ushbu ish shaklining samaradorligi, bizningcha, tahlilga ko'proq talabalar, keyinchalik o'rtoqlariga kerakli yordamni ko'rsatadigan kuchli talabalar jalb etilsa sezilarli bo'ladi. Do'stona yordam har doim ijobiy qabul qilinadi va ijobiy natijalar beradi.

Xatolar ustida ishlashni boshlashdan oldin nazorat jarayonida yo'l qo'yilgan xatolar keng tarqalgan yoki kam uchraydiganlar sirasiga kirishini aniqlash kerak. Bunday tahlil natijalari o'qituvchining auditoriyada yetarlicha o'zlashtirilmagan mavzu bo'yicha jamoaviy yoki individual ishlarga e'tiborini oshirishni aniqlash imkonini beradi.

Hamma biladiki, bilimlarni nazorat qilish sifati talabalarning o'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlik darajasiga bevosita bog'liq. O'rganish jarayoni va nazoratning uzviy uyg'unlashuvi muammosi doimo ta'limning barcha bosqichlarida:

maktabda, universitetda va tilni individual o'qitish jarayonida, hatto mustaqil o'qish jarayonida ham amaliyotchi o'qituvchilar oldida turgan. Bu hollarda nazorat shakllari va ularga ajratilgan vaqt miqdori ko'p sabablarga bog'liq, nazorat qilish obyektlari; nazorat shakli; nazorat qilish uchun ajratilgan vaqt miqdori; uslubiy texnikaning nazorat mazmuni va maqsadlariga muvofiqligi; nazorat turi; nazorat paytidagi psixologik holat; nazorat shakli sifatida uy vazifasi shular jumlasidan.

Talabalarning nutq faoliyatini nazorat qilish turlariga, shuningdek, novifilologik universitetlarda ularning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishga kelsak, ular, albatta, o'ziga xos va maxsus maqsadli ko'rsatmalarga ega.

Har qanday o'rganilayotgan til doirasida bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish, umuman, kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish turlari orasida quyidagi nazorat turlari farqlanadi:

- dastlabki nazorat; uning asosida birinchi bosqich talabasining o'zbek tilini maktabda egallaganligi boshlang'ich darajasi aniqlanadi; bunday nazorat o'qituvchiga universitetda rusiyzabon talabalar uchun o'qitishning dastlabki bosqichini to'g'ri rejalashtirish imkonini beradi;

- auditoriyada taqdim etilgan o'quv materialining birlamchi o'zlashtirilishini aniqlashga qaratilgan joriy nazorat. Nazoratning ushbu shakli mashg'ulotning o'qitish va nazorat qilish vazifalarini uyg'unlashtirish va shu tariqa darsda vaqtni behuda sarflamaslik, talabalarning yangi materialni o'zlashtirishi va tayyorgarligi darajasini maxsus tashkil etilgan nazoratga yetkazish imkonini beradi. Aytish joizki, joriy nazorat aynan nazorat faktiga va haqiqiy nazorat funksiyasiga e'tibor bermasdan amalga oshiriladi (u yumshoq nazorat deb ham ataladi), bu auditoriyada psixologik noqulaylikning oldini olishga yordam beradi;

- o'rganilayotgan materialning yakuniy o'zlashtirilganligini tekshirishga qaratilgan maxsus tashkil etilgan nazorat, u og'zaki yoki yozma bo'lishi mumkin. Bunday nazorat doirasida biz og'zaki so'rov va yozma ishlarga ustunlik beramiz, bu esa pirovardida monologik nutqqa aylanadi.

REFERENCES:

1.Abduraimova M. "Ona tili ta'limida ilg'or pedagogik texnologiya".Toshkent,2005.
2.Ayxodjayeva M.S. Jismoniy tarbiya va sport universiteti talabalari mustaqil faoliyatini jadallashtirish muammolari. "Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish istiqbollari" mavzusidagi Respublika Ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Chirchiq, 2024.

3. Власко Н.К. Определение уровня владения языковым материалом с помощью специализированного программного комплекса // Сборник научных трудов Sworld. - Выпуск 3. Том 28. - Одесса : Куприенко С. В., 2013.-313 с.
4. Галеев И.Х. Компьютерный контроль знаний (локально и дистанционно) / И.Х. Галеев, В.Г. Иванов, Д.Л.Храмов, О.В. Колосов; под ред. И.Х. Галеева. Казань: Казанский государственный технологический университет, 2005. 126 с.
5. Табуева И.Н. Особенности организации контроля знаний студентов в неязыковом вузе//Сборник научных трудов Sworld. - 2014.-Т.12. - №3. -92-97 с.
6. Xolmanova Z., Yusupova T. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, Navoiy universiteti, 2019

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КОГНИТИВНЫХ СТРАТЕГИЙ ПРИ ОБУЧ АУДИРОВАНИЮ НА УРОКАХ РУССКОГО ЗЫКА.

Динара Махмудовна Файзиева,
старший преподаватель кафедры узбекского и иностранных языков УзГУФКС

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается специфика применения когнити стратегий на уроках русского языка.

Ключевые слова: когнитивные стратегии, аудирование, эффектив информация.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada rus tili darslarida kognitiv strategiyalarni qo'llashning o' xos xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: kognitiv strategiyalar, tinglash, samarali, ma'lumot.

ANNOTATION

This article examines the specifics of using cognitive strategies in Russia language lessons.

Keywords: cognitive strategies, listening, effective, information.

Главные задачи когнитивного подхода — понять и объяснить, как устроены и функционируют все эти мыслительные процессы. В контексте образования это означает создание таких стратегий, которые позволят учащемуся применять новую информацию в разных условиях. Преподаватель подаёт новую информацию так, чтобы связать её с уже имеющимися у учащихся знаниями — то есть создавать или менять, расширять существующие ментальные схемы.

Процесс понимания речи на слух, по мнению многих исследователей, является самым сложным из всех видов деятельности обучающихся на занятиях по русскому языку. Однако данный вид деятельности представляет особую важность, поскольку, во-первых, само обучение ведется на русском языке и предусматривает наличие у обучающихся навыков аудирования; во-вторых, как показывают многочисленные исследования, совершенствование навыков аудирования позитивно влияет на эффективность

навыков чтения, говорения и, в меньшей степени, письменной речию. Формирование умения понимать иностранную речь на слух называют также самым сложным аспектом процесса преподавания русского языка. Вместе с тем, несмотря на особую важность аудирования в процессе обучения иностранному языку, задания на аудирование нередко рассматриваются преподавателями как второстепенные, иногда они являются подготовительными этапами перед выполнением основных задач занятия: развития навыков устной и письменной речи.

Использование когнитивных стратегий может сделать процесс обучения аудированию более эффективным. Преимущество их использования заключается в том, что обучающийся понимает не только то, что он должен изучить, но и как он может сделать это наилучшим образом. Аудирование играет важную роль в овладении иноязычной коммуникативной компетенцией, ведь без овладения навыком аудирования невозможна коммуникация в устной форме. Исключительную значимость представляет аудирование для достижения таких целей, как формирование навыков распознавания на слух русской речи и ведения диалога. Все же, часто данный вид речевой деятельности вызывает у обучающихся значительные трудности. При выполнении заданий по аудированию обучающиеся используют наиболее подходящие им когнитивные стратегии, выбор которых может зависеть от ряда факторов, в частности, от типа задания и преобладающего вида восприятия. Еще одним фактором, воздействующим на выбор когнитивных стратегий, является уровень владения языком. Как правило, обучающиеся с низким уровнем владения языком выбирают стратегии, соответствующие модели восприятия «снизу-вверх», при которой слушающий распознает отдельные слова, языковые структуры, содержащиеся в аудиосообщении. Данный процесс является процессом декодирования, который происходит последовательно (от фонем до текстов). Слушающий выбирает когнитивные стратегии, направленные на идентификацию отдельных слов и грамматических структур, поиск ключевых слов. Обучающиеся с высоким уровнем владения русским языком, напротив, чаще опираются на модель восприятия «сверху-вниз», подразумевающую понимание общего смысла аудиотекста. В таком случае предпочтение отдается когнитивным стратегиям, включающих в себя систематизацию и догадку по контексту. Обучающиеся, которые не имеют навыка применения когнитивных стратегий зачастую более зависимы от преподавателя, а также не могут определить, каким образом выполнять

Xalqaro ta'lim dasturlariga muvofiq tavsiya etilayotgan har bir mashg'ulot mavzusini sinash, o'quv dasturiga muvofiq kelishi, talabalar yoshiga mosligi, ular tomonidan o'zlashtirish darajasi va sifat ko'rsatkichi, mavzuni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yuzasidan xulosalarni o'rganib chiqish muhim.

Talabalarda kasbiy - pedagogik kompetensiyalarini shakllantirishda quyidagi pedagogik vazifalarni ijobiy hal etish maqsadga muvofiq ekanligini anglatadi:

talabalarning yosh, psixologik xususiyatlari, qiziqishlari va nimaga qobiliyati borligini o'rganish,ularda kasbiy- pedagogik kompetensiyalarini xalqaro ta'lim dasturlari talablari asosida shakllanganlik darajasini aniqlash hamda bunga imkon beruvchi obyektiv va subyektiv omillarni o'rganish;mashg'ulotlarni tashkil etilishini ta'minlashga e'tiborni qaratish hamda ularni aniq maqsadga asoslanuvchi loyiha asosida tashkil etish, bu jarayonda talabalarning mustaqil faoliyat olib borishi, har birining faollik ko'rsatishlariga erishish; samarali nazorat metodlar vositasida talabalarda bilish kompetensiyasining shakllanganlik darajasini o'rganib borish va tahlil etish.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda zamonaviy o'qitish usullari takomillashadi, xalqaro ta'lim dasturlarining bosh maqsadi - ta'lim sifati oshishiga erishiladi.

Talabalarning kasbiy - pedagogik kompetensiyalarini xalqaro ta'lim dastur talablari asosida shakllantirishda mustaqil ta'limni tashkil etish muhim jarayondir.

Mustaqil ta'lim olish jarayonini faollashtirish, talabalarda mustaqil ta'lim olishga bo'lgan intilish, mavzuga oid ma'lumotlarni mustaqil tarzda o'qib o'rganish,

mustaqil ta'lim olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash me'zoni bo'lib, mustaqil ta'lim:

- talabalarda shaxsiy, kasbiy, individual va yoshga oid xususiyatlarni namoyon qilishga;

bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga;

ularning o'qitiladigan fanlarga oid bilimlarini rejalashtirishga;

auditoriyada va auditoriyadan tashqarida olingan bilimlarni tartibga solishga, shuningdek, nazorat qilish uchun ongli ravishda foydalana bilishga; ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga asos bo'ladi.

Mustaqil ish - bu shunday bilish o'quv faoliyatiki, bunda talabaning fikrlash ketma-ketligi, uning aqliy va amaliy harakatlari talabaning o'ziga bog'liq hamda uning o'zi tomonidan aniqlanadi.

Mustaqil ishlar jarayoni - talaba bo'sh vaqtini mustaqil tarzda mazmunli va samarali tashkil etishi hamda o'z-o'zini nazorat qilishi, xolis baholay olishi.

Mustaqil ishlar jarayonida talaba qiziqishlari asosida bilimlarini yanada boyitishga erishishi mumkin. Shuning uchun mustakil ishlarni OTM talabalaridan boshlash muhim hisoblanadi.

Mustaqil ishlar jarayonida talaba bo'sh vaqtini rejalashtiradi, tartibga soladi, amalga oshiradi, natijalarni qiyoslaydi, o'z-o'zini baholaydi va nazorat kiladi.

Mana shu tamoyillar asosida talabaning kasbiy - pedagogik kompetensiyasi rivojlanadi.

REFERENCES:

1. Воровщиков, С.Г. Внутришкольная система учебно-методического сопровождения развития учебно-познавательной компетентности учащихся [Электронный ресурс].-Режим доступа: http://www.eidos.ru/joumal/2011/0627-10.htm, свободный.

2. Галиев Т.Т. Системный подход интенсификации учебного процесса. Дисс. докт. пед. наук .- Караганда, 2002. -150 с.

3. Зеер, Э.Ф. Ключевые компетенции, определяющие качество образования / Э.Ф. Зеер // Образование в Уральском регионе: научные основы развития: тез. докл. II науч.-практ. конф. - Екатеринбург: Изд-во Рос. гос. проф.- пед. ун-та. - 2002. - Ч.2. - С. 23 - 25.

4. Хуторской, А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-образовательной парадигмы образования [Текст] / А.В. Хуторской // Народное образование. - 2003. - № 5.- С. 58-64.

5. Якиманская, И.С. Компетентностный подход в образовании: проблемы и пути модернизации [Текст] / С.С. Чернова. - Новосибирск: СИБПРИНТ, 2013.- 159с.

SPORCHILARNING KASBIY KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLOGIK YONDASHUV

Farhod Irnazarovich Haydarov
Texnologiya, menejment va kommunikatsiya instituti
"Pedagogika va psixologiya" kafedrasi katta o'qituvchisi,
O'zbekiston. haydarov82@internet.ru

ANNOTATSIYA.

Ushbu maqolaning mazmun – mohiyati oliygoh negizida bo'lg'usi sp psixologlarining kasbiy kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning psixolo xususiyatlarini ilmiy va amaliy jihatlarini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, talaba, sport psixologi, ilmiy yondashuv, ka ko'nikmalar, kasbiy kompetentlik, kasbiy kommunikativ kompeten kommunikativ qobiliyat, kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish, kompetensiya rivojlantirish.

АННОТАЦИЯ

Содержание данной статьи направлено на раскрытие научны практических аспектов психологических особенностей раз профессиональной коммуникативной компетентности будущих спорти психологов на базе вуза.

Ключевые слова: образование, студент, спортивный психолог, на подход, профессиональные умения, профессиональная компетент профессиональная коммуникативная компетентность, коммуникат способности, формирование профессиональных умений, развитие компет

ABSTRACT.

The content and essence of this article is aimed at revealing the scient practical aspects of the psychological characteristics of developing prof communicative competence of future sports psychologists on the bas university.

Keywords: education, student, sports psychologist, scientific a professional skills, professional competence, professional commu competence, communicative ability, formation of professional skills, develo competencies.

Kommunikativ kompetentlik deb ataladigan samarali muloqot qilish qobiliyati har doim olimlarning diqqat markazida bo'lgan. Oliy ta'lim jarayonida sportchilarning kasbiy kommunikativ kompetentligini rivojlantirish, ular nafaqat akademik bilimlarga, balki turli sohalar va faoliyatlardagi muammolarni ijobiy hal qilish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur sanaladi. Darhaqiqat ta'lim jarayonida bo'lajak mutaxassislarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish orqali kasbiy tayyorgarligini oshirish zarur ahamiyatga ega ekanligi bir qator olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Xususan, bugungi kunda biz kommunikativ kompetentlik deb ataydigan samarali muloqot qilish qobiliyati har doim mutaxassislarning diqqat markazida bo'lgan. Taniqli olim N.A. Muslimovning ta'kidlashicha shaxsga yo'naltirilgan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini samarali amalga oshirish uchun talabalar zarur darajada kommunikativ kompetentlikka ega bo'lishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'zaro ta'sir jarayonlariga moslashuvchan bo'lishi, kommunikativ texnologiyalarni qo'llaganda talabalar va o'qituvchi o'zaro bir-birini tushunishi talab etiladi. [Muslimov N.A. 2004. 126 b].

Pedagog olim Sh.S. Sharipov oliy ta'lim tizimidagi o'qituvchining kasbiy mahorati nafaqat bilim va ko'nikmalar to'plami bilan cheklanib qolmaydi, balki ularni haqiqiy o'quv amaliyotida qo'llash samaradorligi bilan belgilanadi. [Sharipov Sh.S. 2005. 54 b]. Kompetentlikka ega bo'lish qobiliyatlilikni anglatadi, mavjud bilimlarni, tajribani muayyan vaziyatlarda muammoni hal qilish uchun safarbar eta olishlikni anglatishini qayd etadi.

Hamdo'stlik mamlakatlari olimlaridan F.E. Zeyer ta'lim jarayonidagi qulay axloqiy va ruhiy muhit, talabalar bilan muloqotning insonparvarligi va demokratlashuvi, o'zaro aloqalarning samaradorligi, muammolarni hal qilishdagi samaradorlik, o'qituvchi va talabalarning o'z faoliyatidan qoniqish hosil qilishi ko'p jihatdan pedagogning kommunikativ kompetentligiga bog'liq ekanligini e'tirof etadi. [Zeyer E.F. 2004. 42-53 s].

M.I.Luk'yanova asosiy tushuncha bilim, ko'nikma va qobiliyatlarning tuzilmasi bu kompetentlikdir. Kompetentlik o'quv jarayoni natijalari va kasbiy faoliyatga bo'lgan talablarni anglashning hozirgi yo'nalishlarini aks ettiradi va ta'lim sifatini baholash jarayonlarini tavsiflash va uni takomillashtirishni ta'minlash uchun zarurligini aytadi. [Eshov B. 2019, 309 s]. Mualliflar oliygohlarda psixologiya va pedagogika fanlarini o'rganish jarayonini faollashtirishga qaratilgan interfaol muloqotning yangi shakllarini izlash zarurligini ta'kidlaydilar. Biroq, sport ta'limida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish uchun nazariy va uslubiy

yordamni rivojlantirilishiga qaramay, kelajakdagi sport psixologlarining universal, shu jumladan kasbiy kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning psixologik xususiyatlariga e'tibor qaratilmagan.

Kasbiy kommunikativ kompetentlik tarkibiga har qanday kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan quyidagi sifatlar kiradi:

– sport sohasida yozma va og'zaki muloqot qobiliyatlari;

– ish yuzasidan muzokaralar olib borish qobiliyati;

– ish etiketiga mos ravishda aloqa o'rnatish qobiliyati;

– jamoa a'zolari bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatish qobiliyati;

– hamkasblar bilan, murabbiy va sportchilar bilan konstruktiv shaxslararo munosabatlarni o'rnatish qobiliyati (sheriklar bilan aloqa);

– nizolarni oldini olish va hal qilish qobiliyati;

– sport faoliyatining turli xil vaziyatlarida o'zlarining hatti-harakatlarini va suhbatdoshning hatti-harakatlarini modellashtirish va tartibga solish qobiliyati;

– professional va shaxsiy muammolarni hal qilishga tayyorlik (qaror qabul qilish, tahlil qilish, shakllantirish, muhokama qilish va hal qilish);

– suhbatdoshni tinglash va eshitish qobiliyati va boshqa ba'zi ko'nikmalar.

Sport psixologi uchun kasbiy kommunikativ kompetentlikning ahamiyati kasbiy faoliyati uchun ham alohida ahamiyatga ega, chunki mashg'ulot jarayonining ikkita asosiy sub'yekti murabbiy va sportchining o'zaro ta'siri asosan muloqotdir va bu so'zlashuv yordamida amalga oshiriladi. Sport psixologining kommunikativ kompetentligi, shuningdek, sportchilar bilan birgalikda ishlash sharoitida o'z maqsadlariga erishish uchun uning jamoadoshlari, ota-onalar va sport faoliyatining boshqa sub'yektlari bilan ish munosabatlarining butun tizimini tartibga soladi. Pedagogik sohadagi muloqot sport psixologining kommunikativ kompetentligining tarkibini belgilaydigan bir qator xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Birinchidan, kundalik ish hayotida sport psixologining kommunikativ kompetentligi so'z boyligi, bilim, ko'nikma va malakalarini darajasi, pedagogik vaziyatni ob'yektiv baholashga tayyorligi bilan namoyon bo'ladi, shu munosabat bilan uning namoyon bo'lishi uchun zarur bo'lgan maxsus pedagogik topshiriqlarni taqdim eta olishi zarur. Bunday holatlar juda ko'p va juda xilma-xil. Ulardan ba'zilarini keltiramiz:

1) Sport psixologining sportchilar bilan tanishish holati;

2) Tanlangan mavzuni izohlash, tushuntirish - tushunish;

3) Suhbat mavzusi bo'yicha tayanch ilmiy ma'lumotlar berish;

4) Sportchi faoliyatini baholash;

5) Sportchi, trener hamda hakamning xatosi va boshqa holatlar.

6) Xulq-atvor me'yorlarining buzilishi (shovqin, baland ovozda gapirish va sh.k);

Sport faoliyatida har bir vaziyat sport psixologidan ma'lum nutq janrlariga ega bo'lishni talab qiladi. Shunday qilib, birinchi turdagi holatlar uchun salomlashish, muomala, taqdimot kabi janrlarini o'zlashtirishi kerak. Vaziyatlarning ikkinchi guruhi uchun suhbatlar, ma'ruzalar, savollar. Uchinchi vaziyat uchun buyurtmalar, talablar, buyruqlar, rag'batlantirish, maslahat, so'rovlar, ishontirish. To'rtinchi vaziyat esa maqtov, iltifot, ma'qullash kabilar. Jamiyatning hozirgi rivojlanish bosqichida ta'lim tizimi madaniy va tarixiy rivojlanish modelining o'zgarishi bilan bog'liq jiddiy o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Ta'lim tizimida qanday islohotlar amalga oshirilmasin, baribir ular ishtirokchiga ya'ni, sport psixologi shaxsi zimmasiga yuklanadi. Aynan sport psixologi turli xil innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etishda asosiy shaxs hisoblanadi. Yangiliklarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun (va sport faoliyatini modernizatsiyalashning asosiy g'oyalaridan biri bu kompetensiyalarni rivojlantirish), yangi sharoitda unga qo'yilgan vazifalarni hal qilish uchun sport psixologi zarur darajadagi kasbiy mahoratga ega bo'lishi kerak.

Sport psixologlarining kasbiy kommunikativ kompetentligini rivojlantirish orqali sport faoliyati ishtirokchilarining universal rivojlanishi va o'zini namoyon qilish usullaridan biri sifatida ko'rib chiqish mumkin. Shunday qilib, kommunikativ kompetentlik shaxsiy muvaffaqiyat, raqobatbardoshlik va shaxsiy qoniqish, shuningdek, ta'limning sifatiga bog'liq bo'lgan yuqori kasbiy darajaning asosiy qismlaridan biriga aylanadi. Faol va samarali tinglash konstruktiv muloqotning asosiy shartlaridan biridir.

Pedagoglar talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga e'tibor va mas'uliyat bilan yondashishlari hamda o'quv mashg'ulotlarini olib borishda auditoriyada quyidagilarga amal qilishi kerak deb hisoblaymiz:

1. "Muloqotga doimiy tayyorlik". Muloqot jarayonidagi umumiy va shaxsiy to'siqlarning mavjudligi ko'pincha ma'lumotlarni talabalar tomonidan chala va noto'g'ri tushunishiga olib keladi.

2. "Aniqlik". Pedagog mavhum iboralar va so'zlardan foydalanmasligi va juda keng tarqalmagan atamalarni ishlatmaslik kerak.

3. "Hatti-harakatlarni tizimlashtirish". Pedagog faqat nutqi va muloqot tarkibini boshqarishi emas, balki, yuz ifodalarini, imo-ishoralarni, intonatsiyani va hulq-atvorini ham nazorat qilish kerak.

4. “Shaxsiy xatolik”. Muloqotda har doim o‘z shaxsiy nuqtai nazarimizni noto‘g‘ri bo‘lishi ham mumkin deb taxmin qilishimiz kerak. Bu bizni jiddiy xatolarga yo‘l qo‘yishdan saqlaydi.

5. “Joy va vaqt”. Agar biror ma’lumotni yetkazish o‘z vaqtida va eng maqbul vaziyatda amalga oshirilsa, har qanday ma’lumotning ta’sirchanligi keskin oshadi.

6. “Ochiqlik”. O‘z nuqtai nazarimizni bahsli holatlar ta’sirida yuzaga kelgan yangi vaziyatlarda qayta ko‘rib chiqishga tayyorlik, suhbatdoshning fikrini qabul qilish va hisobga olish qobiliyati.

7. “Qaytar aloqa”. Aloqa jarayonining asosiy maqsadiga erishishni ta’minlash – o‘zaro bir-birini tushunish. [Ashixmina T.A. 2012. 52-54 s].

Yuqoridagi ma’lumotlar umumlashmasidan quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Oliy ta’lim tizimida bo‘lajak sport psixologlarini tayyorlash jarayonida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish pedagoglarning kommunikativ kompetentligi darajasiga ham bog‘liq.

2. Pedagogik boshqarish uslubini tanlash pedagogik muloqot texnikasining moslashuvchanligi va o‘zgaruvchanligi bilan belgilanadi, talabalarning o‘ziga xos sharoitlariga, yosh va individual xususiyatlariga va ularning faoliyatiga uzviy bog‘liq.

3. O‘z ishida umumlashtirilgan psixologik va pedagogik bilimlardan faol foydalangan holda, ravon nutqiy qobiliyatga ega, kasbiy muloqot va faoliyat uslubini mustaqil va to‘g‘ri tanlay oladigan bo‘lajak mutaxassislarning kommunikativ kompetentligini maqsadli shakllantirish zarur ahamiyat kasb etadi.

Takliflar. Yuqorida bayon etilgan xulosalarga tayangan holda quyidagi takliflar kiritilmoqda:

1. Sport psixologlarining kasbiy kommunikativ kompetentligini shakllantirish uchun o‘quv mashg‘ulotlarida o‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi o‘zaro hamkorlik faoliyatini tashkil qilish.

2. Ma’ruza mashg‘ulotlarini talabalarning yosh va individual xususiyatlarini. o‘quv materialini qanchalik darajada o‘zlashtirish qobiliyatini hisobga olgan holda tashkil qilish.

3. O‘quv mashg‘ulotlarini olib borishda ko‘proq muloqot texnikasidan foydalanish, talabalar o‘rtasida o‘zaro intellektual bellashuv muhitini yaratish.

4. O‘quv mashg‘ulotlarida yozma va og‘zaki topshiriqlarni bajarishda sport psixologlarning hamkorlikdagi muloqotini tashkil qilish.

5. Ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish.

6. Sport psixologlari ni mustaqil ravishda kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlash.

7. Sport psixologlarini o'quv mashg'ulotlarida mustaqil fikrlari, o'z ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishga tayyorlash.

REFERENCES:

1. Ashixmina T.A. Formirovaniye kommunikativnoy kompetentnosti studentov // Mir nauki, kulturiy, obrazovaniya. - 2012. - №4 (35). - s. 52-54.
2. Zeyer E.F. Modernizatsiya professionalnogo obrazovaniya: kompetentnostnыy podxod // Obrazovaniye i nauka. Izvestiya. Ural. Otdeleniye RAO. 2004. – № 3. – S. 42-53.
3. Luk'yanova M.I. Psixologo-pedagogicheskaya kompetentnost uchitelya // Moskva, Pedagogika. – 2001. – № 10. – s. 56-61.
4. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. –T.: "Fan", 2004. –126 b.
5. Sharipov Sh.S. Kasbiy ta'lim pedagogikasi. – T.: TDPU, 2005. –54 b.

INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR KASBIY MOTIVATSIYANI RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA

Sodiqjon Muhammadinovich Jo`rayev
Namangan davlat pedagogika instituti
"Pedagogika va psixologiya" kafedrasi o`qituvchisi,
O'zbekiston. jsodiqjon24@gmail.com

ANNOTATSIYA.

Ushbu maqolada kasbiy motivatsiya rivojlanishiga ta`sir etuvchi psixlogi omillar, inson psixikasining individual xususiyatlari kasbiy motivatsiy shakllanishiga ta`siri, kasbiy motivatsiya rivojlanishi davrida emotsional barqarorli haqida so`z boradi.

Kalit so'zlar. Motivatsiya, kasbiy motivatsiya, emotsional barqarorlik, sel estim, jamoa, muhit, rivojlanish.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются психологические факторы, влияющ на развитие профессиональной мотивации, влияние индивидуальны особенностей психики человека на формирование профессиональн мотивации, а также эмоциональная устойчивость в период её развития.

Ключевые слова: мотивация, профессиональная мотивац эмоциональная устойчивость, самооценка, коллектив, среда, развитие.

ABSTRACT

This article discusses the psychological factors influencing the developmen professional motivation, the impact of individual psychological characteristics on formation of professional motivation, and emotional stability during its developme

Keywords: motivation, professional motivation, emotional stability, s esteem, team, environment, development.

Kasbiy motivatsiya rivojlanishiga ta'sir etuvchi individual-psixologik om mavzusidagi ilmiy tahlillar har tomonlama chuqur yondashuvni talab qi Zamonaviy psixologiyada kasbiy motivatsiya tushunchasi keng o'rganib chiqi bo'lib, unda shaxs faoliyatining ichki va tashqi faktorlar bilan bo'g'liq jarayo asosiy o'rin tutadi. Shuni alohida qayd etish lozimki, kasbiy motivatsiya rivojla

jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq jarayon bo'lib, insonning individual-ruhiy xususiyatlari, ya'ni aqliy, emotsional va irodaviy sifatlari hamda shaxs o'zi yaratgan ijtimoiy muhit bilan uzviy aloqada kechadi. Mazkur jarayon, avvalo, kasbiy funktsiyalarni bajarishda shaxs o'zida his qiladigan qiziqish, ehtiyoj, maqsad sari intilish hamda ayni intilishni mustahkamlab turadigan tashqi omillar bilan ta'sirlanadi. Quyidagi matnda mazkur jihatlar "omilli holat" sifatida ko'rib chiqilib, kasbiy motivatsiya rivojlanishida individual-psixologik omillar e'tibor markazida bo'ladi.

Keyingi jihatlardan biri – inson psixikasining individual xususiyatlari kasbiy motivatsiya shakllanishiga qanchalik kuchli ta'sir ko'rsatishi masalasidir. Chunonchi, temperament turlari (sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik) shaxsning kasbiy faoliyatda ko'rsatayotgan jismoniy va ruhiy reaktsiyalar tezligi, emotsional barqarorlik darajasi, murakkab vaziyatlarga munosabatlari bilan bevosita bog'liq. Bu borada, rus psixologi M.Yegorova inson qobiliyatlari va ularni rivojlantiruvchi omillar haqida fikr yuritar ekan, har bir shaxsda mavjud bo'lgan irodaviy, emotsional va aqliy imkoniyatlar individual xarakter kasb etishini uqtirgan[26]. Ya'ni, ayrim shaxslarda yuqori darajada "piyoda" maromda ish olib borish qobiliyati rivojlangan bo'lsa, boshqalarda keskin qarorlar qabul qilish, yetimologiyasi murakkab muammolarni tezkor hal etish salohiyati ustun bo'lishi mumkin. Bu esa kasbiy motivatsiya oshiruvchi ichki kuch, ya'ni individual ravishda mavjud bo'lgan intellektual yoki irodaviy jihatlar bilan namoyon bo'ladi. Binobarin, kasbiy motivatsiya rivojlanishi uchun, bir tomondan, shaxs o'zining individual-psixologik xarakteristikalari haqida ma'lum tushunchaga ega bo'lishi lozim; ikkinchi tomondan, ushbu individual xususiyatlarini aniq maqsadga yo'naltirilgan tarzda rivojlantirish mexanizmi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shaxsda kasbiy motivatsiya rivojlanishi uchun zarur bo'lgan psixologik muhit, ya'ni ma'naviy-emotsional muhitdagi tartibot ham muhim omildir. Chunki ish joyida, mehnat jamoasida yoki ta'lim muassasasida mavjud ruhiy muhit shaxsda kasbiy maqsadlarga nisbatan hissiyotlar, intilishlar, munosabatlarni shakllantiradi. Psixologik muhit shaxsda eng avvalo ishonch hissini mustahkamlaydi, o'zaro ko'maklashish, tarafkashlik emas, adolatli rag'batlantirish mavjud bo'lganda, kasbiy motivatsiya rivojlanishi osonlashadi. Jamiyat taraqqiyot darajasi hamda jamoadgi ruhiy muhit mustahkamlashida manfaatdor bo'lgan rahbar va hamkasblar, shaxslarda ochiqlik, samimiylikni shakllantiruvchi turli treninglar, motivatsion suhbatlar,

[26] Егорова М. Исследование развития в психологии индивидуальных различий //Психологические исследования. – 2014. – Т. 7. – №. 36.

guruhlik loyihalar bilan shug'ullanish yoki birgalikda qarorlar qabul qilish jarayonlarining barchasi muhim bir sistema sifatida qaralishi zarur.

Shuningdek, professional rivojlanish yo'lida shaxsning irodaviy imkoniyatlari alohida e'tiborni talab qiladi. Iroda – shaxsni bir maqsad sari muntazam ravishda xarakat qilishiga undaydigan, qiyinchiliklarni yengib o'tishda, qarshiliklarga bardosh berishda yordam beradigan ruhiy mexanizmdir. Bu borada, o'zbek psixologi N.Xolyigitova "Kasb motivlarining barqarorligida guruhiy jipslikning ta'sir etish omillarini o'rganish usullari" nomli tadqiqotida irodaviy omil kasbiy maqsadlar uchun ichki turtkini mustahkamlab turadigan asos ekanini qayd etadi[27]. U kishi shaxsda irodaviy sifatlar qanchalik yuksak bo'lsa, kasbiy motivatsiya ham shunchalik uzoq muddatli negizda shakllanishi mumkin, deb hisoblaydi. Zero, shaxsda yuzaga keladigan har qanday motivda vaqtinchalik qiziqish yoki ta'sirchanlik namoyon bo'lishi mumkin. Lekin iroda bilan mustahkamlangan motiv mustahkam bo'ladi hamda shaxsni muntazam ravishda maqsad sari yetaklaydi. SHu bois, kasbiy motivatsiya rivojlanishi uchun inson irodaviy holatini sayqallash, shaxsiy maqsadlarida barqarorlikni ta'minlash, o'z-o'zini baholash faoliyatini rejali tarzda yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega.

Kasbiy motivatsiya rivojlanishi jarayonida emotsional barqarorlik hamda zo'riqishlar bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish muhimdir. Zamonaviy dunyoning shiddatli ritmi, kasbiy jarayonlarda raqobat kuchaygani, ma'lum bir malaka va ko'nikmalarga bo'lgan talab oshib borayotgani shaxsda turli emotsional holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Psixologlar ta'kidlaganidek, emotsional barqarorlik – bu shaxsda tashqi buzg'unchi omillar paydo bo'lganda, ichki ruhiy salomatlikni saqlay olish qobiliyatidir. Amerikalik psixolog G. Myurrey "Ehtiyojlar nazariyasi"da kasbiy motivatsiya rivojlanishi jarayonida shaxsda faoliyat "tishlanishi" (engagement)ni ta'minlaydigan bir necha ko'rinishdagi ehtiyojlar, shu jumladan, xavfsizlik ehtiyojlari, e'tirof etish ehtiyojlari, orzu qilinadigan maqsadlarga yetish chtiyojlari mavjudligini yoritib beradi[28]. Bu ehtiyojlar ta'minlanganda, emotsional zo'riqishlar kamayadi va kasbiy faoliyat uchun zamin yaratiladi. Shu nuqtai nazardan, kasbiy muhitdagi turli stress jarayonlarning oldini olish, amaliy psixologik ko'mak ko'rsatuvchi xizmatlar yoki motivatsiyani rag'batlantiruvchi dasturlarni joriy etish shaxsda imkon qadar barqaror emotsional holatni

[27] Холйигитова Н. Х. КАСБ МОТИВЛАРИНИНГ БАРКАРОРЛИГИДА ГУРУХИЙ ЖИПСЛИКНИНГ ТАЪСИР ЭТИШ ОМИЛЛАРИНИ ЎРГАНИШ УСУЛЛАРИ //Современное образование (Узбекистан). – 2021. – №. 11 (108). – С. 23-32.
[28] Murray H. A., McAdams D. P. Explorations in personality. – Oxford ...

shakllantiradi. Natijada, ushbu barqarorlik kasbiy motivatsiya rivojlanishi uchun zarur sharoit yaratadi.

Kasbiy motivatsiya rivojlanishi jarayoni individual-psixologik omillar bilan bir qatorda, keng ma'noda psixologik-pedagogik ta'sirlar bilan ham uyg'unlashuvi talab qilinadi. Ya'ni, kasbiy motivatsiyani shakllantirishda ustoz-shogird munosabatlari, ta'lim-tarbiya tizimidagi innovatsiyaviy yondashuvlar, kasbiy rivojlanish treninglari, motivatsion suhbatlar, seminar-treninglar, amaliy mashg'ulotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda har bir shaxsning xususiyati va ehtiyojlari hisobga olingan holda, individual yondashuvni tashkil etish, oila hamda jamoadoshlar tomonidan ko'maklashuv, qulay ish sharoiti yaratish, ruhiy maslahat berish xizmatlari kabi sharoitlar kasbiy motivatsiyani kuchaytirib borishi aniq. Bunda, xulosa qilib aytganda, psixologik asos sifatida "qo'llab-quvvatlash" mexanizmi katta rolь o'ynaydi. Chunki shaxs biror kasbiy maqsadni ko'zlar ekan, unda ichki turtki qanchalik kuchli bo'lmasin, tashqi muhit tomonidan rag'bat yoki ko'mak mavjud bo'lmasa, murosasizlik, tushkunlik kabi holatlar rivojlanishi mumkin. Shu o'rinda yosh olimlardan biri O.Qo'ysinov "Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirishning didaktik xususiyatlari" asarida qayd etishicha, har bir insonda individual-psixologik xususiyatlarga e'tibor berish bilan birga, tashqaridan beriladigan moddiy yoki ma'naviy rag'batlantirish, pozitiv fikrlash muhiti yaratish kasbiy motivatsiyaning sabotli rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi[29].

Kasbiy motivatsiya rivojlanishi jarayonida ta'lim tizimi, xususan, oliy ta'lim muassasalarida studentlarda kasbiy yo'naltirishni maqsadli tashkil etish masalasi ham individual-psixologik omillar bilan bog'liq. Jumladan, pedagogik psixologiyada o'quv motivatsiyasi profescional motivatsiya bilan chambarchas bog'liq ekani alohida uqtiriladi. Pedagogik jarayonda talabani kelajakda o'z kasbiy imkoniyatlarini anglashi, ularni qanday rivojlantirishi lozimligini teran his etishi, ta'lim davrida olingan nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalardan o'z holicha foydalanish imkoniyatlarini tushunishi unda kuchli kasbiy motivatsiya shakllantiradi. Shu bilan birga, shuni aytmoq lozimki, talaba yoshlarda bir xil darajada intiluvchanlik, maqsadsevarlik, irodaviy sifatlar, emotsional barqarorlik yo'q. Shu bois har bir talaba bilan individual ishlash, ularda mavjud ichki resurslarni aniqlash, ko'nikma va qabiliyatlarni maqsadli safarbar etish to'g'risida maxsus dasturlar ishlab chiqilishi talab etiladi. Bunda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, shu jumladan, interaktiv metodlar, portfolio usullari, refleksiya mashqlari, psixologik treninglar kabi shakllardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni, pedagoglar talabalar

[29] Qo'ysinov O. Бўлажак ўкитувчиларнинг касбий-педагогик ижодкорлигини ривожлантиришнинг дидактик хусусия...

psixikasining individual xilma-xilligini hisobga olib, ularda kasbiy maqsadlarni shakllantirish hamda ushbu maqsadlar sari yo'naltiruvchi motivlarni qo'llab-quvvatlash orqali samarali natijaga erishishi mumkin.

Kasbiy motivatsiya rivojlanishi jarayonida shaxs o'z oldiga qo'yayotgan maqsadlarning aniqligi katta ahamiyatga ega. Psixologiyada maqsadni aniq belgilash shaxsda motivlar konturini ravshan aks etishiga sharoit yaratadi. Shaxsda abstrakt tarzda belgilangan maqsad emas, aniq parametrlarga ega bo'lgan maqsad kyshli motivatsiyani shakllantiradi. Bu haqda angliy psixologi E. Lokk "maqsadni aniq belgilash nazariyasi" (Goal-Setting Theory) orqali bir qator amaliy tadqiqotlar o'tkazgan. U bergan xulosaga ko'ra, shaxs ozining kasbiy vazifalarini aniq, o'lchab bo'ladigan, vaqt oralig'i belgilangan maqsadlar bilan mustahkamlab olsa, motivatsiya kuchliroq bo'ladi[30]. Shu ma'noda, rahbarlar hamda pedagoglar yoki maslahatchilar shaxslarda maqsadni aniq belgilash qobiliyatini rivojlantirishi, har bir inson kelgusi kasbiy faoliyatida nimani, qachon, qanday shaklda amalga oshirishini oydinlashtirishi zarur. Aniq maqsadlar shaxsni amalda qiyinchiliklardan qo'rqmay, innovatsiyaviy yondashuvlarni topishga, o'z qobiliyatlarini yanada aniqlashtirib olishga undaydi.

Yana bir jihat sifatida kasbiy motivatsiyani rivojlantiruvchi psixologik asoslardan biri sifatida o'ziga bo'lgan ishonch – "self-estim" (self-esteem) tushunchasini ko'rib chiqish mumkin. Shaxsda o'ziga bo'lgan ishonch yetarli darajada shakllanmagan bo'lsa, uning kasbiy maqsadlari ham noaniq ko'rinish olishi, ma'lum bir bosqichda tushkunlikka tushishi yoki xaltiyb qolishi mumkin. Frantsuz psixologi A. Bandura "o'ziga ishonch mexanizmlari" nazariyasida insonda ishonch tushunchasi nafaqat irodaviy, balki intellektual va emotsional pog'onalarda o'z aksini topishi, buni muntazam ravishda rivojlantirish muhimligini ta'kidlaydi[31]. Kasbiy motivatsiyaning rivojlanishi uchun shaxs o'z qobiliyatlari, malakasi, bilimlari va tajribasiga munosib ishonch bilan yondashishi, shu bilan birga, unda kamchiliklar borligini tan olgan holda, ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash mexanizmi shakllanishi lozim. Bu jarayonda maslahatchilar, ustozlar, maslahat yoki retroaktsiya beruvchi guruhlar muhim rolь o'ynaydi. Ular shaxsda o'ziga ishonchni tarbiyalash mumkinligini ko'rsatib, ilk yutuqlarni rag'batlantiradiki, bu shaxsda kasbiy motivatsiyani kuchaytirish yo'nalishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Oxir-oqibatda, kasbiy motivatsiya rivojlanishiga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillarni qisqa tarzda umumlashtirib aytadigan bo'lsak, eng avvalo, shaxsning ruhiy xususiyatlari (temperament, iroda, emotsional holat, aqliy imkoniyatlar, qadriyatlar tizimi), maqsad aniqligi, ta'lim-tarbiya jarayonlarida

[30] Locke E. A., Latham G. P. A theory of goal setting & task performance. – Prentice-Hall. Inc. 1990.
[31] Bandura A. Self-efficacy: The exercise of control. – Macmillan, 1997.

olinayotgan ko'nikma va malakalar, jamoadagi psixologik muhit, oilaviy muhit, tashqaridan beriladigan rag'bat va yordam, shaxsda refleksiya mexanizmi hamda o'z-o'ziga ishonch darajasi singari aspektlar muhimdir. Bu omillar har bir insonda turlicha namoyon bo'lishi, ularni rivojlantirish yo'llari va ulagancha amalga oshirish mexanizmlari ham har bir shaxs uchun o'ziga xosdir. Biroq, shunga qaramasdan, umumiy ma'noda so'nggi maqsad – shaxsda kasbiy maqsadlarga erishuv, kasbiy kamolot sari intilish, yo'lda uchraydigan qiyinchiliklarni imkoniyat sifatida qabul qilib, o'z-o'zini rivojlantirish orqali samarali faoliyat ko'rsatish sanaladi. SHu jihatdan, kasbiy motivatsiya rivojlanishi faqatgina individual-psixologik omillarni emas, balki ziyoli muhit, jamoa, rahbarlar, ota-ona, mahalliy muhit va butun jamiyat ta'sirini ham o'z ichiga qamrab oladi. Lekin mazkur inson taraqqiyotida shakllanadigan o'ziga xos "ko'prik" – bu individual-psixologik omillardir. Zero, har qanday sharoit hamda imkoniyatlar bo'lmasin, agar shaxsda ichki quvvat, ixtiyoriy ravishda harakat qilish salohiyati, o'zining lichnostik kuchli jihatlarini aniqlash va ularni maqsad sari yo'naltirish qobiliyati bo'lmasa, kasbiy motivatsiya rivojlanmaydi yoki ahamiyatsiz qolishi mumkin.

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib, "Kasbiy motivatsiya rivojlanishiga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar" mavzusida shunday xulosa qilish mumkinki, shaxsning har bir jihati – aqliy (intellektual) salohiyati, irodaviy barqarorligi, emotsional holatlari, refleksiya qobiliyati, shaxsiy qadriyatlari, maqsad sari intilishi va o'ziga ishonch darajasi bir butun tizimni tashkil qiladi. Bu tizim shaxs faoliyatida doimiy ta'sir ko'rsatayotgan tashqi omillar (jamoa, muhit, ta'lim tizimi, rahbarlar siyosati va h.k.) bilan uzviy aloqada davom etadi. Mazkur jarayonda ichki-psixologik mexanizmlarni anglab yetish, ularni rivojlantirish, to'g'ri yo'naltirish kasbiy motivatsiyani mustahkamlovchi eng muhim masala hisoblanadi. Shaxs o'zi tanlagan yo'nalishda bajaradigan faoliyatidan kanoat hosil qiladigan bo'lsa, ichki maqsadlari bilan tashqi ehtiyojlar, talablar uyg'unlashsa, ayni shu holat kasbiy motivatsiyani yuksak pog'onaga ko'tarishi muqarrardir. Demak, mazkur mavzudagi ilmiy izlanishlar hamda amaliy tadbirlar xamisha davom etishi, yangi nazariyalar va modellarning ishlab chiqilishi lozim. Zero, jamiyat rivojlanishi baroi inson potentsialini to'liq ishga solish, har bir shaxsni o'z kasbida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi uchun qulay sharoitlar yaratish bilan bogliqdir. Bu esa o'zaro manfaatdorlik muhitining vujudga kelishi, har bir ishtirokchining kasbiy salohiyati

mustahkamlanishi. yanada maqsadsevarlik bilan faoliyat yuritishi uchun zamin yaratadi.

REFERENCES:

1. Егорова М. Исследование развития в психологии индивидуальных различий //Психологические исследования. – 2014. – Т. 7. – №. 36.
2. Холйигитова Н. Х. КАСБ МОТИВЛАРИНИНГ БАРҚАРОРЛИГИДА ГУРУҲИЙ ЖИПСЛИКНИНГ ТАЪСИР ЭТИШ ОМИЛЛАРИНИ ЎРГАНИШ УСУЛЛАРИ //Современное образование (Узбекистан). – 2021. – №. 11 (108). – С. 23-32.
3. Murray H. A., McAdams D. P. Explorations in personality. – Oxford university press, 2007.
4. Qo'ysinov O. Бўлажак ўқитувчиларнинг касбий-педагогик ижодкорлигини ривожлантиришнинг дидактик хусусиятлари //Nordic_Press. – 2024. – Т. 2. – №. 0002.
5. Locke E. A., Latham G. P. A theory of goal setting & task performance. – Prentice-Hall, Inc, 1990.
6. Bandura A. Self-efficacy: The exercise of control. – Macmillan, 1997.

КОГНИТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ ПСЕВДОНИМОВ

Сайёра Сайдуллаевна Ибрагимова
доктор философии (PhD), и.о. доцента кафедры
русского языка и литературы негосударственного высшего образовательного учреждения
Alfraganus University. ibragimovasayyora97@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В системе русской и узбекской антропонимики модели псевдонимов в разных периодах жизни общества были образованы на основе характерных для данного времени словообразовательных типов онимов и аппелятивов. Они, как и другие ономастические единицы антропонимов, отражают в себе малейшие изменения в их образовании. Надо отметить, что среди русских псевдонимов существует небольшая группа необычно образованных псевдонимов, их около 2 %.

Русские и узбекские псевдонимы создают обширное поле ономастических единиц. Авторы, придумывая их, обращаются к различным видам словообразования и использования метаплазмов, а при создании коллективных псевдонимов стремятся отметить вклад каждого автора; увековечить имя, показать родство, даже умудряются затеять игру с читателем. Такие номинативные единицы наблюдаются только в псевдонимах. Они рассмотрены в статье с когнитивной, лексико-семантической, морфологической, графической, фонетической точек зрения.

Ключевые слова. Метаплазмы,аппелятивы, онимы, антропонимика, псевдонимы.

Псевдонимы являются результатом метафорического или метонимического переноса значения. Они демонстрируют представление носителя языка о вселенной, о том, как он её воспринимает. Псевдонимы- это продукт переосмысления действительности, деятельности человеческого сознания и мышления. Человек переосмысливает мир за счёт накопленных знаний, которые в сознании объединены в категории. В этом процессе в языке образуются псевдонимы.

Языкознание располагает своеобразными методами анализа концепта. В частности, по мнению Дж. Лакоффа и М.Джонсона о метафорическом

анализе концепта, метафора считается средством выполнения фундаментальной когнитивной операции, обеспечивающим переход образных схем от одного концептуального поля к другому. Кроме того, ученые считают, что в образовании метафорического производного значения участвуют два когнитивных областей, то есть «область источника» (source domain) и «область цели» (target domain) [Lakoff, G., Johnson, M, 2003]. «Область источника» – совокупность конкретных знаний человека о бытии, полученных благодаря его опыту. А «область цели» – относительно мало проясненные, уточненные знания. Если внести точность в данную формулировку, когда происходит перенос значения метафорическим способом, человек применяет существующие в языке единицы и имеющиеся знания. Это функция «области источника». А «область цели» – это новое значение, образуемое в человеческом сознании с помощью готовых языковых единиц. Как выясняется, метафора – своеобразный способ осмысления мира, когнитивный механизм языка, образующий новое значение. В результате стремительно происходящих в мире изменений, различных открытий, метафора играет важную роль в номинации новых понятий, при осуществлении различного рода анализа в сознании в процессе наименования. Следовательно, метафора – это не только явление языка, но и мышления в целом. Это заключение в своё время высказано и другими учёными, в частности А.Ричардсом, Хосе Ортега-И-Рассетом

В образовании псевдонимов концептуальная метафора реализуется благодаря взаимному приспособлению области источника и области цели Например:

НАСЕКОМОЕ ← ПСЕВДОНИМ
область источника область цели
ОСА ⟷ ЗАМБУР
↑ ⟷ НАСЕКОМОЕ ⟷ ↑

Русское слово оса и узбекское слово замбур относятся к когнитивном полю концепта НАСЕКОМОЕ. В процессе словообразования устанавливаетс сходство между областью источника концепта НАСЕКОМОЕ и областью цел концепта ЧЕЛОВЕК. Сема насекомое лексемы оса занимает место в област цели концепта ПСЕВДОНИМ. Когнитивное поле созданный этой лексемо помогает воссоздать концепт псевдоним. Русское слово оса имеет значени «жалящее летающее перепончатокрылое насекомое с яркой (обычно чёрной жёлтым) окраской» [ТСРЯ 2008:1145]. Узбекское слово замбур имеет значени

«арининг захарли йирик тури» [ЎТИЛ 2006:127] (букв. ядовитый крупный вид пчел). В данном случае псевдоним образован простым способом и относится к первому типу образования псевдонимов.

Русский псевдоним Громов и узбекский псевдоним Яшин образованы из слов обозначающее природное явление.

ГРОМ ⟷ ЯШИН
⟷ ПРИРОДНОЕ ЯВЛЕНИЕ ⟷
ПРИРОДНОЕ ЯВЛЕНИЕ ⟵ ЧЕЛОВЕК
область средства область цели

Русское слово гром имеет следующее значение «Сильный грохот, раскаты, сопровождающие молнию во время грозы» [ТСРЯ 2008:341]. Лексическое значение узбекского слова яшин «атмосферада булутлараро ёки булутлар билан ер сирти орасида пайдо бўладиган жуда кучли оний электр учкуни; чакмок» [ЎТИЛ 2006:127] (букв. очень мощная мгновенная электрическая искра, которая появляется в атмосфере между облаками или на поверхности земли и облаками; молния). В процессе словообразования псевдонима происходит метафорический перенос значения. На основе этого явления формируется концепт область цели ЧЕЛОВЕК с помощью область средство ПРИРОДНОЕ ЯВЛЕНИЕ. Только русский псевдоним Громов относится ко второй разновидности образования псевдонимов, так как имеет словообразовательное средство -ов, а узбекский псевдоним Яшин относится к первой разновидности образования псевдонимов, состоящий только из основы. Только присоединение этого аффикса немного уменьшает предназначение, концептуальную силу псевдонима, приближая его к другому виду антропонимов как фамилия [Ибрагимова, 2023].

Вторая когнитивная модель сочетанные псевдонимы образуются следующим образом, например, русский псевдоним Пельменелюбов означает «человека, любящего кушать пельмени» состоит из двух основ присоединенного при помощи соединительного гласного -е- и словообразовательного форманта -ов. Пельмени – существительное «род маленьких пирожков из пресного теста с мясной начинкой, употребляемое в варёном виде» [ТСРЯ 2008: 1239] и любить – глагол «испытывать любовь, пристрастие к кому-либо, к чему-либо» [ТСРЯ 2008: 826].

ПЕЛЬМЕНИ+ ЛЮБИТЬ ⟵ ЧЕЛОВЕК
ЕДА +ДЕЙСТВИЕ ⟵ ЧЕЛОВЕК
область средства область цели

Ассоциативное значение пельмени слова еда активизируется в образовании псевдонима Пельменелюбов. Второй компонент псевдонима – лексема любить входит в состав когнитивного поля концепта еды. В образовании псевдонима активизирована сема пельмени этой лексемы.

REFERENCES

1. Lakoff, G., Johnson, M. Указанная литература. 2003. – Б. – 267.
2.Ибрагимова С.С. Генезис, семантика и когнитивные особенности псевдонимов в русском и узбекском языках. Дисс.. докт. филол. наук. – Т., 2023. – С. 134;
3. Саттаров Г.Х. Тюркский пласт узбекских антропонимов. Автореф. дисс.. докт. филол. наук. – Т., 1990. – С. 14;
4. Суперанская С. Восточно-славянская ономастика. – М.: Наука, 1972. – С. 346.
5. Псевдонимы русских писателей и поэтов: исследовательская работа. – 2016 [Электронный ресурс]. – URL: https://infourok.ru/issledovatelskaya-rabota-psevdonimi-russkih-pisateley-i-poetov-1095051.html

СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ЯЗЫКОВЫХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ СПОРТСМЕНОВ НА ОСНОВЕ КОГНИТИВНОГО ПОДХОДА: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Рахим Муратович Ходжиев,
доцент кафедры Языков Академии ВС РУ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается эволюция тренерской деятельности в спорте, которая включает не только физическую, но и когнитивную подготовку спортсменов. Опираясь на теории обучения Пиаже, Выготского и современных исследователей, автор подчёркивает значимость когнитивных процессов, таких как внимание, память и принятие решений, в достижении высоких спортивных результатов. Описаны ключевые методы развития тактического мышления, игрового интеллекта и когнитивной гибкости через сценарные тренировки, анализ игровых ситуаций и многозадачные упражнения. Интеграция когнитивных и физических тренировок позволяет повысить адаптивность спортсменов и их конкурентоспособность в динамичной спортивной среде.

Ключевые слова: спорт, тренерская деятельность, когнитивное развитие, когнитивные способности, внимание, память, принятие решений, тактическое мышление, игровой интеллект, когнитивная гибкость, спортивная результативность, сценарные тренировки, анализ игровых ситуаций, многозадачные упражнения, интеграция физической и когнитивной подготовки.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sportda murabbiylik faoliyatining evolyutsiyasi ko'rib chiqilib, u nafaqat jismoniy, balki kognitiv tayyorgarlikni ham o'z ichiga olishi ta'kidlanadi. Piajye, Vigotskiy va zamonaviy tadqiqotchilarning o'quv nazariyalariga asoslanib, muallif sportda e'tibor, xotira va qaror qabul qilish kabi kognitiv jarayonlarning muhimligini yoritib beradi. Taktil tafakkur, o'yinni anglash qobiliyati va kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirish usullari, jumladan, ssenariyga asoslangan mashg'ulotlar, o'yin vaziyatlarini tahlil qilish va ko'p vazifali mashqlar tasvirlangan. Kognitiv va jismoniy mashg'ulotlarni integratsiya qilish sportchilarning moslashuvchanligini oshirishga va raqobatbardoshligini mustahkamlashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: sport, murabbiylik faoliyati, kognitiv rivojlanish, kognitiv qobiliyatlar, diqqat, xotira, qaror qabul qilish, taktik tafakkur, o'yinni anglash qobiliyati, kognitiv moslashuvchanlik, sport natijadorligi, ssenariy mashg'ulotlari, o'yin vaziyatlarini tahlil qilish, ko'p vazifali mashqlar, jismoniy va kognitiv tayyorgarlikni integratsiyalash.

ABSTRACT

This article examines the evolution of coaching in sports, emphasizing the integration of both physical and cognitive training. Based on the learning theories of Piaget, Vygotsky, and modern researchers, the author highlights the importance of cognitive processes such as attention, memory, and decision-making in achieving high athletic performance. The article describes key methods for developing tactical thinking, game intelligence, and cognitive flexibility through scenario-based training, game situation analysis, and multitasking exercises. Integrating cognitive and physical training enhances athletes' adaptability and competitiveness in a dynamic sports environment.

Keywords: sports, coaching, cognitive development, cognitive abilities, attention, memory, decision-making, tactical thinking, game intelligence, cognitive flexibility, athletic performance, scenario-based training, game situation analysis, multitasking exercises, integration of physical and cognitive training.

В последние годы тренерская деятельность в спорте эволюционировала от преимущественно физической подготовки к более целостному подходу, который включает когнитивное развитие. Когнитивные теории обучения, разработанные такими учёными, как Пиаже, Выготский и современные исследователи, подчеркивают важность умственных процессов в приобретении навыков и достижении высоких спортивных результатов. В спорте эти теории демонстрируют, как когнитивные способности, такие как внимание, память и решение проблем, являются ключевыми факторами успеха. Интегрируя когнитивное развитие в тренировочные программы, тренеры могут повысить тактическое мышление, игровую интеллектуальность и навыки принятия решений у спортсменов, дополняя их физическое развитие.

Когнитивные основы спортивной результативности

В основе когнитивных теорий обучения лежит идея о том, что умственные процессы определяют, как мы приобретаем, храним и используем знания. В спорте это проявляется в том, как спортсмены воспринимают и

реагируют на динамичную и непредсказуемую среду. Спортсмены с развитыми когнитивными способностями показывают лучшие результаты, поскольку они способны быстро обрабатывать сложную информацию, принимать обоснованные решения и корректировать свои действия в соответствии с ситуацией.

Основные когнитивные способности, играющие ключевую роль в спорте:

Внимание – способность сосредотачиваться на важной информации, игнорируя отвлекающие факторы. В спорте крайне важно сохранять концентрацию в условиях повышенного давления.

Память – особенно оперативная память, которая позволяет удерживать информацию в краткосрочном доступе и использовать её для принятия решений во время игры.

Решение проблем – навык, помогающий спортсменам справляться с вызовами, например, находить наилучшую стратегию в игре или адаптироваться к неожиданной тактике соперников.

Применение когнитивного развития в тренировочном процессе

Для повышения спортивных результатов тренеры должны уделять внимание не только физической подготовке, но и развитию когнитивных навыков спортсменов. Это можно сделать с помощью специально разработанных упражнений, интегрирующих умственные процессы в тренировочную среду. Ниже приведены ключевые стратегии, которые тренеры могут использовать:

1. Развитие тактического мышления с помощью тренировок на основе сценариев

Тактическое мышление включает в себя способность анализировать текущую ситуацию, предсказывать возможные исходы и выбирать наиболее эффективное решение. Тренировки на основе сценариев позволяют спортсменам отрабатывать эти навыки в режиме реального времени, моделируя игровые условия, в которых необходимо принимать стратегические решения.

Например, в футболе тренер может организовать упражнение 3 на 2, где спортсмены должны определить, как наилучшим образом использовать численное преимущество. Такие упражнения, приближенные к игровым условиям, помогают спортсменам применять свои навыки решения проблем под давлением.

2. Повышение игрового интеллекта через распознавание паттернов

Игровой интеллект – это способность спортсмена понимать ход игры, предугадывать действия соперников и занимать стратегически выгодные позиции. Для его развития тренеры могут использовать видеоанализ или тактические разборы прошлых игр, чтобы помочь спортсменам выявлять типичные схемы и тенденции в игре соперников. Такой метод когнитивной тренировки улучшает способность спортсменов прогнозировать и реагировать на игровые ситуации в режиме реального времени.

The process of finding, selecting, and incorporating pertinent reading materials to improve students' learning experiences is referred to as materials acquisition in the context of improving students' reading abilities. The acquisition, creation, and distribution of reading materials in educational settings have changed significantly as a result of technological advancements. In the past, teachers used printed novels, textbooks, and other physical materials. But with the advent of technology, there are now more resources available for teaching reading, making the approach more flexible and dynamic. An adaptive learning application might show easier passages with focused questions to help students who have trouble understanding them gradually. The platform might offer more difficult materials to a student who is doing exceptionally well in reading in order to improve their abilities. The process of finding, selecting, and incorporating pertinent reading materials to improve students' learning experiences is referred to as materials acquisition in the context of improving students' reading abilities. The acquisition, creation, and distribution of reading materials in educational settings have changed significantly as a result of technological advancements. In the past, teachers used printed novels, textbooks, and other physical materials. But with the advent of technology, there are now more resources available for teaching reading, making the approach more flexible and dynamic. When examining the varying subjective experiences of teachers and students with regard to reading education, qualitative research methodologies are essential.

Literature analysis and results

The literature on the value of teaching reading, strategies for enhancing students' reading abilities, and the effects of various reading instruction approaches will be reviewed in this part. The outcomes of the study done for this thesis, both quantitative and qualitative, will also be presented. It is often acknowledged that reading instruction is crucial to kids' academic achievement. The ways in which various teaching techniques and approaches might enhance vocabulary acquisition, fluency, and reading comprehension have been the subject of several research. The

framework for comprehending how reading is taught and learned is provided by a number of fundamental theories. These include constructivist ideas that highlight the importance of social contact and active engagement in the learning process, including those put forth by Piaget and Vygotsky. According to constructivism, when students actively participate in creating meaning from texts—often through facilitated conversations, group projects, and experiential learning—reading comprehension improves. Furthermore, the Simple View of Reading (Gough & Tunmer, 1986) and other cognitive models of reading have played a crucial role in highlighting the connection between linguistic understanding and decoding, or word recognition. According to this paradigm, decoding abilities and spoken language comprehension combine to produce reading comprehension.

The research findings from this study are shown in the part that follows, with an emphasis on the efficacy of various instructional techniques, technological advancements, and reading skill-improving tactics. Using a mixed-methods approach, the study combined qualitative input from teachers and students with quantitative data analysis of reading test results. Three student groups participated in the study: one group received teaching based on phonics, another group participated in balanced literacy, and a third group received reading instruction using digital tools. The literature review shows that both the more cognitive (like comprehension) and technical (like decoding) components of reading training must be covered. The findings from this study suggest that a combination of phonics-based instruction, balanced literacy strategies, and digital tools can significantly improve students' reading skills, with each method offering unique benefits. Further research is needed to explore how these approaches can be integrated into a cohesive reading program that meets the diverse needs of all students.

REFERENCES

1.Biemiller, A. (2003). Teaching vocabulary: Early, direct instruction is critical. Reading Teacher, 56(5), 476–481.

2.Ehri, L. C., Nunes, S. R., Stahl, S. A., & Willows, D. M. (2001). Systematic phonics instruction and children's word recognition. Journal of Educational Psychology, 93(1), 27-39.

3.Gough, P. B., & Tunmer, W. E. (1986). **Decoding, reading, and reading disability.** *Remedial and Special Education,* 7(1), 6-10. https://doi.org/10.1177/074193258600700104

4.Juel, C. (1996). **What makes literacy tutoring effective?** *Reading Research Quarterly, 31*(4), 268-289. https://doi.org/10.1598/RRQ.31.4.2

5.Mangen, A., Walgermo, B. R., & Brønnick, K. (2013). Reading linear texts on paper versus computer screen: Effects on reading comprehension. International Journal of Educational Research, 58, 61-68. https://doi.org/10.1016/j.ijer.2012.12.002

6.Piaget, J. (1973). To understand is to invent: The future of education. Grossman Publishers.

7.Torgesen, J. K. (2006). **The prevention of reading difficulties.** *Journal of School Psychology, 44*(1), 5-30. https://doi.org/10.1016/j.jsp.2005.11.004

8.Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.

TA'LIMDA INDIVIDUAL YONDOSNISHNI TA'MINLASHNIN AHAMIYATI.

Feruza Yuldashevna Ergashova
Toshkent amaliy fanlar universiteti
Chet tillar-2 kafedrasining v.b dotsenti
ergashovaferuza252@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada individual yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirisl muhim sharti - o'quvchilarning boshlang'ich til tayyorgarligini hisobga olish, t uchun shaxsan muhim bo'lgan maqsadlarni belgilash, mustaqil ishlash uchun barc va oqilona ko'nikmalarni rivojlantirish va bilimlarni o'zlashtirishga ti yondashuvni amalga oshirish qobiliyatini shakllantirishda ifodalar differentsiatsiya ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: chet tili, ona tili, boshlang'ich til o'rgatish, chet tili o' jarayoni, pedagogik shartlar

ABSTRACT

This article examines an important prerequisite for the successf implementation of an individualized approach – differentiation, which is expressed taking into account the students' initial language preparation, setting goals that ar personally meaningful to the student, developing sustainable and rational skills fo independent work, and the ability to implement a systematic approach to knowledge acquisition.

Keywords: foreign language, mother tongue, initial language training, foreign language educational process, pedagogical conditions.

"Individual yondashuv" atamasi chet tilini o'qitish jarayonini tashkil etishning didaktik vositalari tizimini anglatadi, bu maqsad, mazmun, jarayon va shaklni o'zgartirishni, shuningdek, chet tilini o'qitishni talaba tomonidan egallangan kasbga va kasbiy faoliyatda qo'llanilishi mumkin bo'lgan sohalarga yo'naltirishni o'z ichiga oladi. Biz individual yondashuvni murakkab pedagogik hodisa deb hisoblaymiz. Chet tillarini o'qitishning samaradorligi aniqlanadi va o'quv faoliyatining predmeti sifatida faol rol o'ynaydi. Individual yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirishning zaruriy shartlari differensiatsiya bo'lib, u o'quvchilarning boshlang'ich til tayyorgarligini hisobga olish, shaxsan muhim maqsadlarni qo'yish, musta...

va oqilona ko'nikmalarni rivojlantirish va bilimlarni tizimli ravishda egallash qobiliyatini rivojlantirishdir.

Chet tilini o'rgatishda ona tilida so'zlashishning psixofiziologik mexanizmlari buziladi va chet tilida gapirishning yangi mexanizmlari shakllanadi. Biroq, umumiy ta'lim maktabida o'qitilgan chet tilida nutqning psixofiziologik mexanizmlari ko'pincha noto'g'ri. Shu sababli, universitet o'qituvchisi oldida "maktab mexanizmi" ni isloh qilish vazifasi turibdi, shunda universitetda o'qitilgan chet tilida so'zlashish mexanizmlari o'qishni tugatgandan so'ng yanada barqaror bo'ladi va kelajakda ishlaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, maktabda yoki boshqa ta'lim muassasasida o'qitish uchun chet tillarini tanlash muammoning lingvistik yoki hatto psixolingvistik tomoni bilan bog'liq emas. Bu sof utilitar maqsadlar bilan belgilanadi: dunyodagi mashhurlik, kadrlar, darsliklar va boshqalar. Psixolingvistik nuqtai nazardan o'rganish uchun eng mos xorijiy tilni tanlash imkoniyati yo'qligi sababli, o'quv kursini loyihalashda tillar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni hisobga olish, talabalar uchun qiyinchilik tug'diradigan hodisalarni oldindan aniqlash va ularga alohida e'tibor berish kerak. Bu mustaqil ish uchun materialni aniqlashda ayniqsa muhimdir. Chet tilini o'rganishda ona tili muhim rol o'ynaydi. Ona tilingizni o'rganish tajribasi, har qanday tajriba kabi, faqat ijobiy bo'lishi mumkin, chunki siz chet tilini tizim sifatida o'rganishni boshlaganingizda, siz ona tili tizimini allaqachon bilsangiz (yoki shunday deb taxmin qilsangiz). Chet tilini o'zlashtirish ona tilingizni o'zlashtirishdan ko'p jihatdan farq qiladi, bu chet tilini o'zlashtirishni foydalidan ko'ra qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, shuni ta'kidlash kerakki, chet tili ona tilining barcha funktsiyalarini bajara olmaydi va bajarmasligi kerak. Chet tilini o'qitishga individual yondashuv bir qator pedagogik funktsiyalarni bajaradi:

- o'quv faoliyati motivatsiyasi - baholash va muammolardan qochish motivlaridan yutuq motiviga, kasbiy qiziqishga o'tish;
- Ishga xilma-xillikni kiritish va o'z rejimida ishlash imkoniyati;
- sinfda real nutqiy vaziyat yaratishga asoslangan trening;

Chet tilini o'qitishga bir necha nuqtai nazardan qarash mumkin: o'qituvchi nuqtai nazaridan, ya'ni h. o'z faoliyatining tegishli fanni o'qitish maqsadlariga muvofiqligi, unda o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish va boshqalar; o'quvchining pozitsiyasidan, ya'ni h. ularning o'quv jarayoniga jalb qilish darajasi, motivatsiyani oshirish va boshqalar; talabaning rivojlanishini davom ettirishi uchun treningni loyihalash uchun ichki zaxiralarni topish nuqtai nazaridan talabalarning uzluksiz ta'lim va o'z-o'zini tarbiyalash asosi va kafolati bo'lgan

mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish. Chet tilini o'rganishda quyidagi umumiy maqsadlarni qo'yish mumkin:

- til o'rganilayotgan mamlakat madaniyati va turmush tarzi bilan tanishish;
- ona tilida so'zlashuvchilar bilan muloqot qilish qobiliyati, ya'ni o'rganilayotgan tildagi matnlarni o'qish, tabiiy tezlikda aytilgan narsalarni quloq bilan tushunish va ona tilida so'zlashuvchilar ularni tushunishlari uchun o'rganayotgan tilda gapirish va yozish;
- ishda chet tilidan foydalanishga tayyorgarlik.

Minimal erishilishi mumkin bo'lgan umumiy maqsad - davlat ta'lim standarti talablari. Shuni ta'kidlash kerakki, barcha mavjud dasturlar o'rtacha talaba uchun mo'ljallangan. Biroq, birinchi kursga kiradigan talabalar boshqacha kasbiy tayyorgarlikka ega va ularning ba'zilari aslida chet tilini bilmaydi. Belgilangan minimumdan oshib ketishi mumkin bo'lgan va undan chiqishni xohlaydigan talabalarga yuqori kognitiv darajadagi muammolarni hal qilish orqali chet tili bo'yicha bilimlarini yanada yaxshilash imkoniyati berilishi kerak, shunda ular o'qishni tugatgandan so'ng ma'lum kasbiy maqsadlarga erishish uchun olingan bilimlardan foydalanishlari mumkin. Ta'limni tashkil etishning o'zgarishi va pedagogikaning yangilanishi munosabati bilan individual tabaqalashtirilgan ta'limni loyihalash muammosi butun ta'lim maydonining diqqat markaziga aylanmoqda. Biroq, u eng ko'p chet tillarini o'rganishda qo'llaniladi. Ta'limni rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari universitetlarda talabalar uchun chet tilini individual ravishda o'qitishni loyihalashning yangi shakllari va usullarini izlashni belgilaydi. Chet tilini o'qitishga shaxsiy yondashish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki u talabaning individual xususiyatlarining ko'p qirraliligi va o'ziga xosligini maksimal darajada ochib berishga imkon beradi, bu esa o'z navbatida tez o'zgaruvchan ijtimoiy muhitda o'zini o'zi anglash imkoniyatini beradi. Talabaning qobiliyat va mayllariga e'tibor qaratish, shuningdek, uni mustaqil ravishda ingliz tilidagi ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va amaliyotda qo'llash hamda ularni real dunyo bilan bog'lashga o'rgatish istagi universitet o'qituvchilaridan o'z ishiga alohida, ijodiy yondashishni talab qiladi. O'qitishda individual differentsial yondashuvni joriy etish muammosi T.A. Aksenova [1], N.M. Jukova [2], A.V. Ivanova [3], E.I. Nikolaev [4], A.N. Nikolaeva [5], M.V.Sinitsyna [6], M.V. Shnayderman [7]. T.A. Aksenova moslashuvchan o'rta maktabda o'qitishning darajali differentsiatsiyasini joriy etishning tashkiliy-pedagogik shartlarini belgilaydi va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida o'qituvchi va o'quvchilarning ta'lim jarayoniga psixologik-pedagogik tayyorgarligining tarkibiy qismlarini belgilaydi. N.M. Jukova

universitetlarda kadrlar tayyorlashni individuallashtirish va differentsiallashtirish samaradorligini oshirish mezonlarini ishlab chiqadi. A. V. Ivanova Amerika kollejlari va universitetlarida ta'limni differensiallashtirishning asosiy usullarini (ta'lim muassasalarining turlari bo'yicha farqlash, ta'lim mazmunini va o'quv jarayonini tashkil etish) belgilaydi va oliy o'quv yurtlarida tabaqalashtirilgan ta'limni qo'llashning ruxsat etilganligi chegaralarini belgilaydi. E.I. Nikolaev o'zining "Bilimga bo'lgan qiziqishni oshirishning pedagogik texnologiyasi sifatida tabaqalash" asarida chet tilini o'qitishga individual tabaqalashtirilgan yondashuvni samarali tashkil etishning oqilona pedagogik shartlarini aniqlaydi va talabalarning chet tilini o'zlashtirishda o'quv samaradorligini va mustaqilligini ta'minlaydigan individual tabaqalashtirilgan o'qitish yondashuvlari tizimini joriy etishning pedagogik texnologiyasini taklif qiladi. A. N. Nikolaeva ona tili bo'lmagan tillarni o'qitishga individual differentsial yondashuvni tashkil etish muammosiga to'xtaladi. Chet tillarni o'qitish metodikasida birinchi marta o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari va psixofiziologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'quv tilini o'zlashtirishning 19 ta yondashuvi ishlab chiqilmoqda. M.V. Sinitsyna chet tilini o'qitish sifatini oshirishning zaruriy sharti sifatida o'rta maktab o'quvchilarining kasbiy differensiatsiyasining nazariy jihatlarini ochib beradi. M.V. Shnayderman bilimlarni tizimli ravishda differensiatsiya qilish mezonlarini o'quvchilarni o'rganishni individuallashtirish vositasi sifatida va differensiyalash sharoitida o'quvchilarni tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. S.A.Nuraxmetova [8] tabaqalashtirilgan ta'limni amalga oshirishning bir qator didaktik shartlarini, uni amalga oshirish bo'yicha tashkiliy ishlarning shakllari va bosqichlarini tavsiflash, o'rganishni tashkil etishga qo'yiladigan asosiy talablarni belgilash hamda tabaqalashning turli shakllarini amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini asoslash bilan belgilanadi. farqlashning turli shakllarini amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini o'rganish va asoslash. Davlat umumta'lim standartida "chet tili" fanini tavsiflashda quyidagi maqsadlar qayd etilgan: "... kundalik va kasbiy muloqotda chet tilidan faol foydalanish uchun og'zaki va kundalik tilni, shuningdek, texnik tilni amaliy o'zlashtirish ko'nikma va malakalarini chuqurlashtirish va rivojlantirish" [9]. Boshqa fanlar singari chet tilini o'qitish ham jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi bilan belgilanadigan umumiy ta'lim, tarbiyaviy va amaliy maqsadlarni ko'zlaydi. Amaliy o'quv maqsadi Chet tilini amaliy o'zlashtirish og'zaki tilni muloqot vositasi sifatida ishlatishning eng aniq vositasi sifatida rivojlanishini nazarda tutadi. L.V asarlarida. Shcherba [10] ta'kidlaganidek, chet tilini amaliy o'zlashtirish shakllari har xil bo'lishi mumkin, chunki tilni bilishning

turli darajalari kombinatsiyasi juda boshqacha bo'lishi mumkin. Chet tilini o'rgatishning amaliy maqsadi boshqa odamlarning fikrlarini tushunish va o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ifodalashni o'rganish sifatida shakllantirilishi mumkin. Gap shundaki, nutq faoliyatining barcha turlarini o'zlashtirish, ayniqsa chet tilini professional darajada o'zlashtirish, chet tilini o'rganish uchun ajratilgan soatlar soni bilan amalda erishib bo'lmaydi. Shunday qilib, nolingvistik fanlar talabalari uchun chet tilini o'qitishning amaliy maqsadlari og'zaki nutq (gapirish, tinglash) va o'qish ko'nikmalari va ko'nikmalarini shakllantirish, maxsus mavzular va bu ko'nikmalar asosida til materialini shakllantirishga qisqartiriladi. Ta'limning umumiy ta'lim maqsadi Akademik L.V. Shcherba chet tillarini o'rganishning umumiy ta'lim rolini yorqin asoslab berdi. U chet tilini o'rganayotganda, inson o'z tafakkurining "ongli" bo'lishini ko'rsatdi, ya'ni. h. fikrlarni shakllantirish usullarini chuqurroq tushunadi; ona tilini chuqurroq va yaxshiroq bilishga erishadi; til tizimi, tarixi, adabiyoti, geografiyasi va boshqalar haqida yangi ma'lumotlarni ochib beradi. Tili o'rganilayotgan mamlakat. L. V. Shcherba o'z ona tilida so'zlashuvchi odamning boshida fikrning mohiyati va uni ifodalash usullari bir-biri bilan chambarchas bog'liqligini isbotladi. Taqqoslash standarti sifatida xorijiy til ona tiliga qaraganda fikrni ifodalashning turli xil usullari mavjudligini va shakl va ma'no o'rtasida turli xil bog'lanishlar mavjudligini tan olishga imkon beradi. Mashg'ulotning tarbiyaviy maqsadi: chet tillarni o'rganish va g'oyaviy jihatdan qimmatli matnlar ustida ishlash jarayonida talabalarda vatanparvarlik tushunchalari shakllanadi. Shunday qilib, biz individuallashtirishga asoslangan mashg'ulotlar mashg'ulot muvaffaqiyati va motivatsiyani oshirish nuqtai nazaridan o'z samarasini beradi, degan xulosaga keldik. Mustaqil ishlashlari mumkin bo'lgan va qiziqarli bo'lgan topshiriqlar berilgan talabalar individual xususiyatlari hisobga olinmagan talabalarga qaraganda ancha yaxshi natijalarni ko'rsatdilar. Biroq, "individuallashtirish" va "mustaqil ish" atamalarini chalkashtirmaslik yoki almashtirish kerak emas, chunki biri ikkinchisisiz mavjud bo'lishi mumkin. Nazorat guruhida bo'lgani kabi, masalan, mustaqil ish bor edi, lekin individualizatsiya yo'q. Nazariy jihatdan individuallashtirish tamoyiliga asoslangan guruh ishi ham tasavvur qilinadi (bir xil dominant intellekt turiga ega kichik guruh; har bir talaba o'z intellekt turiga ko'ra o'z funksiyasiga ega bo'ladigan tarzda tuzilgan ish). Ushbu sinov mashg'ulotlari shartlariga ko'ra, guruh ishi individuallashtirishga kiritilganligini aytish mumkin, ya'ni. h. Individuallashtirish tushunchasi mustaqil ish tushunchasidan kengroqdir.

REFERENCES

1. Аблякимова Ф. Г. Использование теории множественности типов интеллекта при обучении иностранным языкам.
2. Андрюкова И.В. Подходы к индивидуализации обучения школьников в основной школе, 2013 г.
3. Ковалева Т.М. Открытое образование и современные тьюторские практики, 2011 г.
4. Мусницкая Е. В. Примерная программа дисциплины обучения иностранным языкам (в вузах неязыковых специальностей). – М., 2000 г.
5. Пассов Е. И. Коммуникативный метод обучения говорению. - М.: Просвещение, 1985 г.
6. Gardner. H. Multiple Intelligence: The Theory in practice. - New York: Basic Books. 1993.
7. Gardner, H. Are there additional Intelligences? The case for the Naturalist Intelligence. - Cambridge, M. A.: President and Fellows of Howard College, 1995.
8. Shodiyev R.S, Ergashova F. Yu. "The importance of using visual aids in the educational process" EXCELLENCIA: INTERNATIONAL MULTI-DISCIPLINARY JOURNAL OF EDUCATION. Volume 02, Issue 05, 2024 ISSN (E): 2994-9521

13-14 YOSHLI GANDBOLCHILARDA KUCH SIFATINING RIVOJLANISHI

Jumaniyozova Maxbuba Shermat qizi,
O’zbekiston jismoniy tarbiya va sport
universiteti tayanch doktaranti

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot 13-14 yoshdagi gandbolchilar uchun kuch sifati rivojlantirishning muhimligini ta'kidlaydi. Yosh sportchilarning jismoniy tayyorgarl darajasini oshirish uchun turli xil trening metodlari va yondashuvlar ko'rib chiqilac Tadqiqotda kuch va chidamlilikni birlashtiruvchi dasturlar, shuningdek, jamoav sportlar kontekstida psixologik tayyorgarlik masalalari ham ko'rsatilgan. Natijala shuni ko'rsatadiki. to'g'ri tashkil etilgan trening jarayoni nafaqat sportchilarr jismoniy jihatdan mustahkamlashga yordam beradi, balki ularning qobiliyatlarin yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: gandbol, kuch, chidamlilik, trening metodlari, jismoniy tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik, yosh sportchilar

Аннотация:Данное исследование подчеркивает важность развития силы у гандболистов в возрасте 13-14 лет. Рассматриваются различные тренировочные методы и подходы для повышения физической подготовки юных спортсменов. В исследовании также рассматриваются программы, сочетающие силу и выносливость, а также вопросы психологической подготовки в контексте командных видов спорта. Результаты показывают, что правильно организованный тренировочный процесс способствует не только физическому укреплению спортсменов, но и улучшению их способностей.

Ключевые слова: гандбол, сила, выносливость, тренировочные методы, физическая подготовка, психологическая подготовка, молодые спортсмены.

Annotation: This research emphasizes the importance of developing strength in handball players aged 13-14 years. Various training methods and approaches for enhancing the physical readiness of young athletes are examined. The study highlights programs that combine strength and endurance training as well as psychological preparation aspects within the context of team sports. Results indicate that a well-organized training process not only aids in physically strengthening athletes but also contributes to improving their overall performance capabilities.

Key words: handball, strength, endurance, training methods, physical preparation, psychological preparation, young athletes

Yosh guruhining fiziologik xususiyatlari haqida adabiyot tahlili qilish, bu davrda yuzaga keladigan o'zgarishlar va ularning rivojlanishga ta'sirini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Yoshlar — 12-18 yosh oralig'idagi individlar, jismoniy va ruhiy jihatdan tez o'zgaruvchan bosqichni boshdan kechirishadi. Bu jarayonlarni tahlil qilish uchun bir qator ilmiy manbalarga murojaat qilish mumkin.

Birinchidan, yoshlarda organik o'sishning tezligi bilan bog'liq bo'lgan fiziologik o'zgarishlar ko'pchilik mutaxassislar tomonidan tadqiq qilingan. Masalan, "Germaniya Pediatriya Jamiyati" (2019) ma'lumotlariga ko'ra, ushbu davrda gormon darajasi oshishi natijasida tana massasi va bo'yining keskin oshishi kuzatiladi. Gormonlarning sezilarli darajada faollashuvi jinsiy yetilishni boshlaydi hamda ruhiyatdagi o'zgarishlarga olib keladi — kayfiyatning tez-tez o'zgarishi yoki hissiyotlarda kuchayishni keltirib chiqarishi mumkin (Shimizu et al., 2020).

Ikkinchidan, yoshlarning immunitet tizimi hali to'liq shakllanmaganligi sababli infeksion kasalliklarga nisbatan zaifroq bo'lishi mumkin. Norman Klayberman (2021) taqdim etgan tadqiqotlarda ko'rsatilgandek, to'g'ri ovqatlanish va faol hayot tarzi oshirilsa, yoshlarning immun tizimini mustahkamlashga yordam beradi.

Uchinchidan, psixologik aspektlarni ham e'tiborsiz qoldirish mumkin emas. Yoshlarning ijtimoiy munosabatlari juda muhimdir; ular do'stlik aloqalarini rivojlantiradilar va ijtimoiy tajribalarni orttiradilar (Erickson & Erikson, 2018). Ushbu davrda mashqlar orqali jismoniy tayyorgarlik ham o'z navbatida psixologik holatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, yosh guruhining fiziologik xususiyatlarini tahlil qilganda ularning jismoniy yetukligi bilan bir qatorda ruhsal rivojlanishini ham hisobga olish zarurligini anglashimiz muhimdir. Uning noto'g'riligi yoki e'tiborsizligi esa davlat siyosati va jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini yodda tutaylik.

13-14 yoshli gandbolchilarda kuch sifatining rivojlanish metodologiyasi o'z ichiga jismoniy tayyorgarlik, psixologik o'sish va individual yondoshuvlarni oladi. Ushbu yosh guruhidagi sportchilar uchun kuch sifatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega, chunki bu ularning sportdagi muvaffaqiyatlari va umumiy jismoniy holatlarini yaxshilashga yordam beradi. Quyida ushbu metodologiyaning asosiy jihatlari keltiriladi:

Metodologiya

1. Jismoniy tayyorgarlikni rejalashtirish

- Kuchning asosiy turlari: Statik (turgan holda) va dinamik (harakatda bo'lgan) kuchlarni rivojlantirish kerak. Masalan, statik kuch uchun press-ups yoki plank pozitsiyasida turish ko'nikmalarini qo'llash mumkin.

- Murakkab harakatlar: Gandboldagi zarba berish, sakrash yoki to'pni ushlab olish kabi murakkab harakatlar orqali kuch sifatini oshiradigan treninglar tashkil etilishi lozim.

2. Maxsus mashg'ulotlar

- Gandbol spesifik mashg'ulotlari: Sportchilarning o'zlariga xos harakatlarini mustahkamlovchi maxsus mashg'ulotlarni o'tkazish muhimdir. Masalan, to'p bilan turli xil vazifalarni bajarish yoki tezlik va energiya talab qiluvchi drillar.
- Yuqori intensivlikdagi interval mashqlari: Kuchni oshirish maqsadida yuqori intensivlikda bajariladigan qisqa muddatli mashqlar (masalan, sprintlar) orqali chidamlilik ham rivojlantirilishi kerak.

3. Oziqlanish

- Oziqlanish rejasi shakllantirilishi zarur; proteinlarga boy ovqatlar mushaklarning tiklanishini ta'minlaydi hamda energiyani beradi.
- Suv iste'moli ham juda muhimdir — organizmning suvsizlanishini oldini olish uchun doimiy ravishda suv ichish tavsiya etiladi.

4.Psixologik tayyorgarlik

- Yosh guruhidagi sportchilarni motivatsiya qilish maqsadida psixologik treninglarni o'tkazishni unutmang; bu ularning ishtiyoqlarini oshiradi.
- Stressni boshqarishni o'rganishga e'tibor qaratilsin — raqobatbardosh muhitda yaxshi natijalar ko'rsatishga yordam beradi.

5.Monitoring va baholash

- Trening jarayonining samaradorligini baholash uchun muntazam ravishda test sinovlari o'tkazib turilishi lozim, masalan, musobaqalardagi natijalarni kuzatib borishingiz mumkin.
- Har bir sportchining individual yutuqlari qayd etilib borilishi kerak; bu ularning tarixiga qarab shaxsiy yondoshuv imkoniyatlarini yuqoriga ko'taradi.

Shunday qilib, 13-14 yoshli gandbolchilarda kuch sifatini rivojlantirish metodologiyasi kompleks yondoshuv bilan amalga oshirilishi zarur bo'lib, bunda jismoniy tayyorgarlikka e'tibor qaratilishi bilan bir qatorda ruhsal holatga ham alohida ahamiyat berilishi lozim. Bu usullar nafaqat sportdagi muvaffaqiyatlarga erishishga yordam beradi balki sog'lom hayot tarzining shakllanishiga xizmat qiladi.

Natijalar va tahlillar

13-14 yoshli gandbolchilarda kuch sifatining rivojlanishi uchun ishlab chiqilgan metodologiya jismoniy tayyorgarlik, psixologik o'sish va individual yondoshuvlarni o'z ichiga oladi. Ushbu yosh guruhidagi sportchilar uchun kuch sifatini oshirish

nafaqat musobaqalarda muvaffaqiyat ko'rsatishga imkon beradi, balki umumiy jismoniy holatni yaxshilashga ham xizmat qiladi.

1.Jismoniy rivojlanish: Kucha asoslangan mashg'ulotlar bilan bog'liq trening dasturlari sportchilarning mushak to'qimalarini mustahkamlashga yordam beradi va chidamlilikni oshiradi. Maxsus mashg'ulotlardan foydalanish orqali g'andbolga xos harakatlarni takomillashtirish mumkin.

2.Psixologik rivojlanish: Psixologik tayyorgarlik jarayoni motivatsiyani oshirishda muhim rol o'ynaydi. Yosh sportchilar stressni boshqarishni o'rganib, raqobatbardosh sharoitlarda yaxshi natijalarga erisha olishlari mumkin.

3.Oziqlanish: Sportchining ovqatlanishi kuch va energiya darajasini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi, bu esa ularning umumiy ishlash qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

4.Monitoring: Trening dasturlarining samaradorligini baholash orqali individual yondoshuvlar shakllantirilishi kerak; bu har bir sportchining ehtiyoji va qobiliyatlariga mos ravishda yordam beradi.

Gandbolda kuch sifatini rivojlantirish metodologiyasi kompleks yondoshuv talab qiladi. chunki yosh sportchilarning fiziologiyasi hali shakllanish jarayonida bo'ladi. Shu sababli, ularga beriladigan yuklamalar ehtiyotkorlik bilan rejalashtirilishi lozim.

1.Yosh o'zgaruvchanliklari: 13-14 yoshdagi bolalar tez o'zgaruvchan fiziologik fazalardan o'tmoqda; shu bois ularning tayyorgarligi faqat jismoniy emas, balki psixologik nuqtai nazardan ham qo'llab-quvvatlashi zarur.

2.Trening yondoshuvi: Har bir bolaga individual yondoshish zarur — ba'zi sportchilar kuchliroq bo'lishi mumkin, boshqalari esa tezlik yoki chidamlilik jihatdan ustun bo'lishi mumkin; shuning uchun trening rejasi har bir bola uchun moslashtirilishi kerak.

3.Ijtimoiy o'zaro aloqa: Jamoada ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish ham juda muhimdir — bunda guruh doirasida muloqot qilish orqali ishonch hissini oshirib borish lozim.

4.Uzoq muddatli maqsadlar: Kuch sifatining rivojlantirilishi uzoq muddatli maqsadni ko'zlaydi; shu sababdan motivatsiyani saqlab qolishga e'tibor berilishi zarur — bu kelajakda katta muvaffaqiyatlarga erishishda yordam beradi.

Umuman olganda, 13-14 yoshdagi gandbolchilarda kuch sifatlarini rivojlantirish nafaqat fizikaviy holatini yaxshilaydi balki umumman hayot tarzi va ruhsal salomatligini ham mustahkamlaydi deb aytishimiz mumkin.Ushbu tadqiqot natijalari kelajakdagi trening dasturlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan strategiyalar ishlab chiqishda foydali resurs hisoblanadi.

Xulosa: 13-14 yoshdagi gandbolchilarda kuch sifatini rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan metodologiya jismoniy va psixologik tayyorgarlikni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Ushbu yosh guruhidagi sportchilar uchun kuchning oshishi nafaqat musobaqalarda muvaffaqiyat ko'rsatishga, balki umumiy jismoniy holatni yaxshilashga ham yordam beradi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, individual yondoshuv va ehtiyotkorlik bilan rejalashtirilgan trening dasturlari sportchilarning mushak to'qimalarini mustahkamlash, chidamlilikni oshirish va psixologik tayyorgarlikda katta ahamiyatga ega. Oziqlanishning to'g'ri tashkil etilishi ham sportchining energiya darajasini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.Shuningdek, ijtimoiy o'zaro aloqa va jamoaviy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish yosh sportchilar uchun muhimdir. Uzoq muddatli maqsadlar belgilanishi va motivatsiyani saqlab qolish esa kelajakdagi muvaffaqiyatlarni kafolatlaydi.

Umuman olganda, bu tadqiqot natijalari 13-14 yoshli gandbolchilar uchun kuch sifatlari rivojlanishini yanada chuqurlashtirishga yordam beradigan strategiyalar ishlab chiqishda asos bo'lishi mumkin. Bu jarayon nafaqat ularning sportdagi muvaffaqiyatini ta'minlaydi, balki umumiy hayot sifatini ham yaxshilaydi.

REFERENCES

1.Bangsbo. J., Krustrup, P. (2009). "Physiological demands of training and match play in the elite football player." Journal of Sports Sciences.

2.Hoff, J., Helgerud, J. (2004)."Endurance and strength training for team sports: physiological considerations." Sports Medicine.

3. Bompa. T.O., Haff, G.G. (2009)."Periodization: Theory and Methodology of Training." Human Kinetics.

4. Larsson B.A.C., et al.(2016) "The importance of social interaction in youth sports."Youth Sports Journal.

5. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и ее практические приложения. — К.: Олимпийская литература, 2004. — 808 с.

6. . Ignateva, V.Ya.Teoriya va metodika gandbola. Uchebnik: Moskva:|Sport.2016

7. Pavlov.Sh.K., Z.E.Yusupova "Yosh gandbolchilarni umumiy tayyorlov bosqichida jismoniy holatini rivojlantirish usullari va nazorat qilish yo'llari" Fan-sportga. Ilmiy nazariy jurnal. №3. 2021 yil. 5-7 b.

ZAMONAVIY YONDASHUV ASOSIDA SPOPRTCHI TALABALARGA XORIJIY TILLARNI O'QITISH ASOSLARI.

Sultanova Zarifa O'ktamovna,
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti.
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi
katta o'qituvchisi
Zarifasultanova8@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sport sohasidagi terminologiya va ularning tarjimasi. hamda til o'rganish, xorijiy tillarni o'zlashtirish bo'yicha talabalarda nazariy ko'nikmalarni shakllantirish, zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan kognitiv, psixolingvistik yondashuv haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: sohaviy terminologiya, kognitiv terminologiya, lingvotsentrik. ekspansionizm, antropotsentrizm, axborot mazmuni, polisemiya, omonimiya, sinonimiya, antonimiya.

***Ключевые* слова:** отраслевая терминология, когнитивная терминология, лингвоцентризм, экспансионизм, антропоцентризм, информативность, полисемия, омонимия, синонимия, антонимия.

Annotatsiya: В данной статье рассматривается терминология в области спорта и ее перевод, а также формирование теоретических навыков у студентов при изучении языка, освоении иностранных языков, когнитивный, психолингвистический подход с позиции современной лингвистики.

Annotation: This article examines the terminology in the field of sports and its translation, as well as the formation of theoretical skills in students when studying a language, mastering foreign languages, a cognitive, psycholinguistic approach from the standpoint of modern linguistics.

***Keywords*:** sectoral terminology, cognitive terminology, linguocentric, expansionism, anthropocentrism, information content, polysemy, homonymy, synonymy, antonymy.

Xalqaro maydondagi qat'iy sa'y-harakatlarimiz natijasida yurtimizning nufuzi va obro' e'tibori tobora yuksalmoqda. Mamlakatimiz tarixda birinchi marta Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha kengashiga a'zo etib saylandi. Har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu

sababli biz islohotlarimiz ko'lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk. zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz. buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish. ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim."[33]. Ushbu maqsad yo'lida yoshlarimiz o'z oldiga katta marralarni qo'yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko'mak berish-barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo'lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi.

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi tashkil etilib, unda "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fani o'qitila boshlandi. Fan doirasida davlat tilida me'yoriy hujjatlarni yuritish asoslari ham talabalarga yetkazilmoqda. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining nazorat rejasida sport ta'lim muassasalarida o'zbek tili o'quv leksikografiya tarmog'idan unumli foydalanishni yo'lga qo'yish, jismoniy tarbiya va sport sohasida yangi avlod o'quv hamda atamalar lug'atlarini yaratish, ularning elektron variantlarini ishga tushirish vasifasi belgilandi. Shunga muvofiq hozirgi kunda ilmiy-ijodiy guruh shakllantirildi. Guruh oldiga joriy yilning apreliga qadar jismoniy tarbiya va sport atamalari lug'ati va izohli lug'ati, xorijiy tillardan o'zlashtirilgan so'z va atamalar lug'ati, sport turlari bo'yicha so'z va atamalar izohli lug'atini yaratishi rejalashtirilgan. Bu borada albatta mutaxassislarning til bilish darajasi muhim. Oliy ta'limda faoliyat olib borayotgan har bir mutaxassis o'z sohasini chuqur egallagan bo'lishi va aynan til o'rgatishda kognitiv, psixolingvistik yondashuvlarga tayanishi lozim hisoblaymiz.

"Kognitiv yondashuv asosida bo'lajak sportchilarning til o'rganish mahoratini rivojlantirish strategiyalari: muammolar va yechimlar" mavzusi sportchilarning til o'rganish jarayonini yanada samarali qilishni maqsad qilgan bir istiqbolga yo'naltirilgan tadqiqotdir. Bu mavzu sportchilarning kognitiv jarayonlar orqali tilni o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni ko'rib chiqadi. Bu masalada albatta talaygina muammolar ham mavjud, xususan:

[33] Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi

1. **Sportchilarning vaqt cheklovlari**: Sportchilar uchun jadval juda qattiq va ko'pincha til o'rganish uchun kerakli vaqt ajratish qiyin bo'ladi.
2. **Motivatsiya yetishmasligi**: Sportchilar uchun til o'rganish sport faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'lanmagan bo'lishi mumkin, bu esa ularning motivatsiyasini pasaytiradi.
3. **Kognitiv yuklanish**: Sportchilar jismoniy va intellektual jihatdan jiddiy yuklangan bo'lishi mumkin, bu esa til o'rganish jarayonini qiyinlashtiradi.
4. **Til o'rganish usullarining moslashmasligi**: Sportchilar uchun umumiy til o'rganish usullari ko'pincha mos kelmasligi mumkin, chunki ularning ehtiyojlari va o'rganish uslublari boshqacha bo'ladi.

Albatta har bir muammoning o'rganilganlik darajasiga qarab yechimi ham mavjud. Ayni muammolarni yechimini quyidagi tadqiqotlar natijasida ochib berishimiz mumkin:

1. **Individual yondashuv**: Kognitiv yondashuv sportchilarga tilni o'rganishda individual ehtiyojlarini hisobga olishga imkon beradi. Har bir sportchining o'rganish uslubiga mos ravishda maxsus reja tuzish.
2. **Qisqa va samarali mashg'ulotlar**: Vaqt cheklovlarini hisobga olib, qisqa va samarali darslar, mashg'ulotlar o'tkazish. Masalan, 15-20 daqiqalik intensiv darslar.
3. **O'yinga asoslangan o'rganish**: Til o'rganishni sport bilan bog'lash, o'yinlar va treninglar orqali amaliy mashg'ulotlar o'tkazish. Sportchilarni til o'rganishda ko'proq motivatsiya qilish uchun o'yin va qulay muhit yaratish.
4. **Kognitiv strategiyalarni qo'llash**: Masalan, mnemonik texnikalar, vizualizatsiya, interaktiv mashg'ulotlar va boshqa kognitiv yondashuvlarni qo'llash. Bu usullar sportchilarga o'zlarini til o'rganish jarayoniga jalb qilishda yordam beradi.
5. **Jismoniy va intellektual faoliyatni uyg'unlashtirish**: Sportchilar uchun jismoniy va aqliy mashg'ulotlar o'rtasida muvozanatni topish, bu esa kognitiv faoliyatni yaxshilashga yordam beradi.

Fikrlarimizga umumiy xulosa sifatida shuni ta'kidlashimiz joizki, kognitiv yondashuv asosida bo'lajak sportchilarning til o'rganish mahoratini rivojlantirishda muammolar mavjud bo'lishi mumkin, ammo to'g'ri strategiyalar va yondashuvlar yordamida bu muammolarni bartaraf etish mumkin. Sportchilar uchun o'z vaqtini samarali tashkil etish va motivatsiya yaratish, shuningdek, o'rganish jarayonini qiziqarli va interaktiv qilish kerak. Bu yondashuvlar sportchilarning til o'rganish mahoratini sezilarli darajada yaxshilashga yordam beradi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi, Xalq so‘zi, 29.12.2020 yil
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini 7 yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni
3. Фахрутдинова Д. Р. Системно-сопоставительное исследование терминолексики войсковой противовоздушной обороны английского и русского языков: дис. ... канд. филол. наук. Казань, 1999.С.123
4. Реформатский А. А. О сопоставительном методе // Русский язык в национальной школе №5. М., 1962. С. 26.
5. Арнольд И. В. Лексикология современного английского языка. М.: Высшая школа, 1986.С.211
6. Мусаев К.М. Формирование, развитие и современнме проблемм терминологии. - М .: Наука, 1986. -С.163
7. Абдурахмонов Ў., Мамажонов С. Ўзбек тили ва адабиёти.-Т.: Ўзбекистон, 2002.-Б. 84-85.
8. Кобрин Р. Ю. О принципах терминологической работы при создании тезаурусов для информационно-поисковых систем. // НТИ, сер. 2, №6. М., 1979. С. 1–3.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA SPORT KLUBLARINI TASHKIL ETIS VA UNING FAOLIYATINI SAMARALI YO'LGA QO'YISH MASALALARI

Isoev A.A.
O'ZDJTSU Sport klubi mutaxassisi

Yurtimizda jismoniy tarbiya va sportga davlat siyosati miqyosida e'tibor qaratilishi, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 4 sentabrdagi «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi 394-sonli Qonuni (yangi tahrir), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 19 iyuldagi voleybol sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-247-sonli, 2024 yil 23 sentabrdagi "Xokkey sport turini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-334-sonli, 2024 yil 4 noyabrdagi "O'q otish sport turlarini yanada rivojlantirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-381-sonli, 2024 yil 4 noyabrdagi "Suv sporti turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-382-sonli, 2024 yil 4 dekabrdagi "Jamoaviy sport turlarini rivojlantirish va i qtidorli yoshlarni saralab olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-421-son qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-iyuldagi "Davlat ta'lim muassasalari huzurida sport klublarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 542-sonli qarorlarining ijrosini ta'minlash xususan, jismoniy tarbiya va sport sohasida ya'niy, Oliy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan ustuvor vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasasi Sport klubining asosiy maqsadi: universitet talabalari, professor-o'qituvchilari, magistrantlari, ilmiy xodim-izlanuvchilari, ishchi-xizmatchilar va pedagog murabbiylarini ayniqsa yoshlarni sport bilan shug'ullanishga jalb qilish, ular uchun zarur shart sharoitlar yaratish. universitet talabalari va o'qituvchilari xamda ularning oila a'zolari uchun jismoniy tarbiya va sport sog'lomlashtirish ishlarini tashkil etish, ommaviy jismoniy tarbiya va sport-sog'lomlashtirish tadbirlariga jalb qilish orqali ularning salomatligini mustahkamlash, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, talabalarni sport musobaqalarga keng jalb etish.

Oliy ta'lim muassasalari Sport klubi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2018-yil 16-iyuldagi "Davlat ta'lim muassasalari huzurida sport klublarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 542-sonli qaroriga asosan,** O'zbekiston talabalar sport assotsiatsiyasining Ijroiya qo'mitasining qarori va Adliya boshqarmasi tomonidan ruyxatga olinnadi sung O'zbekiston talabalar sport Assotsiatsiyasining Oliy ta'lim muassasasi Sport klubi tashkil etiladi.

Oliy ta’lim muassasasii Sport klubi O‘zbekiston talabalar sport Assotsiatsiyaning quyi bo‘limi xisoblanib, Assotsiatsiyaning Ustavi, Ijroiya qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan Nizomlar, yo‘riqnomalar va qarorlar asosida tartibga solib boriladi.

Oliy ta’lim muassasasi Sport klubi o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi, “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi va “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonunlar, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatlarini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar hamda mazkur Nizom asosida amalga oshiradi.

Oliy ta’lim muassasasi Sport klubi yuridik shaxs sifatida o‘z mulkiga, alohida balansiga, o‘z nomi aks etilgan muhr va shtamplarga hamda belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan bankda o‘z milliy va valyuta hisob raqamlariga hamda boshqa o‘z faoliyatiga zarur bo‘lgan rasmiy belgilari va rekvizitlarga ega bo‘lish huquqiga ega shuningdek, nodavlat, notijorat tashkilot bo‘lib, yuqori turuvchi organi O‘zbekiston talabalar sporti Assotsiyatsiyasi Ijroiya Qo‘mitasi hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasasi Sport klubi o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi oliy ta’lim muassasida amalga oshiradi. Har oy Davlat soliq inspeksiyasi, har chorak Adliya boshqarmasiga va Ijroiya qo‘mitaga, 1 yilda bir marotaba universitet kengash yig‘ilishida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot berib boradi.

Oliy ta’lim muassasasi sport inshootlari quvvatidan to‘liq va samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish, jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish, talabalarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishlari uchun sport inshootlari, sport zallarida talabalar bilan o‘tkaziladigan sport tadbirlari va musobaqalar ko‘lamini kengaytirish qolaversa, ommaviy sportni umumxalq harakatiga aylantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Shu munosabat Oliy ta’lim muassasasi “Talaba” sog‘lomlashtirish sport klubi faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali uni amalga oshirish, sport inshootlari quvvatidan to‘liq va yanada samarali foydalanish, iqtidorli sportchilarni saralash va seleksiya ishlarini yaxshilash hamda moliyaviy mablag‘larni shakllantirish va sarflashning samarali shakli va tartibidan foydalanish, ularni amalda joriy etishni oshirish ayniqsa muhimdir.

Shu bilan birga Oliy ta’lim muassasasida jismoniy madaniyat va sport kafedralarining tanqdiy tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, jismoniy tarbiya fani bo‘yicha professor-o‘qituvchilar tomonidan o‘z oldiga qo‘yilgan keng ko‘lamli masalalarning to‘liq ijrosi ta’minlanmagan, ayniqsa sport inshootlari quvvatidan to‘liq samarali

foydalanish, iqtidorli sportchilarni saralash va seleksiya ishlarini yaxshilash, hamda aholiga pulli xizmatlar ko'rsatish ishlari yetarli darajada olib borilmayapti.

Natijada Oliy ta'lim muassasasi Sport majmualarida o'quvchi-yoshlarni sog'lomlashtirish va muntazam sport bilan shug'ullanishlari uchun sport seksiyalarini tashkil etish, o'quvchi-yoshlar va talabalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun sport majmualari, ta'lim muassasalari sport zallarida ular bilan o'tkaziladigan sport tadbirlari va musobaqalar ko'lami yetarli darajada o'tkazilmay kelinmoqda.

Yuzaga kelayotgan salbiy holatlarni bartaraf etish uchun Oliy ta'lim muassasalari sport inshootlari quvvatidan to'liq samarali foydalanish maqsadida, "Talaba" sog'lomlashtirish sport klubi faoliyati to'liqligicha yoki yaxshi yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bu o'z navbatida, Oliy ta'lim muassasalarini sport majmualarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash va mustahkamlashga, bevosita jismoniy tarbiya va sport rivojlantirishga, aholiga pullik jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish xizmatlari ko'rsatishdan tushadigan mablag'larini topishga hamda moliyalashtirish manbalarini izlab topishga olib keladi.

Yuqorida qayd etilgan yutuqlar bilan birga ayrim muammolarni bartaraf etish, Oliy ta'lim muassasasi Sport klubi faoliyatini samarali yo'lga qo'yish va boshqarish bilan bog'liq quyidagilarni joriy etishni tavsiya etamiz:

Sport klubi darsdan tashqari sport to'garaklari (seksiya) hamda quyidagi sport musobaqalarida talabalarni ommaviy ravishda ishtirokini ta'minlash uchun **sport klublarini moliyalashtirish tizimini joriy etish: 18 ta** sport turi bo'yicha *(futbol, voleybol, basketbol, gandbol, tennis, stol tennisi, suzish, boks, taekvondo, qilichbozlik, og'ir atletika, yengil atletika, kurash, sambo, dzyudo, belbog'li kurash, gimnastika, badiiy gimnastika)* **"Universitet rektor kubogi"** musobaqalari; Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida **"Universiada", "Talaba ligasi", "Besh tashabbus olimpiadasi", Talaba — yugur"** sport musobaqalarini 3-bosqichda o'tkazishda (1-bosqich — ta'lim muassasasi miqyosida; 2-bosqich — hududlar miqyosida; 3-bosqich — respublika miqyosida (final) sport musobaqalarini samarali va uni tizimli ravishda o'tkazishni yo'lga qo'yish;

-talabalarni darsdan keyin bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish bo'yicha sport seksiya va to'garaklarini samarali ishlashi uchun trenerlarni mehnatiga haq to'llash;

-talabalar orasida yosh iqtidorli sportchilarni saralab olish seleksiya) ishlarini tizimli yo'lga qo'yish;

-sport turlari bo'yicha terma jamoalar va zahira jamoalarni shakllantirish.

- sport klub faoliyatini samarali yuritish, talabalarni sport to‘garaklari va seksilariga ko‘proq jalb etish, ularni sport musobaqalaridagi ishtirokini munosib rag‘batlantirish.

- sport klublarning moliyaviy manbasi sifatida har yili talabalar to‘lov kontrakt pullaridan tushadigan mablag‘larning **10 foizini** yo‘naltirish;

-sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari taqvim rejasiga muvofiq, har bir sport turlari bo‘yicha universitet, respublika va xalqaro turnirlarga qatnashish uchun sport musobaqalari, o‘quv-yig‘in mashg‘ulotlarini doimiy o‘tkazib borish va moliyalashtirish.

- universitet terma jamoa sportchilarini sport turlari bo‘yicha musobaqalarda ishtirok etishlari sport kiyimi (ekipirovka) bilan ta’minlashni moliyalashtirish.

Oliy ta’lim muassasasi sport inshootini mavjud sport zallari, sport maydonlari va suv havzasida pullik sport-sog‘lomlashtirish xizmatlarini yo‘lga qo‘yish orqali “Talaba” sog‘lomlashtirish sport klubini tashkil etish asosida budjetdan tashqari mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish, moddiy-texnik bazani kengaytirish hamda moliyaviy ta’minotni mustahkamlash imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2024 yil 4 dekabrdagi “**Jamoaviy sport turlarini rivojlantirish va iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-421-sonli qarorining 5 bandida belgilangan vazifalarni ijrosini ta’minlash maqsadida,** 2025/2026 o‘quv yilidan boshlab, universitetida voleybol, basketbol, gandbol, regbi, chim ustida xokkey, suv polosi jamoaviy sport turlari bo‘yicha kamida uchta jamoaviy sport turlari bo‘yicha sport klublari faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-392-sonli qarori. “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o‘qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. Toshkent sh.,2024-yil 15-noyabr.
2. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa.//Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2015. – 376 b.
3. Pedagogika. Ensiklopediya. III jild. jamoa // Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 400 b.
4.Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику: учеб. пособие / 4-е изд. М: Флинта: Наука, 2008. 293 с.
5. Сергеев С.Ф. Когнитивная педагогика: пользовательские свойства инструментов познания // Образовательные технологии. 2012. №4. С. 69–78.

TIL BILISH KO'NIKMALARINI XALQARO TIZIMLAR ASOSIDA BAHOLASH ASOSLARI

Ergasheva Gulruxsor Nurmatzod,
Guliston davlat universiteti doktoranti, Renessans ta'lim universiteti dotsenti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada til bilish ko'nikmalarini xalqaro tizimlar asosida baholashning asosiy prinsiplari va metodologiyalari ko'rib chiqilgan. Tilni o'rganish va o'rgatish jarayonida global miqyosda qo'llaniladigan CEFR, IELTS, TOEFL va DELF/DALF va boshqa tizimlar muhokama qilingan. Ushbu tizimlar til bilish darajasini aniq o'lchash va tasniflashda qanday ishlatilishini ko'rib chiqish orqali, o'quvchilarning til ko'nikmalarini qanday baholash kerakligi haqida batafsil ma'lumot beradi. Xalqaro baholash tizimlarining tilni amaliyotda qo'llashdagi ahamiyati va o'rganuvchilarga yanada aniq va samarali baholash asoslari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Til bilish ko'nikmalari, xalqaro tizimlar, CEFR (Common European Framework of Reference for Languages), IELTS (International English Language Testing System), TOEFL (Test of English as a Foreign Language), DELF/DALF (Diplôme d'Études en Langue Française), tilni baholash metodologiyalari,madaniyatlararo aloqalar, texnologiyalar.

Hozirgi global dunyoda til bilish ko'nikmalarini baholash xalqaro tizimlar asosida nafaqat o'quvchilarning til o'rgatish jarayonidagi muvaffaqiyatlarini aniqlash, balki madaniyatlararo aloqalar va professional sohalarda samarali muloqot qilish imkoniyatlarini yaratishda ham muhim o'rin tutadi. Ko'plab yirik xalqaro til baholash tizimlari tilni o'rganish jarayonini standartlashtiradi va talabalarni ularning amaliy til ko'nikmalari bo'yicha baholaydi. Ushbu maqolada, til bilish ko'nikmalarini xalqaro tizimlar asosida baholashning asosiy prinsiplarini, yondashuvlarni va metodologiyalarni ko'rib chiqamiz.

Xalqaro til baholash tizimlari til o'rgatish va o'quvchilarning til ko'nikmalarini aniq baholashda muhim vositalardan hisoblanadi. Ushbu tizimlar orqali tilni bilish darajasi butun dunyoda standartlashtirilgan shaklda o'lchanadi. Quyida xalqaro miqyosdan tan olingan til bilish tizimlari (sertifikatlari)ning ayrimlarini tahlilga tortamiz:

CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) CEFR tizimi Yevropada til bilish darajasini baholash va tasniflash uchun qabul qilingan xalqaro standarti hisoblanadi. Bu tizim Kembrij universiteti tomonidan

ishlab chiqilgan bo'lib, A,B, C darajalarga bo'lingan: **A1, A2** (boshlang'ich darajalar), **B1, B2** (o'rta darajalar), va **C1, C2** (yuqori darajalar). CEFR, tilni o'rganish va o'rgatish jarayonida o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini (tushunish, yozish, o'qish, gapirish) aniq va obyektiv ravishda baholaydi. Bu tizim, nafaqat Yevropada, balki dunyoning ko'plab mamlakatlarida ham qo'llaniladi va o'quvchilarga ularning til ko'nikmalarini global miqyosda solishtirish imkonini beradi. Quyidagi jadvalda CEFR tizimi haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

1-jadval[34]



IELTS (International English Language Testing System)

IELTS — bu ingliz tilini bilish darajasini baholash uchun xalqaro miqyosda tan olingan testdir. IELTS testining ikki turini ajratish mumkin: **Academic** (akademik soha uchun) va **General Training** (umumiy trening). Test ingliz tilining to'rt asosiy ko'nikmasi: **Listening**, **Reading**, **Writing**, va **Speaking** bo'yicha baholashni ta'minlaydi. Test natijalari 9 ballik tizimda o'lchanadi, bu esa o'quvchilarga o'z til ko'nikmalarini yanada aniqroq tushunishga yordam beradi.

c) TOEFL (Test of English as a Foreign Language) TOEFL, ingliz tilini o'rganayotganlar uchun, asosan akademik muhitda qo'llaniladigan xalqaro testdir.

[34] International language standards | Cambridge English

TOEFL testida ham **Listening**, **Reading**, **Speaking**, va **Writing** kabi ko'nikmalar baholanadi. Test natijalari o'quvchining ingliz tilida qanday darajada ifodalanish va tushunish qobiliyatiga e'tibor qaratadi. Bu test, ayniqsa, universitetlarga kirish imtihonlarida keng qo'llaniladi.

DELF/DALF (Diplôme d'Études en Langue Française / Diplôme Approfondi de Langue Française)

Fransuz tilini bilish darajasini baholashda DELF va DALF sertifikatlari keng tarqalgan. Bu tizimda ham til ko'nikmalari 6 darajaga ajratiladi (A1, A2, B1, B2, C1, C2), va har bir daraja tilni o'rganishdagi muayyan yutuqlarni aks ettiradi. DELF/DALF tizimi, fransuz tilini o'rganayotganlar uchun yuqori sifatli va jahon miqyosida tan olingan baholash tizimidir.

HSK – (Hànyǔ Shuǐpíng Kǎoshì – 汉语水平考试) Xitoy tili(mandarin) bo'yicha chet tillarda so'zlashuvchi shaxslarning malakasini baholash uchun mo'ljallangan standartlashtirilgan imtihondir.bu sertifikat chet elliklar uchun Xitoyda ta'lim olish imkoniyati eshiklarini ochishga xizmat qiladi. Bunda asosan 4 ta ko'nikma baholanadi: tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish. Bu imtihon 6 ta darajaga ega. "1-daraja eng asosiy, 6-daraja esa eng rivojlangan daraja hisoblanadi. Har bir daraja lug'at, grammatika va gap tuzilmalari bo'yicha turli talablarni qo'yadi"[35]. Quyidagi grafikda HSK darajalari va unga qo'yilgan so'z talablari aks etgan.

2-grafik [36]



Goethe Zertifikat – xorijliklar uchun nemis tili bilimini baholashga mo'ljallangan sertifikat bo'lib, bu tizim ham CEFR, TOEFLga tayanadi. Farqli tomoni 6 ta darajaning har biri 2 qismga bo'lingan. Masalan A1 bolalar uchun , A1

[35] What Is HSK Test? Beginner's Guide to the HSK Exam
[36] What Is HSK Test? Beginner's Guide to the HSK Exam

kattalar uchun(16 yoshdan yuqorilar uchun. C darajani esa faqat 16 yoshdan kattalar topshirishlari mumkin. Bu sertifikat talabalar, tadqiqotchilar, chet ellik ishchilarga keng imkoniyatlar yaratib beradi. Bu imtihonning talabalar uchun TEST –DAF, professionallar uchun GOETHE TEST PRO yo'nalishlari ham mavjud.

Xalqaro baholash tizimlari, nafaqat tilning grammatik tomonlarini, balki uning real hayotdagi, madaniyatlararo aloqalarda va professional muhitda qanday qo'llanilishini ham baholaydi. Masalan, **TOEFL** va **IELTS** testlari ingliz tilining nafaqat grammatikasi, balki so'zlashuv madaniyati va amaliy qo'llanilishini ham e'tiborga oladi. Bu tilni o'rganishda o'quvchilarning madaniyatlararo muloqotdagi ko'nikmalarini ham o'lchaydi. Xalqaro tizimlar, tilni o'rgatishda kommunikativ yondoshuvni qo'llaydi, bu esa tilni amaliy va real muhitda samarali qo'llash imkoniyatini yaratadi. Masalan, **CEFR** tizimi tilni o'rganishning faqat grammatika asosida emas, balki uning real hayotdagi amaliyotlari asosida baholashni ta'minlaydi.

Xalqaro tan olingan sertifikatlar butun dunyoda nafaqat o'quvchilarga, balki ish beruvchilarga ham til ko'nikmalarini baholashda aniq va obyktiv natijalarni taqdim etadi.

XULOSA

Til bilish ko'nikmalarini xalqaro tizimlar asosida baholash, tilni o'rgatishda muhim ahamiyatga ega. Xalqaro tizimlar yordamida olingan baholar, tilni o'rgatish va o'rganish jarayonlarini yanada samarali va aniq qiladi. Imrad talablari doirasida amalga oshirilgan baholash esa, tilni amaliyotda qo'llash qobiliyatini, madaniyatlararo aloqalarni va tilning real hayotdagi qo'llanilishini o'lchashda muhim vosita hisoblanadi. Bu tizimlar, o'quvchilarga o'z til ko'nikmalarini baholashda yuqori darajadagi aniqlik, adolat va global miqyosda tan olish imkoniyatlarini taqdim etadi.

REFERENCES

1. **Council of Europe.** *(2001). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Cambridge University Press.*
2. **IELTS Official Guide.** *(2021). International English Language Testing System. Cambridge University Press.*
3. **Educational Testing Service (ETS).** *(2020). TOEFL iBT Test: Official Guide. Educational Testing Service.*
4. **CIEP (Centre International d'Études Pédagogiques).** *(2017). DELF-DALF: Diplôme d'Études en Langue Française / Diplôme Approfondi de Langue Française. CIEP.*

5. **Bygate, M., Paribakht, T. S., Samimy, K. (Eds.).** (*2020*). *Advanced Language Learning: The Contribution of Halliday and Vygotsky*. Routledge.
6. **Bachman, L. F., Palmer, A. S.** *(2010). Language Assessment in Practice: Developing Language Assessments and Justifying Their Use*. Oxford University Press.
7. **Shohamy, E. (2001).** *The Power of Tests: A Critical Perspective on the Uses of Language Tests*. Longman.

KURASHCHILARINING TAKTIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH

Qayumov. SH.B.,
O‘zDJTSU MK-52-24 guruh talabasi
Ilmiy rahbar: **Hayitova Mohira Alimovna**

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada kurashchilarning taktik tayyorgarligini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Taktik tayyorgarlikning mazmuni va ahamiyati, sportchilarning raqibga moslashish qobiliyatini oshirish usullari va zamonaviy yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda kurashchilarning musobaqa jarayonida to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, strategik fikrlashni rivojlantirish hamda raqibning harakatlariga mos javob qaytarish metodikasi tahlil qilinadi. Shuningdek, taktik tayyorgarlikning samaradorligini oshirish uchun psixologik va texnik mashg‘ulotlarning integratsiyalashuvi muhimligi ta’kidlanadi. Maqola kurash sporti bo‘yicha mutaxassislar, murabbiylar va sportchilarga mo‘ljallangan bo‘lib, amaliy tavsiyalar bilan boyitilgan.

Kalit so‘zlar: Jismoniy tayyorgarlik, texnik-taktik tayyorgarlik, qarshi hujum harakatlari.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются вопросы развития тактической подготовки борцов. Рассмотрены содержание и значение тактической подготовки, методы совершенствования способности спортсменов адаптироваться к противнику, современные подходы. В исследовании анализируется методика формирования у борцов навыков принятия правильных решений во время соревнований, развития стратегического мышления и алекватного реагирования на действия соперника. Также подчеркивается важность интеграции психологической и технической подготовки для повышения эффективности тактической подготовки. Статья предназначена для специалистов борцовского спорта, тренеров и спортсменов

Ключевые слова: Физическая подготовка, технико-тактическая подготовка, контратакующие действия.

Abstract This article analyzes the issues of developing tactical training of wrestlers. The content and importance of tactical training, methods of increasing the ability of athletes to adapt to the opponent, and modern approaches are considered.

The study analyzes the methods of forming the skills of wrestlers to make the right decisions during the competition, developing strategic thinking, and responding appropriately to the opponent's actions. It also emphasizes the importance of integrating psychological and technical training to increase the effectiveness of tactical training. The article is intended for wrestling specialists, coaches, and athletes and is enriched with practical recommendations.

Keywords: Physical training, technical and tactical training, counterattacks.

Dolzarbligi. Yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish maqsadida qabul qilinayotgan Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, mamlakatimizda ko'pdan-ko'p xalqaro miqyosdagi musobaqalarning tez–tez o'tkazilishi, o'zbek sportchilarining Osiyo, jahon va Olimpiya o'yinlari musobaqalarida yuksak natijalarga erishishi mustaqil yurtimiz shuhratini jahon hamjamiyati oldida tarannum etmoqda. Bungako'rakurashining "Barkamolavlod", "Umidnihollari", "Universiada" sport musobaqalaridasturigakiritilishi ham bungabirmisolbo'laoladi. Barkamol avlodni sog'lom qilib tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sportning o'rnini hisobga olib sport ishlarini yanada takomillashtirish, uning o'quv va moddiy-texnik bazasini zamon talablari darajasiga hamda aholining sportga bo'lgan qiziqishini oshirish yo'lida davlat miqyosidagi maqsadli tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda. Bunda texnik-taktik mahorat deganda yuqori toifadagi turli kurashchilarga xos bo'lgan harakatlarni bajarishning asosiy qonuniyatlari, tamoyillari tushuniladi.

Tadqiqotning maqsadi: bir yillik tayyorgarlik jarayonida musobaqa faoliyati ko'rsatkichlarini e'tiborga olgan holda, kurashchilarni taktik tayyorgarliklarini rivojlantirish usulini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti va predmeti: kurashchilarning mashg'ulot jarayonlari va musobaqa faoliyati tuzilishi.

Tadqiqot natijalari va ular muhokamasi: kurashchilarning taktik tayyorgarliklarini tekshirish uchun bir qator pedagogik tajribalar amalga oshirildi. Tadqiqot kurashchilarni mashg'ulot jarayonida taktik hujumlarni o'rganish, bajarish va ularni mustahkamlab olish usullariga o'rgatish uchun ajratilgan soatlar hajmi doirasida 45% gacha oshirish, shuningdek, musobaqa faoliyati xususiyatlarini aniqlashtirishga qaratilgan. Taxminlarning to'g'riligini tajribalar asosida tekshirishda 19 dan 20 yoshgacha bo'lgan kurashchilar tanlab olindi.

Tadqiqot ishtrokchilari – kurashchilar ikki guruhga bo'linishdi, 1–guruh nazorat guruhi (10 kishi) bo'lib ushbu guruh tarkibiga kiruvchilar 2024-yilning 15

sentyabr kuni, yuqorida qayd etilgan nazorat sinov mashqlari yordamida tekshiruvdan o‘tkazildi hamda kuzatuvning birinchi kunidan boshlab mashg‘ulotlarda ishtirok etishni davom etishdi. 2- guruh pedagogik Tadqiqot guruhi (10 kishi) – bo‘lib u ham 1-guruh bilan yonma – yon nazoratdan o‘tkazildi. Tadqiqot guruhida 2 oy davomida (2024 -yil 15- sentyabr oyidan shu yilning 30 noyabr kuniga qadar) taktik tayyorgarliklarini shakllantirish maqsadida yo‘naltirilgan vositalar qo‘llanildi. Mashg‘ulotlarning tayyorgarlik qismidagi (kurashchining maxsus mashqlari bilan birgalikda) mashqlar: yugurish, URM (turgan joyda bajarish va yurib bajarish), MRM (ko‘prik holatida yurish va aylanib yugurish, oyoq paylarini cho‘zish va yelkalarni qizdirish). Tadqiqot davomida 2-guruhga ham kurashning boshqa turlaridan usullar o‘rgatdik, ushlashlar, qo‘l va oyoq harakatlarini o‘rgatib bordik.

Nazorat va tadqiqot guruhlaridan tadqiqot boshida olingan test natijalari

1-jadval

№	Nazorattestlari	naz	gur		Tadq	Gur	ux
		X̄	σ	V%	X̄	Σ	V%
1	3x10 metrmasofaga Mokisimonyugurish	10.6	0.3	2.83%	10.6	0.4	3.77%
2	Beldanoshiribtashlash (10soniya)	5.5	0.5	9.09%	5.5	0.5	9.09%
3	Yelkadanoshiribtashlash (10soniya)	5.5	0.5	9.09%	5.4	0.6	11.11%
4	Turnikdatortilish	11.9	0.7	5.88%	11.8	1.4	11.86%

Tadqiqot oxiriga kelib o‘rgatilgan usullar: 4 xil ushlash usullari, qo‘lga xarakatlari bo‘yicha 4 xil usuli. oyoq harakatlari bo‘yicha 4 xil usuli. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki,guruh o‘rgatilgan usullarni juda tez o‘rganib oldi va boshqa sheriklariga ham o‘rgatishga ulgurdi, 1–guruh o‘z mashg‘ulotlarida o‘rgangan usullarini takrorlab. o‘z malakasini oshirar edi.

O‘zDJTSU kurashchilarni mashg‘ulotlarida bellashuv vaqtida 1 guruh vakillarida o‘zgarish sezilmadi. lekin 2–guruh vakillarida ayrim holatlarda tadqiqotda o‘rgatilgan hujum holatida va ushlash holatlari va qarshi usullarida qo‘l bilan bajariladigan va oyoq bilan bajariladigan usul element harakatlari ishlatilganligiga guvoh bo‘ldik.

Demak, *2* – guruh vakillari hujum qilishda, kurash usullarini elementlaridan foydalanishdi, ya’ni o‘zlari yaratgan taktik harakatni shu elementlar bilan shakllantirganlar.

№	Nazorat testlari	Naz orat	Guruх	tst	P	Tadq	Guruх	tst	P

		$\bar{X}$	Σ	V%			$\bar{X}$	σ	V%		
1	3x10 metr masofaga Moksimon yugurish.	10.1	0.2	1.98%	1.33	≤0.2	9.9	0.5	5.05 %	3.5	<0.00 1
2	Beldan oshirib tashlash(10 soniya).	5.8	0.8	13.70 %	1.5	≤0.1	6.6	0.8	12.1 %	5.5	<0.00 1
3	Yelkadan oshirib tashlash(10 soniya).	5.8	0.8	13.79 %	1.5	≤0.1	6.6	0.8	12.1 %	4	<0.00 1
4	Turnikda tortilish	14.6	0.5	3.42%	10	≤0.0 01	15.2	1.2	7.89 %	8.8	<0.00 1

Tadqiqot natijalari: 2 oy davom etgan tadqiqot natijalariga ko'ra, nazorat guruhining taktik tayyorgarlik darajasi va ular tuzgan usullar ketma-ketligida sezilarli o'zgarish kuzatilmadi. Tadqiqot guruhida usullar ketma-ketligida sambo kurashi harakatlaridagi ayrim elementlarni kuzatdik, bu – ularga musobaqada raqibni chalg'itish va raqibga noqulaylik tug'dirdi. Nazorat guruhining taktik tayyorgarlik darajasi 2,5% dan 3,5% ga oshgan bo'lsada, tadqiqot guruhida bu ko'rsatkich 2,5% dan 5,8% ga oshdi. Bu foizlar kurashchilar musobaqada ishlatgan taktik hujumlari asosida tuzib chiqildi.

Nazorat va tadqiqot guruhlaridan tadqiqot boshida olingan test natijalari
2-jadval.

Xulosa.

Ikki xil sport kurash turlari bilan shug'ullangan sportchilar asosiy sport turlarida taktik harakatlarni tuzishda albatta ikkinchi sport turlaridagi ma'lum bir usullardan yoki elementlardan foydalanib turishi ma'lum bo'ldi, bu esa taktik hujumni yanada kuchaytirib yubordi. Yakkakurash sport turlari bilan shug'ullangan sportchilar, boshqa kurash turlaridan xabardor bo'lishsa, taktik hujum harakatlarini shakllantirishini oshirib borar ekan.

Kurash bilan shug'ullanuvchi sportchilarga, boshqa kurash turi usullarini ham o'rgatish ularni taktik tayyorgarligini kuchaytirib borishini isbod qildi. Shu qatorda

kurashchilarning jismoniy sifatlaridan kuch va chaqqonliklari bilan birga ularni texnikalari ham oshib bordi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти Ислом Каримовнинг 2015 йил 5 сентябрда қабул қилинган “Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисидаги” янги таҳрирдаги Қонуни .“Спорт” газетаси, 23.09.2015 й.
2. Tastanov N.A. – Yunon-rim kurashi nazariyasi va uslubiyati Toshkent 2015 y
3. Юсупов К. – Кураш халқаро қоидалари, техникаси ва тактикаси. Тошкент 2005 й.
4. Bayturayev E.I. – Sambo kurashi nazariyasi va uslubiyati. Toshkent 2016 -y.

BADIIY VA SPORT GIMNASTIKASI SPORTIDAGI ATAMALARNING KOGNITIV XUSUSIYATLARI

Mahliyo Isroilxon qizi Nurxonova
O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va
sport universiteti BG-51-24 guruh talabasi
maxliyo0620@gmail.gom
Ilmiy rahbar: **Ismailov Jahongir Jaloliddinovich**

ANNOTATSIYA

Badiiy va sport gimnastikasi sportidagi atamalarning kognitiv hususiyatlari mavzusi, sport gimnastikasi atamalarining inson ongida qanday shakllanishini va ularga qanday kognitiv jarayonlar ta'sir qilishi bilan bog'liqdir. Badiiy gimnastikada harakatlar, texnikalar, va strategiyalar haqida gapirganda, sportchilar va trenerlar orasida tushuncha va muloqotning ahamiyati katta. Bu atamalar nafaqat fizika va biologiya tamoyillariga asoslanadi, balki psixologik va neyrokognitiv jarayonlar bilan ham bog'liq. Mavzu, gimnastikadagi har bir atama va uning sportchilar ongida qanday ishlashi, ularning muvaffaqiyatini belgilovchi omil sifatida qanday rol o'ynashi haqida chuqur tahlil qilishni maqsad qiladi.

Kalit so'zlar: Badiiy gimnastika, sport gimnastikasi, kognitiv jarayonlar, atamalar, kognitiv hususiyatlar, harakat va texnikalar, sport psixologiyasi, neyrokognitiv jarayonlar, muloqot va tushuncha, sportchilarning ongini shakllantirish

АННОТАЦИЯ

Тема когнитивных особенностей терминов в спортивной спортивной гимнастике связана с тем, как термины спортивной гимнастики формируются в сознании человека и какие познавательные процессы на них влияют. Понимание и общение между спортсменами и тренерами имеют решающее значение, когда речь идет о движениях, техниках и стратегиях в художественной гимнастике. Эти термины основаны не только на принципах физики и биологии, но также связаны с психологическими и нейрокогнитивными процессами. Целью темы является предоставление углубленного анализа каждого термина в гимнастике, а также того, как он работает в сознании спортсменов и как он играет роль, определяющую их успех.

Ключевые слова: Художественная гимнастика, спортивная гимнастика, познавательные процессы, термины, когнитивные особенности, движения и приемы, спортивная психология, нейрокогнитивные процессы, общение и понимание, формирование психики спортсменов.

ABSTRACT

The topic of cognitive properties of terms in rhythmic and artistic gymnastics is related to how the terms of artistic gymnastics are formed in the human mind and what cognitive processes affect them. When talking about movements, techniques, and strategies in rhythmic gymnastics, the importance of understanding and communication between athletes and coaches is great. These terms are based not only on the principles of physics and biology, but are also related to psychological and neurocognitive processes. The topic aims to provide an in-depth analysis of each term in gymnastics and how it works in the minds of athletes, what role it plays as a determining factor in their success.

Keywords: Rhythmic gymnastics, artistic gymnastics, cognitive processes, terms, cognitive properties, movements and techniques, sports psychology, neurocognitive processes, communication and understanding, shaping the minds of athletes

Badiiy va sport gimnastikasi, ko'plab fizikal va aqliy kuchni talab qiladigan jismoniy faoliyatlar bo'lib, har bir harakatda aniq maqsadlar va texnik metodlar mavjud. Bu sohalarda qo'llaniladigan atamalar faqatgina fizikal ko'rsatkichlarni emas, balki kognitiv jarayonlarni ham o'z ichiga oladi. Kognitiv jarayonlar, ya'ni ma'lumotni qabul qilish, anglash, yodda saqlash, tahlil qilish va qaror qabul qilish kabi funksiyalar, gimnastlarning muvaffaqiyati uchun juda muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada badiiy va sport gimnastikasida ishlatiladigan atamalarning kognitiv hususiyatlari, ular gimnastlarning o'zini tutish, texnikani o'rganish, va musobaqalarda muvaffaqiyatli bo'lishdagi rolini tahlil qilamiz. Badiiy va sport gimnastikasining o'ziga xos jihatlari. Badiiy gimnastika va sport gimnastikasi o'rtasidagi farqlarni tushunish kognitiv jarayonlarning murakkabligini anglashda yordam beradi. Badiiy gimnastika estetik elementlarga katta ahamiyat beradi, har bir harakat musiqa, tasvir va xatti-harakatlarning muvofiqligini ta'minlashni talab qiladi. Sport gimnastikasi esa, ko'proq raqobatga asoslangan va texnik aniqko'rsatkichlarga bog'liq bo'lib, mashqlarni bajarishning aniq va qat'iy mezonlariga asoslanadi.

Gimnastikada qo'llaniladigan atamalarning kognitiv tarkibiy qismlari badiiy va sport gimnastikasining turli xususiyatlarini aks ettiradi. Masalan, badiiy

gimnastikadagi "balans" yoki "ko'rsatuv" kabi atamalar, nafaqat fizikal maqsadlarni, balki psixologik holatlarni ham ifodalaydi, chunki gimnastning ruhiy holati va ijrosi bir-biri bilan chambarchas bog'liq.

Kognitiv jarayonlar va atamalar

Gimnastika atamalarining kognitiv hususiyatlarini aniqlashda, bir nechta asosiy jarayonlarni ko'rib chiqish mumkin:

Diqqat: Gimnastika harakatlarini muvaffaqiyatli bajarish uchun diqqatning yuqori darajasi zarur. Masalan, sport gimnastikasida "salto", "fliyot", yoki "piramida" kabi atamalar, gimnastning har bir harakatga diqqatini jamlashni talab qiladi. Shu bilan birga, badiiy gimnastikada musiqa va harakatning uyg'unligi diqqatni yanada kuchaytiradi. Bu holatlarda, gimnastlarning bir nechta elementga (masalan, harakat va musiqa) bir vaqtning o'zida e'tibor berishlari zarur.

Eslash va yodda saqlash: Gimnastika atamalari ko'pincha murakkab va tez o'zgaruvchi bo'ladi. Har bir harakatning aniq tartibi, amalga oshirilishi va uni bajarishning turli bosqichlari bor. Bu atamalarni yodda saqlash va ularni aniq bajarish uchun gimnastlarga ko'plab kognitiv jarayonlar kerak bo'ladi. Masalan, "bilan" va "tuzilish" kabi atamalarni eslash va ularni vaqtida to'g'ri bajarish, sport gimnastikasi va badiiy gimnastikada muhim rol o'ynaydi.

Texnik ko'nikmalar va strategiya: Gimnastikada muvaffaqiyatga erishish uchun atamalarni to'g'ri tushunish va ularni amaliyotda qo'llay olish zarur. Misol uchun, "aylanma" yoki "fliq" kabi atamalarni anglash va bajarish uchun gimnastikaga oid aniq texnik ko'nikmalar kerak bo'ladi. Shu bilan birga, strategik o'ylash ham juda muhim. Gimnastlar o'z harakatlarini rejalashtirib, musobaqada qanday yondoshuvni tanlashlari kerak.

Muvofiqlik va uyushma: Badiiy gimnastikada "kompozitsiya", "balans" kabi atamalar harakatlarning muvofiqligini anglatadi. Bu atamalar gimnastlarning o'z harakatlarini estetik jihatdan to'g'ri va uyg'un bajarishlariga yordam beradi. Shuningdek, sport gimnastikasida ham atamalar orqali harakatlar to'liq va aniq bajarilishini ta'minlash uchun muvofiqlik talab etiladi.

Kognitiv yondoshuv va metodologiya:

Gimnastika atamalarining kognitiv yondoshuvda qanday metodlar qo'llanilishi mumkin? Yangi avlod gimnastlari uchun kognitiv psixologiya metodlari muhim ahamiyatga ega. Bu metodlar orasida:

Vizualizatsiya: Gimnastlar harakatni bajarishdan oldin, ularni miyaning tasavvurida amalga oshirib, ularning muvaffaqiyatli bajarilishini tasavvur qilishadi. Bu metod

kognitiv yondoshuvda muhim vosita bo'lib, harakatning osonroq va aniq bajarilishini ta'minlaydi.

Refleksiya: Har bir musobaqadan yoki mashqdan keyin gimnastlar o'z harakatlarini tahlil qiladilar. Bu jarayon kognitiv tahlil qilishni va xatoliklardan o'rganishni o'z ichiga oladi.

Tajribaviy o'rganish: Gimnastlar turli atamalarga asoslangan harakatlarni turli usullarda o'rganishadi. Bu jarayon ko'pincha "sinov va xatolik" asosida amalga oshiriladi, bu esa atamalarni va ularni bajarish usullarini tez va samarali o'rganishga yordam beradi. Kognitiv yondoshuv va metodologiya gimnastika va badiiy gimnastika atamalarini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega. Quyida ba'zi ilmiy misollar keltirilgan:

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida badiiy gimnastika elementlarini o'rgatish metodikasi: Mirazimova (2021) o'z maqolasida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida badiiy gimnastika elementlarini o'rgatish metodikasini tahlil qiladi. Muallif, yoshlarni badiiy gimnastika elementlariga o'rgatishda metodik yondoshuvlarni ko'rib chiqadi va bu jarayonda kognitiv metodlarning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Talabalarga gimnastika mashqlarini o'rgatish metodlari: Abatbaeva (2024) gimnastika mashqlarini o'rgatishda kognitiv yondoshuvlarni qo'llash usullarini o'rganadi. Ushbu maqolada kino, foto materiallar, rasmlar va namunaviy modellar orqali gimnastika atamalarini o'rgatish metodlari tahlil qilinadi.

Umumrivojlantiruvchi mashqlarni o'qitish metodikasi: Mengliyev (2023) umumrivojlantiruvchi gimnastika mashqlarini o'rgatish metodikasini ko'rib chiqadi. Muallif, mashqlarni o'rgatishda kognitiv metodlarni qo'llash orqali talabalar jismoniy tayyorgarligini oshirish mumkinligini ta'kidlaydi.

Gimnastika mashg'ulotlarini tashkil etishda o'rgatish metodlari: Islomov (2024) gimnastika mashg'ulotlarini tashkil etishda o'rgatish metodlarini tahlil qiladi. Maqolada har bir harakat tuzilishini va uni bajarish sharoitining xususiyatlarini baholash asosida metodlarni tanlash zarurligi ko'rsatilgan.

Badiiy va sport gimnastikasidagi atamalar nafaqat texnik, balki kognitiv jarayonlarni ham o'z ichiga oladi. Bu atamalarni anglash, eslab qolish, diqqatni jamlash va harakatlarni to'g'ri bajarish gimnastning muvaffaqiyatiga ta'sir qiladi. Kognitiv psixologiya metodlari va metodologiyalarining qo'llanilishi gimnastlarning atamalarni yanada yaxshi tushunishlariga va ularni amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llashlariga yordam beradi. Kognitiv yondoshuv, gimnastikada yuqori natijalarga

erishish uchun zarur bo'lgan psixologik va aqliy kuchlarni rivojlantirishga imkon yaratadi.

REFERENCES

1.***Ahmedova H.O. va Abduraxmanova L.M.*** *(2013).* Sport gimnastikasi va badiiy gimnastika atamalarining ruscha-o'zbekcha mavzuviy lug'ati. *Toshkent: Noshir.*

2.***Pirimova N.A.*** *(2022).* Badiiy gimnastikaning ta'lim va tarbiya jarayonidagi o'rni. *Navoi davlat pedagogika instituti.*

3.***Mirazimova M.*** *(2021).* Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida badiiy gimnastika elementlarini o'rgatish metodikasi. *Maktabgacha ta'lim jurnali, 3(3).*

4.***Botirova S.N.*** *(2024).* 5-7 yoshli qizlarda buyumlar bilan bajariladigan badiiy gimnastikada vositalari orqali koordinatsion qobiliyatni rivojlantirish. *Intellectual Education, Technological Solutions and Innovative Digital Tools, 3(25).*

5.***Morgunova M.N.*** *(2015).* Gimnastika. *O'quv qo'llanma. Toshkent: Universitet nashriyoti.*

6.***Eshtayeva V.B. va Hasanova N.R.*** *(2018).* Badiiy gimnastika. *Toshkent: ITA.*

7.***Abzalov P.A.*** *(1999).* Razmyshleniya o fizkul'turologii. *Teoriya i praktika fizicheskoj kul'tury, (8), 11-14.*

8.***Anisimov E.A. va Makarov A.A.*** *(1981).* Issledovanie funktsional'noj simmetrii kinesteticheskogo analizatora. *Teoriya i praktika fizicheskoj kul'tury, (12), 21-22.*

9.***Balabanova E.S.*** *(2004).* Metodika podgotovki yunyk gimnastok k vypolneniyu uprazhnenij s predmetami. *Sbornik nauchnykh rabot, VII(2), 308-311.*

10.***Balsevich V.K. va Zaporozhanov V.A.*** *(1987).* Fizicheskaya aktivnost' cheloveka. *Kiev: Zdorov'ye.*

CHALLENGES AND STRATEGIES TEACHING ENGLISH TO NON-NATIVE SPEAKERS

Munira Azizovna Berdikulova
an English teacher of department "Foreign languages- 2" University of Tashkent for Applied Sciences (UTAS), Street Gavhar-1 Tashkent 100149
e-mail:maftunaberdikulova99@gmail.com

Abstract

Teaching English as a second language (ESL) to non-native speakers presents a number of challenges. including linguistic barriers, cultural differences, and variations in the students' motivation and proficiency levels. This essay explores these problems in depth and offers practical answers that educators may implement. These strategies include individualized instruction, Communicative Language Teaching (CLT), and the use of technology in language education. The study also emphasizes the importance of culturally relevant instruction and methods for increasing student motivation. This study improves learners' overall performance and contributes to a more thorough understanding of the difficulties involved in teaching English to non-native speakers by analyzing theoretical and practical approaches.

Keywords: non-native speakers, linguistic barriers, cultural differences, proficiency levels, relevant, performance, theoretical, practical approaches.

Аннотация

Преподавание английского языка как второго языка (ESL) неносителям языка представляет собой ряд проблем, включая языковые барьеры, культурные различия и различия в мотивации и уровнях владения языком у студентов. В этом эссе эти проблемы подробно рассматриваются и предлагаются практические ответы, которые могут реализовать преподаватели. Эти стратегии включают индивидуальное обучение, коммуникативное обучение языку (CLT) и использование технологий в языковом образовании. Исследование также подчеркивает важность культурно-релевантного обучения и методов для повышения мотивации студентов. Это исследование улучшает общую успеваемость учащихся и способствует более глубокому пониманию трудностей, связанных с преподаванием английского языка неносителям языка, путем анализа теоретических и практических подходов.

Ключевые слова: неносители языка, языковые барьеры, культурные различия, уровни владения языком, релевантность, эффективность, теоретические и практические подходы.

Annotasiya

Ingliz tilini ona tili bo'lmaganlarga ikkinchi til (ESL) sifatida o'rgatish bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, jumladan, lingvistik to'siqlar, madaniy farqlar va talabalarning motivatsiyasi va malaka darajasidagi o'zgarishlar. Ushbu insho ushbu muammolarni chuqur o'rganadi va o'qituvchilar amalga oshirishi mumkin bo'lgan amaliy javoblarni taklif qiladi. Ushbu strategiyalar individuallashtirilgan ta'lim, kommunikativ tilni o'rgatish (CLT) va til ta'limida texnologiyadan foydalanishni o'z ichiga oladi. Tadqiqot shuningdek, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun madaniy ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim va usullarning muhimligini ta'kidlaydi. Ushbu tadqiqot o'quvchilarning umumiy faoliyatini yaxshilaydi va nazariy va amaliy yondashuvlarni tahlil qilish orqali ona tili bo'lmaganlarga ingliz tilini o'rgatishdagi qiyinchiliklarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: ona tili bo'lmaganlar, lingvistik to'siqlar, madaniy farqlar, malaka darajalari, tegishli, ishlash, nazariy, amaliy yondashuvlar.

Introduction

The primary reasons why teaching English to non-native speakers might be challenging are linguistic, cultural, and motivational limitations. Some teaching techniques are required to get past these barriers and encourage good language acquisition. Understanding these challenges is essential to developing comprehensive methods that meet kids' diverse needs. In an increasingly globalized world, proficiency in English has become crucial for communication, education, and career success. Since English is a universal language, it serves as a bridge for those wishing to pursue higher education, improved professional opportunities, and participation in international discourse. Social mobility and non-native speakers' access to resources can be significantly impacted by learning English. However, many non-native speakers still find it difficult to become competent in English despite the growing demand for English language training.

This essay looks at the primary challenges that come with teaching English to non-native speakers and the strategies that teachers might employ to get beyond them. The research examines effective teaching strategies such differentiated instruction, technological integration, and Communicative Language Teaching (CLT)

after discussing the linguistic, cultural, and motivational difficulties that students face. This study concludes with recommendations for educators on how to enhance the educational experience of non-native English speakers, emphasizing the importance of teaching with cultural awareness.

Language Difficulties Addressing the difficulties caused by the differences between the target language (L1) and English is sometimes a need in teaching non-native English speakers. English poses significant challenges for learners, particularly for those whose native tongues have different structures, due to its complex syntax, inconsistent pronunciation patterns, and unpredictable grammatical rules. For example, the significant discrepancies between the Subject-Verb-Object (SVO) sentence structure of English and other languages may cause misunderstanding regarding word order and syntax (Ellis, 2008). Because English contains a wide variety of phonemes that are absent from other languages, pronunciation is another major problem for learners.

L1 interference is the term for when learners apply patterns and norms from their native language to English, which typically results in chronic errors. For example, because English articles follow different grammatical rules, Spanish speakers could have trouble understanding them. These fossilized errors could hinder students' attempts to become fluent speakers if they are not fixed. According to Gass and Selinker (2008), L1 interference is one of the most common reasons why second language learning errors occur, and as a result, specialized intervention is required to prevent and correct such errors.

Cultural Barriers

Cultural factors may make teaching English to non-native speakers more difficult. Because language and culture are closely related, learners may find it difficult to understand idiomatic expressions, social customs, and pragmatic language use in English. For example, rather than actually asking someone how they're doing, it's customary in English to start a conversation with a simple query like "How are you?" Because of their own cultural standards of formality and politeness, non-native speakers may misunderstand such utterances. Cultural differences also affect classroom dynamics. Children from several cultures are raised with the belief that they should only answer to their teachers when requested to.

Western educational models, on the other hand, encourage active participation and group debates. Teachers must find ways to gradually expose students to the more complex aspects of learning English because it might be challenging for non-native speakers to adapt to these new requirements. According to Hofstede's theory of

cultural dimensions, pupils' approaches to learning are influenced by the power differential and the individualism/collectivism of other cultures. Teachers must therefore take cultural sensitivity into account while creating their lesson plans (Hofstede, 2001).

Diverse Learning Backgrounds

One of the main challenges in ESL classes is the diversity of student backgrounds. Different educational backgrounds, varying levels of proficiency in English, and unequal access to language learning resources are common among non-native speakers. Some students may have had official English instruction in their home countries, while others may have only come into contact with English through the media or infrequent social interactions. Children may display a wide range of talents in a single classroom as a result of this disparity, making it difficult for teachers to modify their lessons to meet the needs of each individual student.

Socioeconomic factors also affect students' access to English language training. Lack of access to resources such as English literature, individual tutoring, or language learning software may cause further inequalities for students from disadvantaged backgrounds. To ensure that every student receives the support they require and has an equal opportunity to become competent in English, teachers must be aware of these disparities and adapt their teaching strategies accordingly.

Motivational Challenges

Motivation is a key element in language learning. Non-native speakers may be motivated by a variety of factors, including professional goals, academic responsibilities, or the need to communicate with others in English-speaking environments. However, pupils' levels of drive can vary widely, and those who lack intrinsic motivation might find it challenging to engage in the learning process. According to Dörnyei and Ushioda (2011), there are two types of motivation for learning a language: intrinsic motivation, which comes from a person's own interest in the language, and extrinsic motivation, which is driven by external factors like scholastic success or job opportunities.

People with higher degrees of intrinsic drive tend to do better in ESL programs because they are more likely to persevere in the face of challenges. On the other hand, low-motivation students may experience discontent or disengagement, particularly if they find the material difficult or irrelevant to their goals. Teachers must be skilled at determining what drives each individual student and in creating a classroom environment that encourages regular language use.

Effective Strategies for Overcoming Challenges Differentiated Instruction

Differentiated education is one of the most crucial tactics for satisfying the diverse needs of ESL students. It involves adjusting teaching methods, materials, and assessment protocols to the different learning styles and skill levels found in the classroom. Differentiated teaching allows teachers to help students who may be struggling while simultaneously providing advanced students with tailored learning opportunities (Tomlinson, 2014). In the context of ESL, differentiation can take many different forms, such as modifying assignments based on students' language level, providing more scaffolding for less proficient students, or assigning extension exercises to more advanced learners. Grouping students according to ability is a helpful way to implement differentiated instruction for various tasks.

For example, in reading comprehension exercises, beginning students may focus on identifying basic terms, while advanced students might examine the book's topics or character development. By adapting their teaching to each student's level, teachers can ensure that every student is actively participating and progressing at a reasonable pace.

Teaching Communicative Languages (CLT)

Communicative Language Teaching (CLT), a student-centered approach, places a strong emphasis on using language for intentional communication. CLT emphasizes the useful application of language in real-world situations rather than only teaching vocabulary or grammar rules.

